

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA INSTITUTI

**“O'zbekiston tarixi va demokratik jamiyat qurish
nazariyasi va asoslari” kafedrası**

**“Siyosatshunoslik.O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish
nazariyasi va amaliyoti”
fanidan**

MA‘RUZALAR MATNI

(ijtimoiy bo'lmagan mutaxassislikdagi OO'YU talabalari uchun)

Tuzuvchilar: N.O.Rizaeva
SH.B.Jumaqulov

Toshkent – 2012

1-mavzu: Siyosatshunoslik fan sifatida. Siyosiy qarashlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi.

Reja:

- 1. Siyosatshunoslik fani, predmeti, maqsadi va vazifasi.**
- 2. SHarq va g'arbda siyosiy fikrlarning rivojlanishi.**
- 3. YAngi davr siyosiy konsepsiyalari va qarashlari.**

1.Siyosatshunoslik fani, predmeti, maqsadi va vazifasi.

Siyosat – insoniyatni va ilm-fanni qiziqtirib kelgan an'anaviy soha hisoblanadi. Uni nafaqat politologiya, balki boshqa fan sohalari, hususan, falsafa, sosiologiya, iqtisod, psixologiya, tarix, huquqshunoslik kabi fanlarni ham qiziqtirib kelgan va kelmoqda. Siyosatga, jamiyatning boshqa ijtimoiy hodisalari singari, umumiy va o'ziga hos jihatlari va xususiyatlar hosdir. Bu siyosatning murakkab va turli hil hodisalar bilan bog'liq bo'y ijtimoiy hodisa ekanligini ko'rsatadi. Ayni vaqtda shuni qayd etish lozimki, yuqorida qayd etilgan fanlar siyosat to'g'risida yaxlit tugal tasavvurni bermaydi. Qadimgi yunonistonda “polis” atamasi shaxar – davlatga nisbatan ishlatilgan. Politologiya insoniyat xayotida muhim o'rin tutadi hamda siyosatni, siyosiy xayot munosabatlari va jarayonlarini o'rganishda o'ziga hos xususiyati, maqsad va vazifalari borligi bilan farq qiladi. Siyosatshunoslik – siyosiy institutlar, siyosiy jarayonlar, siyosiy madaniyat, xalqaro tizimlar, ularning amal qilish mexanizmlari va vositalari hamda amaliyotini o'rganadigan fandir.

Siyosiy fanlar – politologiya, siyosiy falsafa, siyosiy iqtisod, xalqaro munosabatlarning siyosiy nazariyasi, geosiyosat, siyosiy tarix, siyosiy etika va siyosiy antropologiya hamda boshqa sohalarni o'z ichiga oladi.

Politologiya fanining **ob'ekti** – siyosat, jamiyatning siyosiy sohasidir. Politologiya fanining **predmeti** – siyosiy xokimiyat, uning vujudga kelishi amal qilishi va o'zgarish qonuniyatlarini tashkil qiladi.

Fanning uslublari – dialektikak, tizimlilik, tuzilmaviy-funksional, hulq-atvor, qiyosiy, konkret-tarixiylik, sosiologik, normativ, institusional, substansional (ontologik) uslublardan iborat.

Politologiyaning vazifasi uning predmeti va amaliy faoliyati bilan bevosita bog'liq. SHu nuqtai nazardan yondashganda, politologiya metodologik, nazariy va amaliy vazifalarni bajaradi. SHu o'rinda siyosatshunoslikning asosiy **vazifalari** qatoriga quyidagilar kiradi:

1. Siyosiy xodisalarni bilish;
2. Siyosiy tuzumni muassalarini hulq atvorini, voqealarni baholash;
3. Aholini siyosiy madaniyatini shakllantirish;
4. Siyosiy hulq atvorni tartibga solish;
5. Siyosiy xayotni mukammallashtirish;
6. Bashorat qilish;

Asosiy qonuniyatlar sirasiga quyidagilar kiradi:

- Davlatlar ichki siyosiy xayotida amal qiladigan qonuniyatlar;
- Xalqaro munosabatlarda amal qiladigan qonuniyatlar.

Politologiyaning vazifasi siyosat va siyosiy jarayonlarni tahlil qilish va tegishli hulosalarni chiqarishda, umumiy uslub, qonuniyatlarni amalga oshirishda namoyon bo'ladi.

2.SHarq va g'arbda siyosiy fikrlarning rivojlanishi.

Qadimgi sharq va g'arbda davlat, uni boshqarish san'ati xaqidagi siyosiy fikrlar paydo bo'lganiga ikki mingdan oshiq vaqt o'tgan. Siyosiy fikrlarning qadimgi sharq va g'arbda vujudga kelib shakllanishiga Konfusiy, Aflotun, Arasty, Demokrit, Siseron va boshqalar katta hissa qo'shishgan. Dastdabki siyosiy – huquqiy fikrlar barcha xalqlarda, qadimgi SHarqda ham, qadimgi G'arbda ham – afsona va rivoyatlar negizida shakllangan. Erdagi tartiblar umumbashariy, qoinot tartiblarining uzviy qismi va kelib chiqishi jihatidan – ilohiy zayilda shunday fikrlar uzoq davr SHarqda keyinchalik, G'arbda ham insonlar, ular o'rtasidagi munosabatlar, azaldan belgilanganiga asoslanib barqaror dunyoqarashlarini saqlab keldi. SHulardan eng muhimlarini ko'rib chiqamiz.

Konfusiy (mil.av.551–479 yillar) ta'limoti falsafiy va siyosiy –huquqiy fikr tarixida muhim rol o'ynagan Konfusiy – davlatning patriarxal – patrialistik konsepsiyasining rivojlantirgan. Uning ta'kidlashicha davlat – katta oiladir. Oila boshlig'i davlat imperatori hisoblangan.

Qadimgi g'arb olimlaridan Aflotun (mil av. 427-347 yillar) siyosat haqida qiziqarli fikrlarni bergan, hususan, uning davlat xokimiyati haqidagi ayrim qarashlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Aflotun davlat boshqaruvining uch turini ko'rsatadi:

- monarxiya – bir kishi xokimiyati.Qonuniy va noqonuniy (tiraniya) bo'lishi mumkin;
- demokratiya – hammaning xokimiyati, u ham qonuniy va noqonuniy bo'lishi mumkin;
- aristokratiya – ozchilik xokimiyati, barkamol yoki zo'rlik asosiga qurilgan bo'lishi mumkin.

“Davlat” dialogi va “qonunlar”ida Aflotun davlatning kelib chiqishini ijtimoiy ehtiyojga bog'laydi.

Arasty (mil. Av. 384 – 322 yillar), boshqaruviga ko'ra davlatlarning quyidagi turlarini ko'rsatadi:

- monarxiya, aksi – tirani;
- aristokratiya, aksi – oligarxiya;
- politiya, aksi – demokratiya.

Arasty insonni avvalambor ijtimoiy mavjudot sifatida baholaydi.

Arastning “Siyosat” asarida hozirgi siyosatshunoslikning qurtaklarini kuzatishimiz mumkin. Masalan uning ushbu asarida quyidagi savollari diqqatga loyiq: qaysi hokimiyat afzalroq; barkamol insonlar hokimiyatimi yoki barkamol qonunlar hokimiyatimi? XVII asrda bu savolga SH.L. Montesкье «barkamol qonunlar hokimiyati» deb javob bergan edi.Arastyning fikricha, haddan tashqari demokratiya ham buzilgan demokratiyadir.

O'rta asrlarda siyosiy qarashlar yanada rivojlandi. Masalan, sharq mutafakkirlari o'z qarashlarida ko'proq siyosatning ijtimoiy va axloqiy, ma'naviy qirralarini yoritganlar.

Ayniqsa, Abu Nasr Forobiy (873-950), o'zining «Fozil shahar aholisining qarashlari» asarida siyosatshunoslikning yuqorida aytib o'tilgan masalalariga katta e'tibor bergan. U davlatning kelib chiqishini odamlarning o'z ehtiyojlarini qondirishga bo'lgan istagi va harakatlari bilan bog'laydi. Davlatni yaxshi fazilatli, ma'rifatli hukmdor boshqarishi lozim. Davlatning zo'rovonlik va beboshlikka qurilishi qoralanadi. O'rta asrlarda Forobiy birinchilardan

bo'lib, jamiyat va ijtimoiy-siyosiy hayot tarkibini jiddiy o'rganish masalasini qo'ydi. Ijtimoiy hayotni o'rganish sohasida Forobiy bir qator masalalarni belgilab berdi. SHu bilan birga u ideal jamiyat tuzilishini, ya'ni fazilatli shahar aholisini quyidagi besh qismga bo'ladi:

- a) Faylasuflar – (fozil kishilar - munosibroq odamlar);
- b) notiqalar (shirinsuxan kishilar, mashshoq, shoir va yozuvchilar);
- v) o'lchovchi (mutaxassislar: hisobchi, hakam, muhandis);
- g) qo'riqchilar (jangchilar, posbon, huquq targ'ibotchilari);
- d) boylar (xo'jalik ishlari bilan shug'ullanuvchilar, chorvadorlar, savdogarlar).

SHarq mutafakkirlaridan Abu Rayhon Beruniy (973-1048) – tarixchi va qomusiy olim bo'lib, siyosat hususida qator fikrlari bilan taniqlidir. Uning «Hindiston» (1031), «Geodeziya», «Minerologiya», «YOdgorliklar» kabi asarlarida islomgacha bo'lgan davr madaniyati, ma'naviy hayotini aks ettirgan, zo'rlik, bosqinchilikni qoralagan. SHohlar va qonunlar inson uchun xizmat qilishi kerak, uni bosqinchilardan himoya qilishi lozim. Inson faqat o'zi uchun yashamasligi kerak, u umumbashariy borliq ekanligini eptirof etadi. «Davlatni boshqarish, – deydi Beruniy, – jabrlanuvchilar huquqini zo'ravonlardan himoya qilish, boshqariluvchi xalq tinchligini saqlash uchun o'z tinchligidan voz kechish demakdir». U adolatli hukmdorning asosiy vazifasi kuchli va kuchsizlar o'rtasida tenglik, yuqori va past darajadagilar orasida adolat o'rnatishdan iborat deb biladi.

Syosiy qarashlarning rivojlanish tarixida Ibn Sino(1037-1131)ning fikrlari ham muhim ahamiyatga egadir. Jahon madaniyatiga katta hissa qo'shgan qomusiy olim Avicenna (Ibn Sino) tufayli Evropa olimlari – Aristotel asarlarini o'rgana boshlashdi. Ibn Sinoning «Tib qonunlari» o'sha davrdayoq tezda lotin tiliga tarjima qilinib, hozirgacha Evropa, qator SHarq mamlakatlarida darslik sifatida foydalanilmoqda. SHuningdek, uning «Najot kitobi», «Donishmandlik kitobi», «Ishorat va tanbeh» asarlari muhim ahamiyatga ega. Siyosiy qarashlarida Ibn Sino ideal jamiyat aholisida kishilarni bajaradigan vazifasiga ko'ra uch tabaqaga bo'ladi:

- 1) boshqaruvchilar – ma'muriy ishlar bilan shug'ullanuvchilar;
- 2) mehnatkashlar – ishlab chiqaruvchilar;
- 3) harbiylar – jangchilar.

U moddiy tenglikni e'tirof etadi, lekin odamlarning boyib ketishlari tarafdori, hamma a'zolari uchun bir xil bo'lgan qonun o'rnatilgan jamiyatda adolatsizlik bo'lmaydi deb hisoblagan

Nizomulmulk (Abu Ali Hasan ibn al-Ishoq Nizomulmulk –1038-1102) – SHarq davlatshunosligining asoschilaridan biridir. U o'zining «Siyosatnoma» (yoki Siyar ul-mulk) asari bilan o'chmas iz qoldirgan. Eron shohlaridan Alp Arslon va keyinchalik Malikshoh Saljuq saltanatida 30 yilga yaqin bosh vazir bo'lib ishlagan. «Siyosatnoma» asarida shoh, qozi, vazir, navkarboshi, elchi, xazinabon, saroy amaldorlari, bosh qo'mondon, lashkarboshilar, devonbegi hamda boshqalarning vazifalari, hunarmandlar, savdogarlar, keng xalq ommasi bilan munosabat, qo'shin va qurol-yarog'ni saqlash, ulardan maqsadga muvofiq

foydalanish, fuqarolarning arz-dodini eshitish, soliqlarni tartibga solish, uning undirilishini nazorat qilish, mamlakat butunligi, davlatning adlu insofi, himmat, ehson, to'g'rilik, xayrixohlik, ma'rifatparvarlik, insonparvarlik, raiyatparvarlik haqida fikr yuritadi.

XIV asrda O'rta Osiyoda katta ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar ro'y berdi. Amir Temur (1336 – 1405) mo'g'illar xukmronligiga barham berib, buyuk temuriylar davlatiga asos soldi. U davlat boshqaruvida o'zidan avval o'tgan hukmdorlardan farq qilib, mamlakatni boshqarishda bir yoki ikki tabaqaga emas, balki aholining barcha tabaqalariga suvandi va el-yurtni o'z tasarrufida hamda itoatda tutish uchun 12 tuzuk tutdi. Ular: 1) sayyidlar; fozil kishilar; 2) ishning ko'zini biladigan donishmand kishilar; 3) xudojo'y, darvesh, qalandarlar; 4) no'yonlar; 5) sipoh va raiyat; 6) ishonchli kishilar; 7) vazirlar, sarkotiblar; 8) hokimlar, tabiblar; 9) tafsir va hadis olimlari; 10) ahli san'at; 11) so'fiylar; 12) tujjor (savdogar)lar.

O'rta Osiyolik buyuk mutafakkir Alisher Navoiy (1441-1501) ijodida bir qator siyosatga doir muhim fikrlarni uchratamiz. Navoiy xalqqa nisbatan adolatsizlik va yovuzlikni qoralaydi. Markazlashgan kuchli podsholik hokimiyatini yoqlab chiqadi. A. Navoiy siyosiy g'oyalarni «Saddi Iskandariy» dostonida asoslab bergan. Unda ijtimoiy adolatli tuzum g'oyasini adolatli shoh timsolida bayon qilgan. Navoiyning bu kabi ilg'or siyosiy qarashlari keyinchalik Boburning davlat faoliyatida va uning butun dunyoga mashhur «Boburnoma» asarida yanada boyitildi.

XVII–XX asrlarda siyosiy qarashlar yanada rivojlanib mazmun va mohiyati jihatidan mukammallashti. Hususan, “Uyg'onish davri”, uning g'oyalari insoniyat tarixida muhim iz qoldirdi. Inson muammosi birinchi masala sifatida qo'rila boshlandi. Uning qadr-qimmat, huquqlarini himoya qilish, munosib hayot yaratish g'oyalari aynan g'arb mamlakatlarida ularning davlatchiligi va siyosat sohasidagi amaliy izlanishlari davomida vaqt chig'irig'idan o'tib, real voqelikka aylandi. Ushbu davr siyosatchilari va olimlaridan Nikola Makiavelli (1469-1527) bergan fikrlari alohida e'tiborga loyiqdir. Ko'p yillar davlat ishlarida ishlagan. «Hukmdor», «Florensiya tarixi» asarlarini yozdi. Uning fikricha, «Davlatning o'zi inson bo'lib, unga xizmat qilishning o'zi ham inson hayotining asl maqsadi, tub mohiyati va ezgu baxt-saodatini ta'minlaydi». Uning siyosiy orzusi qadimgi Rim respublikasiga aynan to'g'ri keladigan davlat tizimini qaror toptirishdir. Makiavelli davlatning eng yaxshi bo'lgan **respublika** shaklini himoya qilib, davlatni idora qilish, qattiq intizom o'rnatishda yakka hokimlik zarurdir. Yana u davlat ishini cherkov ishi bilan qo'shmaslik kerak, cherkovni davlatdan ajratish lozim, deydi. Demak, u davlatchilikning **monarxiyadan respublikaga** tomon rivojlanishini oldindan aytib bergan.

Siyosatshunoslik rivojiga ulkan hissa qo'shgan o'rta asrlik mutafakkirlardan SHarlb Lui Monteskye (1689–1755) asli fransiyalik bo'lib, faylasuf va tarixchi olim sifatida mashxurdir. U «Qonunlar ruhi to'g'risida», «Fors xatlari», «Rumliklar buyukligi va inqirozi sabablari to'g'risida» kabi asarlarning muallifidir. U «Qonunlar ruhi to'g'risida»gi asarida siyosiy-tarixiy jarayonlarni diniy-ruhiy talqin qilishga qarshi chiqdi. Tabiiy qonunlar jamiyat vujudga kelishidan avval mavjud bo'lgan, qonunlar

davlatning turiga (respublika, monarxiya, despotiya) bog'liq, boshqaruvni esa ijtimoiy-iqtisodiy, geografik va iqlim kabi omillar belgilaydi deb hisoblagan.

Angliyalik Jon Lokk (1632-1704) o'zining «Boshqarish to'g'risida ikki majmua» asarining 1-qismida qirollik hokimiyati ilohiy asosda ekanligini aytib tanqid qiladi. U siyosiy fikr tarixida birinchilardan bo'lib, «shahs», «jamiyat» va «davlat» tushunchalarini tahlilini beradi. J. Lokk fikricha qaerda qonunlar bo'lmasa u erda erkinlik bo'lmaydi.

Fransuz ma'rifatparvari Jan Jak Russo (1712–1778) siyosatda fuqarolik konsepsiyasining qat'iy ifodachisi va ta'dqiqodchisidir. – «Odamlar o'rtasida tengsizlikning kelib chiqishi va asoslari to'g'risida mulohazalar», «Ijtimoiy bitim», «Emil yoki tarbiya to'g'risida» asarlari bor. U burjua demokratiyasi, fuqarolarning haq-huquqlari va tenglik g'oyalarini targ'ib qilgan. Tengsizlik sababi xususiy mulkdir. Ijtimoiy tengsizlikka erkinlik va huquqlar tengligini qarshi qo'yadi. Xalq irodasining suverenligi va bo'linmasligini targ'ib qilgan.

E. Berkka (1729–1797) – Angliya konservatori sifatida tabiiy huquqlarni tan olmaslik g'oyasi xosdir. Uningcha, davlat va jamiyat insonning ixtirosi emas, balki tabiiy rivojlanishining natijasidir. Davlatning asosiy vazifasi tartib va qonunni saqlashdan iborat. U hokimiyatning vakillik shaklini qo'llab chiqadi.

A. Tokvil (1805–1858) – «Amerikadagi demokratiya» nomli asarida o'ziga xos liberal siyosiy nazariyani yaratdi. Uni siyosiy tenglik bilan siyosiy erkinlik o'rtasidagi munosabat ko'proq o'ylatadi. Siyosiy apatiya – siyosiy markazlashuv va ijtimoiy bo'ysundirishning boshlanishidir, deb hisoblaydi. Demokratiyaning ijobiy va salbiy jihatlari bo'lishi mumkinligi to'g'risida fikr yuritadi.

Agar XIX asrning oxiri va XX asr boshlaridagi SHarq mutafakkirlarining siyosiy qarashlariga e'tibor beradigan bo'lsak, ular milliy ozodlik g'oyalarini ko'poq tahlil qilganliklarini ko'ramiz. Bu g'arbning SHarqqa nisbatan olib borgan siyosatining mustamlakachilikka asoslanganligi bilan bog'liq. SHarqda milliy ozodlik kurashi o'z tarixiy ildizlarini o'rganishning boshlanishi bilan xarakterlanadi. Masalan, M.Gandi (1869–1948), M. Iqbol (1877–1938) asarlari nutq va chiqishlari SHarq xalqlarini uyg'otishga da'vat etadigan, ularni mustaqillikka undaydigan siyosiy g'oyalari bilan ajralib turadi. Xalqni ma'rifiy yo'l bilan mustaqil bo'lishga chorlaydi. Mustamlakachi hokimiyatga qarshi, o'zaro ziddiyatli holatlarni yon berishlar, murosas va konsensus asosida hal etishga undaydi. Siyosatni axloq bilan bog'liq holda talqin etadi.

Bu davrdagi siyosiy qarashlarda davlat va xalqlar mustaqilligi, erkinlik, demokratiya uchun o'zaro hamkorlik, hamjihatlik g'oyalari ilgari suriladi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida «jadidchilik» harakati paydo bo'ldi. Bu harakatning xalqimiz milliy, ijtimoiy va madaniy tarixida o'ziga xos o'rni bor. Jadidchilik aslida ma'rifatparvarlik harakatining ko'rinishi bo'lib, uning namoyondalari mamlakatni qoloqlikdan chiqarish va milliy taraqqiyotga erishishning ma'rifiy yo'lini ko'rsatdilar. Jadidchilikning ko'zga ko'ringan namoyandalaridan Ismoilbek Gasprinskiy (1851–1914) ushbu xarakatning o'ziga hos g'oyaviy asoschisi hisoblanadi. U Turkistonga jadidchilik oqimini birinchi bo'lib yoydi. 1910 yili Turkistonning turli joylarida

50 ga yaqin shunday maktablar tashkil etildi. Toshkentda 20, qo'qonda 16 ta shunday markaziy jadid maktablari ochildi.

Mahmudxo'ja Behbudiy (1879–1919) – Samarqand shahrida ruhoniylar oilasida dunyoga keldi. U haj qilib Makka va Madinaga bordi, Misr va Turkiya shaharlarida bo'ldi. Peterburg, Moskva, Qozon, Ufa va Orenburg kabi Rossiya shaharlarida bo'ldi. Behbudiy jadidchilik g'oyalarini targ'ib qilib, Turkistonning Rossiyadan ajralib chiqishini va uning mustaqil davlat sifatida ichki va tashqi siyosat olib borishi lozimligini himoya qildi.

3. Munavvarqori Abdurashidov (1878–1931) – Turkistonda jadidizm harakati rahbarlaridan biri, pedagog, ziyoli oilasida tug'ilgan. Toshkentda YUnusxon madrasasida ta'lim olgan. 1903 yili jadid maktablari ochib, o'zi unda dars bergan. SHu maktablar uchun qo'llanma, darslik yozgan. U mahalliy boylar kayfiyatini ifoda qilgan. U eski maktablarni isloh qilib, unda dunyoviy ilmlar o'qitilishi tarafdori edi. U xalqni ma'rifatga chaqirdi. «SHo'roi Islomiy» tashkiloti tuzuvchilaridan biri edi. Bu tashkilotga mahalliy boylar, ruhoniylar kirgan. Tashkilotning talabi Turkistonda burjua Rossiyasi tarkibida milliy-diniy avtonomiya tuzish, madaniyat va maorif sohasida kapitalizm rivoji uchun zarur bo'lgan ba'zi islohotlar o'tkazishdan iborat edi. U 1931 yil 26 aprelda sobiq sho'ro tuzumi tarafdorlari tomonidan qatl etildi.

4. Fitrat (1886–1938) – o'zbek yozuvchisi va olimi. U din va eski dunyo sarqitlariga qarshi kurashgan. Samarqand Pedakademiyasida ishlagan. «qiyomat» ppessasi, «Zahroning imoni» (1920), «qiyshiq eshon» (1930), «Ro'zilar» kabi dramatik asarlari bilan feodal tuzumiga va dinga qarshi chiqdi. 1938 yil 4 oktyabrda Toshkentda sho'ro tuzumi tarafidan otib o'ldirilgan.

5. CHo'lpon (1893–1937) – o'zbek shoiri, tarjimon, san'atshunos. U dastlab madrasada, so'ng rus-tuzem maktabida o'qigan. 1919–20 yillarda «Turk GOSTA» gazetasida muharrir, «qizil bayroq», «Turkiston» kabi gazetalarda adabiy xodim, 1924 yildan Moskva o'zbek drama studiyasida, keyin O'zbekistonda maorif va teatr sohalarida ishlagan. 1938 yil 4 oktyabrda Stalin siyosati tufayli otib o'ldirilgan.

Umuman, jadidchilik harakatining xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Jadidchilik harakati Turkistonda siyosiy jarayonlar rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Ma'rifatchilik harakati sifatida boshlagan harakatlarida xalqning umumiy savodi va ma'rifatini ko'tarish g'oyasini ilgari surdi.

2. Jadidlar dinga qarshi kurashgan emaslar, balki shariatga qattiq rioya qilish orqali maktab va madrasalarda ta'lim berish tizimini dunyoviy ilmlar berish asosida isloh qilish zarurligi masalasini ko'tardilar.

3. Jadidchilar harakati Rossiyada vujudga kelgan bolpsheviklar partiyasi bilan bir vaqtda shakllandi. Istibdod hukumati jadidlarni din peshvolariga qarshi qo'yib harakat qilsa, jadidlar ma'rifat yo'li bilan xalq ongini rivojlantirishga harakat qildilar.

3. YAngi davrda siyosiy konsepsiyalari va qarashlari.

XX asr siyosiy konsepsiyalari, siyosatshunoslik ta'limotidagi nazariyalar quyidagilardan iborat:

1. Ijtimoiy darvinizm va zabt etish nazariyasi (Nomarksistik).

Lyudvik Gumilovich – **Polpsha-avstraliyalik (1838-1909)**. U «Sosiologiya va siyosat» asarida bu nazariyani asoslab bergan. Unga ko'ra ijtimoiy hayot davridan boshlab odamlar, ruhlar, sinflar, partiyalar va davlatlar o'rtasida kurash bo'lib kelgan. Bu insoniyatning yashashi uchun zarur. Gerbert Spenser (1820–1903) – «Sosiologiyani asosi» asarida davlat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish uchun tuziladi, jamiyat urushdan tinchlik tomon, harbiy sohadan industrial jamiyatga o'zgarib boradi. Frans Oppengeyner (1864–1943) – «Sosiologiya sistemasi» kitobida «Liberal sosializm»ni asoslab, iqtisodiy va siyosiy faoliyat haqida o'z fikrini bayon etadi. Ijtimoiy-siyosiy illat manbai–yirik er mulkchiligidir, deydi.

Maks Veberning siyosatshunoslik ta'limotlari («Dohiylik demokratiyasi» ta'limoti ham deyiladi): **M.Veber** (1864–1920) nazariyasi g'arb va dunyoning XX asr sosiologiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. U byurokратиyani humron sinf deb hisoblamaydi, balki uni hokimiyatning qo'lidagi qurol deb qaraydi. U demokratiya nazariyasini ishlab chiqdi. Bu nazariyaning markazida jamiyatdan o'zini alohida tutgan byurokratik apparat ustidan ijtimoiy nazorat mexanizmini ishlab chiqish g'oyasi yotadi. U byurokратиyani o'ziga bo'ysundira oladigan siyosiy elitani tanlash texnikasiga e'tibor berishni talab qiladi. M.Veber hukmronlik usuli bu davlat tipologiyasi va qonunchiligidan iborat. Hukmronlik deb hokimiyatga tanho egalik qilishni, hokimiyat monopoliyasi esa, o'z erkini buyruqlar yordami bilan o'tkazish qobiliyatini tushunadi. Hukmronlik – bu qonuniylashtirilgan zo'rlikdir. U 3 xil bo'ladi: an'anaviy, sodiqlik va legallik (ochiqlik). An'anaviylik hukmronlik urf-odatlariga asoslanadi, sodiqlik siyosiy liderlarga sodiq bo'lishga, ochiq hukmronlik esa huquqqa asoslanadi. M.Veber boshqarishning prezidentlik shakliga ham e'tibor berdi.

2. «**Totalitarizm nazariyasi**» – (lot.) siyosiy rejim turi haqidagi ta'limotlardan biri bo'lib, davlatning barcha hayotiy sohalari ustidan to'la (total) nazorati, konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarning amalda yo'q qilinishi, oppozisiya va o'zgacha fikrlarga nisbatan qatog'onlar bo'lishini bayon etadi. Uni A.Arendt, K.Fridrix, Z.Bjezinskiy asoslab berganlar. Bunda 1) iqtisodiy markazlashgan rahbarlik; 2) ijtimoiy soha nazoratda; 3) siyosiy sohada bir partiyalilik; 4) ma'naviy sohada hukmron mafkura; 5) ommaviy kommunikasiya vositalari partiya va davlat qo'lida; 6) partiya va davlat qo'lida barcha qurollar to'planadi.

3. «**Plyuralizm nazariyasi**» (Evropa mamlakatlarida).

4. «**Plyuralistik demokratiya**» nazariyasi (XX asr 20–30-yillarida AQSHda yuzaga kelgan).

5. «**Konvergensiya**» nazariyasi – (o'xshash, yaqinlashish, industrial jamiyat) va boshqa ta'limotlar, nazariyalar mavjud. XX asr boshlarida g'arb politologiyasida texnokratik ta'limotlar keng tarqaldi. Jumladan, «Ilmiy boshqariladigan jamiyat» (G.Saymon), «Postindustrial jamiyat» (D.Bell), «Texnotron jamiyat» (Z.Bjezinskiy) nazariyalari hozirgi taraqqiyot va dunyoning umuminsoniy muammolarini (ekologik, energetik, oziq-ovqat, urush, demografik) echishning yagona yo'li deb tavsiya etishadi.

Amerika siyosiy fanlarining paydo bo'lishi. AQSHda siyosatshu-noslikning rivojlanishini quyidagi 3 bosqichga bo'lib ko'rsatish mumkin:

1. XIX asr oxiridan I jahon urushigacha bo'lgan davr.
2. Ikki, ya'ni birinchi va II jahon urushi o'rtasidagi davr.
3. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrdan hozirgacha bo'lgan davr.

Birinchi davr **politologiyaning Amerikada qaror topish davri hisoblanadi. Bu davrda AQSHda yirik universitetlarda siyosiy fanlar bo'limlari tashkil etildi. 1914 yildan federal darajada empirik tadqiqotlar o'tkazishga ixtisoslashgan markazlar tashkil topdi.**

Ikkinchi davrda **muhim o'zgarishlar amalga oshirildi. Tabiiy-ilmiy bilimlar bilan yaqinlashtirildi.**

Uchinchi davrda **1) Amerika boshqaruvi va siyosat; 2) qiyosiy siyosat; 3) xalqaro munosabatlar va jahon siyosati; 4) siyosiy nazariya va falsafasi; 5) ijtimoiy boshqaruv va siyosat kabi yo'nalishlarda tadqiqot ishlari olib borilmoqda. CH.Merriam (1874-1953), G.Lassuel (1902-1979), G.Morgentau (1904-1980) kabi politologlarning alohida o'rni bor.**

Adabiyotlar:

- O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. T. O'zbekiston. 2011.
- Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-19 jildlar. T. O'zbekiston. 1996-2011.
- Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – engilmas kuch. T.-Ma'naviyat. 2008.
- Karimov I. A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T. O'zbekiston 2009 yil.
- Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T. - O'zbekiston. 2010.
- Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. – T.: O'zbekiston, 2011.
- Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T. - O'zbekiston. 2011.
- Karimov I.A. Bunyodkorlik, yangilanish, mexr-muruvvat yo'li. Prezident I.A.Karimovning 2012 yil 21 mart Navro'z umumxalq bayramiga bag'ishlab so'zlagan nutqi. T.// Xalq so'zi.2012 yil 22 mart.
- Karimov I.A. Inson xotirasi - boqiy,qadr-qimmat – ulug'. Prezident I.A.Karimovning 2012 yil 9 may- Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlab so'zlagan nutqi. T.// Xalq so'zi.2012 yil 10 may.
- Nosirxo'jaev S., Safarboev M., Sultonov K Siyosatshunoslik fanidan ko'rgazmali metodik qo'llanma. – T., 2007.
- Odilqoriev X.T.Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik.T., 2008.
- Xolbekov A., Jumaev R., Umarova N. va boshqalar “Boshqaruvning ijtimoiy- siyosiy yo'nalishlari” - T.; G'. G'ulom, 2008.
- Artikbaev O.S., Ganiev J.X. Siyosatshunoslik. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. – T., 2009.
- Jumaev R.Z. va boshq. Siyosiy islohotlar strategiyasi. – T.: Akademiya. 2010.
- “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”ni o'rganishga bag'ishlangan Respublika ilmiy–amaliy konferensiya materiallari. (2011 yil 16 mart). Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Milliy universiteti, “Siyosatshunoslik” kafedrası, Respublika “Kamolot” YOshlar ijtimoiy harakati,– T.: Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti. 2011. – 413 b.

2-mavzu. Siyosiy hokimiyat va tizim

Reja:

1. **Hokimiyat tushunchasi, uning ob'ekti va sub'ekti.**
2. **Siyosiy hokimiyat mazmuni, mohiyati va hokimiyatning legitimligi**
3. **Siyosiy tizim, turlari va uning jamiyat hayotida tutgan o'rni va ahamiyati.**
4. **Siyosiy tuzum va davlat boshqaruvi.**

1.Hokimiyat tushunchasi,uning ob'ekti va sub'ekti.

1. Politalogiyada “hokimiyat”, “siyosiy hokimiyat”, “davlat hokimiyati” atamaları muhim o'rin tutadi Hokimiyat – eng sirli, murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy hodisa. Uni tushuntirishda xilma-xil yondashuvlar, talqinlar mavjud.

1. Pozitiv-sosiologik talqin (nemis sosiologi M.Veber). Bu talqinda hokimiyat biror individning muayyan ijtimoiy sharoitda boshqa individga o'zining irodasini o'tkazish qobiliyati sifatida tushuniladi. Hokimiyat munosabatlarining asosini o'zaro ta'sir doirasiga kiritish munosabatlari tashkil etadi. Bunday munosabatlar hokimiyat sub'ekti va ob'ekti o'rtasida o'rtasida qaror topadi.

2. Hokimiyatning maqsad nuqtai nazaridan talqini (B.Rassel). Bu talqinda hokimiyat muayyan maqsadga erishish, ko'zda tutilgan natijalarga ega bo'lish qobiliyati sifatida tavsiflanadi. Qisqa qilib aytganda, hokimiyat – bu ko'zlangan maqsadlarni ro'yobga chiqarishdan iboratdir. Bunda hokimiyat nafaqat kishilar o'rtasidagi munosabatlarni, balki insonning atrof-muhit bilan, tabiat bilan o'zaro aloqalarini ham o'z ichiga qamrab oladi.

3. Bixevioristik talqin. Bu talqinda hokimiyat sub'ekt xulq-atvorining ko'rinishi sifatida olib qaraladi. Bunda birovlar buyuradilar, boshqalar esa bo'ysunadilar.

Bixevioristik yondashuv hokimiyatini tushinishni individuallashtiradi, uni real shaxslarning o'zaro harakatidan iborat deb qaraydi.

Hokimiyatning bixevioristik talqinini Amerika omili G.Lassuel taklif etgan. U hokimiyatning paydo bo'lishi uchun dastlabki impulsarni individga, insonga xos bo'lgan hokimiyatga intilish va “siyosiy energiyaga” egalik qilishlik beradi, deb hisoblaydi. Inson hokimiyatga intilishda hayotni yaxshilash, boylik obro' orttirishni, erkinlikka, xavfsizlikka va hokazolarga erishish vositalarini ko'radi.

SHu bilan birga, hokimiyat – bu uni egallash bilan huzurlanishga imkon beradigan maqsad hamdir. Siyosiy hokimiyat siyosiy kuchlar intilishlarining to'qnashuvi, balansi, muvozanati sifatida qaror topadi. Siyosiy kuchlar muvozanatining buzilishi esa jamiyatda inqirozlar va ixtiloflarga olib keladi.

4. Psixologik talqin (Z.Freyd, K.Gustov, YUng, K.Xorin). Bu to'lqin hokimiyatni real individuallarning xulq-atvori sifatidagi bixevioristik tushunishdan kelib chiqadi. Xulq-atvorning sub'ektiv tomonini, kishilar onggi va ruhiyatida ildiz otgan hokimiyatning manbaini ochib tashlashga urinib ko'radi. Bu xildagi eng ko'zga ko'ringan yo'nalishlardan biri – psixoanalizdir. U hokimiyatga intilishni va ayniqsa, uni egallashni jismoniy yoki ma'naviy zaiflikni sub'ektiv kompensasiya qilish vazifasini bajaradigan ruhiy holat kuchi sifatida talqin etadi. Hokimiyat turli kuchlarning o'zaro harakati – birovlarning bo'ysunushga, boshqa birovlarning “ixtiyoriy qo'shilishga” tayyorgarligi sifatida namoyon bo'ladi. Freydning e'tirof

etishicha, inson psixikasida shunday tuzilmalar borki, ular shaxsiy himoyalanganligi va tinchligi uchun qullik erkinligini afzal ko'rishga moyillik tug'diradi.

Umuman, psixologik yondashuv hokimiyat mexanizmlari motivlarini buyruq berish – itoat etish munosabati sifatida ochib berishga yordam beradi.

5. Hokimiyatning tizimli talqini. Bu hokimiyatga bixevioristik va psixologik yondashuvdan farq qiladi. Agar bu ikki yo'nalish real kuzatishlarga tayanib hokimiyatni tushunishda quyidan yuqoriga, individlardan jamiyatga qarab borishni talab qilsa, tizimli usul esa hokimiyatning individual munosabatlardan emas, balki sosial tizimdan hosil bo'lganligidan kelib chiqadi. U hokimiyatni tizimning qabul qilgan jamoa maqsadlarini ro'yobga chiqarishga yo'naltirgan majburiyatlarni ta'minlash qobiliyati sifatida olib qaraydi. Tizimli yondashuvning ayrim vakillari (K.Doych, N.Luman) hokimiyatni guruhiiy ixtiloflarni tartibga soladigan va jamiyatning birlashishini ta'minlashga imkon beruvchi sosial muomala vositasi sifatida ifodalaydi.

6. Hokimiyatning tuzilmaviy - funksional talqini (amerikalik sosiolog T.Parsons). bu hokimiyatni teng bo'lmagan sub'ektlarning munosabati, ijtimoiy tashkilotning xususiyati, insonlar birligining o'zini – o'zi tashkil etish, uyushtirish, safarbar qilish uslublari sifatida olib qaraydi. Insonning jamoa bo'lib yashashini, ko'p kishilarning birgalikdagi hayotini hokimiyatsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Jamiyat turli ijtimoiy guruhlar, qatlamlardan iborat bo'lgan yaxlitlikdir. Uning o'zi quyidan yuqoriga qarab tuziladi, boshqaradigan va ijro etuvchi ijtimoiy qatlamni shakillantiradi. Hokimiyat – bu resurslarni, ta'sir ko'rsatish vositalarini safarbar qilishga imkon beruvchi sosial maqomlar, uning ta'siri xususiyatida nomoyon bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, hokimiyat – rahbar lavozimlarini egallash va muayyan funksiyalarni bajarish bilan bog'liq faoliyatdir. Rahbar lavozimlar esa oqilona va nooqilona chora – tadbirlar, rag'batlantirish va jazolash yordamida kishilarga ta'sir qilish imkonini beradi.

7. Relyasion munosabatga asoslangan talqin. Bu hokimiyatni ikki sherik o'rtasidagi munosabat sifatida olib qaraydi. Bunda ulardan biri ikkinchisiga belgilovchi ta'sir ko'rsatadi. Bu holda hokimiyat uning sub'ekti va ob'ektining o'zaro harakati sifatida nomoyon bo'ladi, sub'ekt muayyan vositalar yordamida ob'ektni nazorat qiladi.

Hokimiyatning talqinlari, yondashuvlari bir – birini to'ldiradi va boyitadi. Ularga diqqat e'tiborni qaratish hokimiyat nazariyasini chuqur va har tomonlama o'rganishning zarur shartidir.

Hokimiyat bir qator tuzilmalardan iborat bo'ladi. Uning tarkibiga sub'ekt, ob'ekt va resurslar kiradi. Ular hokimiyatning bevosita tashuvchisidir.

Sub'ekt – hokimiyatning faol, yo'naltiruvchi kuchi. U alohida inson, sosial guruh, kishilarning birligi, misol uchun xalq yoki jahon hamjamiyati, davlat institutlari, siyosiy partiyalar bo'lishi mumkin. Biroq, har qanday inson hokimiyatning sub'ektning sub'ekti bo'lavermaydi. U hokimiyat sub'ekti bo'lishi uchun qator sifatlarga ega bo'lishligi zarur. Avvalambor, bu hokimlikka xoxish – istak, ko'rsatmalar yoki buyruqlarda ko'rinadigan hokimlik qilish – ta'sir eta olish qobiliyatiga, maqomiga ega bo'lishdan ruhiy qoniqish his etmaydilar. Ular uchun hokimiyat o'z – o'zidan boylik vositasi hisoblanmaydi. Ko'plar agar hokimiyat turli imtiyozlarni olish uchun keng imkoniyatlar ochib bermaganda umuman rahbarlik lavozimlaridan va ular bilan bog'liq bo'lgan mas'uliyatdan o'zlarini olib qochgan bo'lur edilar. Ular uchun hokimiyatga intilish instrumental xarakterga ega, ya'ni

boshqa bir maqsadlarga erishish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Hokimiyatga intilish ehtiyoji mavjud. Lekin bu uni hamma vaqt ham ijobiy holat, faoliyat ko'rinishi sifatida qarashga asos bermaydi. Hokimiyat o'ziga jalb etishi, foydalanishi, to'g'ri baholay olish, xolisona yondoshish mexanizmlarini qo'llash kerak.

Hokimiyat sub'ekti rahbarlik qilishga xohish - istak va ma'suliyatni o'z bo'yniga olishlikdan tashqari u bilimdon bo'lishi, ishning ma'no – mazmunini, qo'l ostidagilarning holati va kayfiyatini bilishi, resurslardan foydalana olishi, obro' – e'tiborli bo'lishi darkor. Jamiyat uchun hokimiyat sub'ekting uyushqoqligi muhim ahamiyatga ega. Albatta, hokimiyatning real tashuvchilarni ushbu sifatlar bilan bir xil darajada ta'minlangan deb bo'lmaydi.

Hokimiyatning sub'ektlari murakkab, ko'p darajali xarakterga ega. Uning boshlang'ich sub'ektlari – individlar va ijtimoiyguruhlar, ikkinchilari – siyosiy tashkilotlar, eng yuqori darajadagi sub'ektlari – siyosiy elitalar va etakchilardir. Ushbu darajalar o'rtasidagi aloqalar doimo bir tekisda va silliq bo'lavermaydi. Bu aloqalar buzilishi ham mumkin. Masalan, etakchilarning xalqdan, xatto o'zining partiyasidan uzilib qolish hollari ham tez-tez uchrab turadi.

Hokimiyat sub'ekti ob'ekti bilan o'zaro munosabatlarida birinchi darajali rol o'ynaydi. U hokimiyat munosabatlarini ko'rsatmalar (buyruq) orqali ifodalaydi. Bu ko'rsatmalarda hokimiyat ob'ektning xulq - atvori, buyruqni bajarganlik yoki bajarmaganlik uchun rag'batlantiruvchi va jazolash choralari ko'zda tutiladi. Ijro etuvchilarning munosabati mavjud talablarning harakteriga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

Ob'ekt – hokimiyatning ikkinchi muhim elementidir. U hokimiyat sub'ekti qarorlarining bevosita bajaruvchisidir. Ob'ekt ham, xuddi sub'ekt singari hokimiyatning ajralmas tarkibiy qismidir. Bu elementsiz hokimiyatni tasavvur etib bo'lmaydi. Hokimiyat ob'ektini quyidagilar: individ, sosial guruh, sinf, jamiyat tashkil etadi.

Hokimiyatning asosini yoki manbaini resurslar tashkil etadi. Bu resurslar hokimiyat sub'ekti tomonidan hokimiyat ob'ektiga ilgari surilgan vazifaga erishish maqsadida ta'sir ko'rsatish uchun foydalaniladi. Resurslar kishilarni rag'batlantirish, jazolash yoki ishontirishda qo'llanilishi mumkin. Sub'ekt va ob'ekt munosabati o'zaro ta'sir etish yoki ta'sir doirasiga ega bo'lish bilan bog'liq tarzda o'zgarib turadi.

Hokimiyat resurslari xilma-xil bo'ladi. Ular bir necha turlarga: utilitar, majburlovchi va me'yoriy resurslarga bo'linadi.

Utilitar resurslar – bu kishilarning kundalik ehtiyojlari va talablarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan moddiy va boshqa ijtimoiy vositalardir. Bu vositalardan kishilarni rag'batlantirish, jazolash uchun ham foydalaniladi.

Majburlovchi resurslar – bu ma'muriy jazolash bilan bog'liq bo'lgan vositalardir. Bu vositalardan odatda utilitar resurslar ish bermay qolgan paytda foydalaniladi. Bunga iqtisodiy sanksiyalar bilan birga ishtirokchilarni qonun yo'li bilan yoki boshqa majburiy ma'muriy ta'sir ko'rsatish vositalaridan foydalanishi misol qilib ko'rsatish mumkin.

Me'yoriy resurslar – insonning ichki dunyosi, qadriyatlar va xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatuvchi vositalardir. Ular bo'ysunuvchilarga rahbar va ijro etuvchilar manfaatlarining umumiyligini tushuntirishga, hokimiyat sub'ekti harakterining ma'qullanishini, uning talablari qabul qilinishini ta'minlashga qaratilgan.

Hokimiyatning resurslarini inson va jamiyat faoliyatining muhim sohalari – siyosiy-huquqiy, iqtisodiy, sosial, madaniy-axborot, kuch ishlatuvchi sohalarga binoan turkumlashtirish ham mumkin.

Siyosiy-huquqiy resurslar – bu ijtimoiy tartibni, xavfsizlikni, barqarorlikni, fuqarolarning tinch-osoyshtaligini, jamiyatning yaxlitligi va bir butunligini ta'minlovchi vositalardir. Bu vositalarga dasturiy xujjatlar, Konstitutsiya, qonunlar va ularni ishlab chiqish, qabul qilish va amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan muassasalar kiradi.

Iqtisodiy resurslar – bu ijtimoiy va xususiy ishlab chiqarish va iste'mol qilish uchun zarur bo'lgan moddiy boyliklar, ularning umumiy ekvivalenti sifatida pullar texnika, unumdor erlar, erosti qazilma boyliklari va hokazodir.

Sosial resurslar – sosial stratifikatsiyadagi sosial qatlamlar mavqega ega bo'lish, uning oshish yoki pasayish holatidir. Bu resurslar qisman iqtisodiy resurslarga ham bog'liq bo'ladi. Masalan, daromad va boylik iqtisodiy resurslar bo'lishi bilan birga sosial maqomni ham tavsiflaydi. Biroq, sosial resurslarga lavozim, obro', ma'lumot, medisina xizmati, ijtimoiy ta'minot kabi ko'rsatgichlar ham kiradi.

Ma'daniy-axborot resurslar – bilim va axborot hamda ularni olish va tarqatish vositalari: fan va ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va boshqalardir. Taniqli amerika olimi O.Tofflarning e'tirof etishicha, XX asr oxiri – XXI asr boshlarida bilim va axborot hokimiyatning muhim resursiga aylanadi. Hozirgi kunda postindustrial mamlakatlarda bilim va axborot hokimiyat amal qilishining belgilovchi omiliga aylangan. An'anaviy kuch va boylik o'zining ilgarigi ta'sirini yo'qotmoqda. Kim bilim va informatsiyaga ega bo'lsa, o'sha chinikamiga yuqori mavqega, hokimiyatga ega bo'ladi.

Kuch ishlatuvchi resurslar – bu qurol-yarog', jismoniy majburlovchi muassasalar va buning uchun maxsus tayyorlangan kishilardir. Ularning o'zagini armiya, polisiya, xavfsizlik xizmati tashkil etadi. Resurslarning mazkur ko'rinishlari hokimiyatning azaldan eng samarali manbai hisoblangan. Sababi, uning foydalanishi insonni oliy qadriyatlar – hayotdan, erkinlik va mol-mulkdan mahrum qilishga qodirligidir. Hokimiyatning turli resurslari odatda uning sub'ektlari, avvalo davlat idoralari tomonidan kompleks ravishda qo'llaniladi.

Demografik resurslar – hokimiyatning manbai bilan bog'liq resurslaridir. Bu resurs boshqa resurslarni ishlab chiqaruvchi universal, ko'p funksiyali resursdir. Inson – moddiy oyliklarning yaratuvchisi aksar va partiya a'zosi, bilim va axborotning egasi va tarqatuvchisidir. SHaxs o'zining ko'p sonli qirralaridan birida – birovning irodasini amalga oshiruvchi vosita sifatida foydalanilganda hokimiyatning resursi bo'lib yuzaga chiqadi. Umuman, inson nafaqat hokimiyatning resursi, balki uning sub'ekti va ob'ektidir.

Hokimiyat qanday resurslarga asoslanishiga ko'ra, siyosiy, iqtisodiy, sosial, madaniy-axborot, majburlovchi hokimiyatlarga ajratiladi.

Hokimiyatning eng asosiy va o'ziga xos ko'rinishlaridan biri – siyosiy hokimiyatdir. U jamiyat hayotida alohida o'rinni egallaydi. Bu shu bilan belgilanadiki, siyosiy hokimiyat jamiyat va davlat hayotini bir butunligicha va yaxlitligicha qamrab oladi, uni yo'naltiradi va tartibga soladi, hokimiyatning boshqa barcha ko'rinishlarini birlashtiradi, ularni xalq manfaatlariga bo'ysundiradi. Siyosiy hokimiyatsiz hayotni tasavvur etib bo'lmaydi. Usiz jamiyatda tartibsizlik, bosh-

boshdoqlik, o'zboshimchalik boshlanadi. SHuning uchun ham siyosiy hokimiyatning asosiy maqsadi-ijtimoiy va davlat hayotini tartibga solish, boshqarishdir.

2.Siyosiy hokimiyat mazmuni, mohiyati va hokimiyatning legitimligi

Siyosiy hokimiyat – xalq irodasini amalga oshirish kishilarning siyosiy hayotdagi o'rni, siyosatning tegishli siyosiy institutlar yordamida ta'sir faoliyati, xulq-atvoriga belgilovchi ta'sir ko'rsatish qobiliyati va imkoniyatidir.

Siyosiy hokimiyat qator xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar quyidagi belgilarda o'z ifodasini topadi: 1) legitimligi, ya'ni davlat miqiyosida kuch ishlatishda foydalanishning legalligi; 2) hokimiyat uchun qarorlarning majburiyligi, istagan ijtimoiy jarayonlarga ta'sir ko'rsata olishligi. Siyosiy hokimiyat qudratli korporasiyalar, OAV va boshqa muassasalarning ta'sirini qonunga zid bo'lsa, cheklashi yoki ularni umuman tugatishi mumkinligi; 3) ommaviyligi, ya'ni umumiyliigi. Buning ma'nosi shuki, siyosiy hokimiyat mayda, kontakt guruhlarda mavjud bo'ladigan shaxsiy hokimiyatdan farqli o'laroq, xuquq yordamida barcha fuqarolarga butun jamiyat nomidan murojaat qilishligi; 4) qarorlar qabul qilishda yagona markazining mavjudligi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyatda siyosiy hokimiyatdan farq qila turib iqtisodiy, sosial va ma'naviy-axborot hokimiyatning ko'p markazligi. Bunda ko'plab mustaqil mulkdorlar, OAV, ijtimoiy fondlar va boshqalarning mavjud bo'lishligi; 5) resurslarning xilma-xilligi; siyosiy hokimiyatning nafaqat majburlovchi, balki iqtisodiy va madaniy-axborot resurslaridan ham foydalanishi.

Siyosiy hokimiyat jamiyatda hokimiyatning boshqa ko'rinishlari: iqtisodiy, sosial, madaniy-axborot, majburlovchi hokimiyatlarga tayangan holda harakat qiladi.

Iqtisodiy hokimiyat – hokimiyatning mustaqil qurilishlaridan biri hisoblanadi. U siyosiy hokimiyatdan farq qiladi. Iqtisodiy hokimiyat resurslar ustidan nazorat qilish, turli-tumnn moddiy boyliklarga egalik qilishni anglatadi. Bu hokimiyat jamiyat taraqqiyotining odatdagi, nisbatan tinch davrlarida hokimiyatning boshqa ko'rinishlari orasida ustuvorlik qiladi. Sababi, iqtisodiy nazorat – bu inson hayotining biror sohasini shunchaki nazorat qilish emas, balki jamiyatning barcha maqsadlariga erishish vositalari orasida alohida ta'sir doirasiga egadir.

Hokimiyatning mustaqil ko'rinishlaridan yana bir – **sosial hokimiyatdir**. U iqtisodiy hokimiyat bilan chambarchas bog'langan. Agar iqtisodiy hokimiyat moddiy boyliklarni taqsimlash qobiliyatini anglatga, sosial hokimiyat esa sosial zinapoyadagi o'rinlarni – maqomlar, lavozimlar, imtiyozlarni taqsimlash qobiliyatini anglatadi.

Hozirgi zamon davlatlari katta sosial hokimiyatga egadirlar. Ular sosial siyosat yordamida aholi keng qatlamlarining ijtimoiy ahvolini yaxshilashga sezilarli ta'sir ko'rsatishlari mumkin.

Madaniy-axborot hokimiyati – bu ilmiy bo'limlar, axborotlar va ularni tarqatuvchi vositalar orqali kishilar ma'naviy dunyosi ustidan nazoratdir. Bundan tashqari, bu obro' asosida bo'ysunishlik bilan bog'liq bo'lgan hokimiyatni axloqiy, diniy va boshqa ko'rinishlaridir. Hozirgi kunda ilg'or mamlakatlarda ma'naviy ta'sir etishning barcha ko'rinishlari orasida ilmiy-axborot hokimiyati birinchi o'ringa chiqmoqda. Bilim hukumat qarorlarini tayyorlashda, kishilarning ongiga bevosita ta'sir etishda keng foydalanmoqda. Bunday ta'sir ko'rsatish ijtimoiylashuv muassasalari (ta'lim, OAV) orqali amalga oshirilmoqda. Axborot hokimiyati turli-tuman maqsadlarga xizmat qilishga qodirdir. U hokimiyat faoliyati haqida nafaqat ob'ektiv xabarlarini

tarqatishga, balki noxolisona, noaniq xabarlarini tashviqot-targ'ibot qilib, kishilar onggi va xulq-atvorini to'g'ri yo'ldan chalg'itishga xizmat qilishi ham mumkin.

Majburlovchi hokimiyat – majburlovchi resurslarga tayanadigan va jismoniy kuch ishlatishni qo'llash yoki kuch ishlatish bilan tahdid qilish yordamida kishilar ustida nazoratqilishdir. U iqtisodiy, madaniy-axborot hokimiyati etarli bo'lmaganda amal qiladigan, ularni to'ldiradigan hokimiyatdir. Kuch ishlatishga tayanish-majburlovchi hokimiyatning muhim hususiyatidir. Bundan majburlovchi va siyosiy hokimiyat aynan bir narsa ekan, degan xulosani chiqarmaslik kerak.

Siyosiy hokimiyat majburlovchi hokimiyat singari faqat kuch ishlatuvchi, majburlovchi (jismoniy, moddiy, ruhiy) resurslarga tayanish bilan cheklanib qolmaydi. U ijtimoiy muammolarni hal etishda iqtisodiy, sosial va ma'naviy-axborot resurslariga ham tayanadi. SHuning uchun ham majburlovchi hokimiyatni siyosiy hokimiyatdan farqlamoq kerak.

Hokimiyat ko'rinishlari yuqorida qayd etganlar bilan cheklanmaydi. U sub'ektiga ko'ra-davlat, partiya, kasaba uyushmasi, armiya, oila va boshqalar hokimiyatiga; qanday funksiyalarni bajarishga ko'ra-qonun chiqaruvchi, ijro etuvchiva sud hokimiyatiga; hokimiyat sub'ekti va bo'ekti o'zaro harakatining uslubiga ko'ra-demokratik, avtoritar va totalitar hokimiyatlarga bo'linadi. SHuningdek, hokimiyat tarqalish kengligi bo'yicha – xalqaro tashkilotlar; makrodarajada – davlatning markaziy organlari; mezodarajada – viloyat, tuman tashkilotlari; mikrodarajada – boshlang'ich tashkilotlar hokimiyatlariga ajraladi.

Hokimiyat legitimligi odatda uning qonuniyligi va adolatligini, fuqarolar tomonidan ijobiy baholanishini va ixtiyoriy tan olinishini anglatadi. U hokimiyatning obro'yi bilan, uning mavjud siyosiy institutlarning optimalligiga e'tiqodini shakllantirish va saqlab turish qobiliyati va imkoniyati bilan belgilanadi. "Legitimlik" atamasi o'zining lug'aviy mazmuniga ko'ra fransuzcha "legitimite" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u "qonuniy" degan ma'noni anglatadi. Legitimlik va legallikni aynan bir xil tushunchalar, deb bo'lmaydi. Ular bir biriga mos kelmaydigan tushunchalardir. Agar legallik hokimiyatning huquqiy asoslanishini, uning huquqiy me'yorlarga mos kelishini anglatsa, legitimlik-bu ishonch, hokimiyatni oqlash qo'llab-quvatlashdir. Qonun chiqaradigan har qanday hokimiyat, ularning bajarilishini ta'minlamaganda ham legaldir. SHu bilan birga nolegitim bo'lishi, xalq tomonidan qabul qilinmasligi ham mumkin.

Hokimiyatning legitimligi bir hil emas. U o'zining mazmun-mohiyatiga ko'ra hilma-xil turlariga bo'linadi. Hokimiyat legitimligining uchta mumtoz turini (Maks Veber) ajratib ko'rsatish mumkin. Bu turlar quyidagilardan iborat:

1.An'anaviy legitimlik. U azaldan o'rnatilgan tartiblarning buzilmasligi va muqaddasligiga bo'lgan ishonchga, hokimiyatga buysunishlik urf-odatlarga binoan qaror topadi. Uning negizini siyosiy an'analarga, urf-odatlarga ishonch tashkil etadi.

An'anaviy legitimlik monarxiyalarga xos xususiyatdir. Bunda ko'p asrlik an'analarga, hokimiyatning meros tariqasida o't ishiga, fuqarolarning hukumdorlarga so'zsiz buysunishlariga, ular o'rtasidagi munosabatlarning norasmiyligiga asoslaniladi.

An'anaviy legitimlik tarixiy jarayonda ancha o'zgarishlarga yuz tutgan bo'lsa-da uni bugungi kunda ham kuzatish mumkin.

2. Xarizmatik legitimlik (yunoncha "xarizma" – xudo tomonidan in'om etilgan ilohiy qobiliyat). Bu legitimlik rahbarning xaddan tashqari ilohiy qobiliyatiga,

favqulodda iste'dodiga, ya'ni xarizmaga ishonishga asoslanadi. Uning negizini tarixiy an'analar emas, balki shaxsga xalqning cheksiz ishonchi tashkil etadi.

Legitimlikning xarizmatik turi an'anaviy legitimlikning tamomila aksidir. An'anaviy legitimlik an'ana, urf-odatga bog'langan bo'lsa, xarizmatik legitimlik, aksincha, shu payitgacha tan olinmagan tamomila yangi narsalarga, yangi g'oyalarga asoslanadi.

Tarixiy tajriba shuni ko'rsatdiki, xarizmatik legitimlik ko'pincha o'tish davrlarida tez-tez kuzatiladi. Har bir tarixiy davr muayyan xarizmatik turdagi legitimlikni ilgari suradi. Bundan hozirgi davr ham istisno emas.

3. Oqilona-huquqiy legitimlik – legitimlikning mustaqil turidir. U legitimlikning an'anaviy, xarizmatik turlaridan farq qiladi. Oqilona-huquqiy legitimlik fuqarolarning alohida shaxslarga emas, balki davlat tuzilishiga bo'lgan ishonchiga asoslanadi. Uning manbaini oqilona anglangan manfaat tashkil etadi. Bu manfaat kishilardan umumjahon tomonidan e'tirof etilgan qoidalar bo'yicha shakillangan hukumat qarorlariga ihtiyoriy buysunishni uyg'otadi.

Oqilona-huquqiy legitimlik ilg'or, demokratik davlatlarga xos xususiyatdir. Bunday davlatlarda kishilar rahbar shaxsga emas, balki qonunlarga bo'ysunadi, hokimiyat vakillari demokratik tamoyillar asosida saylanadilar va harakat qiladilar. Ularda konstitutsiya asosiy huquqiy akt hisoblanib, sosial xulq-atvorlarning muayyan qoidalarini belgilab beradi. Bu qoidalarga barcha fuqarolarning, shu jumladan siyosiy rahbarlarning ham qattiq rioya qilishlari urf-odatga aylanadi.

Hozirgi zamon siyosiy amaliyotida oqilona-huquqiy legitimlikni sof, ideal holda uchratish qiyin. Uni ko'pincha boshqa turlar bilan bog'langan, oqilonalikning an'anaviylik bilan to'ldirilgan va boyitilgan holda uchratish mumkin.

3.Siyosiy tizim, turlari va uning jamiyat hayotida tutgan o'rnini va ahamiyati.

Jamiyatning siyosiy tizimi ma'lum tuzulmadan iborat bo'lib uning elementlari o'zaro bog'langan va barqaror birlikdan iboratdir. Siyosiy tizim jamiyatning maqsad va vazifalarini aniqlash, mavjud imkoniyatlarini amalga oshirishga safarbar qiluvchi mexanizmdir. Demak, siyosiy tizim siyosiy hokimiyatni shakllantiruvchi va amalga oshiruvchi davlat, siyosiy ijtimoiy tashkilotlari va munosabatlar yig'indisidir.

Milliy demokratik davlatchilikni qonun chiqaruvchi, ijro va sud hokimiyatlariga bo'linish borasidagi konstitutsiyaviy tamoyil asosida barpo etish nazarda tutilgan.

Siyosiy tizim o'zida jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, etnik va milliy tuzulmalarni, demografik jarayonlarni, aholining ma'lumot darajasini, ijtimoiy ong holatini, ma'naviy qadriyatlarni va ma'rifiy-mafkuraviy hayotni, xalqaro ahvolni aks ettiradi. Siyosiy tizim orqali manfaatlarining asosiy guruhlarini aniqlanadi. Hozirgi sharoitda jamiyatimiz siyosiy tizimi oldida turgan eng muhim vazifa bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tishda turli manfaatlar muvozanatini to'g'ri aniqlab olishdir. Siyosiy tizim manfaatlarini muvofiqlashtirish va yaxlit holga keltirish vazifasini ham bajaradi. Siyosiy tizimni barqarorlashtirishni ta'minlash uchun siyosiy hayot ishtirokchilari manfaatlarining, ular o'rtasida vujudga keladigan ihtiloflarni hisobga olib, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy qatlamlar, guruhlar, siyosiy kuchlarni, shuningdek, tashkilotlar va harakatlar manfaatlarini muvofiqlashtiradi.

Siyosiy tizimni tashkil etuvchi elementlar siyosiy hokimiyatni shakllantirish va amalga oshirishda tutgan o'rniga qarab to'rtta kichik guruh (tizim)ga ajratiladi. Ular quyidagilardir:

– Tashkiliy tizim - davlat, siyosiy partiyalar, ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar va harakatlardan iborat;

- madaniy – mafkuraviy tizim. Unga siyosiy madaniyat, siyosiy ong, mafkura, jamoatchilik fikri kiradi;
- me'yoriy tizim. Ushbu tizimga siyosiy – huquqiy, tashkiliy, ahloqiy, siyosiy va boshqa me'yorlar kiradi;
- axborot kommunikatsiya tizimi. Ommaviy axborot vositalari, kommunikatsiyalar va infratuzilmalardan iboratdir;
- jamiyat siyosiy tizimini tashkil qiluvchi ana shu kichik tizimlarning hammasi ham siyosiy maqsadlarni amalga oshirish uchun o'z vazifasiga ega.

Jamiyat siyosiy hayotida tashkiliy tizimga kiruvchi davlat va siyosiy partiyalar siyosiy maqsadlarni amalga oshirish uchun tuziladi.

Madaniy-mafkuraviy tizim mamlakatda amal qiladigan siyosiy partiyalarning ma'lum g'oyalar va qarashlarga tayanishlari bilan bog'liqdir. Bugungacha jahondagi siyosiy partiyalarning faoliyatlarida liberal, konservativ, radikal, milliy, socialistik va boshqa turdagi g'oyalar ilgari surilgan. Demokratik jamiyat g'oyalar hilma-hilligi konsepsiyasiga tayanadi.

U yoki bu mafkurani davlat mafkurasi sifatida belgilamaydi. Jamiyatning siyosiy tizimi va uning tashkiliy tuzilmalari ma'lum siyosiy me'yorga tayanib faoliyat ko'rsatadi. Aks holda uning faoliyati uyg'un va barqaror rivojlana olmaydi.

Siyosiy tizimda davlat markaziy o'rinni egallaydi. Zero, jamiyatda mavjud bo'ladigan barcha tashkilotlar davlat faoliyati bilan bog'liq bo'ladi. Davlat o'zining mukammal maqomiga ega bo'lib, ma'lum hududga, o'z aholisiga va ma'lum bir tashkilotlarga ega bo'ladi. U ixtiyoriy, majburiy ijtimoiy siyosiy tashkilot hisoblanadi. Davlat ishontrish, majbur qilish, umummanfatlarni amalga oshirishda turli vaziyatlar (manipulyatsiya)ni qo'llash va soliq yig'ish kabilarda tanho huquqqa ega. Davlatning yana bir muhim belgisi - uning suveren bo'lishligidir.

Siyosiy tizim nazariyalarining ko'p xilligi ular ta'riflarining ham xilma — xilligini keltirib chiqaradi. Ular ba'zan bir — birini inkor etadi. Eng umumiy tarzda **jamiyat siyosiy tizimi — siyosatni shakllantirish va amalga oshirish bilan bog'lik munosabatlar, xarakatlar, tashkilotlar, me'yorlar, kadriyatning umumlashgan ifodasidir.** Tushuncha siyosiy faoliyatning barcha turlarini va sohalarini qamrab olish va tahlil qilish imkonini beradi.

Politologlarning aksariyati siyosiy tizim nazariyasining ahamiyatini — ta'kidlab, uni "ijtimoiy va siyosiy tahlilning nihoyatda qimmatli vositasi" deb baholashadi, ko'p hollarda uni hatto "muammolarni hal qiluvchi" konsepsiya, deb ham atashadi. Bu bilan ular siyosiy tizim nazariyasining nafaqat nazariy, balki, amaliy ahamiyatini ham ko'rsatadi.

Jamiyat siyosiy tizimi tushunchasi "barqarorlik", "turg'unlik", "muvozanat" kabi hodisalarning mohiyatini chuqurroq ochib beradi va ularning rivojlanishidagi u yoki bu bosqichi holatiga to'g'ri baho berish, ahvolni tuzatish buyicha oqil, yo'l — yo'riqlar ishlab chiqish imkonini beradi.

Ushbu nazariya, shuningdek, davlat, partiyalar, ijro etuvchi hokimiyat, sud organlari, jamoat birlashmalari kabi institutlarni jamiyat siyosiy tizimining tarkibiy qismlari sifatida o'rganadi, ularning mohiyatini o'zaro aloqadorlikda va o'zaro ta'siri jarayonida ochib berish imkonini oshiradi.

Siyosiy tizim nazariyalari mualliflaridan biri Gabriel Almondga ko'ra siyosiy tizimlar quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Siyosiy ijtimoiylashuv — jamiyat a'zolarini siyosiy faoliyatga jalb-etish;

2.Manfaatlar artikulyasiyasi — siyosiy qarorlarni qabul qilishga aloqador qatlamlarga talablarni etkazish.

Z.Manfaatlarni umumlashtirish va e'tirozlarni, talablarni kelishtirish orqali ularni bir siyosiy platforma, siyosiy bayonot ko'rinishiga keltirish. Bu vazifa, ko'pincha, partiyalar tomonidan amalga oshiriladi.

4.Siyosiy muloqot — siyosiy tizim ichida va tashqi muhit bilan turli vositalar, shu jumladan, axborot almashuvi orqali amalga oshiriladi.

5.Fuqarolar va siyosiy tizim institutlari, tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi normalarni ishlab chiqish.

4.Siyosiy tuzum va davlat boshqaruvi.

Siyosiy tuzum haqidagi nazariyalarda ularni turli xil mezonlarga ko'ra turkumlashga xarakat qilinadi.

Ushbu tipologiyalarning ko'pligi siyosiy sohaning murakkabligi va xilma — xilligi bilan asoslanadi. SHu nuktai nazardan, har bir amalda mavjud siyosiy tizim turli bo'linishi Aniq emas, bunday sharoitda kuch — hal qiluvchi rol o'ynaydi;

4) totalitar siyosiy tizimlarda jamiyat to'laligicha davlat tomonidan nazorat qilinadi.

Totalitarizm

Totalitarizm - (lot. totalitas) — to'liq, butunlik, g'oyalar, fikrlar, nuqtai — nazar sifatida juda qadimiy ildizlarga ega. Miloddan avvalgi V asrda Geraklit donolik va mukammal bilim asosida barcha narsalarni boshqarish mumkin, deb hisoblagan. Aflotun, T.Mor, T.Kampanella, G.Babef. Sen—Simon, J.J. Russo davlatning aynan totalitar modellarini ishlab chiqishgan. Keyingi mualliflardan Fixte, Gegel, Marks, Nisshe, Lenin, Sorel, Zombart asarlarida bu g'oyalar rivojlantirilganini ko'ramiz.

Totalitarizm tushunchasi XX asr boshlarida K.SHmitt asarlarida, huquqiy davlat paradigmasini tanqidiy qayta ko'rib chiqish munosabati bilan, nazariy asoslab berilgan. 20 — yillarning oxirida tushuncha Italiyadagi real siyosiy tartibotni baholash uchun Djovani Amendola va P'erro Gobbeti tomonidan ko'llandi. Ularning maqsadi totalitarizmning despotizm, oligarxiya, tiraniya kabi tartiblardan farqini ko'rsatish bo'lgan. Mussolini va uning tarafdorlari totalitarizm tushunchasiga ijobiy ma'no berishgan, uni ko'klarga ko'tarishgan. 20 — yillardan "totalitarizm" politologiyaning terminlaridan biriga aylandi. XX 40—50 yillarida R.Aron, "Demokratiya va totalitarizm" „X.Arendt,"Totalitarizm manbalari", K.Fridrix va Z.Bzejinskiy,"Totalitar diktatura va avtokratiya" asarlarida totalitarizm konsepsiyasi yaratdilar.

Totalitarizmning zamonaviy konsepsiyalarida totalitarizmi huddi demokratiya, avtoritarizm singari siyosiy tizim turi sifatida qaraladi, unda **hokimiyat amal qilishi usuli** tahlil qilinadi. SHunga ko'ra **totalitarizm**

butun jamiyat ustidan o'z nazoratini o'rnatishga xarakat qiluvchi, o'z legitimligini baxtli kelajak va {totalitar) mafkura bilan asoslovchi, absolyut haqiqatga da'vo qiluvchi tizimdir. Totalitarizm jamiyatda har qanday, shu jumladan, siyosiy plyuralizmni yo'q qilishga intiladi, buning uchun ommaga suyanadi, jamiyatni esa eng zamonaviy, eng ilg'or, deb xalqni ishontirishga urinadi. Totalitar jamiyatda davlat—partiyaga suyanuvchi mafkuraviy davlatdir. Siyosiy tizimni tashkil etuvchi tarkibiy qismlar o'zlarining asl vazifalarini bajarmay, hukmron partiya—davlat birlashmasining ko'rsatmalarini bajaradi.

Totalitar tartibotlar quyidagi 6elgilari va ko'rinishlari bilan ajralib turadi:

1. Butun jamiyat hayoti mafkuraga bo'y sundiriladi. Hukmron mafkuraga absolyut haqiqat maqomi beriladi. Mazmuniga ko'ra totalitar mafkura inqilobiydir. U yangi inson va yangi jamiyat ko'rishni asoslaydi.

2. Axborot manbalarining to'laligicha hokimiyat qo'lida ekanligi. Aholining siyosiy madaniyati siyosiy axborotlardan xabardorlik bilan almashinadi. g'oyaviy muxoliflar dushman sifatida baholanadi;

3. Davlat mavkeining kuchayib, fuqarolar jamiyati, har qanday shaxsiy hayotining yo'qqa chiqarilishi; Totalitarizmning asl maqsadi — fuqarolik jamiyatining har qanday ko'rinishlarini yo'q qilish. Inson yoki ijtimoiy guruhlarining mustaqilligini ta'minlovchi barcha, narsalar emiriladi, inson siyosatdan mutlaqo begonalashgani holda, siyosat sub'ekti deb baholanaveradi;

4. Rahbar partiya davlat apparati bilan birlashib ketishi natijasida jamiyatni nihoyatda markazlashgan davlat — partiya nomenklaturasi boshqaradi;

5. Ijtimoiy nazorat va zo'rlik apparati kuchayadi;

6. Markazlashgan iqtisod davlat mulkning barcha shakllari ustidan kattiq nazorat o'rnatishi;

YUqorida sanab o'tilgan umumiy belgilar bilan birga totalitar tuzumlar muayyan farqlar, o'ziga xos belgilarga ham ega. Bu — ularning bir nechta ko'rinishlarini ajratib, o'rganish imkonini beradi. **Hukmron mafkuraga ko'ra** ularni kommunistik, fashistik, nasional — sosialistik tartibotlarga bo'linadi. Totalitarizmning tarixan birinchi va klassik ko'rinishi — sovet ' tarzidagi kommunizm sosializmdir. Garabda uni "sul totalitarizm", deb ham baholanadi. Kommunistik jamiyat xususiy mulkni bekor qilish bilan shaxs erkinligini ham yo'q qiladi, davlatning mutloq hokimiyatini ta'minlaydi.

Fashizm Italiyada 1922 yilda o'rnatilgan. Italiya fashizmi asosan millat ravnaqi, Rum imperiyasi buyukligi tiklash vazifasini qo'ygan. Fashizm "ruhi"ni poklash, madaniy yoki etnik asosda kollektiv bir xillikni ta'minlash, jinoyatchilikni yo'qotish da'volari bilan chiqadi.

Nasional — sosializm 1933 yilda Germaniyada vujudga keldi. U fashizmdan o'sib chiqqan bo'lsa—da, ko'p xususiyatlarini sovet kommunizmidan olgan. Xususan, inqilobiylikni, sosialistik g'oyalarni, totalitar partiya va davlat tuzish shakllarini v.h. Faqat "sinf" tushunchasining o'rnini — "millat", "sinfiy manfaatlar" ni—"milliy va irqiy manfaat" oladi. Kommunistik tizimlarda kurash tig'i ichki, sinfiy dushmanga qaratilgan bo'lsa, nasional- sosializmda tashqariga, boshqa xalqlarga qarshidir. Ushbu totalitar tuzumlarning asosiy farqi ularning turli maqsadlarida — (kommunizm, imperiyani tiklash, oriylarning dunyo hokimiyati) va suyanadigan ijtimoiy kuchlarning har — xilligidir (ishchilar sinfi, rimliklarning avlodlari, german millati). SHu uch totalitar davlat turlari ichida ham aynan o'xshashlari kam, ma'lum xususiyatlari bilan ular farqlanib turadi. Masalan, SSSRdagi stalinizm bilan Kampuchiyadagi Pol-Pot rejimi. Bu farqlarning manbaini albatta, madaniyatlaridagi farqlaridan izlash lozim.

Totalitar tartibotlarda siyosiy barqarorlik yuzaki, bu, ayniqsa, rahbarlar almashinuvi jarayonida kuzatiladi. Negaki, bu tartibotlarda hokimiyatlarning bir shaxsdan ikkinchisiga o'tishi tartibi, tadbirlari ishlab chiqilmagan, ishlaymaydi. Totalitar davlat o'z zimmasiga juda ko'p vazifalarni yuklaydi, shu jumladan o'ziga xos bo'lmaganlarini ham, ammo, ularni to'la ko'lamda bajara olmaydi. Natijada bunday tartibotlar yoki emiriladi, yoki asta-sekin liberallasadi.

Avtoritarizm

Avtoritarizmning dastlabki ma'nosi – avtoritet va an'anaga asoslangan kattalar hokimiyatini hurmat qilish. U jamoa manfaatlarining shaxs manfaatlaridan ustunligiga asoslanadi.

Avtoritarizmning shakllari absolyut monarxiya, diktatura, posttotalitar rejimlardir. Avtoritar rahbarlar qo'rqitish, qirg'in, zo'rlikni qurol qilib olishlari, hamda shu bilan birga, ommaning ishonchini qozonishga, qonunga suyanishga v.h. vositalarga ham murojat qilishlari mumkin. Tarixdagi barcha avtoritar tartibotlar hukmronlikning an'anaviy va xarizmatik turlariga asoslangandir. Totalitar tartib emirilgandan so'ng tashkil topgan davlatlarning ko'pchiligida avtoritar rejimlar amal qiladi. Uning zaif va kuchli tomonlarini yaxshi bilish lozim. Avtoritarizm zaif tomonlarini: siyosatning ayrim shaxs yoki guruh irodasiga to'laligicha bog'liqligi: fuqarolarning siyosiy hayotda chetlanganligi; yuutun jamiyatning siyosiy o'yinlar, avantyuralar qurboni bo'lish potensial xavfining doimiy mavjudligi; umid, O'rta asrlardagidek, podsho, rahbar, etakchining adolati, zakovatiga bog'liqligi tashkil etadi. SHu bilan birga avtoritar tuzumlarning bir qator ijobiy tomonlari ham borki, ular, ayniqsa, o'tish davrini boshidan kechirayotgan jamiyatlarda o'z samaradorligini, amalda - ko'rsatadi. Avtoritar hokimiyat — kuchli hokimiyat, shuning uchun uning jamiyatda tartibi, barqarorlikni ta'minlash qobiliyati bir muncha yuqoriroq Bu hokimiyat turli kuchlar qarshiligini sindirib jamiyatda tarkibiy o'zgarishlarni tez o'tkaza oladi, va butun imkoniyatlarni eng dolzarb muammolarni hal qilishga yo'naltira oladi. Tub islohotlar va o'zgarishlar davrida ana shunday kuchli hokimiyatning mavjud bo'lishi, albatta, afzalroqdir. Avtoritar tartibotlar ichki mohiyatiga ko'ra turlicha bo'lali. Avtoritar tuzumlarning aksariyati zamonaviylashuv yo'lidan boradi. Hozirgi vaqtda avtoritar tartibotlar demokratiyaga yo'nalganligi bilan harakterlanadi, Bunday yo'nalgan siyosiy rejimlar jamiyatda, bozor munosabatlarini qaror toptirish, o'rta qatlam nufuzini ortirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, qonun ustuvorligini ta'mirlash, jamiyatni siyosiy va, umumiy, har qanday plyuralizmga tayyorlash vazifalarini bajaradi. Ularning faoliyat davrlari turlicha. Bir necha yuz yillik tarixga ega barqaror monarhiyalardan to bir necha kunlik harbiy diktaturalargacha.

Avtoritarizmning quyidagi asosiy xususiyatlari ko'rsatiladi:

- 1.Hokimiyatning bir shaxs yoki kichik bir guruh qo'lida to'planganligi;
- 2.Hokimiyatning cheklanmaganligi, fuqarolar tomonidan nazorat qilina olmasligi (hokimiyat qonunlar asosida ish ko'rish mumkin, ammo bu qonunlar hokimiyat xtiyojlariga ko'ra qabul qilinadi);
3. Kuchga suyanish. Avtoritar tuzum xalq tomonidan quvvatlanishi, repressiyalar, zo'rlik ishlatilmasligi mumkin. Ammo u etarli kuchga ega bo'lib, istalgan vaqtda itoat va tartib o'rnatish layoqatiga ega;
- 4.Hokimiyat va siyosat sohasida yakka hukmronlikning o'rnatilishi, amalda muholifot va raqobatga yo'l qo'ymaslik. Avtoritarizm sharoitida bir qancha partiyalar, kasaba uyushmalari va h.lar mavjud bo'lishi mumkin, lekin ular hokimiyat nazoratida bo'ladilar. Ba'zan muholifotning yo'qligi jamiyatning shunga tayyor emasligi, xtiyojini yo'qligi bilan ham izoshlangan.
- 5.Jamiyatning siyosatdan boshqa sohalariga kam aralashishi.Hokimiyat birinchi navbatda o'z xafsizligini ta'minlash,jamoat –tartibini o'rnatish,mudofa,tashqi siyosat bilan shug'ullanadi.Ammo iqtisodiy rivojlanish strategiyasigata'sir etishi,faol ijtimoiy siyosat olib borishi ham mumkin.

6.Siyosiy elitani raqobatli saylovlar jarayonida emas, yuqoridan tayinlash yo'li bilan shakillantiradi.Aftoritar tartibotlarda hokimiyat biror etakchi mafkura yoki siyosiy partiyalarga emas,armiya,din,an'anaviy qadriyatlar v.h.larga suyanadi,jamiyatga yangi qadriyatlar tizimini kiritishga "yangi insonni"shakillantirishga harakat qilmaydi.Aftoritar tartib keng va turg'un ijtimoiy negizi muhtoj,shuning uchun u fuqorolik jamiyatini yo'q qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymaydi,jamiyatning shakllangan,an'anaviy tartibini saqlab qolishga. Aftoritar hokimiyat o'zini cheklovchi mexanizmlarga ega. Masalan,iqtisodda-mulkchilikning ko'p shakllarga egaligi,ijtimoiy sohada-ijtimoiy bir xillikning yo'qligi,sinf,qatlamlarning muxolif sifatida yo'q qilinmasligi,mafkura sohasida-turli qarashlar va nuqtai nazarlarning cheklangan va yashirin (latent)holda mavjud bo'lishi. An'analar-aftoritar hokimiyatning asosiy cheklovchilaridir.

Demokratiya

Hozirgi davrning butun murakkabligi va ziddiyatlariga qaramay uning siyosiy sohasidagi umumiy yo'nalish-demokratiya ekanini shubhasiz. U haqda ko'p gapirishadi,ko'p yozishadi,qarorlarning to'g'riligi u bilan asoslashadi,siyosiy faoliyatning uslublari,vositalari,maqsadlarini ro'y berayotgan jarayonlarning uning nomi bilan izohlashadi. YAngi tashkilot,harakatlar,shu jumladan,milliy harakatlar ham demoeratik liboslarga burkanadi. Inqirozdan chiqishning yagona yo'li-ijtimoiy-siyosiy hayotni demokratlashtirish va jozibali ideal-demokratik jamiyatdir,degan fikr qayta-qayta takrorlanadi.

Demokratiya-xalq xokimiyati sifatida tarjima qilinadi. Bu ma'noda, yoki "boshqaruvda to'g'ridan – to'g'ri ishtirok "ma'nosida demokratiyani qabila – urug'chilik jamiyatlaridayok uchratish mumkin. Politologlar xalq xokimiyatining mukammal shaklini YUnonistonning shaxar- davlatlari bilan bog'laydilar.Ijtimoiy jamiyatdagi o'z - o'zini boshqaruv demokratik edi: hap bir qabila a'zosining jamoa xayotida ishtiroki tabiiy ravishda belgilanar edi. Bu davr jamoa va uning a'zolari manfaatlari bir - biriga mos tushar, xozirgi ma'nodagi siyosat yo'q edi.

Qadimgi demokratiya jamoa a'zolarining jamoa ishlarida to'g'ridan – to'g'ri ishtirokiga asoslangan. Demokratiyaning bu elementlari hamma xalqlarda uchraydi. Xususan, akademik Bartol'dning "eski turklarda... demokratiya turi mavjud edi", - degan xulosasi mavjud.

Siyosatning murakkablashib borishi, ya'ni ko'plab manfaatlarning ajralib chiqishi bilan xukmronlik itoat munosabatlari qaror topdi. Xokimiyat pogonaviy tus oldi. YUnon davlatchiligi tarixi ana shu munosabatlarning (avtoritar) mazmunini yangi, demokratik ma'no bilan to'ldirdi. " Hokim – oq suyak - zodagonlar - demos (xalq)" pog'onaviy hukmronlik tartibi o'rnini' "xaq yig'ini - (chek, 'saylash, rotasiya asosida) tayinlanuvchi lavozim egalari- etakchi munosabatlari egaladi. Yog'in - xokimiyatni tayinlovchiga aylandi, ya'ni oliy hukmron ustidan hukmronlikka ega bo'ldi, ya'ni xalq - hokimiyatning manbaiga aylandi.

SHunday qilib, antik davrdayoq demokratiya rivojida ikki yo'nalish belgilandi: birinchisi, o'z –o'zini boshqaruvchi demokratiya, ya'ni fuqarolarning to'g'ridan-to'g'ri ishtirokini nazarda tutuvchi tartib. Bu tartib u yoki bu tarzda barcha jamiyatlarda amal qiladi, xususan, bizning tariximizda ham boshqaruv elementi tarzida mavjud bo'lib kelgan. Ikkinchisi, umumxalq demokratiyasi. U fuqarolarning tengligi, burchlar, qonun oldida javob berish va qonun asosida hukm yuritish tamoyillariga asoslanadi.

Hozirgi vaqtda demokratiya – xalqni hokimiyat manbai, deb e’tirof etuvchi, fuqarolar tengligi, ozchilik huquqlarini himoyalovchi, davlatning asosiy organlari - saylovlar natijasida shakllanuvchi siyosiy jamiyat tizimi, sifatida tushuniladi.

Demokratiyaning jamiyat xayotini tashkil etish usuli sifatidagi eng muhim afzalliklari u mavjud boshqa boshqaruv usullariga nisbatan xokimiyatni cheklash, uning barqarorligini saqlash va uni bir qo’ldan ikkinchisiga o’tishi mexanizmlarini atroflicha ishlab chiqqanligidir. Mana shu xususiyatlari, xamda jamiyatdagi ixtiloflarni tinch yo’l bilan muhokama, yon bosish, kelishuv orqali hal qilishga asoslanganligi - bugungi kunda ko’p mamlakatlar uchun demokratiyani jozibali va ma’qul rivojlanish yo’liga aylantirmokda.

Adabiyotlar:

O’zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. T. O’zbekiston. 2011.

Karimov I.A. Asarlar to’plami. 1-19 jildlar. T. O’zbekiston. 1996-2011.

Karimov I.A. YUksak ma’naviyat – engilmas kuch. T.-Ma’naviyat. 2008.

Karimov I. A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari. T. O’zbekiston 2009 yil.

Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T. - O’zbekiston. 2010.

Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. – T.: O’zbekiston, 2011.

Karimov I.A. O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T. - O’zbekiston. 2011.

Karimov I.A. Bunyodkorlik, yangilanish, mexr-muruvvat yo’li. Prezident I.A.Karimovning 2012 yil 21 mart Navro’z umumxalq bayramiga bag’ishlab so’zlagan nutqi. T.// Xalq so’zi.2012 yil 22 mart.

Karimov I.A. Inson xotirasi - boqiy,qadr-qimmati – ulug’. Prezident I.A.Karimovning 2012 yil 9 may- Xotira va qadrlash kuniga bag’ishlab so’zlagan nutqi. T.// Xalq so’zi.2012 yil 10 may.

Nosirxo’jaev S., Safarboev M., Sultonov K Siyosatshunoslik fanidan ko’rgazmali metodik qo’llanma. – T., 2007.

Odilqoriev X.T.Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik.T., 2008.

Xolbekov A., Jumaev R., Umarova N. va boshqalar “Boshqaruvning ijtimoiy- siyosiy yo’nalishlari” - T:, G’. G’ulom, 2008.

Artikbaev O.S., Ganiev J.X. Siyosatshunoslik. O’zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. – T., 2009.

Jumaev R.Z. va boshq. Siyosiy islohotlar strategiyasi. – T.: Akademiya. 2010.

“Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”ni o’rganishga bag’ishlangan Respublika ilmiy–amaliy konferensiya materiallari. (2011 yil 16 mart). Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi, O’zbekiston Milliy universiteti, “Siyosatshunoslik” kafedrası, Respublika “Kamolot” YOshlar ijtimoiy harakati,– T.: Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy universiteti. 2011. – 413 b.

Odilqoriev T., Razzoqov D. Siyosatshunoslik. Darslik. – T: O’qituvchi, 2011.

3-mavzu. Davlat va fuqarolik jamiyati institutlari.

Reja:

1. Davlat tushunchasi va uning funksiyalari

2. Fuqarolik jamiyati, uning mohiyati va mazmuni.

3. Siyosiy partiyalar va ularning fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda tutgan o'рни.

1.Davlat tushunchasi va uning funksiyalari

Ijtimoiy fanlarda davlat va siyosiy hokimiyat tushunchalari bir butun qaraladi, negaki davlat hokimiyati oliy siyosiy hokimiyat tarzida namoyon bo'ladi. Hokimiyatga doir kundalik tasavvurlar uni "boshqaruv", "davlat hokimiyati" doirasi bilan cheklaydi. Bu leksikada ham o'z ifodasini topgan: Masalan, fransuz tilida hokimiyat (le pouvoir) — markaziy hokimiyatni ham anglatadi, inglizchada (the power) — (kuchli, qudratli) davlat ma'nosida ham qo'llanadi, nemischada (che ge walt) — qudrat, zo'rlik ma'nolarida ham keladi. Ruschada "vlastʼ" — boshliqni, "vlasti" zsa — davlatning hokimlik muassasalarini bildiradi. O'zbek tilida "hokimiyat" so'zining ma'nolaridan biri — davlat boshqarmasi va " uning organlari; hukumat, siyosiy hukmronlikni anglatga, "hokimiyat" tushunchasi "o'z izmiga yurgizuvchi, o'z fikrini o'tkazuvchi", hukmron ma'nolarida keladi.² Bu an'ana-barcha xalqlar "tarixiy taraqqiyotining muayyan davrlarida davlat - hokimiyatni o'z qo'lida to'lrq mujassam etgan tashkilot bo'lganidan kelib chiqadi.

SHunday qilib bu o'rinda gap hokimiyatning ko'pchilik qo'lida to'planishi to'g'risida ketadi. Ammo kuchli markaziy hokimiyatsiz mamlakatda qonun ustivorligini, tinchlikni ta'minlash, butun jamiyat samarali taraqqiyot yo'lini ishlab chiqish va amalga oshirish mumkun emas. Barcha rivojlangan demokratiyalar-kuchli markazlashgan davlatga modelida davlatning o'ta markazlashishiga to'sqinlik qiluvchi mexanizmlar ishlab chiqilgan va ular amalda qo'llanadi. Bu mexanizm bir necha sohada amal qiluvchi kafolatlar tizimidan iborat. Quydagilarga qisqacha to'xtalamiz.

- Siyosiy sohada siyosiy tizimini erkinlashtirish, hokimiyat bo'linishi tamoyillarini amalga oshirish, fuqorolik jamiyatini shakillantirish va hokimiyatning mahalliy organlari vakolatlarini kengaytirish. Bu kafolatlarning "ishlay boshlashi" hokimiyatning barcha darajalaridagi o'zaro munosabatlar mohiyatini tubdan o'zgartiradi.

- Iqtisodiy sohada-jamiyat mulkning turli shakillari mavjudligi, bozor munosabatlari qaror topish-iqtisodiy mustaqilligini oshirish va siyosiy hokimiyatning bu sohadagi ta'sir imkoniyatlarini ancha cheklaydi.

- Huquqiy sohada –hokimiyat turli darajalarning vakolatlari qonun bilan belgilanishi va qonunning jamiyatda ustuvorligi ta'minlanishi.

Ijtimoiy sohada turli ijtimoiy qatlamlarga o'z manfaatlarini ifodalash uchun barcha sharoitlarning mavjudligi, fuqorolik jamiyatining mavjudligi; 1 Davlat hokimiyatining yakka mareazli modeli (manarxiya, diniy, harbiy v.h. davlat) hokimiyatning bir markazda to'planishini aks ettiradi. Hatto eng ilg'or jamiyatlarda ham davlat hokimiyatining yakka markazda to'planishga intilishi tendensiyasi kuzatiladi byurokratiya, texnokratiya, meritokratiya).

Hokimiyatning yakka markazli modeli an'anaviy davlatchilikka xos. Xususan, qadimgi Xitoyda legizm nomi bilan mashhur bo'lgan ta'limot—davlatda yagona qonunchilik amal qilishi lozimligi va shu qonun oldida jamiyatdagi barcha tabaqalar va guruhlarining tengligi tamoyilini o'rnatish orqali markaziy hokimiyat tomonidan boshqariladigan va burch hamda ijtimoiy maqsadlarga sidqidildan xizmat qilishga qaratilgan davlatni yaratishni maqsad qilib qo'ygan. Bunday davlatda barcha qonun

oldida teng: "mukofotlashning yagona qoidolari" — faqat xizmat natijalariga ko'ra belgilanishini, "jazolashning yagona qoidolari" — lavozim va avvalgi xizmatlari jazodan holi qilmasligini anglatgan. 2

Legistlar davlat hududlarini ma'muriy qismlarga bo'lib, ularning markaziy hokimiyatga itoat etishini talab etganlar.

Mana shu kabi g'oyalar O'rta Osiyo davlatchiligi tarixida ham keng tarqalgan. Xususan, Amir Temur imperiyasining tashkiliy tuzilishi va mazmuni—adolat, qonun ustivorligiga asoslanganligini yaxshi bilamiz. Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asaridagi quyidagi fikr ham har sohada qonun amal qilishiga ajdodlarimiz qanchalik katta ahamiyat berganliklarini tasdiqlaydi: "Qachonki podshohlik tartibi va siyosat qoidasi bir izga solinsa, adolat ishlari ham huddi shunday bo'ladi".3

Agar an'anaviy jamiyatlar uchun "davlat" va "jamiyat" asosan mos tushunchalar bo'lsa, zamonaviy jamiyatlar, albatta shartli ravishda, davlat va fuqarolik jamiyatiga bo'lib o'rganiladi. Lekin har ikkala holda ham davlatning tabiatini aniqlashda uning umumiyliги yoki universaligi xususiyati ta'kidlanadi. Davlat — umumiy qadriyat. Insonlar bugungi kunda davlat shaklidan boshqa tarzda o'zlarining **hamkorlikdagi** hayotlarini tashkil eta olmaydilar. Odamlar nazarida davlat- nafaqat ularni birlashtirish uchun, balki alohida xalq (millat, jamoa) ma'naviyligini saqlash uchun ham zarurdir.

Davlat ega bo'lgak muhim belgi—**suverenitetdir**. Davlat suvereniteti to'g'risida so'z ketganda, jamiyatdagi barcha boshqa jamoa, gyph, tashkilotlar unga nisbatan quyi, tobe vaziyatni egallashi anglashiladi. Muayyan hududda davlat hokimiyatidan ustun hokimiyat yo'q. U barcha hokimiyatlar ustidan suverendir, boshqa barcha hokimiyatlar undan o'z legitimligini oladilar. SHuning uchun davlat suvereniteti quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi:

- hududining birligi va bo'linmasligi;
- hudud chegaralarining dahlsizligi;
- ichki ishlarga aralashmaslik.

Suverenitet ichki va tashqi bo'lishi mumkin. **Ichki suverenitet** — milliy hududda yashovchi va ushbu davlatning fuqarosi bo'lgan (yoki fuqorosi bo'lmagan) barcha odamlar ustidan hukmronlik qilish huquqi va vakolati. **Tashqi suverenitet** — mamlakat hududining yaxlitligi va tashqi kuchlarning davlat ichki ishlariga aralashmasligini ta'minlashni anglatadi.

Zamonaviy nazariyalarda davlat suvereniteti cheksizligig'oyasi o'zgarib, u ijtimoiy tashkilotlar va uyushmalar tomonidan cheklanishi tamoyili kiritildi. Eng ko'p o'zgarishlarga bu tushuncha federativ tuzilishga ega davlatlarda uchraydi.

Davlatning umumiyliги va universaligini ta'minlovchi yana bir muhim xususiyati — "qonundir. Ma'lum ma'noda qonun suverenitet ifodasidir. Faqat davlatgina butun jamiyat uchun majburiy qonunlarni ishlab chiqish huquqiga ega. Hokimiyat qonunda va qonun orqali muhim o'zgarishlarga uchraydi: u o'zboshimchalik va zulmdan — hamma uchun majburiy qoidaga aylanadi.

Qonun davlatdan ustun turadi, uning faoliyatini me'yorga soladi. Ammo har doim ham shunday bo'lgan emas. Kadimgi davrlarda qonun siyosiy hokimiyatni ifodalar edi (legistlarni eslang), keyinroq qonun hech kim o'zgartira olmaydigan an'anaga aylandi. Bir qator muhim g'oyalari bilan davlatchilik taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan olim- Montesкье: "inson jamiyat qabul qilgan qarorlarni bajarishi lozim"

degan aqidani, "inson ham, jamiyat ham qonunlarni bajarishlari lozim" degan aqidaga o'zgartirdi. SHu tariqa birinchi bor, inson qo'liga uni jamiyat, davlat zo'ravonligidan himoya etuvchi qurol-qonun berildi.

Qonun-jamiya hayotini tartibga soluvchi, barqarorlashturuvchi vositaga aylanadi.

Davlatning yana bir belgisi –uning ommaviy hokimiyatga, ya'ni muayyan ma'muriy-boshqaruv apparati va huquqiy-tartibot organlariga tayanishdir.

Davlat-kuch, zo'rlik ishlatishning legitim huquqiga ega yagona siyosiy tashkilot. Buning uchun u maxsus vositalar (qurol, qamoqxona kabi) va maxsus organlarga (armiya, polisiya, xafsizlik xizmati, sud, prokuratura) ega.

Davlat-fuqorolik institutiga tayanadi. Bu-uning yana bir belgisi. U fuqorolik hatti-harakatlarini ularning ijtimoiy, diniy, malakaviy yoki boshqa sifatlaridan qat'iy nazar umumiy o'lchov bilan bo'laydi.

Davlat fuqoro bilan ish ko'radi, ular manfaatlari, huquqiy, erkinliklarini amalga oshirish uchun sharoit yaratadi.

Davlat o'z tabiati va belgilaridan kelib chiqib jamiyat oldida turgan masalalarni hal qilish borasida muayyan yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatadi. Uning bu faoliyati boshqa siyosiy institutlarining faoliyatidan ajralib turadi. Xususan, davlat ichki va tashqi funksiyalarini bajaradi.

Davlatning ichki funksiyalariga quyidagilar kiradi.

1. Siyosiy funksiya siyosiy barqarorlikni ta'minlash, siyosiy rivojlanish istiqbollari ishlab chiqishda ko'rinadi. Ko'plab empirik tadqiqotlar ko'rsatishicha, jamiyat singari murakkab tizimlarda siyosiy deyarli barcha jarayonlar va holatlar mohiyatini tashkil etadi, barcha odamlar manfaatlariga ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi dunyoning murakkab, ixtilofli muomolarni faqat texnologik yangiliklar yoki iqtisodiy vositalar yordamida hal qilish mumkin emas. Zamonaviy jamiyatlarning murakkab ichki tuzilishi va manfaatlarining nihoyatda xilma-xilligi sharoitida aynan siyosat sohasida institusionallashtirilgan kelishuvlar mavjudligini taqozo etadi. Siyosat, birinchi navbatda, davlat siyosati, zamon talablariga muvofiq ravishda zarur yondoshuvlarni ishlab chiqadi, turli ijtimoiy-iqtisodiy strategiyalardan barcha ijtimoiy sinflar va guruhlarining manfaatlarini eng ma'qul tarzda muvofiqlashtiruvchi va ularni umummilliy manfaatlariga bo'ysundiruvchi strategiyani tanlaydi. Davlat oliy birlashtiruvchi kuch sifatida jamiyatda mavjud siyosiy muloqotning timsoli bo'lib chiqadi va barqarorlik tartib, rivojlanish kafili vazifasini bajaradi;

Davlat — jamiyat miqyosida manfaatlarni amalga oshirish, ularni muvofiqlashtirish, ixtiloflarning oldini olish yoki ularni bartaraf etish uchun mo'ljallangan maxsus tashkilotlar, muassasalar, devon va ular faoliyatini amalga oshirish va nazorat qilish mexanizmlariga ega. Aslida ijtimoiy munosabatlarni tartibga - soluvchi tashkilot tarzida vujudga kelgan davlatning- siyosiy funksiyalari ortib borayotganligi va u tobora siyosiy tashkilotga aylanib borayotganligini amerikalik sosiolog T.Parsons XX asr 70 — yillarida qayd etib o'tgan.

2. Davlatning iqtisodiy funksiyasi iqtisodiy jarayonlarni soliq va kredit siyosati, iqtisodiy o'sish sharoitlarini yaratish yoki jazo choralarini qullash vositasida tartibga solishida namoyon bo'ladi. Davlatning iqtisodga aralashuvi **me'yoriy** va **pozitiv** tahlil qilinadi. Me'yoriy yondoshuv mamlakatda amal qilayotgan siyosiy tartib bilan belgilanadi va hukumat fuqarolarning farovonligini oshirish uchun nima qilishi kerakligini belgilab beradi. Pozitiv yondoshuv hukumatlarning amaliy hatti — harakatlarini tahlil qiladi.

XX asrda ko'p mamlakatlarda davlatning iqtisodiy funksiyasi kengayishi kuzatildi. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda davlatning ichki yalpi mahsulotdagi umumiy ulushi o'rta hisobda 1913 yildagi 12% dan 1995 yilda 45% ga o'sdi. Ammo XXI asr boshida ko'p davlatlar siyosatida yana "ortga qaytish" ro'y berganligi, davlatlar o'zlarining iqtisodga aralashuvlarini cheklashga xarakat qilayotganligi sezilyapti.

3. Ijtimoiy funksiya: odamlarning mehnat qilish, turar joy, sog'liqni saqlash kabi ehtiyojlarining davlat tomonidan qondirilishi; qariyalar, nogironlar, ishsizlar, yoshlarga ijtimoiy kafolatlar tizimining mavjudligi; xayot, mulk va sog'liqni sug'urta qilish bilan bog'liq vazifalar. Sizga ma'lumki, liberal g'arb davlatlari bu vazifani keng qo'lamda faqat XX asrning o'rtalariga kelib bajara boshladi. Ammo ijtimoiy himoya tamoyili davlat haqidagi eng - qadimgi konsepsiyalarda (masalan, pater nalistik konsepsiyalarda) mavjud bo'lib kelgan. U asrlar davomida davlatning "asosiy vazifalaridan biri bo'lgan. SHu bilan birga, /arb mamlakatlarida an'anaviy ijtimoiy institutlar (oilalar, maxalla) mazmun — mohiyatidagi o'zgarishlar g'arb- davlatchiligi bilan sharq davlatchiligida mavjud muammolarning bir— biriga o'xshamasligini keltirib chiqaradi.

4. Xuquqiy funksiya: huquq—tartibotni ta'minlash, huquqiy me'yorlarni joriy etish, jamiyatni ichki va tashqi xavfdan himoya qilish (ekstremizm, terrorizm).

Ushbu funksiya har qanday davlatning, ayniqsa, sharq davlatining eng muhim jihatini tashkil etadi. Azaldan davlatda — adolat tayanchi, - kafili sifatida qo'aladi. Hukumatga iqtisodiy va boshqa xatolarini surunkasiga kechirib kelgan fuqarolar, davlatga huquq, tartib, adolat, fuqarolarni shaxsiy va mulkiy xavfsizligiga jiddiy xavf tug'dirgan vaziyatlarni kechirmaydi.

5. Madaniy-tarbiyaviy funksiya aholining ma'naviy, ma'rifiy, madaniy o'sishini ta'minlash, ijod imkoniyatlarini yaratishda namoyon bo'ladi.

6. Ekologik funksiya — davlat o'z zimmasiga tabiatni asrash, o'z fuqarolari uchun munosib, sog'lom yashash muhitini ta'minlash majburiyatini oladi. Faqat davlatgina vujudga kelgan ekologik muammolarni nazorat qilish bartaraf etish vazifasini bajara oladi. Bugungi kunda jahonda vujudga, kelgan ekologik muvozanatni saqlab qolish butun dunyo hamjamiyatining vazifasi ekanligini yaxshi bilamiz.

Davlatning tashqi funksiyasi — mamlakatni tashqi xavfdan himoya qilish, boshqa davlatlar bilan o'zaro foydali ko'p tomonlama munosabatlarni o'rnatish va rivojlantirishdan iborat.

Tarix tajribasi shuni ko'rsatib turibdiki, hokimiyat ham, huquq ham qonunlar jamiyat tomonidan e'tirof etilmasa, qabul qilinmasa, ularning bajarilishini kafolatlamaydi. Fuqarolar etarli darajada yuqori madaniy, iqtisodiy va ma'rifiy rivojlanish darajasida **fuqarolik jamiyatiga** uyushadilar va jamiyat hamda davlatning qonunlarga amal qilishini ta'minlay oladilar, jamiyat va davlat tomonidan adolatsizlik va huquqbuzarliklarning oldini ola biladilar. SHunday qilib, huquqiy davlatning birinchi va asosiy sharti fuqarolik jamiyatining mavjudligidir. Haqiqiy huquqiy munosabatlarni suvereniteti va unga umumiy itoat bilan birga huquqning demokratik xalqchil mazmuni ham ajratib turadi. Jamiyatda odamlar mulk egasi bo'lganliklari uchun uni ko'paytirish va himoya qilishga o'zlarini mas'ul, deb biladilar. Bu mas'uliyat hayot, turmush darajasini belgilovchi barcha narsani, jumladan, siyosiy huquq va kafolatlarni ham o'z ichiga oladi. Davlat bu vaziyatda umumiy xavfsizlik va barqarorlik uchun javobgar bo'lib qoladi.

2. Fuqarolik jamiyati, uning mohiyati va mazmuni.

Fuqarolik jamiyati odamlar o'rtasida mavjud iqtisodiy, madaniy, huquqiy, siyosiy nodavlat munosabatlari tizimi, ko'ngilli nodavlat tashkilotlari birligidir.

Bu ommaviy xarakatlar, partiyalar, manfaat guruhlari, sohasi. Fuqarolik jamiyati davlat hokimiyatining o'z—o'zini boshqarish organlariga bir qism vakolatlarini olib berish orqali uni cheklaydi. Fuqarolik jamiyati tarkibiga nodavlat ijtimoiy iqtisodiy munosabatlar va institutlar (mulk, mehnat, tadbirkorlik); davlatdan mustaqil ishlab, chiqaruvchilar va tadbirkorlar (xususiy firmalar), xususiy mulkdorlar; ijtimoiy tashkilotlar va uyushmalar; siyosiy partiyalar va xarakatlar; tarbiya va nodavlat ta'limi sohasi; ommaviy axborot vositalarining nodavlat tizimi oila; din kiradi.

Fuqarolik jamiyati demokratiya qaror topishining sharti. U demokratik jamiyatlarda tugal yaxlit tizim holida to'laqonli faoliyat ko'rsatadi. Boshqa turdagi jamiyatlarda (avtoritarizm) uning elementlari mavjud bo'lishi va u davlat hokimiyatiga ta'sir ko'rsata olishi mumkin.

3. Siyosiy partiyalar va ularning fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda tutgan o'rni.

O'rni va ahamiyati jihatidan siyosiy partiyalar va harakatlar jamiyat hayotida muhim rol o'ynaydi. Siyosiy partiyalar jamiyatni harakatga keltiruvchi asosiy siyosiy kuchlardan biri hisoblanadi. qaysi mamlakatda siyosiy partiyalar harakatda bo'lmas ekan, shu mamlakatda fikrlar erkinligi ham bo'lmaydi, bu hol jamiyat rivojiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Tarixiy taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalanish ro'y bergan va buning oqibatida manfaatlari bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ijtimoiy guruhlar va ular manfaatlarini ifoda qiluvchi siyosiy partiyalar shakllana boshlagan.

«**Partiya**» so'zi lotincha «parz» – qism, bo'lak so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, u jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy sinf, tabaqa, guruhlarining bir qismini, ularning eng ilg'or faol qismini birlashtirgan siyosiy tashkilotni anglatadi.

Siyosiy partiya – ijtimoiy sinf, tabaqa va guruhlarining tub manfaatlarini o'z faoliyatida ifoda etuvchi, ularning muayyan maqsad-manfaatlarini, orzu-umidlarini himoya qilish uchun kurashda ularga siyosiy rahbarlik qiluvchi siyosiy tashkilotdir.

Boshqacha aytganda, **siyosiy partiya** – jamiyatning muayyan qismi, manfaatlarini ifodalovchi va davlat organlari faoliyatida ishtirok etishni o'ziga maqsad qilib qo'yuvchi maslakdoshlarning uyushgan guruhidir.

Siyosiy partiyalar – jamiyatning muayyan ijtimoiy tabaqalari faol namoyondalarini birlashtiruvchi, siyosiy hayotda bevosita ishtirok etish orqali o'z manfaatlarini ifodalovchi siyosiy tashkilot. YOki boshqacha izohlaganda, **siyosiy partiyalar** – qarash va maqsadlari bir bo'lgan turli tabaqa va guruhlardagi fuqarolarning siyosiy maqsadni ko'zlab tuzgan birlashmalari – tashkilotlaridir.

Siyosiy partiyalar saylovlarda ishtirok etib, tegishli organlarga o'z vakillarini o'tkazish orqali davlat hokimiyati organlari faoliyatida ishtirok etadi. SHu bilan birga siyosiy partiyalar zamonaviy jamiyat tizimining muhim qismi bo'lib, ular davlatning siyosiy yo'nalishini belgilashda ishtirok etadi, hukumatning vakillik va ijro etuvchi muassasalarini shakllantiradi.

Siyosiy partiyalarning vujudga kelishi siyosiy hokimiyatni qo'lga kiritish uchun murosasiz kurash olib borish zaruriyati bilan uzviy bog'liqdir. Siyosiy partiya

o'xshash institutlar g'arb va SHarqda qadimdan mavjud bo'lgan^{1[1]}. Tarixdan ma'lumki, siyosiy partiyalar qadimgi YUnonistonda tashkil topgan bo'lib, ular oldin juda ozchilikni o'z saflarida birlashtirgan. Ular tarkibi jihatidan juda tor doirada uyushgan siyosiy tashkilotlar bo'lgan. Ular asosan jamiyatdagi turli sinflarning manfaatlarini emas, balki quldorlar sinfi ichidagi xilma-xil siyosiy oqimlar manfaatlarini ifoda etgan. Afinada geteriylar, Rim optimat va populyarlari antik davrida siyosiy partiya vazifalarini bajarishgan.

O'rta asrlarning siyosiy hayotida ham siyosiy partiyalar o'z mohiyati jihatidan bir oz farq qilgan. Faqat mustabidlik yoki mutlaq hukmronlik tuzumlarida siyosiy partiyalar jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida ochiq harakat qila olmagan.

Sanoatlashtirish davriga qadar siyosiy partiyalarning universal shakli klanlar va maxfiy tashkilotlar edi. Klanlar asosan qarindoshlik aloqalari bilan bog'langan kishilardan iborat edi. **O'rta asrlar** Angliyasida Yorklar va Lankasterlar, Arabistonda (o'rta asrda) esa alaviylar («Ali partiyasi»), Osiyo davlatlarida hozirgi kunda ham qarindoshlik va yurtdoshlik prinsiplarining siyosiy partiyalarning shakllanishi va faoliyat ko'rsatishida ahamiyati katta.

XVIII-XIX asrlarga kelib, siyosiy partiyalar belgilangan tarzda tasdiqlangan dastur, nizomi va doimiy a'zoligi bilan zamonaviy demokratik institutlar shakllanishi davrida paydo bo'lgan. Agar partiya muxolifat xususiyatiga ega bo'lsa, demokratik muassasalar rivojlanmagan sharoitda maxfiy tashkilot xususiyatlariga ega bo'lib qoladi. Masalan, Evropada Massonlar tashkilotlari, Islom dunyosida Ismoiliylar tashkilotlari. Ayrim paytlarda bu siyosiy partiyalar maxfiy tashkilot xususiyatlariga ham ega bo'ladi.

Hozirgi sharoitda amal qilayotgan siyosiy partiyalar o'z ijtimoiy a'zosi, tarkibi va siyosiy harakat dasturining qanday maqsadlarga yo'naltirilganiga qarab 3 guruhni tashkil etadi:

1. Feodal munosabatlari va tartiblarining saqlanib qolishini ifoda etuvchi siyosiy partiyalar. Bu guruhga Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasidagi feodal munosabatlari saqlanib qolayotgan mamlakatlarda faoliyat ko'rsatayotgan siyosiy partiyalar kiradi. Maqsadi: feodal tuzum tartiblarini himoya qilishdan iborat.

2. Burjua sinfi manfaatini ifoda etuvchi partiyalar bo'lib, podsholikni tan oladi, ba'zan sosial-demokratik ko'rinishdagi partiyalardir.

3. Ishchilar, dehqonlar, ziyolilar, hunarmand-kosiblar o'z manfaatini siyosiy faoliyatlari va harakat dasturlarida aks ettiradigan siyosiy partiyalardir.

Avval boshda kapitalistik jamiyatda siyosiy partiyalar XIX asrda burjuaziyaning turli guruhlaridan tuzilgan. **Amerika qit'asida:** AQSH Demokratik partiya (1828), AQSH Respublikachilar partiyasi (1854), Kolumbiya konservativ partiyasi (1848), Kolumbiya liberal partiyasi (1849), Argentina grajdanlar radikal Ittifoq partiyasi (1891), Gonduras liberal partiyasi (1891), Gonduras milliy partiyasi (1891) tashkil topdi. **Evropada:** Belpgiya katolik partiyasi (1830), Italiya respublikachilar partiyasi (1832), Buyuk Britaniya liberal partiyasi (1832), Buyuk Britaniya konservativ partiyasi (1867) tashkil topdi. **Osiyoda:** Hindiston milliy Kongressi partiyasi (1885). **Afrikada:** (asosan XX asr boshlarida) Janubiy Afrikaliklar milliy kongressi partiyasi (1912), JAR Millatchilar partiyasi (1913). **Avstraliya va Okeaniya qit'asida:** Avstraliya leyboristlar partiyasi (1891), Milliy (sobiq agrar)

^{1[1]} Юридик энциклопедия. Т.: «Шарп», 2001, 392-бет.

partiya (1916), Leyboristlar partiyasi (1916), Avstraliya liberal partiyasi (1944) va boshqa partiyalar yuzaga kela boshladi. Siyosiy partiyalar faoliyati O'rta Osiyoda asosan XX asr boshlariga kelib tashkil topdi. Bu avvalo O'rta Osiyoda mustamlakachilik siyosatiga qarshi ozodlik harakati bilan bog'liq bo'lgan. Jumladan, shu yillarda keng yoyilgan jadidchilik harakati tufayli «Turon», «Ittixodi taraqqiy», «Birlik», «SHarq ozodligi», «YOsh buxoroliklar», «YOsh xivaliklar», «Miftah ul-maorif» va boshqa ko'plab ijtimoiy tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ammo sobiq sho'ro hukumatining qurolli istilosi natijasida barcha milliy siyosiy partiyalar faoliyati taqibga olindi va batamom tugatildi. Faqat istiqlol tufayligina O'zbekistonda siyosiy partiyalar tom ma'nodagi jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tarkibiga aylandi.

Partiyaviy tizim – jamiyat ichida ijtimoiy faoliyatni shakllantiruvchi, tashkil etuvchi siyosiy institutlar majmuasidir. Siyosiy institutlar bir tomondan siyosiy partiyalar bilan davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, boshqa tomondan – partiyalar siyosiy tizimning ijtimoiy elementlari va fuqarolar o'zaro munosabatlari ifodasi. Partiya tizimi ma'lum bir jamiyat yoki davlatlar tomonidan qabul qilinmagan. Masalan, Butan, Ummon, quvayt, Saudiya Arabistoni kabilar. SHu bilan birga bir partiyali yoki ko'p partiyali tizimlar ham mavjud.

Siyosiy partiyalarning partiyaviy tizim jihatidan tasnifi, turlari. Dunyo davlatlarida partiyaviy tizim klassifikasiyasi, turlari quyidagilardan iborat bo'lib kelgan:

1. Ko'p partiyaviylik tizimi. Bu tizimda fuqarolarga turli partiyalardan nomzodlarni tanlab olishga va jamiyatni davlatlashtirishda u yoki bu dasturga afzallik berishga imkon yaratadi. Ko'p partiyaviylik tizimi o'z navbatida:

1) Ko'p partiyaviylik tizimida **hukmron partiyalarga** bo'linadi. Masalan, AQSH Demokratik partiyasi (1828), AQSH Respublikachilar partiyasi (1854), Avstraliya leyboristlar partiyasi (1916), Avstraliya Alpyans partiyasi (1966), O'zbekistonda FMDP (1998), XDP (1991) va hokazo.

2) Ko'p partiyaviylik tizimida **hukmronsiz partiyalar.** Masalan, AQSH Kompartiyasi (1919), AQSH Sosial-demokratik partiyasi, AQSH Sosialistik partiyasi. O'zbekistonda bizning taxminimizcha, «Adolat» partiyasi (1995), Milliy tiklanish partiyasi (1995) va hokazo.

3) **Ittifoq (blok) partiyalari.** Masalan, Germaniya sosial-demokratik partiyasi (1869), Xristian sosial Ittifoqi (1945), Erkin demokratik partiya (1848), Xristian demokratik Ittifoqi (1950), «Ko'katparvarlar» partiyasi (1980) va hokazo.

2. Ikki partiyaviylik tizim. AQSHda 2 partiyali tizim tarkib topgan bo'lib, hokimiyat tepasiga Respublikachilar (hozirgi prezident J.Bush) va Demokratik partiya kelib turadi.

3. Bir partiyaviylik tizimi. Tarixning borishi yakka partiyaviylik tizimi davlatda diktatura o'rnatilishiga olib kelishini tasdiqladi.

Politologiya ta'limotida politologlar siyosiy partiyalar tuzilishiga doir turli fikr-mulohazalarni bildirganlar.

Siyosiy partiyalarning tuzumga ko'ra turlari:

1. Burjua-demokratik partiyalar.
2. Avtoritar partiyalar.
3. Sosialistik partiyalar.

Siyosiy partiyalar faoliyatidagi ustunlik xususiyatiga qarab, ularni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. Avangard tipidagi partiyalar.
2. Parlament tipidagi partiyalar.
3. Saylov kampaniyasida ishtirok etish uchun tayinlanadigan partiya (ko'proq rivojlangan mamlakatlarda).
4. Munosabat partiyasi, klub partiyasi (ma'rifatparvarlik xarakteridagi, masalan, Moskva ishchilar klubi va hokazo).

Siyosiy partiyalarning sinfiy belgilariga ko'ra: proletar (ishchi), dehqon, mayda burjua, burjua, pomeschchik partiyalari mavjud bo'lgan.

Siyosiy partiyalar mafkuraviy belgilariga ko'ra: kommunistik, socialistik, sosial-demokratik, xalq, liberal, konservativ, diniy va milliy partiyalarga bo'lingan.

Siyosiy partiyalar mavjud tuzumga ko'ra: inqilobiy, islohotchi, konservativ va reaksion partiyalar bo'lgan.

Siyosiy partiyalar tashkil topishi, faoliyat usullariga ko'ra: demokratik, avtoritar, totalitar partiyalarga ajratilgan.

Siyosiy partiyalar tarkibiga ko'ra: ommaviy partiyalar, xodimlar partiyasi, oq suyaklar partiyasi bo'lgan.

Siyosiy partiyalar siyosiy yo'nalishiga ko'ra: so'l, markaz, o'ng partiyalarga bo'linadi.

Siyosiy partiyalar faoliyatiga ko'ra: bosiq, radikal, ekstremistik partiyalar uchraydi. Demokratik jamiyatning muhim omillaridan biri bo'lgan **ko'ppartiyaviylik** mustaqillik yillarida O'zbekistonda siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalarining vujudga kelishi ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotning ob'ektiv jarayoniga aylandi. Partiya jamiyat hayotini demokratlashtirishda va har bir mamlakat oldida turgan vazifalarni belgilash va amalga oshirishda o'ziga xos o'ringa ega bo'ladi hamda muayyan funksiyalarni bajaradi. **Birinchidan**, jamoatchilik fikrini shakllantiradi. **Ikkinchidan**, siyosiy faoliyatda ishtirok etadi. **Uchinchidan**, fuqarolar siyosiy faolligini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish vazifalarini o'taydi. **To'rtinchidan**, siyosiy madaniyatni oshiradi. **Beshinchidan**, parlament va hukumat faoliyatiga siyosiy maqsadlari orqali ta'sir ko'rsatadi. **Oltinchidan**, davlat oldida turgan maqsadlarning shakllanishi va amalga oshishida faol ishtirok etadi.

Partiya dasturlari siyosiy-ijtimoiy aniq maqsad va funksiyalarga qaratilgan bo'lib, ular 2 turga bo'linadi.

1. Ichki funksiyasiga ko'ra: 1) jipslashtiruvchi; 2) muvofiqlash-tiruvchi; 3) rag'batlantiruvchi; 4) etakchilikka intilish; 5) O'zbekiston mavqeiga mosligi.

2. Tashqi funksiyasiga ko'ra: 1) targ'ibot va tashviqot; 2) ma'lum siyosiy yo'nalishga moslashtirish; 3) siyosiy voqea va jarayonlarga hozirjavoblik kabi vazifalar kiradi.

Siyosiy partiyalar faoliyati quyidagi asosiy yo'nalishlarda olib boriladi:

1. O'z faoliyat maqsadlarini aniqlash va belgilash, o'zining siyosiy, huquqiy, falsafiy, diniy, badiiy qarashlari tizimini yaratish va ularni keng omma orasida yoyish.
2. Jamiyat a'zolarining turli manfaatlarini o'z faoliyati va hujjatlarida mumkin qadar keng qamrab olib, ular uchun eng ma'qul partiyaga aylanishga intilish.
3. Turli organlarga saylovlarni tashkil qilish va o'tkazishda nihoyatda o'rinli va dolzarb shiorlarni o'rtaga tashlab, saylovchilarning mumkin qadar keng doirasi ovozi o'z foydasiga ola bilish.
4. Siyosiy partiya qatoriga yangi a'zolari tortish va saralash yo'li bilan uning etakchi va bilag'onlari tabaqasini shakllantirish.

5. Partiya dasturida ko'rsatilgan vazifalar va va'dalarni qonun chiqaruvchi hamda ijroiya davlat organlari orqali amalga oshirishga harakat qilish.

Demak, siyosiy partiyalar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovlarida ishtirok etadilar.

2. Oliy Majlis saylovlarida ishtirok etadilar.

3. Mahalliy vakillik organlarini tuzishda ishtirok etadilar.

1996 yil 26 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 7-sessiyasi «Siyosiy partiyalar to'g'risida» qonun qabul qildi. (Ungacha siyosiy partiyalar faoliyati 1991 yil 15 noyabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida»gi qonun asosida ish olib bordi). Yangi «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi qonun 17 moddadan iborat. Prezidentlik vakolatlarini bajarish vaqtida siyosiy partiyalarga a'zolikni to'xtatish shart. quyidagilar siyosiy partiyalarga a'zo bo'la olmaydilar: sudpyalar, prokurorlar va prokuratura tergovchilari, ichki ishlar organlari, milisiya, xavfsizlik xizmati xodimlari, harbiy xizmatchilar, xorijiy davlat fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar. Siyosiy partiya tuzish kamida 8 ta hududiy sub'ekt (viloyat), shu jumladan, qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrida yashayotgan hamda partiyaga birlashish istagida bo'lgan kamida 5 ming fuqaroning imzosi bo'lishi talab etiladi (Oldin, 1996 yilgacha 5 ta viloyatdan 3 ming imzo to'plar edi). Siyosiy partiya tuzish tashabbuskorlari kamida 50 kishidan iborat bo'lishi, partiya ta'sis hujjatlarini tayyorlashi, ta'sis s'ezdi yo konferensiyasini chaqirish bo'yicha tashkiliy qo'mita tuzishlari lozim. Tashkiliy qo'mita tuzilgan kundan boshlab 7 kunlik muddatda, kechiktirmasdan Respublika Adliya vazirligiga qo'mita haqida, rahbariyati haqida xabardor qilishi lozim. Tashkiliy qo'mita 3 oy faoliyat ko'rsatishi mumkin. S'ezd yo konferensiya chaqirishi lozim. Ta'sis s'ezdi yo konferensiyada partiya nizomi va dasturini qabul qiladi, organini tuzadi. Nizom qabul qilingach, 1 oy muddatda O'zR Adliya vazirligiga partiya organining kamida 3 a'zosi imzolagan ariza, nizom, dastur, ta'sis s'ezdi yo konferensiya bayoni, ro'yxatdan o'tkazish yig'imi – bank hujjati va boshqalar topshirilishi kerak. Adliya vazirligi 2 oy ichida ko'rib chiqadi. Ro'yxatdan o'tsa, ommaviy axborot vositalari orqali e'lon qilinishi kerak. Siyosiy partiya har yili barchaning e'tibori uchun o'z byudjetlarini e'lon qiladilar va o'z faoliyatini mablag' bilan ta'minlash manbalari to'g'risida Oliy Majlis yo vakolat beruvchi organga hisobot taqdim etadi.

Siyosiy partiyalar tegishli tartibda ro'yxatga olingach, faoliyatini amalga oshiradi. Ular faoliyati O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va maxsus qarorlar bilan tartibga solinadi.

Adabiyotlar:

O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. T. O'zbekiston. 2011.

Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-19 jildlar. T. O'zbekiston. 1996-2011.

Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – engilmas kuch. T.-Ma'naviyat. 2008.

Karimov I. A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T. O'zbekiston 2009 yil.

Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T. - O'zbekiston. 2010.

Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. – T.: O'zbekiston, 2011.

Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T. - O'zbekiston. 2011.

Karimov I.A. Bunyodkorlik, yangilanish, mexr-muruvvat yo'li. Prezident I.A. Karimovning 2012 yil 21 mart Navro'z umumxalq bayramiga bag'ishlab so'zlagan nutqi. T.// Xalq so'zi. 2012 yil 22 mart.

Karimov I.A. Inson xotirasi - boqiy, qadr-qimmat – ulug'. Prezident I.A. Karimovning 2012 yil 9 may- Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlab so'zlagan nutqi. T.// Xalq so'zi. 2012 yil 10 may.

Nosirxo'jaev S., Safarboev M., Sultonov K. Siyosatshunoslik fanidan ko'rgazmali metodik qo'llanma. – T., 2007.

Odilqoriev X.T. Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik. T., 2008.

Xolbekov A., Jumaev R., Umarova N. va boshqalar "Boshqaruvning ijtimoiy- siyosiy yo'nalishlari" - T.; G'. G'ulom, 2008.

Artikbaev O.S., Ganiev J.X. Siyosatshunoslik. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. – T., 2009.

Jumaev R.Z. va boshq. Siyosiy islohotlar strategiyasi. – T.: Akademiya. 2010.

"Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"ni o'rganishga bag'ishlangan Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. (2011 yil 16 mart). Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Milliy universiteti, "Siyosatshunoslik" kafedras, Respublika "Kamolot" YOshlar ijtimoiy harakati, – T.: Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti. 2011. – 413 b.

Odilqoriev T., Razzoqov D. Siyosatshunoslik. Darslik. – T: O'qituvchi, 2011.

4 – mavzu Siyosiy elita va siyosiy etakchilik. Siyosiy kommunikasiyalar Reja.

1. Siyosiy elita tushunchasi, nazariyalari va turlari.

2. Siyosiy etakchilik, nazariyalari, turlari va vazifalari.

3. Siyosiy kommunikasiya tushunchasining mazmuni va mohiyati.

Siyosiy elita tushunchasi, nazariyalari va turlari.

Xo'sh siyosiy elita nima? U siyosiy jarayonlarga qanday ta'sir o'tkazadi ? Elita- so'zi fransuz tilidan olingan bo'lib, "saralangan", "saylangan" degan ma'noni anglatadi. Bu so'z muayyan xolatda narsalardagi eng yaxshi hususiyatlarini, sifatlarni o'zida mujassam etadi, Masalan: bug'doyning elita navi, guruchning elita navi va x.k. Siyosiy elita–bu politologiyaning muhim tushunchalaridan biridir. Bu tushuncha alohida ijtimoiy sifatlarga, siyosiy ta'sir etishning muayyan darajasiga ega bo'lgan va u yoki bu davlatning hokimiyat institutlari uchun rahbar kadrlarning asosiy manbai hisoblangan katta ijtimoiy guruxlarga mansublikni anglatadi.

Elitalar to'g'risidagi qarashlarning ibtidosi urug'chilik tuzumining paydo bo'lishiga borib taqaladi. O'sha davirdan boshlab oq jamiyat oliy va quyi tabaqalarga, aristokratiya va oddiy xalqqa ajratilgan. Ushbu g'oyalar Konfusiy, Aflotun ta'limotlarida erkin ifodalangan.

Dastlabki zamonaviy mumtoz elitalar ta'limoti XIX asr oxiri XX asr boshlarida vujudga kelib, bunda G. Moska, V. Pareto va R. Mixel'slarning xizmati kattadir. G. Moska har qanday jamiyatning ijtimoiy ahvoli va roli nuqtai nazaridan teng bo'lmagan guruhlardan iborat ekanligini ko'rsatishga xarakat qildi. U siyosiy elitalarning shakllanishi va o'ziga xos

hususiyatlarini tahlil qildi. G.Moska fikricha, siyosiy elitalar shakllanishidagi muhim mezon, bu tashkilotchilik, ya'ni boshqa odamlarni boshqara olishlik qobiliyati, shuningdek boshqalarga nisbatan moddiy, ma'naviy, ahlokiy, tafakkur qilish ya'ni, bu erda siyosiy jarayonlarni boshqarishdagi mushohadalari, jihatlaridan ustunligidir. Siyosiy elitalar doimo o'zgarib borib uning taraqqiyotida aristokratik va demokratik yunalishlar mavjuddir. Aristokratik yunalishning ustunlik qilishi siyosiy elitaning "yopiqqligiga va kristallashuviga", ya'ni uning sifat xususiyatlari o'zgarishiga va oqibatda turg'unlashuviga olib keladi. Bu esa o'z navbatida jamiyatda xukumronlik mavqei uchun yangi ijtimoiy kuchlar kurashining faollashishiga olib keladi. Demokratik yunalishdagi taraqqiyotda siyosiy elitalar qatlamlarning etakchilik, boshqaruvchanlikka ega qobiliyatlari odamlar hisobiga yangilanib boradi. Bunday yangilanishlik siyosiy elitaning degenrasiya jarayonlari oldini oladi va uni jamiyatni boshqarishdagi samaradorligini ta'minlaydi.

G.Moska bilan bir davrda va unda mustaqil ravishda siyosiy elitalar ta'limotini V.Paretto ham ishlab chiqadi. V.Paretto fikricha, jamiyatni har doim alohida psixologik va ijtimoiy sifatlarga ega bo'lgan elitalar guruhi boshqarib kelgan va boshqarishlari lozim. Jamiyatni boshqarishning u yoki bu sohasida yuksak va samaradorli faoliyat ko'rsatayotgan individlar guruhi elitalarni tashkil qiladi. Ushbu guruhlar xukumron, ya'ni xokimiyatni boshqarishda bevosita ishtirok etuvchilar va kontrelitalar, ya'ni yuksak sifatlarga ega bo'lgan, lekin hokimiyatni bevosita boshqarishda ishtirok etmayotgan kishilardan iboratdir. Jamiyat taraqqiyoti elitarning davriy va siklik ravishda almashinishi vositasida ro'y beradi. Xukumron elita guruhlar o'z imtiyozlari va ijtimoiy mavqelarini meros tariqasida noelitalar avlodlarga berishga xarakat qiladilar, bu o'z navbatida elita tarkibi sifatining buzilishiga, kontrelita guruhlarining o'sishiga olib keladi. Bunday sharoitlarda xukumronlikdan norozi kontrelita guruhlar ommani safarbar etish vositasida xukumron elita guruhlarini ag'daradi va o'z xukumronligini o'rnatadi.

Elitalar to'g'risidagi ta'limotlar taraqqiyotiga R.Mixel's ham yirik xissa qo'shgan politologlardan biridir. U jamiyatda elitarlikni vujudga keltiruvchi ijtimoiy mexanizimlarni tadqiq qildi. R.Mixel's xukumron qatlamning tashkilotchilik qobiliyatlariga, shuningdek jamiyatning tashkiliy strukturalariga elitarlikni vujudga keltiruvchi vosita sifatida katta e'tibor berdi. R.Mixel's fikricha, tashkil etilishning o'zi elitarlikni talab qiladi.

Jamiyatda "Oligarxiy yunalishlarning temir konuni" amal qiladi, uning mohiyati shundaki, yirik tashkilotlarning tashkil etilishi muqarrar ravishda ularning oligarxiyalashuviga va elitaning shakllanishiga olib keladi. Jamiyatda rahbarlik hamma tomonidan ham amalga oshirila olmiydi. Moska, Paretto, Mixel's va boshqalar tomonidan xar qanday jamiyatga elitarlik xosdir degan g'oyani ilgari surishgan. 1. U imtiyozlarga ega bo'lgan xukumronlik qiluvchi ijod qilish bilan band bo'lgan ozchilik elitalar va sustkash, ijod bilan shug'illanmaydigan ko'pchilikdan- omma iboratdir deb qaraydi.

2. Elitaga alohida psixologik xususiyatlar xos, u esa birinchi navbatda tabiiy ravishdagi qobiliyat va tarbiyaning natijasidir deb hisoblaydi.

3. Elitalarga guruhiy hamjixatlik xos. Bu hamjixatlik holati elitarning faqatgina kasbiy o'rni va ijtimoiy ahvolidan kelib chiqmasdan, balki ularning

elita sifatida jamiyatga rahbarlik qilishga qaratilgan o'z – o'zini alohida qatlam sifatida anglashidan kelib chikadi.

4. Elitalar legitimlik hususiyatiga egadir, ya'ni ularning siyosiy rahbarligi omma tomonidan u yoki bu darajada tan olinadi.

5. Elitalarning tarkibiyliigi va ularning xokimiyatga munosabatlarining doimiyliigidir. Elitalar shaxsiy tarkibining o'zgarishiga qaramasdan, ularning xukumronlikka munosabatlari o'zgarishsiz qolaveradi. Jamiyat tarixiy taraqqiyotda qabila boshliqlari, asilzodalar, xonlar, saidlar, xalq komissarlari, partiya kotiblari o'zgarishiga qaramasdan ularning keng xalk ommasi o'rtasida xukumronlik va buysinuvchanlik pozisiyalari saklanib kolgan.

6. Xokimiyat uchun kurash jarayonida elitalaring shakllanishi va almashinuvi. Xukumronlik va imtiyozli mavqeini egallash uchun yuksak psixologik va ijtimoiy sifatlariga ega bo'lgan ko'pgina kishilar intiladi, lekin hech kim o'z mavqelari va lavozimlarini ko'ngilli ravishda bo'shatib bermaydi, shuning uchun ham ochiq yoki yashirin xolda hukumronlik uchun kurash borishi tabiydir.

Makiavellichilik oqimining asosiy kamchilik tomonlari shundaki, psixologik omillarning ahamiyati oshirib ko'rsatiladi, antidemokratik va antiliberal xarakterdagi rahbarlar roli oshirib ko'rsatiladi. SHuning uchun ham siyosiy ta'limotlar maydoniga elitalarning qadriyatlilik nazariyasi ilgari surilgan. Ular ham makiavellichilarga o'xshab elitalarni bosh konstruktiv kuch deb xisoblaydilar, lekin ular elitalar ta'limotini zamonaviy demokratik davlatlar hayotiga moslashtirishga xarakat qiladilar.

Elitalarning qadriyatlilik ta'limotlari rahbarlik qiluvchi qatlam o'zgarishini ijtimoiy tizim ehtiyojlari va kishilar qadriyatlari o'zgarishlarining natijasi deb qaraydi. Jamiyat taraqqiyoti davomida ko'pgina eski qadriyatlar o'z o'rnini tugatib yangilariga o'z o'rniga bo'shatib beradi. Bu yangi sifat hususiyatlarga ega bo'lgan kishilarning eskilarini siqib chiqarishga olib keladi.

Elitar qadriyatliliigi ta'limotlari demokratik jarayonlarga moslashishga xarakat kiladilar. Bu oqim tarafdorlari fikricha, elitar boshqalar uchun ahloqiy jihatdan o'rnak bo'lishlari va xurmat – e'tiborga ega bo'lishlari lozim. Xaqiqiy elita xukumronlik qilmaydi, balki saylovchilarning ihtiyoriy saylovlari natijasida ularga rahbarlik kiladi.

Elitalar to'g'risidagi qadriyatlilik ta'limotlari demokratik elitalik ta'limotining vujudga kelishiga olib keladi. Bu esa hozirgi davrning keng tarqalgan ta'limotidir. Bu oqimning ko'zga ko'ringan tarafdorlari – S.M.Linset, R.Dal', I.SHumpeter va boshqalardir. Demokratik elitachilik ta'limoti rahbarlik qiluvchi qatlamni faqatgina muayyan psixologik, ijtimoiy xususiyatlarga ega gurux sifatiga qaramasdan, balki demokratik qadriyatlar himoyachisi: ommadagi mafkuraviy va siyosiy irrasionalizim, emosional, beqarorlik va radikallikni chegaralovchi, tartibga soluvchi vosita sifatiga ham qaraydi.

Jamiyatning tarixiy taraqqiyoti ko'rsatishicha, siyosiy elitalar bugungi kunimizning voqeligidir. Siyosiy elitar guruhlarining mavjudligi jamiyat mavjudligining mantiqiy natijasidir.

Siyosiy elitar ichki strukturaviy xarakatga ega bo'lib, u xukumronlik qiluvchi elitalar va kontrelitalardan iborat. Elitani bundan tashqari oliy (20 ming kishi 1ta), o'rta (jamoatchilik fikri barometiri sifatida umumiy aholining 5%) shuningdek ma'muriy (xizmatchi, bitiruvchilar) qisimlarga ajratish mumkin. Elitalarni boshqa xilma – xil mezonlar bo'yicha turkumlashtirish mumkin.

Hozirgi davrda demokratik jamiyatlar uchun dolzarb vazifalardan biri elitar guruhlariga qarshi emas, balki jamiyat uchun foydali siyosiy elitar guruhini shakillantirishdir, unda ijtimoiy vakolatlikning o'z vaqtida sifat jihatdan yangilanib turishini ta'minlash, oligarxiyalashuvi, xalkdan begonalashuvi va yopik xukumron, imtiyozli tabaqaga aylanishining oldini olishdir. Elitalar ijtimoiy vakolatligiga, uning sifatiga va samaradorligiga elitalarni, a'zolari, tanlab olish tizimi muxim ta'sir ko'rsatadi. Elitaga tanlab olishning ikkita asosiy tizimi: gil'diya va antrenrtizimi mavjuddir.

Gil'diya tizimiga talabgorlarni yopiq xolda tanlash, aholining quyi qatlamlaridan xizmat pillapoyalaridan doim yuqoriga qarab qo'ishi: tanlab olishdan yuqri darajadagi talablar bularga partiya a'zoligi, ish staji, ma'lumoti, ilgari egalab turgan lavozimi, rahbarning ijobiy tafsifnomasi va xokazolar kiradi.

Antreperner tizimi gil'diya tizimiga qarama-qarshi bo'lib, bu tizim quyidagilar bilan xarakterlanadi:

1. Ochiqlik, etakchi pozisiyalarni egalashga har qanday ijtimoiy guruhlariga keng imkoniyatlar berilishi: 2. Rasmiy talablarning ko'p emasligi: Keng selektorat guruhi:

3. Tanlab olishdagi yuqori raqobat: SHaxsiy hususiyatlarning etakchi ahamiyatga egaligi va x.k.

Siyosiy elitalar tarkibiga kimlar kiradi? Ularning tarkibiga: oliy raxbar kadrlar, boshqaruvchilar va katta obro'ga ega bo'lgan g'oyaviy ish bilan shug'illanuvchilar intellektuallar, artistlar, ruhoniylarning vakillari, kiradi. Ammo elitalar tarkibiga nafaqat boshqaruvda bevosita ishtirok etuvchi shaxs va guruhlar, balki eng ko'zga ko'ringan iqtisodiy va ma'muriy doiralar, ommaviy axborat vositalari, ta'lim – tarbiya muassasalarining rahbarlari ham kiradi. Siyosiy elitalar tarkibiga siyosat bilan rasmiy jihatdan bog'lanmagan, lekin siyosiy qarorlar qabul qilishiga chetdan ta'sir o'tkazadigan xukumron sinifning vakillari ham kiradi.

Siyosat sub'ektlari orasida elitalar muhim o'rinni egallaydilar. Siyosat – bu elitalarning mahsulidir. Siyosiy elitalar jamiyatda tutgan o'rni va vazifalariga ko'ra, xukumron va muholif elitalarga bo'linadi.

Xukumron elitalar – bu davlat xokimyatiga ega bo'lgan guruhdir. Muholif elitalar – bu kontr elitalar, ya'ni xokimyatni egalash uchun kurash olib boruvchi guruhdir. Siyosiy elitalar o'zining darajalariga ko'ra oliy, o'rta va ma'muriy elitalarga bo'linadi. Oliy elitalar – bu umumdavlat va jamiyat ahamiyatiga ega bo'lgan qarorlarni qabul qiladigan guruhdir. O'rta elitalar esa ijtimoiy doirani barometri bo'lib maydonga chiqadi.

Ma'muriy elitalar – bu xizmatchi – boshqaruvchilardir.

Siyosiy etakchilik, nazariyalari, turlari va vazifalari.

Siyosiy etakchilik hodisasiga sosiologiya, politologiya, psixologiya va boshqa fanlarda ko'plab nazariyalar yunaltirilgandir. Bu hodisaga qiziqish va uni taxlil etishga intilishning ibtidosi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Antik davrning mualliflari Gerodot, Plutarxlar ham siyosiy etakchilik to'g'risida ko'plab muloxazalar bildirishgan.

Siyosatshunoslik nuqtai nazaridan siyosiy etakchilik hodisasini tahlil etishda N.Makiavellining xizmatlari kattadir. Uning fikricha, siyosiy etakchi – bu butun jamiyatni jinslashtiruvchi, ijtimoiy tartiblarni saqlab qolish va mustahkamlash uchun har qanday vositalarni qo'llovchi xukumdordir. Uning bu fikrini Nasiol, Kromvel va boshqa ko'plab buyuk siyosatchilar yuksak darajada qadrlashgan.

Etakchining volyuntaristik nazariyasini G.Kareleyl (1795 – 1881) va R.U.Emersonlar (1803 – 1882) ishlab chiqqanlardir. Ular fikriga ko'ra, tarix qahramon, diniy shaxs ijodining maxsulidir. Aynan buyuk shaxslar faoliyati tufayli tarixda ilohiy tiniqlik va ijodiy, yaratuvchanlik ibtidosi ro'y beradi.

Siyosiy fikrlar ta'limotidagi siyosiy etakchilik nazariyasida F.Nisshe ishlab chiqqan paradigmatlar ham muhim rol o'ynaydi. U oliy biologik tip – etakchilik, yulboshchi insonni, g'ayri tabiiy favqulotda insonni yaratish to'g'risidagi g'oyani asoslashga xarakat qildi. G'ayri tabiiy favqulotda inson insoniy ahloq normallari bilan chegaralanmagan, yaxshilik va yomonlikdan yuqori turadi. U oddiy odamlarga nisbatan shavqatsiz, o'ziga o'xshash favqulotdagi yulboshchi insonlar bilan mehribon, muloym bo'lishi kabi xususiyatlari bilan boshqa kishilardan ajralib turadi. U kuchli, irodali, rivojlangan va go'zal insondir.

Etakchi, yo'l boshchilar to'g'risidagi zamonaviy nazariyalarga G.Tard (1843 – 1904) ijodi sezilarli ta'sir ko'rsatgan. U ijtimoiylashuv to'g'risidagi nazariya asoslaridan biri bo'lib, hayotning asosiy qonunlaridan biri – etakchi, yulboshchilarga izdoshlarning tanqid kilishidir, degan g'oyani asoslashga xarakat qildi. Aholining ko'pchiligi mustaqil ijtimoiy yaratuvchanlikka, ijodiyotga qodir emasdir. Jamiyat taraqqiyotning asosiy manbalardan biri tashabbuskor va noyob shaxslar tomonidan qilingan yangiliklar, kashfiyotlardir. Zamonaviy politologiyada etakchilikka doir bir qancha yondashuvlar mavjuddir:

1. Etakchi – bu boshqa kishilarga ta'sir etish demokdir. Etakchi va uning izdoshlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda tengsizlik mavjud bo'lib, u etakchidan guruh a'zolariga qarab har doim bir tomonlama yunaltirilgan bo'ladi.

2. Etakchilik – bu boshqaruvchanlik maqomi, qarorlar qabul qilish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy pozisiyadir.

3. Siyosiy etakchilik–bu siyosat bozorida amalga oshiriladigan maxsus tadbirkorlik shaklidir. Bunday raqobatchilik kurashuvida tomonlar ijtimoiy vazifalarini echish bo'yicha dasturlar bilan almashinadi. Bu erda siyosiy tadbirkorlik mohiyati shundaki “siyosiy tovar”ning personallashuvi va uni potensial etakchi shaxsiyati bilan o'xshatish hamda ushbu tovarni “umumiy boylik” sifatida reklama qilish ro'y beradi.

Etakchi va yulboshchilikning tabiatini tushuntirib berishda xilma – xil nazariyalar mavjuddir. Ularning biri xarakter nazariyasidir. Ushbu

nazariyaning mohiyati shuki, unda etakchilik xodisasi shaxsning yuksak xususiyatlarga: o'tkir zakovat "fahim – farosat"temir iroda, qaynoq energiya, yuksak tashkilotchilik qobiliyatlari, kishilarga yoqa olishlik hususiyati hozirgi demokratik davlatlarda siyosiy etakchilarga xushsur'atlik, notiqlik, xususiyatlari ham asosiy talablar sifatida qo'yiladi.

Siyosiy etakchilarning harakterli hususiyatlarini aniqlash maqsadida keng sosiologik tadqiqotlar o'tkazilgan. Bu tadqiqot natijalari xarakterlar nazariyasini muayyan darajada inkor etadi, ya'ni chuqurroq tahlil qilganda etakchilarning individual xususiyatlari umuman shaxsning barcha jihatlarini va ijtimoiy xususiyatlari bilan umuman olganda mos kelishi aniqlangan. Yana shu narsa aniqlandiki, shaxsning etakchilik qilishi uchun muayyan hususiyatlari yig'indisi haqiqatdan ham muayyan darajada rol o'ynaydi, bu hususiyatlar yig'indisi tarixiy davr va dunyodagi turli-xil davlatlar xususiyatlariga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin.

Bular xarakterlar nazariyasidagi ikkinchi yo'nalishni yoki omillik – tahliliy ta'limotlarni vujudga keltiradi. Bu ta'limot etakchilarning sof individual xususiyatlarini va muayyan siyosiy maqsadlarini amalga oshirish yo'lidagi hulq – atvorlarning belgilarini tahlil qiladi.

Omili–taxliliy ta'limot siyosiy etakchilar nazariyasiga muayyan vaziyat bilan bog'liq maqsad va vazifalar tushunchasini kiritadi. Siyosiy etakchining individual xususiyatlari va uning oldida turgan maqsadlarga erishishiga intilishi natijasida siyosiy etakchining "ikkinchi tabiati" vujudga keladi. Hulq – atvori uslubi ishlab chiqiladi. Siyosiy etakchining maqsadni mo'ljallash va unga erishish uslubiga muayyan ijtimoiy vaziyatlar ta'sir ko'rsatadi.

Etakchilikning muayyan ijtimoiy shart – sharoitlariga bog'liqligini vaziyatlar ta'limoti yanada rivojlantiradi va asoslab beradi. V.Dall, G.Xilton, A.Gardner va boshqalar etakchi xodisasining nisbiyligidan, ko'pchiligidan kelib chiqadi. Aynan vujudga kelgan muayyan vaziyatlar siyosiy etakchilarni tanlab oladi va uning hulq – atvorini belgilaydi.

Siyosiy kommunikasiyaning mohiyati va mazmuni.

"Kommunikasiya" atamasi siyosiy fan lug'atiga kirib kelganiga qo'p vaqt bo'lgani yo'q. Bu tushuncha bevosita siyosatshunoslik fanida XX-asrning boshida F. Ratselning "kommunikasion xizmatlardan eng muhimi bu siyosiy jihatdan axborotni uzatish hisoblanadi" degan iborasidan boshlab qo'llanila boshlandi.^{2[2]} Biroq, u bilan bog'liq bo'lgan ayrim ilk tushunchalar jihatlar uzoq vaqt ilgari paydo bo'lgan edi.

Jamiyat rivojlanishi bilan birga insondan insonga axborotni gaplar, ishoralar, rasmlar va boshqa ramzlar orqali uzatish, deb tushuniladigan kommunikasiya ham shakllanib bordi, so'zli va tasviriyy kommunikasiya esa qadimgi zamonlardayoq insonlar tomonidan siyosiy ta'sir sifatida anglangan edi. O'sha vaqtlardan va hozirgacha qabila boshliqlari, keyinchalik – fir'avnlar, qirollar, knyazlar va boshqa hukmdorlar siyosiy kommunikasiya deb atalmish hodisaga nihoyatda qiziqib kelganlar. Chunki ularning omadli boshqaruvi qo'l ostidagilar va fuqarolarning siyosiy qarashlariga ta'sir eta olish san'ati bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Ular insonlarning ongida kerakli

tasavvurlarni shakllantirish maqsadida turli xil verbal (so'zlar orqali) va noverbal (jadval va chizmalar orqali) xabarlardan foydalanishgan. Masalan, bunga turli ommaviy tantanali marosimlar, keyinroq esa haybatli qurilish inshootlari rasm – rusumi kiradi. Urush va ichki mojarolar vaqtida esa ular insonlarning fe'l-atvoriga ta'sir qilish maqsadida ba'zan indoktrinasiya uslubi, ya'ni mafkuraviy “ongni yuvish” keng qo'llanilgan.

Qolaversa, ular axborot ta'sirining yumshoqroq qo'rinishlaridan hozirgi kunda targ'ibot-tashviqot usullarini, jamoatchilik bilan ishlash va siyosiy reklamani eslatadigan usullardan ham foydalanishgan. Siyosiy kommunikasiyani kerakli tomonga yo'naltirish, jamiyatdagi axborot to'liqlarini nazorat qilish maqsadida turli xil qaror va qonunlar qabul qilingan va bu nazorat senzuraning turli shakllarini – maxsus davlat institutlarining rasmiy faoliyatidan tortib to davr talablariga javob beruvchi va jamoat fikrini shakllantiruvchi “pastdan norasmiy bosimni” o'z ichiga olgan.

“Siyosiy kommunikasiya” tushunchasining paydo bo'lishi bevosita G'arb jamiyatining ikkinchi jahon urushidan keyingi bo'lgan davrdagi evolyusiyasiga bog'liq. XX-asrning ikkinchi yarmida jahondagi siyosiy jarayonlarning demokratlashuvi, yangi axborot texnologiyalarining yaratilishi va ular rolining kuchayishi, shuningdek kibernetik nazariyaning rivojlanishi siyosiy kommunikasiya sohasidagi tadqiqotlarni ijtimoiy va siyosiy fanlarning uyg'unlashuvi oqibatida nisbatan mustaqil yo'nalishga ajratib, siyosiy kommunikativistika deb nomlangan fanning paydo bo'lishiga olib keldi. Ko'p jihatda, ilgari asosan texniklar, aloqachilar va harbiylar tilida qo'llanilgan “kommunikasiya” tushunchasi, kibernetika fanining sharofati bilan endi fanlararo terminga aylanib har xil sohalarda tarqalib ketdi. N. Vinnerning taxmin qilishicha, o'rab turgan olamning barcha hodisalari axborot almashinuvi va axborot aylanishi oqibatida izohlanishi mumkindir.^{3[3]}

Agar Viner mantig'iga yondashilsa, siyosiy kommunikasiya - siyosatga kuchli ta'sir etuvchi xabarlarni yaratish, yuborish, qabul qilish va ustidan ishlash demakdir. Bu ta'sir bevosita va bilvosita bo'lishi mumkin bo'lib, uning natijalari tez sur'atda va vaqt o'tishi bilan ham namoyon bo'lishi mumkin. To'g'ri yoki bevosita ta'sir deb biz siyosiy faoliyatga oid saylovlarda ishtirok etishga chaqiriqni, u yoki bu siyosiy kursni qo'llab-quvvatlashni so'rab chiqish, ayrim qonun loyihasini qabul qilish va rozi bo'lishni yoki aksincha unga qarshi chiqishlarni taklif etishlarni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. Xabarlarning bilvosita ta'siri esa siyosiy elita va jamoat ommalarining siyosiy ongiga va faoliyatiga ta'sir etuvchi turli “ideal modellarning”, reallik va stereotip “obrazlarning” yaratilishida namoyon bo'ladi. Xabarlarning yaratuvchilari va tarqatuvchilari siyosatchilar, jurnalistlar, manfaatli guruhlar vakillari va alohida shaxslar bo'lishlari mumkin. SHuni aytish kerakki, bu erda ularning qaysidir ijtimoiy birlikka yoki institutga mansubligi hech qanday rol o'ynamaydi. SHuningdek, bu xabarlarni oluvchilar haqida ham shunday deyish mumkin. Bu erdagi muhim jihat – odamlarning, jamoaning, institutlarning va ular yashayotgan muhitga ta'siri oqibatida yaratilayotgan aniq siyosiy samaradorlikdir.

3[3] Қаранг: Почепцов Г.Г. Теория коммуникации. – М.: Рефл-бук; Ваклер, 2001. – 651 с.

“Kommunikasiya vositasida, - deb ta’kidlaydi YU.V.Irxin, - uchta asosiy turdagi siyosiy ma’lumot uzatiladi:

- undovchi (buyruq, ishontirish);
 - ma’lumot beruvchi (real yoki o’ylab topilgan ma’lumotlar);
 - aniq ma’lumotlar (siyosat sub’ektlari o’rtasidagi aloqani o’rnatuvchi va qo’llab-quvvatlovchi aloqalar to’g’risidagi ma’lumotlar).
- Siyosiy kommunikasiya siyosiy munosabatlarning o’ziga xos turi sifatida namoyon bo’ladi. Uning yordamida siyosatda katta kuchga ega bo’lgan sub’ektlar o’z davrida ishlab chiqarishni boshqaradilar va ijtimoiy – siyosiy g’oyalarni tarqatadilar”.

So’nggi paytlarda siyosiy kommunikasiya jamiyat siyosiy tizimining boshqa komponentlari bilan ham aloqalarni ta’minlaydigan funksional element sifatida tavsiflanmoqda. Biroq shu paytning o’zida siyosiy kommunikasiya siyosiy aktorlarning bevosita faoliyati hisoblangan siyosiy ahamiyatga molik bo’lgan ma’lumotlarni ishlab chiqarish va uni tarqatish, boshqa ijtimoiy sub’ektlarda zarur dunyoqarashni va harakatlarni shakllantirish (barqarorlashtirish yoki o’zgartirish) jarayoni hamdir. “Siyosiy kommunikasiya” o’zining “funktional” va “prosessual” komponentlari bilan birgalikda umumiy ko’rinishda o’z tarkibiga siyosiy aktorlarning jamiyatdagi hokimiyat, hukmron-boshqaruv munosabatlariga doir aniq-tarixiy faoliyat bilan bog’liq bo’lgan siyosat sohasidagi informasion ta’sir va o’zaro aloqadorlikni qamrab oladi.

Adabiyotlar:

O’zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. T. O’zbekiston. 2011.

Karimov I.A. Asarlar to’plami. 1-19 jildlar. T. O’zbekiston. 1996-2011.

Karimov I.A. YUksak ma’naviyat – engilmas kuch. T.-Ma’naviyat. 2008.

Karimov I. A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari. T. O’zbekiston 2009 yil.

Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T. - O’zbekiston. 2010.

Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. – T.: O’zbekiston, 2011.

Karimov I.A. O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T. - O’zbekiston. 2011.

Karimov I.A. Bunyodkorlik, yangilanish, mexr-muruvvat yo’li. Prezident I.A.Karimovning 2012 yil 21 mart Navro’z umumxalq bayramiga bag’ishlab so’zlagan nutqi. T.// Xalq so’zi.2012 yil 22 mart.

Karimov I.A. Inson xotirasi - boqiy,qadr-qimmati – ulug’. Prezident I.A.Karimovning 2012 yil 9 may- Xotira va qadrlash kuniga bag’ishlab so’zlagan nutqi. T.// Xalq so’zi.2012 yil 10 may.

Nosirxo’jaev S., Safarboev M., Sultonov K Siyosatshunoslik fanidan ko’rgazmali metodik qo’llanma. – T., 2007.

Odilqoriev X.T.Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik.T., 2008.

Xolbekov A., Jumaev R., Umarova N. va boshqalar “Boshqaruvning ijtimoiy- siyosiy yo’nalishlari” - T.; G’. G’ulom, 2008.

Artikbaev O.S., Ganiev J.X. Siyosatshunoslik. O’zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. – T., 2009.

Jumaev R.Z. va boshq. Siyosiy islohotlar strategiyasi. – T.: Akademiya. 2010.

“Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”ni o’rganishga bag’ishlangan Respublika

ilmiy–amaliy konferensiya materiallari. (2011 yil 16 mart). Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Milliy universiteti, "Siyosatshunoslik" kafedrası, Respublika "Kamolot" YOshlar ijtimoiy harakati,– T.: Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti. 2011. – 413 b.

Odilqoriev T., Razzoqov D. Siyosatshunoslik. Darslik. – T: O'qituvchi, 2011.

5 mavzu. Saylovlar va siyosiy ixtiloflar

- 1. "Saylov tushunchasi". Saylovlarning demokratik jamiyatdagi o'rni.**
- 2. Saylov jarayonining asosiy bosqichlari va ularning huquqiy asoslari.**
- 3. "Siyosiy ixtilof" tushunchasi va nazariyalari.**

Saylov - fuqarolar siyosiy irodasining muayan qoidalar (tadbirlar) asosida bayon etish orqali hokimiyat organlari va boshqaruvni shakllantirish usuli. Zamonaviy demokratiyalarda saylovlar – xalq suvereniteti namoyon bo'lishining bosh mexanizmidir. Saylovlarning demokratik siyosiy tizimdagi funksiyalari:

1. Aholi manfaatlarini artikulyatsiyasi, aggregatsiyasi va vakilligi;
2. Hokimiyat institutlarini nazorat (saylovlarning o'zi, parlament, muholifot);
3. Umumiy siyosiy irodani shakllantirish, turlicha qarashlarni birlashtirish;
4. Siyosiy tizim, ayrim institutlarni (parlament, hukumat, prezident) legitimlashtirish;
5. Hokimiyat institutlari va fuqarolar o'rtasida muloqot vositasi;
6. Siyosiy ixtiloflarni institusionallashtirish, tinch yo'l bilan hal qilish oqimiga olib o'tish;
7. Saylovchilarni muhim ijtimoiy vazifalarni hal qilishga safarbar etish;
8. Aholining siyosiy ijtimoiylashuvi, uning siyosiy ongi va siyosiy ishtirokni rivojlantirish;
9. Siyosiy elitani saralash;
10. Jamiyatni muqobil siyosiy dasturlarning raqobatli kurashi vositasida yangilash;
11. Samarali muholifotni shakllantirish.

Saylovlarni demokratik tashkil etishning umumiy tamoyillari:

- saylovlarning erkinligi;
- muqobil nomzodlar orasidan tanlovning mavjudligi;
- saylovlarning raqobatlilikligi;
- saylovlarning davriyligi, muntazamligi;
- siyosiy partiyalar va nomzodlar imkoniyatlarining tengligi.

Totalitar tizimda saylovlar siyosiy tashviqot vazifasini bajaradi. Avtoritar tizimda saylovlar demokratik fasad, dekoratsiya vazifasini o'taydi va quyidagi vazifalarni bajaradi:

- a) mavjud rejimni legitimlaydi;
- b) ichki va tashqi obro'sini oshiradi;
- v) siyosiy keskinlikni yumshatadi;
- g) muxolifotni aniqlaydi;
- d) tizimni barqarorlashtiradi.

Saylovlar fuqarolar uchun demokratiyaga o'tishning eng qulay va tinch yo'li. Ular siyosiy zulmni inkor etadi. Ular avtoritar kuchlarni yo'qotish va hokimiyat tepasiga demokratik kuchlar kelishining eng samarali vositasi.

Saylov jarayonining asosiy bosqichlari.

Saylov tizimi – saylovlarning o'tishini tartibga soladi. U siyosiy hokimiyatning vakillik organlarini legitim tarzda shakllantirishni ta'minlovchi va tartibga soluvchi qoidalar, usullar va jarayonlar birligi. Har bir mamlakatda saylov tizimi qonunchilik asosida amal qiladi. Saylovlarning ikki asosiy turi mavjud: majoritar va proporsional. **Majoritar saylov tizimida** ovozlarining ko'pchiligini to'plagan nomzod g'olib chiqadi. U o'z navbatida bir necha ko'rinishga ega. **Mutlaq ko'pchilik tizimi** «50+1» formulasiga asoslanadi. Agar saylovlarning birinchi bosqichida nomzodlarning hech biri «50+1» ovoz ololmasa, ikkinchi bosqich o'tkaziladi va unda eng ko'p ovoz olgan ikki nomzod, ba'zan belgilangan minimumdan ko'p ovoz olgan barcha nomzodlar qatnashadi. **Nisbiy ko'pchilik tizimiga** asoslangan majoritar saylov tizimida nomzodlarning eng ko'p ovoz olgani, faqat bittasi yutadi. Majoritar saylov tizimining **afzalliklari** – samarali va barqaror hukumat tuzish imkoniyatlari, saylovchilar va nomzodlar o'rtasidagi barqaror nomzodlar, yirik va yaxshi tashkil etilgan partiyalarga yaxshi imkoniyatlar berish. Bu tizimning kamchiliklariga ko'pchilik madadiga tayanmagan hukumat tuzish xavfi, «tanlangan geografiya sindromi», kichik va zaif partiyalar imkoniyatini cheklashi, ko'pchilik saylovchilarning ovozlari yo'qolib ketishi singarilar kiradi. **Proporsional saylov tizimida** partiyaviy ro'yxatlar asosida ovoz berish, vakillik organlari mandatlarini partiyalar yoki saylov koalitsiyalari to'plagan ovozlar miqdoriga ko'ra taqsimlanishiga asoslanadi. Deyarli barcha mamlakatlar qonunchiligida partiyalar vakillik organiga saylanishi uchun to'plashi lozim bo'lgan ovozlar minimumi ko'rsatiladi (odatda saylovchilarning 5% miqdorida ovoz to'plash talab etiladi). Proporsional saylov tizimining **afzalligi** partiyalarni ularning jamiyatdagi mavqeiga ko'ra vakillik organlarida o'rin olishlariga imkoniyat beradi, plyuralizm va ko'p partiyaviylikni rivojlantiradi. Bu tizimning **kamchiliklariga** hukumat tuzishdagi qiyinchiliklar, aniq va qat'iy dasturli ustun partiya yo'qligi, ko'p partiyaviy koalitsiyalar tuzilishi, hukumatlarning nobarqarorligi, nomzodlarni partiya apparati tomonidan ilgari surilishi, deputatlar va aholi o'rtasida aloqalarning zaifligi singarilar kiradi. **Aralash saylov tizimi** – yuqoridagi ikki tur saylov tizimlarining afzalliklarini o'zida birlashtiradi. Vakillik organlari mandatlarining bir qismi majoritar tizim shartlariga ko'ra, ikkinchi qismi – proporsional tizim shartlariga ko'ra taqsimlanadi. Bu – barqaror hukumat tuzish imkonini beradi. **Konsensusli saylov tizimi** keyingi o'n yilliklarda ayrim tashkilotlar tomonidan qo'llanayotgan yangi tizimdir (BMT, yashillar partiyalari) Unga ko'ra saylovchilar barcha nomzodlar bo'yicha o'z fikrlarini bildiradilar va ularga berilgan ro'yxatni o'z ixtiyorlariga ko'ra qayta tuzadilar. O'rinlar uchun belgilangan ballar hisoblab chiqilishi asosida eng ko'p ball olgan nomzod g'olib chiqadi.

Siyosatni uning ichki omillar — ihtilof va kelishuv asosida tushuntiruvchi yondoshuv — rasional tanqidiy paradigma ekanligini bilasiz. Siyosatning ichki ziddiyatliliigi va ihtilofliliigi g'oyasi fanda XIX "asrda qaror topdi. A. Tokvil; K. Marks, G. Zimmel, keyinchalik esa K. Baulding, L. Krauzer, A. Bentli va boshqa nazariyotchilar ihtilofni siyosatdagi o'zgarishlarning asosini tashkil etuvchi va shu bois ijtimoiy hayotni bu soxasi mavjudligining chegaralari va tabiatini belgilab beruvchi etakchi mamba, deb qarashgan.

To'g'ri, siyosiy fanda qarama — qarshi nuqtai nazar ham bor, E. Dyurkgeym, M. Veber va bir qator boshqa olimlar siyosatni tushunishda ihtilofning ikkilamchiligidan va rivojlanish aholini birlashtiruvchi hamda siyosiy tizim

yaxlitligini ta'minlovchi tub ijtimoiy qadriyatlarga bog'liqligidan kelib chiqadilar. Ularning qarashlaricha ideallar va ijtimoiy — madaniy qadriyatlarning birligi mavjud ihtiloflarni hal qilish va boshqaruv tartibining barqarorligini ta'minlash imkonini beradi. SHu munosabat bilan ular ihtiloflarni siyosiy jarayonga xos bo'lmagan xodisa sifatida baholaydi.

Fikrimizcha, har ikkala yondoshuv bir — birini to'ldirib keladi. Ammo u avvalgi ma'ruzalarda aytilganidek, jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlashuv — daromad, hokimiyat, nufuzning notekis taqsimlanishi — ihtiloflarni keltirib chiqaruvchi omil hisoblanadi, ihtiloflarni ijtimoiy hayotning tarkibiy qismiga aylantirib qo'yadi. Ixtilof asosida tomonlarning qarama — qarshiligi, dushmanlik, kelishuvlarning emirilishi, hamkorlikning tugashi singari tushunchilar yotadi. Alohida shaxslar, ijtimoiy gypuhlap, institutlar, sivilizasiyalar, tarixiy tizimlar va ijtimoiy rivojlanish yo'nalishlari ixtilof xolatida bo'lishi mumkin. Natijada, ihtiloflar tabiati, sabablari, oqibatlari, ularni bashorat qilish va oldini olish mexanizmlarini o'rganuvchi maxsus fan tarmog'i- konfliktologiya yuzaga keldi. Konfliktologiya sosiologlar, xuquqshunoslar, iqtisodchilar, etno graflar, tarixchilar, filologlar, boshqaruv muammolari bo'yicha mutaxassislar diqqat markazida. SHu bilan birga konfliktologiya rivojlanishida siyosiy nazariya o'rni o'ziga xos. Ihtilof borasida siyosiy fan vazifasi — ihtiloflarni boshqarishni o'rganish, ularni hal qilish texnologiyalarini ishlab chiqish, ularni oldindan bashorat qilish va oldini olish mexanizmlarini qo'llashdir.

Turli fanlarda qo'llangani uchun, har bir fan (yoki ilmiy maktab) vakillari ihtilofga o'z ta'riflarini berishga intiladilar. SHuning uchun ihtilofning ta'riflari — xilma — xildir. O'z navbatida, siyosiy fanda ham ihtiloflarning turli ta'riflari mavjud. Jumladan, bu erda har qanday ihtilof emas, siyosiy ihtilof o'rganiladi va ta'riflanadi.

Siyosiy ixtilof — qandaydir mavhum sub'ektlar to'qnashuvi emas, balki amalda mavjud ijtimoiy kuchlar (agentlar) kurashidir va u etakchilar, elitalar, tashkilotlar, partiyalar va odamlarning boshqa ittifoqlari va uyushmalari timsolida namoyon bo'ladi. **Siyosiy ihtilof - Hokimlik munosabatlari tizimidagi o'rni va rolga ko'ra qarama — qarshi siyosiy manfaatlar, qadriyatlar, qarashlar, maqsadlarga ega sub'ektlarning kurashidir.** Siyosiy ihtilof tushunchasi siyosiy davlat hokimiyati institutlarida va boshqaruvda ta'sirga ega bo'lim, ijtimoiy ahamiyatga ega qarorlarni qabul qilishda ishtirok etish, manbalarni taqsimlashda qatnashish, o'z manfaatlari yakka hokimligi va ularni barchaning manfaati tarzida taqdim etishga intilish uchun bir ijtimoiy kuchlarning boshqalari bilan kurashini anglatadi.

Siyosiy ihtilof — siyosiy sub'ektlarning siyosiy mafaatlari, qadriyatlari, qarashlari bilan belgilangan to'qnashuvlari, kurashlari hamdir.

Siyosiy ihtilof tushunchasi bir turdagi sub'ektlarning boshqalari bilan hokimiyat va siyosiy hukmronlik uchun kurashini anglatadi.

SHunday qilib, siyosiy ihtilof, boshqa har qanday ihtilof singari, odamlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning muayan ko'rinishidir. Ammo bu ihtilof - o'ziga xos. Negaki, u, birinchidan, jamiyatdagi siyosiy hokimiyat va uning amal qilishi borasida vujudga keladi; ikkinchidan, siyosiy ihtilofda ayrim individlar emas, ijtimoiy guruhlar, minglab va millionlab omma o'z mafaatlari bilan ishtirok etadi; uchinchidan, siyosiy ihtilof ijtimoiy ahamiyatga ega. Uning natijalari, odatda ijtimoiy hayotning himma sohalarida namoyon bo'ladi.

Odatda siyosiy ihtiloflarning uch asosiy turini ajratib ko'rsatiladi.

1. Manfaatlarning ixtilofi: iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar, barqaror davlatlarda ko'proq uchraydi. Iqtisodiy "patir" ni bo'lish atrofidagi savdo bu erda siyosiy qoida bo'lib qolgan (solliqlar miqdori, ijtimoiy ta'minot hajmi v.h. uchun kurash). Ixtilofning bu turi tez echimini topadi, negaki bu erda muammo kelishuv yo'lini topish mumkin. («unisiga ham, bunisiga ham»).

2. Qadriyatlar ixtilofi: rivojlanayotgan davlatlar uchun xos; ularni hal qilish uchun ko'proq xarakat talab etiladi, negaki ular kelishuvga qiyinchilik bilan tortiladi.

3. Identifikatsion ixtilof o'zini jamiyat (davlat) bilan, muayyan guruh (etnik, demiy, til) bilan bog'liq, deb tan oluvchi jamiyatlar uchun xos. Irqlar etnik yoki til qarama - qarshiligi mavjud hollarda vujudga keladi.

Ishtirokchilariga ko'ra siyosiy ixtilof davlatlararo (sub'ektlari – hokimiyat shahobchalari, siyosiy partiyalari v.h.), regional (xududiy) (sub'ektlari – xududiy siyosiy kuchlar), mahalliy bo'lishi mumkin.

Ichki siyosiy ixtiloflar pozitsion (gorizontal) va muxolif (vertikal) turlariga bo'linadi.

Pozitsion ichki siyosiy ixtiloflarning sub'ektlari bo'lib hokimiyatni uchta tizim doirasida amalga oshiruvchi siyosiy institutlar, tashkilotlar chiqadi, ammo ular turlicha mavqe egallaydilar.

Muxolif yoki siyosiy ixtilof sub'ektlari bo'lib bir tomondan xukmron elitalar, ularning manfaatlarni ifodalovchi partiyalar, davlat institutlari, tashkilotlar, etakchilar; ikkinchi tomondan – turli ijtimoiy guruhlar nomidan chiquvchi tashkilotlar shuningdek, mavjud tartib, xukmron siyosiy hokimiyatga qarshi siyosiy guruhlar chiqaradi.

Ma'lum bir ixtilofning bir vaqtning o'zida bir nechta turlarga mansub bo'lishi tabiiy ekanligini unutmash kerak. Ixtiloflarni turlarga ajratishdan maqsad bu sodir bo'lib o'tgan yoki bo'layotgan voqea – hodisani tadqiq etishning boshlang'ich nuqtasini topishdan iboratdir. Qolaversa, nazariy va amaliy jihatdan ixtiloflar xukumlash konfliktlarni bartaraf etishidagi boshlang'ich omil ekanligiga qarab uning yuzaga kelishi, rivojlanib borishi va muxtasar holatidan baxs etishimiz mumkin.

Ijtimoiy muhitda ixtilofning yuzaga keltirgan sababni asoslash o'ta mushkul va chigal vazifa. Har bir ijtimoiy harakat o'ziga xos xususiyatlarga ega. Buning ustiga uning chegarasiga ko'plab qarama - qarshi hodisalar ham tutashgan bo'ladi. Ixtilof ana shu tutashuv chizig'iga ta'sir etuvchi ob'ektiv va sub'ektiv sabablari asosida yuzaga keladi. Ixtilofni yuzaga keltirgan o'sha ob'ektiv va sub'ektiv sabablarni tahlil etish uchun hodisalar va insonlar o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq etish zarur.

Ommaviy ixtiloflar motivatsiyasi shuni ko'rsatadiki, ixtilof orqasida ijtimoiy hayotning u yoki bu qiyinchiliklari, elita bilan xalq o'rtasida yuzaga kelgan tafovutlar va hokazolar turadi. Masalan, iqtisodiy qiyinchilik, siyosiy simpatiya va antipatiya, populistik yo'l bilan siyosiy liderlikka intilish va boshqalar.

Siyosiy ixtiloflarning tabiati uch ijtimoiy omillar va sabablar bilan tushuntiriladi.

Avvalo, bu – siyosat sub'ektlari ma'qomlarining mos kelmasligi, ularning rollari va vazifalari, hokimiyatdagi manfaatlari va ehtiyojlari, manbalarning etishmasligi v.h. kabi ijtimoiy munosabatlarning turli shakllari va qirralaridir. Shartli ravishda siyosiy ixtiloflarning ob'ektiv manbalari deb atalishi mumkin bo'lgan bu omillar hukmron va kontreta, muayyan kuchlarning manfaatlarni taqdim etuvchi va davlat byujetining qismlari uchun kurash olib boruvchi turli bosim guruhlari,

shuningdek, hokimiyat tizimidagi barcha siyosiy sub'ektlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni belgilib beradi.

Siyosiy ixtiloflarning ikkinchi asosiy manbai shaxslar (ularning guruh va uyushmalari)ning asosiy deb biluvchi qadryatlar va siyosiy idealga ko'ra, tarixiy va dolzarb hodisalarni baholashdagi, shuningdek, siyosiy voqealar to'g'risidagi boshqa sub'ektiv tasavvurlarida farqlar kiradi. Bunday ixtidloflar davlatchilikni isloh qilish yo'llari to'g'risidagi har xil qarashlar to'qnashayotgan, jamiyatning YAngi siyosiy tuzilishi asoslari shakllanayotgan, ijtimoiy inqirozdan chiqishi yo'llari izlanayotgan mamlakatlarda ko'proq ro'y berishi mumkin.

Keyingi yillarda bir qator /arb nazariyotchilari (J.Berton, K. Lederer, J.Devis v.b.) siyosiy ixtiloflar tabiatini tushintirishga qaratilgan YAna bir ehtimolni ilgari surishdi. Uni inson ehtiyojlari nazariyasi, deb ataldi. 1 Bu konsepsiyaga ko'ra, ixtiloflar inson mohiyatini tashkil etuvchi ehtiyojlarning cheklanishi yoki to'liq qoniqtirilmasligi natijasida vujudga keladi.

Va, nihoyat, siyosiy ixtiloflarning uchinchi manbai sifatida siyosatshunoslikda fuqarolarning o'zlarini ijtimoiy, etnik, diniy va boshqa jamoalar va ittifoqlarga taalluqligini anglaganliklari va o'zlarining ijtimoiy va siyosiy tizimdagi o'rinlarini yaxshi tushunganliklari qaraladi. Bu — identifikasiya termini bilan ataladi,

Ixtilofli holatlar deganda biz bunday sharoitlarning inson manfaatlarini bilan birga qo'shib ketishini tushunishimiz kerak, haqiqiy zaminni vujudga keltiradi. U nizoli holatlarda kurashuvchi tomonlarning iroda va istaklaridan qat'iy nazar ob'ektiv ravihda yuzaga keladi. (masalan, idorada shtatlarning qisqarishi natijasida) yoki — u, yoki — bu tomonning, yoki ikki tomonning chaqirig'i bilan vujudga keladi. Ixtilof rivojlanishining quyidagi bosqichlari mavjud:

YAshirin bosqich. Ihtiloflarga odatda avvaldan mavjud yashirin bosqich o'tmishdoshlik qiladi, bunda tashqi xarakatdan tashqari nizolarning hamma elementlari mavjud bo'ladi.

Birinchii davr — ob'ektiv nizoli sharoitning vujudga kelishi; **Ikkinchi davr** — bu sharoitda hech bo'lmasa birorta sub'ekt tomonidan o'zining manfaatlarini bayon etadi. Manfaatlari yolg'on, noto'g'ri buzilgan yoki haqiqiy bo'lishi mumkin, lekin bular bayon etilmas ekan, keyingi kurash hech qanday asosga ega bo'lmaydi;

Uchinchi davr — avvalgisi bilan mahkam bog'langan — o'z manfaatlarini qondirish yo'lidagi to'siqlarni aniqlash (kognitiv nizolarda boshqa kurashlardagi qobiliyatlarning aniqlanishi.); **To'rtinchi davr** — tomonlar tomonidan o'z manfaatlarini himoya qilib, shuning uchun boshlangan aniq xarakatlarni anglatadi — bu esa nizoning boshlanishi demakdir, chunki har ikki tomonning nuqtai nazarlari aniq belgilanadi va amaliyotda bir-birlariga qarshi xarakatlar boshlanadi.

Siyosiy ixtiloflarni boshqarish

Ixtiloflarning umumiy nazariyasini o'rganish, shuningdek, uning asosiy turlarini tahlil etish ularni boshqarish muammolarini ko'rib chiqishimiz imkonini beradi. Masalaning shu tarzda qo'yilishi, ya'ni ixtiloflarni boshqarish mumkinligini e'tirof etish ularni ijtimoiy jarayonlarning tarkibiy qismi sifatida tushunishdan, hamda ularni odamlarning ijodiy faoliyatsdagi xarakatlantiruvchi kuch, shu bilan birga, rivojlanish muammolari va qiyinchiliklarni belgilovchisi sifatida qabul qilishdan kelib chiqadi.

Agar ihtilofni ijtimoiy tizimni emiruvchi, uning normal faoliyatiga putur etkazuvchi xodisa sifatidagina tushunilganda edi, asosiy muammo — uni yo'qotish barham toptirish, tezda hal etishdan iborat bular edi. Ihtilofni jamiyatdagi qonuniy xodisa va

yana, taraqqiyotning xarakatlantiruvchi kuchi sifatida tan olish—unga munosabat masalasini ham kengayishi, ham chuqurlashishiga olib keladi. "Ihtilofni boshqarish" tushunchasi uning mohiyatini ifodalaydi. Tushunchani ta'riflashda ihtiloflarning jamiyatga ta'siri turlichaligi va ziddiyatligini (ya'ni yaratuvchilik faoliyatiga turtki beruvchi) va emiruvchi (tizimning parchalanishi, manbalarning kurashga sarflanishi) bo'lishi mumkinligi nazarda tutiladi.

Ihtilofni boshqarish — ihtilof jarayoniga maqsadli ta'sir etish bo'lib, bu ta'sir ijtimoiy ahamiyatga ega masalalarni hal etishni ta'minlaydi. Ihtiloflarni boshqarish o'z ichiga quyidagi jihatlarni oladi: ularni oldindan aytib berish; ba'zilarini oldini olish ayrimlarini rag'batlantirish; ihtiloflarni hal etish.

Ihtilofni boshqarish sub'ekti kim bo'lishidan qat'iy nazar raqobatli o'zaro munosabatlarni tartibga solish texnologiyalari muqarrar ravishda bir qator umumiy vazifalarni hal qilishi lozim bo'ladi: ihtilof paydo bo'lishining oldini olish yoki, uni bartaraf etishning ijtimoiy bahosi, ortib, ketadigan darajada o'sib ketishiga imkon bermaslik,

barcha yashirin, mahfiy, ochiq bo'lmagan ihtiloflarni ochiq shaklga olib chiqish. Nazorat qilib bo'lmaydigan jarayonlar va ularning oqibatlarini kamaytirish, to'g'ri va tezkor javob berish imkonini bermaydigan tasodifiy upirilishlar oldini olish;

- qo'shimcha manbalar va kuch — quvvat sarf qilish zaruratini keltirib chiqaruvchi yangi, kengroq, qo'shimcha silsilalar kelib chiqishining oldini olish maqsadida siyosiy ihtilof kechishi jarayonida ijtimoiy hayotning boshqa sohalarida ro'y berishi mumkin bo'lgan ijtimoiy qo'zg'alish darajasini kamaytirish.

Ihtilofni salbiy xodisa sifatida qarash uning oldini olish zaruratini belgilaydi. Ihtilofni tizimning o'z-o'zini tartibga solish va o'z-o'zini takomillashtirish, sozlash, uning o'zgarishi va rivojlanishi manbai sifatida tushunish esa ihtiloflarni rag'batlantirish muammosi to'g'risida fikr yuritish imkonini beradi. Ihtiloflarning oldini olish — uning vujudga kelishi, ijtimoiy tizimning u yoki bu elementini emirishini yo'l qo'ymaslikka qaratilgan faoliyatdir. Ihtilofning oldini olish uni **bashorat etishni** taqozo etadi. Asosli bashoratsiz mavjud bo'lgan ihtilofni vujudga kelishi oldini olib bo'lmaydi. **Bashorat-bo'lajak ihtilof to'g'risida muayyan aniqlik bilan vaqti va o'rnini ko'rsatilgan tasavvur, bashoratning ilmiy va amaliy ahamiyati uning asosiligi va haqiqatga qanchalik to'g'ri kelishi bilan belgilanadi.** Bashoratning asosiy uslublari: muayyan vaziyatni tizim (yoki uning bir qismi)ning kelajagidagi holatiga ko'chirish; bo'lishi mumkin bo'lgan ihtilofli vaziyatni modellashtirish, statistik metod, ekspertlar so'rovini qo'llash.

Bashoratning dastlabki bosqichi muayyan ziddiyatli vaziyat asosida yotgan qarama—qarshilikni aniqlashdan iborat. Keyingi qadam — shu vaziyatning o'zgarishi, qarama-qarshiliklarning va muammolar echimi rivojlanishining yo'nalishini aniqlash hisoblanadi.

Ihtiloflarni qisman va toliq oldini olish, erta ogohlantirish va avvaldan hal qilish bosqichlari farqlanadi. **Qisman oldini olishga** ihtilof sabablaridan birini to'xtatish va qarama—qarshi tomonlarga salbiy ta'sirini cheklash bilan erishiladi. To'liq **oldini olish** bosnichi ihtilofni belgilovchi barcha omillar faoliyatini to'xtatish va uning sub'ektlari faoliyatini umumiy manfaatlarni amalga oshirish bo'yicha hamkorlikka yo'naltirishdan iborat. **Ihtilofni avvaldan hal qilish bosqichi**, uni erta ogohlantirish singari mavjud ziddiyatdan muhimroq masalalar bo'yicha ijtimoiy birlikka erishish, tomonlar nuqtai nazarlarini muvofiqlashtirishni anglatadi.

Ijtimoiy ihtiloflarning oldini olish uchun iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ideologik, huquqiy manbalar mavjud bo'lishi zarur. Ihtiloflarning oldini olish uslub va vositalar majmui orqali amalga oshadi. Ular vaziyatni real baholash, ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etayotgan barcha sub'ektlar manfaatlarini kelishtirishga alohida e'tibor berish va boshqalar fikriga sabr—toqat bilan yondashish (tolerantlik) imkoniyatlarini hisobga olgan holda samara beradi.

Avval ta'kidlanganidek, jamoatchilik hamma ihtiloflarning ham oldini olishga intilmaydi. Ayrim ihtiloflarning avj olishidan ular manfaaddordirlar. Konstruktiv ihtiloflarni rag'batlantirish ijtimoiy boshqaruvning muhim jihatini tashkil etadi. Gap nizolarni sun'iy ravishda avj oldirish, jamiyat barqarorligi yo'qotish haqida ketmayapti. Ihtiloflarni rag'batlantirish strategiyasi — hayotiy muhim muammolarni hal qilishda ijtimoiy sub'ektlar faolligini oshirish, ijobiy tashabbusni rivojlantirish, ijtimoiy boshqaruv samaradorligini oshirish strategiyasidir.

Vujudga kelgan nizo jarayoniga faol aralashuv turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin; ihtilofni tartibga solish, bostirish va nihoyat, hal etish. Ihtilofni tartibga solish boshqaruv sub'ektlarining uni yumshatish, zaiflashtirish, yoki boshqa tomonga burib yuborish bo'yicha faoliyatini anglatadi. Ihtilofni tartibga solish masalasi — uning ijtimoiy munosabatlarga salbiy ta'sirini cheklash va ijtimoiy ma'qul rivojlanish va echim shakllariga o'tkazish masalasidir. Tartibga solingan ihtilof nazoratdagi va demak, oldindan baholanishi mumkin bo'lgan ihtilofdir. U har qanday nizo jarayonida mavjud bo'ladi. Ziddiyatni tartibga solishda, shuningdek, ihtilofni asta sekin boshqa yo'nalish yoki darajaga o'tkazish orqali zaiflashtirish ham xizmat qilishi mumkin. Masalan, ijtimoiy ihtilofni individual darajaga olib o'tish bilan. Shuningdek tomonlarni tashqi konfliktga yo'naltirish, "umumiy dushmanga" qaratish orqali kuchli ijtimoiy ihtilofni zaiflashtirish taktikasi ham keng qo'llanadi.

Ihtilofni tartibga solish tufli texnologiyalar yordamida amalga oshiriladi: axborot, kommunikativ, ijtimoiy — psixologik ta'sir, tashkiliy usullar. Munozarali masalalar buyicha axborot etishmovchiligini yo'qotish, tomonlarning nuqtai—nazarlari va manfaatlari to'g'risidagi noto'g'ri ma'lumotlarni axborot maydoniga kiritmaslik; sub'ektlar faoliyati to'g'risida mish-mishlarga yo'l qo'ymaslik — ijtimoiy vaziyatni boshqarishga doir bu va boshqa xarakatlar ziddiyatli munosabatlar darajasini pasaytirishga xizmat qiladi.¹

Ihtiloflarni tartibga solishning shartlari: **1. Ihtilofning etilib qolganligi**

2. Sub'ektlarda ihtilofni hal etishga ehtiyoji va bunga qobiliyatning borligi.

3. Ihtilofni hal etish uchun zarur vositalar va manbalarning mavjudligi. Bular: moddiy, siyosiy, madaniy, nihoyat, insoniy manba'lardir..

Bayon qilingan ihtilof uning a'zolariga muayyan "o'yin qoidalari"ga rioya qilish va izchil ravishda hal etishning u yoki bu strategiyasini qo'llash imkonini beradi. Ammo har qanday qoida va strategiya ularni amalga oshirish istagi hamda zarur vositalar bo'lishini taqozo etadi. Ko'pchilik maishiy ihtiloflar zarur vositalar, yoki istak, iroda qobiliyat yo'qligi sababli hal bo'lmay qolgan.

Har qanday ihtilofni bartaraf etish eng kamida uch bosqichdan iborat.

- Birinchisi — tayyorgarlik bosqichi—ihtilof tashxisidir.
- Ikkinchisi — bartaraf texnologiyalar bosqichi.
- Uchinchisi — ihtilofni bartaraf etish bo'yicha bevosita amaliy faoliyat bosqichi.

Ihtilof tashxisi o'z ichiga quyidagilarni oladi: a) uning ko'zga ko'rinib turgan ko'rinishlarini tavsiflash (ziddiyat, to'qnashuvlar inqirozlar v.b.) ihtilof rivojini

darajasini aniqlash; v) ihtilof sabablari va uning tabiatini aniqlash (ob'ektiv va sub'ektiv); g) tezligi o'lchovi; d) tarqalish sohasini belgilash. Tashxis elementlaridan har bir ihtilof asosiy o'zgaruvchilarning kurash mazmuni, qatnashchilari holati, faoliyat maqsadi va taktikasi, bo'lishi mumkin bo'lgan oqibatlar-hisobi va bahosi, ularni ob'ektiv tushunish nazarda tutiladi. Ihtilof holat va jarayon sifatida belgilanadi.

Siyosiy amaliyotda va nazariyada siyosiy ihtiloflarni oldini olish, tartibga solish va hal qilishning bir qator shakl va uslublari ishlab chiqilgan. Ularga kompromiss (o'zaro bitimga kelishish) va konsensus ham kiradi.

Umuman, ihtilofli vaziyatlarni nazorat qilishning demokratik jarayonlarni quyidagi maxsus tadbirlarni o'z ichiga oladi:

- ihtiloflarda ishtirok etuvchi tomonlarning manfaatlari, maqsadlari va navbatdagi qadamlari to'g'risida o'zaro va tezkor axborot almashuvi;

ihtilofli vaziyatni boshqarmaydigan holatga olib kelishi mumkin bo'lgan har qanday kuch ishlatishdan tomonlarning ongli va o'zaro tiyilishi;

- ihtilofni keskinlashtiradigan xarakatlarga o'zaro tadqiq e'lon qilinishi;

- holisligi kafolatlangan hakamlarning jalb qilinishi va ularning tavsiyalarini kompromiss faoliyatini asosi sifatida qabul qilinishi;

- ihtilofli tomonlarning yaqinlashuviga xizmat qiluvchi mavjud huquqiy qoidalari, ma'muriy va boshqa tadbirlarning qo'llaishi yoki yangilarni qabul qilinishi;

- mavjud ihtilofni, bartaraf etish, va shunga o'xshash vaziyatlarni kelajakda oldini olish sharoiti sifatida ish yuzasidan hamkorlik muhitini, keyinchalik esa ishonchga asoslangan munosabatlarni shakllantirish va qo'llab-quvvatlash.

YUqorida aytilganidek, ihtilofda ishtirok qilayotgan tomonlarni yarashtirish, to'la yoki qisman bartaraf qilish tabiatiga ega (ya'ni, munozarali munosabatlar asosi saqlangan holda ihtilofdagi tomonlardan biri yoki bir necha tomonni o'z harakatlarini o'zgartirishi) yoki ihtilofning hal qilinishi (tomonlarning bunday munosabati negizini yo'q qiluvchi). SHuni ham hicobga olish kerakki, ihtilof o'z — o'zidan, uni ongli ravishda hal qilishga urinishlarsiz bartaraf etilishi mumkin. (Masalan, bahs mavzusi dolzarbligini yo'qotishi, siyosiy sub'ektlar charchaganligi, manbalar tugashi va h.k.). SHunday qilib, ihtiloflarni bartaraf etish uchun boshqaruv sub'ekti tomonidan tanlangan vositalar albatta mamlakatlar (mintaqa, sub'ekt) ning madaniy — tarixiy, sivilizasion xususiyatlariga mos kelishi, bahs kechishining vaqt sharoitlarini hisobga olishi zarur.

Bugungi kunda ihtiloflarni boshqarish texnologiyalarida tomonlarning kelishtirishning eng keng tarqalgan vositasi — muzokaralardir.

Bahstlab muammolarning tinchlik yo'li bilan, hech qanday qon to'kishlarsiz hal qilishning bugungi kundagi birdan bir va sinalgan yo'li muzokaralar olib borishdir.

Muzokaralar jarayoni haqida bilimlarga, shuningdek, muzokaralar olib borishning taktikasi haqida tasavvurlarga ega bo'lishlik har bir siyosatchi, diplomat va harbiy shaxs uchun zarurdir. Ular, o'z faoliyatlari davomida, ishlab chiqilgan, sinalgan metodik tavsiyalarga suyangan holda yuzaga kelgan har bir o'ziga xos holatga nisbatan o'z bilimlarini qo'llay olish malakasiga ega bo'lishlari lozim.

Muzokaralar yon bosishlarni tenglashtirish, muqo bil vaziyatlarni hotirjam ko'rib chiqish, qarashlarning ochiqqligini namoyish etish, raqibning king'ir ishlari samaradorligini bo'shashtirish imkonini beradi. Aynan shu sharoitda o'zaro da'volar mohiyatini ochib beruvchi ihtilofning o'rta kelishuv nuqtasini topish oson bo'ladi.

Adabiyotlar:

- O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. T. O'zbekiston. 2011.
- Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-19 jildlar. T. O'zbekiston. 1996-2011.
- Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – engilmas kuch. T.-Ma'naviyat. 2008.
- Karimov I. A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T. O'zbekiston 2009 yil.
- Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T. - O'zbekiston. 2010.
- Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. – T.: O'zbekiston, 2011.
- Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T. - O'zbekiston. 2011.
- Karimov I.A. Bunyodkorlik, yangilanish, mexr-muruvvat yo'li. Prezident I.A.Karimovning 2012 yil 21 mart Navro'z umumxalq bayramiga bag'ishlab so'zlagan nutqi. T.// Xalq so'zi.2012 yil 22 mart.
- Karimov I.A. Inson xotirasi - boqiy,qadr-qimmat – ulug'. Prezident I.A.Karimovning 2012 yil 9 may- Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlab so'zlagan nutqi. T.// Xalq so'zi.2012 yil 10 may.
- Nosirxo'jaev S., Safarboev M., Sultonov K Siyosatshunoslik fanidan ko'rgazmali metodik qo'llanma. – T., 2007.
- Odilqoriev X.T.Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik.T., 2008.
- Xolbekov A., Jumaev R., Umarova N. va boshqalar “Boshqaruvning ijtimoiy- siyosiy yo'nalishlari” - T.; G'. G'ulom, 2008.
- Artikbaev O.S., Ganiev J.X. Siyosatshunoslik. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. – T., 2009.
- Jumaev R.Z. va boshq. Siyosiy islohotlar strategiyasi. – T.: Akademiya. 2010.
- “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”ni o'rganishga bag'ishlangan Respublika ilmiy–amaliy konferensiya materiallari. (2011 yil 16 mart). Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Milliy universiteti, “Siyosatshunoslik” kafedrası, Respublika “Kamolot” YOshlar ijtimoiy harakati,– T.: Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti. 2011. – 413 b.
- Odilqoriev T., Razzoqov D. Siyosatshunoslik. Darslik. – T: O'qituvchi, 2011.

6 – mavzu: Siyosiy madaniyat, siyosiy mafkuralar.

Reja:

- 1.Siyosiy ong tushunchasi, manbai, funksiyalari va darajalari. Siyosiy ong shakllanishining asosiy omillari va siyosiy tarbiya**
- 2. Siyosiy madaniyat mazmuni, uning tarkibiy qismlari**
- 3. Siyosiy mafkura tushunchasi va vazifalari va ko'rinishlari.**

Siyosiy ong tushunchasi, manbai va funksiyalari

Siyosiy ong – siyosiy fan kategoriyalaridan biri hisoblanadi. U o'zining mohiyati, manbai, funksiyalariga ko'ra iqtisodiy, huquqiy, falsafiy, axloqiy, estetik, diniy ongdan farq qiladi.

Siyosiy ong – siyosiy borliqning idrok qilinishidir. Kishilar mavjud siyosiy voqelik bilan qanoatlanib qolmaydilar. Ular hamisha bu voqelikni bilishga, anglashga va uni

o'zgartirishga intiladilar. Kishilarning ana shu siyosiy borliq haqidagi bilimlari, qarashlari, tasavvurlari ularning siyosiy ongini tashkil etadi.

Siyosiy ong – siyosiy borliqning sub'ektiv aks etishidir. U siyosiy voqelikni qanday bo'lsa, shunday, xolisona tarzda, bo'yamasdan, bo'rttirmasdan, mutlaqlashtirmasdan aks ettiradi. Biroq, siyosiy ong siyosiy voqelikni oyna kabi qanday bo'lsa, shunday, mexanik tarzda, jonsiz aks ettirmaydi. U siyosiy voqelikning sir-asroriga «kirib» boruvchi, undan ilgarilab ketuvchi, ijtimoiy siyosiy jarayonlarning o'zgarishi va rivojlanishini bashorat qiluvchi va aks etirishdir. Siyosiy ong – jamiyatning siyosiy hayoti va uning barcha boshqa sohalariga katta ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan ijtimoiy hodisadir. Bundan tashqari, alohida olingan kishilarning ham, jamiyat ijtimoiy-siyosiy birlashmalarining ham xulq-atvori va faoliyatlarining xarakteri ko'p jihatdan siyosiy ongning shakllanishi va rivojlanish darajalariga bog'liqdir. SHuning uchun ham ijtimoiy jarayonlarni siyosiy boshqarish amaliyotida, ham jamiyatning, ham uni tashkil etuvchi individlar, ijtimoiy guruhlar, qatlamlarning siyosiy ongi holatini hisobga olish o'ta muhimdir. Bu o'rinda hokimiyatlar, siyosiy partiyalar ijtimoiy-siyosiy muvozanatni saqlab turishga imkon beradigan, davlatning ijtimoiy taraqqiyoti ehtiyojlarini to'la ifoda etadigan siyosiy ongni shakllantirish va rivojlantirishga intilishlari zarur bo'ladi.

Siyosiy ong ko'pincha siyosiy tasavvurlar yig'indisidan iborat bo'ladi. Ongsiz, tasavvurlarsiz kishilik jamiyati bo'lmaganidek, siyosiy ongsiz, tasavvurlarsiz siyosiy sohaning bo'lishi ham mumkin emas.

Siyosiy ong nafaqat guruh, balki individual xarakterga ham ega. U aniq tarixiy shart-sharoitning, muayyan omillar ta'sirining mahsulidir⁴[4].

Siyosiy ongning shakllanishi va rivojlanishida quyidagi manbalar asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Birinchi manba – insonning oilaviy muhiti. Siyosiy g'oyalar va hissiyotlar unga oiladagi tarbiya orqali beriladi. Bunga to'g'ri keluvchi ijtimoiy-ruhiy qarashlar – siyosiy ongning poydevorini barpo etadi. Uning negizida esa fuqaro shaxsi shakllanadi.

Ikkinchi manba – bu keng ma'nodagi axborotdir. U inson ongiga ham muomala, ham ommaviy axborot vositalari (televideniya, radio, matbuot) orqali «kirib» boradi.

Uchinchi manba – bu individning shaxsiy tajribasidir. SHaxsiy tajriba olingan bilimni rad qiladi yoki tasdiqlaydi. Biroq, u har qanday holatda ham siyosiy ongning shakllanishi va rivojlanishi jarayoniga muhim ta'sir ko'rsatadi.

YUqorida qayd etilgan manbalar insonga siyosat dunyosini tahlil etishga va unga nisbatan munosabatini belgilab olishga imkon beruvchi bilimlar yig'in-disini tashkil etadi.

Demak, voqelik o'zidan-o'zi siyosiy ong orqali baholanmaydi. Uning qabul qilinishi kishilarning avvalgi e'tiqodlari va manfaatlariga ham bog'liqdir.

Siyosiy ong yakka holda emas, balki ijtimoiy ongning boshqa shakllari: iqtisodiy qarashlar, falsafiy ta'limotlar, huquqiy nazariyalar va me'yorlar, axloqiy qonuniyatlar, estetik qadriyatlar bilan o'zaro bog'liq va birgalikda harakat qiladi.

Endi siyosiy ongning funksilarini ko'rib chiqamiz. U ham ijtimoiy ong-ning boshqa shakllari kabi bir qator funksiyalarni bajaradi. Bu funksiyalarga quyidagilar kiradi:

4[4] +аранг: Политология Т.: «ЎАЖБНТ», 2002, 163–175-бетлар.

1. Bilish-axborot berish funksiyasi. Kishilar ertami yoki kechmi, xoh-laydimi yoki yo'qmi, ammo muqarrar ravishda siyosat dunyosiga duch keladi. Ular bu soha bilan shug'ullanishni xohlamasalarda siyosat ular bilan bari bir «shug'ullanadi» U kishilarning hayotiga va taqdiriga davlat, partiyalar va boshqa jamoat tashkilotlari orqali ta'sir ko'rsatadi. Siyosat kishilarga siyosiy axborot ko'rinishida «kirib» boradi.

2. Baholash funksiyasi. Siyosiy ong sosial-siyosiy voqelikni nafaqat biladi, izohlaydi, balki, uni baholaydi. Kishilar u yoki bu siyosiy hodisalar va voqealarni anglash jarayonida, ularga o'z munosabatlarini bildiradilar, o'zlari uchun muayyan xulosalarni chiqaradilar. Aynan siyosiy voqelikni baholash asosida kishilar o'zlarining siyosiy qarashlarini, e'tiqotlarini, pozisiyalarini, qiziqishlarini shakllantiradilar.

3. Yo'naltirish funksiyasi. Siyosiy ong kishilarga o'zlarini jamiyat va davlat oldida nafaqat burchlarga, majburiyatlarga, balki muayyan huquqlar, erkinliklar va siyosiy manfaatlarga ega bo'lgan fuqarolar ekanliklarini anglashga yordam beradi. O'z navbatida fuqarolik o'zini-o'zi idrok etish kishilarni sosial voqelikni bo'sh, bir tomonlama anglashdan ijtimoiy-siyosiy hayotda aniq va faol ishtirok etishga undaydi. Bu bilan siyosiy ong o'zining yo'naltiruvchilik funksiyasi orqali kishilarning aniq siyosiy xulq-atvorini, o'zlarining sosial siyosiy manfaatlarini himoya qilishlari uchun ijtimoiy hayotda ishtirok etishlari, siyosiy partiyalarga, jamoat tashkilotlari va boshqa siyosiy uyushmalarga o'zlarining ham fikrlari bilan birlashishlari zarurligini uyg'otadi.

4. Tartibga solish funksiyasi. Siyosiy ong voqelikni idrok etish asosida hamda uning tomonidan ishlab chiqilgan siyosiy g'oyalar, me'yorlar, tasavvurlar va e'tiqotlar negizida kishilarning ijtimoiy xulq-atvorlarini tartibga soladi.

Siyosiy ongning tartibga solish funksiyasiga ehtiyoj jamiyat taraqqiyoti-ning keskin burilish bosqichlarida, inqirozli davrlarida mislsiz ravishda ortadi. Aynan siyosiy tizimning samaradorligi, voqealarning rivojlanish yo'li, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarning yo'naltirilganligi jamiyat keng qatlamlari-ning siyosiy ongiga, «yuqoridagilar»ning siyosiy ko'rsatmalariga bog'liq bo'ladi.

SHunday qilib, siyosiy ong – sosial sub'ektlar (individdlar, guruhlar, sinflar, ijtimoiy birliklar)ning ijtimoiy hayotning siyosiy sohasi xaqidagi bilimlari, tasavvurlari va baholashlarining yig'indisidan iboratdir. U bir qator vazifalarini bilish, baholash, yo'naltirish, tartibga solish kabi funksiyalarni bajarish bilan jamiyat hayotida muhim rol o'ynaydi, uni harakatga keltiradi, o'zgartiradi.

Siyosiy ongning darajalari va shakllari

Siyosiy ong – bu favqulodda murakkab va ko'p qirrali hodisadir. U turli-tuman darajalar va shakllarda, avvalo, maxsus va ommaviy siyosiy ong shakllarida mavjud bo'ladi.

Maxsus siyosiy ong - bu qoida bo'yicha, mafkuraviy jihatdan bir xil bo'lgan ongdir. Dastlab u kam sonli kishilarning mulki hisoblanadi. Uning tashuvchilari – siyosiy partiyalar va boshqa siyosiy tashkilotlar hamda birlashmalardir. Ular muayyan yo'nalish bo'yicha ommaviy ongni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan maqsadga muvofiq faoliyat zarurligini belgilaydi.

Maxsus siyosiy ongda bosh masala – ijtimoiy guruhlar, qatlamlarning oddiy vakillari ongiga muayyan ko'rsatmalarni, qoidalarni ishlab chiqish, rivojlantirish va joriy etishdir.

Ommaviy siyosiy ong jamiyat ehtiyojlarining darajasi va mazmunini bevosita ifoda etadi. U siyosiy voqelik haqidagi jamiyat bilimlarining xarakterini ham aks ettiradi. Bunday bilimlar, bir tomondan, turli mafkuralar orqali ishlab chiqiladi va siyosiy madaniyatda mustahkamlanadi. Ikkinchi tomondan esa ushbu bilimlar ijtimoiy guruhlarining amaliy faoliyati tomonidan qo'lga kiritiladi.

Ommaviy siyosiy ong aniq-tarixiy va o'zgaruvchan xarakterga egadir. U tez-tez ko'tarilish va pasayish davrlarini o'z boshidan kechiradi. Unga ko'plab omillar: u yoki bu partiyalarning siyosiy yo'li va taktik-strategik faoliyati, turli ijtimoiy alg'ov-dalg'ovlar, muayyan tarixiy vaziyatning mazmuni va boshqa voqea, hodisalar o'z ta'sirini o'tkazib turadi.

Maxsus siyosiy ong va ommaviy siyosiy ong o'zaro chambarchas bog'langandir. Real hayotda ular o'rtasidagi aloqalarning turli variantlari bo'lishi mumkin.

Ayrim vaqtlarda muayyan siyosiy partiya tomonidan nazariy va amaliy voz kechilgan va bartaraf etilgan qoidalar, urf-odatlar jamiyatning siyosiy ongida uzoq vaqtgacha asorat sifatida saqlanib qolishi mumkin. Bu holni ko'plab siyosiy arboblardan, donishmandlardan ta'kidlashgan.

Teskari vaziyat ham bo'lishi mumkin: ommaviy siyosiy ongda u yoki bu siyosiy harakatning, qandaydir siyosiy qarorni qabul qilishning zarurligi e'tirof etiladi, maxsus ong esa bunga tayyor emas. Masalan, biror mamlakatda ko'p partiyaviylikning zarurligi haqidagi g'oya oldindan o'z tasdig'ini topgan bo'lsa ham, kerak bo'lgan tashabbus hukmron partiya, davlat tomonidan ancha kechikib qabul qilinishi mumkin.

Siyosiy ong nazariy hamda empirik daraja va shakllarga ajraladi:

Nazariy siyosiy ong – bu siyosiy xarakterga ega bo'lgan turli xildagi g'oyalar, konsepsiyalar, qarashlardir. Uning belgilari, yaxlitlik, sistemalash-ganlik, bashorat qilishga qobiliyatlik.

Mazkur ong fan va u yoki bu ijtimoiy qatlamlarning qarashlari bilan chambarchas bog'langandir.

Siyosiy nazariyalar va ta'limotlarda quyidagi muammolarni tadqiq etish maqsad qilib qo'yiladi: a) siyosatning ma'no-mazmunli ko'rinishlari; b) qonuniy siyosiy tendensiyalar va jarayonlar; v) ularni keltirib chiqaradigan sabablar; g) siyosiy pozitsiyaning real yo'li; d) qonunchilik, ma'muriy va sud organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning haqiqiy va kelajakda sodir bo'ladigan oqibatlari.

Nazariy siyosiy ongning xususiyati – uning iqtisodiy, huquqiy, harbiy-strategik va boshqa reallik bilan chambarchas bog'liqligidir. Siyosiy ongning ushbu shakli siyosiy nazariyalarning kerakli siyosiy dasturlar, deklarasiyalar va doktrinalar bo'lib shakllanganligi bilan ham farq qiladi.

Amaliyotga joriy etiladigan ushbu dasturlar, deklarasiyalar va doktrinalar siyosiy ongning siyosatning etakchi elementi sifatida mustahkamlab qo'yadilar. Siyosiy munosabatlar va siyosiy institutlar, tashkilotlar va muassa-salarning xarakteri o'z navbatida bu elementga bog'liqdir.

Nazariy ong darajasi va shaklida siyosatni anglash quyidagi imkoniyat-larni yaratadi:

- a) uning muhim maqsadlari, ham fundamental (strategik), ham kundalik (taktik) vazifalarni belgilash va hal etishga;
- b) ularga erishishning vosita va usullarini aniqlashga;
- v) dolzarb muammolarni hal qilishda tashkiliy-siyosiy jihatdan ta'min etishning yo'nalishlari va yo'llarini aniqlab olishga;

g) siyosiy qarorlar va maqsadli dasturlarning bajarilishi ustidan sosial nazoratga konseptual yondashuvlarni ishlab chiqishga;

d) amaliy tajribani hisobga olgan holda siyosatga tuzatishlar kiritishga imkon beradi.

Emperik siyosiy ong – bu bevosita amaliyotda, siyosiy jarayonda alohida kishilarning, mayda va yirik sosial birliklarning jonli ishtirok etishlariga asoslangan siyosiy ong darajasi va shaklidir. U nazariy siyosiy ongning zamini bo'lib xizmat qiladi.

Emperik siyosiy ong – siyosiy voqelikni hissiyotlar, tasavvurlar, illyuziyalar, kechinmalar shaklida aks ettiradi. U **birinchidan**, ommada siyosat va siyosiy arboblarga nisbatan jamoatchilik fikrini shakllantirish uchun ozuqa bo'lib xizmat qiladi. **Ikkinchidan**, jamiyat siyosiy madaniyatining ma'naviy negizi bo'lib xizmat qiladi.

Siyosiy ong ijtimoiy siyosiy ong va oddiy (kundalik) ong daraja va shakllariga ham egadir.

Ijtimoiy siyosiy ong – bu rasmiy siyosat bo'lib ishlab chiqiladigan, asoslanadigan, amalga oshiriladigan va siyosiy munosabatlar tartibga solina-digan siyosiy ong darajasidir. Uning tashuvchilari – davlat institutlaridir. Bu institutlar siyosiy munosabatlarni turli qonun loyihalar, dasturlar, qarorlar, konstitusiya va ularning moddalariga tuzatishlar va boshqalarni ishlab chiqish, qabul qilish orqali amaliyotga tatbiq etish yo'li bilan tartibga soladi.

Siyosiy ong uchun siyosiy voqelikni oqilona - pragmatik uslubda idrok etish – hokimiyatni egallash, qo'lda ushlab turish jarayonida muvaffaqiyatga erishishni mo'ljallash ham xarakterlidir.

Oddiy siyosiy ong – bu ijtimoiy qatlam yoki kishilar guruhlarining kundalik hayotida bevosita paydo bo'ladigan g'oyalar va qarashlar yig'indisidir. U mazmuniga ko'ra ko'p jihatdan emperik ongga o'xshashdir. Lekin, oddiy ong emperik ongdan farq qiladi. U muayyan mafkuraviy va nazariy elementlarga egadir.

Oddiy ongga ravshan ko'zga tashlanadigan ijtimoiy-ruhiy belgilar – ziddiyatlilik, o'zgaruvchanlik, tizimga kirmaganlik, hissiyot, kayfiyat, ehtirosalar xosdir. Bu unga o'ziga xos dinamiklik (tez o'zgaruvchanlik) siyosiy vaziyatning o'zgarishini aniq his etishni baxshida etadi.

Siyosiy ongning oddiy darajasi rasionallik, emosionallik, hayot tajriba va an'ana, daqiqalik kayfiyat va beqaror stereotiplarning o'zaro bog'liqligi bilan farqlanadi. SHuning uchun ham u beqaror, hissiyot va bevosita tajribaning o'zgarishiga bog'liq tebranishlarga mahkum.

SHunday qilib, siyosiy ong favqulodda murakkab va ko'p qirrali hodisadir. U nafaqat siyosiy voqelikni aks ettiradi, balki uni yaratadi, o'zgartiradi.

Siyosiy ong shakllanishining asosiy omillari va siyosiy tarbiya

Siyosiy ong insonda muayyan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy shart-sharoitlar negizida shakllanadi. Bunday shart-sharoitlar mavjud bo'lmas ekan, insonda siyosiy ong shakllanmaydi. U siyosatning ob'ektligicha qolaveradi. Siyosiy ongning shakllanishi – murakkab jarayondir. Bu jarayon avvalo, ijtimoiy-siyosiy tartibotning mavjudligiga bog'liqdir. Jamiyatda bunday munosabatlar mavjud bo'lmasa, mustaxkamlanib borilmasa, insonda siyosiy ong shakllanmaydi. Agar jamiyatda avtoritar, ma'muriy-buyruqbozlik siyosiy tizimi hukmron bo'lsa, u inson siyosiy ongining shakllanishiga imkon bermaydi. Aksincha, bu tizim insonni qullikka

mahkum etadi, uni hokimiyatdan begonalashtiradi, biqlik, befarqlikni tug'diradi, boshqaruv apparatlarini xalqdan uzoqlashtiradi.

Jamiyatda demokratik siyosiy tizimning mavjudligi va uning mustah-kamlanib borishi – insonda siyosiy ong shakllanishining hal qiluvchi shartidir. Bunday siyosiy tizim inson siyosiy onggi va faoliyatining rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratadi, uni rag'batlantiradi. Jamiyat siyosiy tizimi qanchalik demokratik bo'lsa, inson shunchalik siyosiy hayotda faol ishtirok etadi.

Siyosiy ongni shakllanishi jamiyatda faqat demokratik siyosiy tizimning mavjudligi bilan belgilanmaydi. U jamiyat iqtisodiyoti taraqqiyoti xalqning moddiy farovonligiga ham bog'liq holda shakllanadi.

Jamiyat iqtisodiyotining yuqori darajada taraqqiy etishi fuqarolik jamiyatining bilimdon, malakali, kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan boshqaruv kadrlari korpusining shakllanishi uchun zarur baza bo'lib xizmat qiladi.

Iqtisodiyotning taraqqiy etishi, xalqning farovonlikka erishuvi – siyosiy ong shakllanishining asosiy shartlaridan biridir. Jamiyat qanchalik iqtisodiy jihatdan taraqqiy etib borsa, idora qilishning demokratik shakllariga shunchalik sharoit yaratiladi. Xalq qanchalik boy va badavlat, farovon yashasa, u shunchalik demokratiyani qo'llab-quvvatlaydi va himoya qiladi.

Siyosiy ongni shakllanishi jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishiga bevosita bog'liq. Ma'naviy qashshoq, savodsiz bo'lgan inson jamiyat va xalqaro siyosatdan yiroq bo'ladi. U siyosiy harakatlarning sub'ekti emas, balki ob'ekti bo'lib qoladi. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy sohasi, insonning ma'lumotlilik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, u shunchalik siyosiy bilimdon va siyosiy yo'naltirilgan bo'ladi. Eng asosiysi, demokratik yo'l, ko'rsatmalar, xatti-harakatlarga moyil bo'ladi. Xususan, mukammal ta'lim insonning siyosiy dunyoqarashini kengaytiradi, sabr-toqatli, mehr-oqibatli bo'lishga yordam beradi, ekstremistik g'oyalarga aloqador bo'lishdan saqlaydi, saylov kompaniyalari davrida uning odil va oqilona yo'lni tanlash qobiliyatini oshiradi. Yuqori ma'lumotga ega bo'lgan shaxs hukumatning qarorlarini, ko'rsatmalarini yaxshi anglaydi, siyosiy xabarlarini chuqur biladi, keng doiradagi masalalar bo'yicha o'zining mustaqil fikriga ega bo'ladi. Inson qanchalik ma'lumotli bo'lsa, uning siyosiy bahs-munozaralarda ishtirok etish ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi. U o'zini kichik bir murvat emas, balki hukumatga ta'sir ko'rsatishga qodir inson, deb hisoblaydi. Individ qanchalik ma'lumotli bo'lsa, u muayyan jamoat tashkilotlarining faol a'zosi bo'lishi, o'zini o'rab turgan ijtimoiy-siyosiy muhitga ishonch bildirishi ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi.

Siyosiy tarbiya insonni ma'naviy jihatdan kamol toptirishning tarkibiy qismi bo'lib, uni amalga oshirish nihoyatda murakkab jarayondir. Siyosiy tarbiya serqirra jarayon sifatida inson faoliyatida ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Mehnat tarbiyasi, axloqiy, siyosiy, huquqiy, estetik, g'oyaviy va jismoniy tarbiyalar ijtimoiy tarbiyaning alohida shakllaridir. Ijtimoiy tarbiyaning barcha shakllari o'zaro bog'liq holda kechadi va har bir kishiga turlicha ta'sir ko'rsatadi.

Siyosiy tarbiya ijtimoiy tarbiyaning barcha shakllari bilan bir vaqtda ular bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. Siyosiy tarbiya insonning o'zi uchun ham, uning kamol topishi va rivojlanishi uchun ham nihoyatda zarurdir. Siyosiy jihatdan yaxshi tarbiyalangan kishi ayrim hollarda uchrab turadigan siyosiy ehtirolarga berilib ketmasdan o'zini tiya oladi, har xil siyosiy o'yinlar, siyosiy buzg'unchiliklarga

xolisona baho beradi, siyosiy jarayonlar va siyosiy munosabatlarga bosiqlik bilan qatnashadi.

Davlat o'z ixtiyorida bo'lgan ta'lim tizimi, ommaviy axborot vositalari hamda bosma nashrlardan foydalanib, jamiyat a'zolarini siyosiy ta'siriga tortishga harakat qiladi. Bu omillar o'z navbatida fuqarolarning siyosiy tarbiyasiga u yoki bu darajada ta'sir etib boradi.

Siyosiy tarbiya – jamiyat a'zolarida siyosiy ongni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan nazariy va amaliyo faoliyat bo'lib, uning yordamida siyosiy jarayonlar va siyosiy munosabatlarda bo'ladigan voqea-hodisalar, o'zgarishlarning mohiyati va mazmuni jamiyat a'zolari tomonidan u yoki bu darajada anglab etiladi va ularda siyosatga ongli munosabatda bo'lish qolibiyatlari shakllantiriladi.

Jamiyat o'z a'zolarini siyosiy jihatdan tarbiyalash bilan birga ular oldiga yuksak majburiyatlar ham qo'yadi. Bu mas'uliyat jamiyatning har bir a'zosi tomonidan chuqur his etilmog'i kerak. Xususan, rahbarlik lavozimidagi kishilar uchun siyosiy tarbiyaning ahamiyatini his etish nihoyatda zarurdir. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, «Rahbarlik lavozimiga ko'tarilgan kishilarning eng buyuk, eng muqaddas vazifasi – uni tarbiya qilgan, bilim bergan, yuksak martabaga olib chiqqan xalqiga sidqidildan xizmat qilish»dir[5].

Siyosiy tarbiyaning usullari quyidagilardan iborat:

1) ishontirish; 2) jamiyat a'zolariga siyosiy ta'sir etish; 3) namuna bo'lish usullari va h.k.

Siyosiy tarbiyaning vositalari: radio, televidenie, bosma nashrlar, siyosiy adabiyotlar, muzeylar, siyosiy mavzularga doir badiiy va hujjatli filmlardir.

Siyosiy madaniyat ijtimoiy voqelik sifatida sinflar va davlatlarning paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan. SHu bilan birga siyosiy hayot madaniyati sinflarning yuzaga kelishidan avval qadimgi SHarqda, antik Gresiya va Rimda shakllangan.

Siyosiy madaniyat mazmuni, uning tarkibiy qismlari

Siyosiy madaniyat odamlarning xulq-atvoriga va turli tashkilotlarning faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi, ularning ichki va tashqi hodisalarni idrok etish, siyosiy tizim va tartibotlarga, hukmron guruh va alohida siyosiy rahbarlar faoliyatiga, shaxsning jamiyat siyosiy hayotida tutgan o'rniga baho berishda mezon hisoblanadi. U siyosiy yo'lni ishlab chiqish, aniq siyosiy boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ro'yobga chiqarish uchun keng istiqbol yo'llarini ochadi.

Siyosiy madaniyat muammosi majmui o'ta murakkab va ko'p qirralidir. Siyosiy madaniyat masalasida adabiyotlarda turlicha fikrlar mavjud. Siyosiy madaniyat ma'naviy madaniyatlar singari o'ziga xos mustaqil madaniyat turidir.

YUqorida bayon qilingan fikrlardan kelib chiqqan holda, siyosiy madaniyatga shunday ta'rif berish mumkin: **Siyosiy madaniyat** mavjud ijtimoiy birlikka xos bo'lgan siyosiy ong va xulq-atvor majmuidir. Ammo bunday ta'rif siyosiy madaniyatning mazmunini to'la ochib bera olmaydi. Buning uchun siyosiy madaniyatning asosiy tarkibiy qismlariga e'tiborni qaratish lozim bo'ladi.

5[5] Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истилол, итисод, сиёсат, мафкура. Т.1 – Т.: «Ўзбекистон», 1996, 216-бет.

Siyosiy madaniyatning tarkibiy qismlariga, siyosiy tajriba, siyosiy ong, siyosiy qadriyatlar, siyosiy ko'rsatma, siyosiy xulq-atvor, siyosiy belgilar, ramzlarni kiritish mumkin. O'z navbatida mazkur elementlarning o'zi bir qancha komponentlarni qamrab oladi.

1. Siyosiy tajriba: a) xalqning o'ziga xos milliy-ma'naviy qadriyatlari; b) mentaliteti; v) tarixiy xotirasi va an'analari; g) milliy davlatchilikni amalga oshirish tajribasi, o'z milliy qadriyatlaridan kelib chiquvchi siyosiy mo'ljallari.

2. Siyosiy ong: a) mafkuraviy, g'oyaviy komponent; b) emosional-psixologik komponentlardan iborat.

Siyosiy ong elementi jamiyatda hukmron bo'lgan yoki birorta ijtimoiy guruhga xos bo'lgan, jamiyat siyosiy hayotining turli jihatlariga singib ketgan qarashlar hisoblanadi. (Masalan, siyosiy tartibot, qarorlarni qabul qilish, siyosiy hayotdagi bilimdonlik).

3. Siyosiy qadriyatlarning mazmuni siyosiy voqelikdagi shaxs, guruh, jamiyat qadriyatlari tuzilmasi bilan chambarchas bog'liq.

4. Siyosiy ko'rsatma – sub'ektning siyosiy voqelikka munosabatlaridir. Bu siyosiy bilimni qabul qilishga intilish, siyosiy faoliyatga bo'lgan faol va sust e'tibor, siyosiy faoliyatning turli jihatlariga bo'lgan munosabat.

5. Siyosiy xulq-atvorni shakllantirishda siyosiy an'analar muhim rol o'ynaydi. An'analarda jamiyat maqsadlari va manfaatlariga javob beradigan o'tmish siyosiy tajribalari jamlangan bo'ladi. Siyosiy xulq-atvor: a) siyosiy vaziyat, jarayondagi xatti-harakat, faoliyat yo'nalishi; b) ijtimoiy-siyosat faoliyat uslubining namunalari, turlari, xususiyatlari.

6. Siyosiy belgilar, ramzlar (simvol) o'zida jo'shqinlikni aks ettirgan holda, kishini o'ziga jalb etish xususiyatiga ega bo'ladi. (Masalan, Teylor siyosiy belgilardan ustalik bilan foydalangan, Angliyada muhim siyosiy belgi monarxiya va h.k.).

YUqorida bayon qilingan fikrlarga asoslangan holda, siyosiy madaniyatning keng ma'nodagi ta'rifini keltirish mumkin. **Siyosiy madaniyat** o'z mazmuni va mohiyatiga ko'ra odamlar hayot faoliyatining sinfiy, ijtimoiy xosilasi, ularning siyosiy bunyodkorligi, faoliyati hisoblanib, sinflar, qatlamlar, milliy tuzilmalar, guruhlar va birliklar tomonidan o'zlashtirish jarayonini aks ettiradi.

Siyosiy madaniyat jamiyat siyosiy hayotida bir qancha muhim **vazifalarni** bajaradi.

Birinchidan, siyosiy madaniyat jamiyatda milliy manfaatlarni ro'yobga chiqarishni siyosiy jihatdan ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bu vazifaning mazmuni ijtimoiy-siyosiy formasiyaning rivojlanishi, jamiyat taraqqiyoti darajasiga qarab o'zgaradi.

Ikkinchidan, siyosiy madaniyat sinflar, ijtimoiy guruhlar, qatlamlar va milliy tuzilmalar manfaatlari yo'lida siyosiy munosabatlarning qayta o'zgarishi va qayta o'zlashtirish vazifasini bajaradi. Bu vazifani amalda tatbiq etish bilimlarni ijodiy qo'llash, jamiyat siyosiy hayotini, siyosiy fikrlar, davlat hokimiyati organlari va boshqa siyosiy kuchlarning faoliyatini chuqur anglab etish bilan bog'liq.

Uchinchidan, siyosiy madaniyat tartibga soluvchilik vazifasini o'taydi. Bunday vazifa barqaror siyosiy tizim, siyosiy tashkilotlar bo'limini ta'minlaydi. Siyosiy madaniyat jamiyatda barqarorlikning qaror topishiga ko'maklashadi. **To'rtinchidan**, siyosiy madaniyat tarbiyaviy vazifani bajaradi. YUksak, maqsadlar, qadriyatlar, normalar asosida shaxs siyosiy madaniyatini shakllantirish uning mohiyatini tashkil etadi. Bu vazifa siyosiy faollikni, fuqarolik ma'suliyatini tarbiyalaydi, ijtimoiy-siyosiy faoliyat ko'nikmalarini shakllantiradi. **Beshinchidan**, siyosiy madaniyat

aloqa vazifasini amalga oshiradi. Bunda, u fuqaroning siyosiy tizim va jamiyatning boshqa a'zolari bilan aloqasi shakli sifatida namoyon bo'ladi. Bu vazifani amalga oshirishda ta'lim, tarbiya tizimi, ommaviy axborot vositalari, madaniy-oqartuv muassasalari, adabiyot va san'at muhim rol o'ynaydi. **Oltinchidan**, siyosiy madaniyat oldindan aytib berishlik vazifasini bajaradi.

Siyosiy madaniyatga xos talablarga quyidagilar kiradi:

- 1) Jamiyatdagi voqea, hodisalarga bosiqlik bilan munosabatda bo'lish.
- 2) Voqea-hodisalarning sabablarini to'g'ri tahlil qilish.
- 3) Voqea-hodisalarga nisbatdan ob'ektiv va adolatli munosabatda bo'lish.
- 4) SHaxsiy fikrni davlat, boshqa siyosiy tashkilotlar fikridan ustun qo'ymaslik.
- 5) Davlat siyosati, davlat tili, madaniyati, urf-odatlar, turmush tarziga hurmat bilan qarash.

Siyosiy madaniyat yuqori onglilik, ma'naviy boylik mahsulidir. Siyosiy ong qanchalik yuqori bo'lsa, siyosiy madaniyat darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Siyosiy madaniyat elementlari:

Siyosiy hissiyot, ko'nikmalar, bilimlar, qarashlarning mazmuni, xarakteri, sistemasi va darajasida ko'rinadi.

Siyosiy xulq-atvor va fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy hayotda qatnashuvida bilinadi.

Siyosiy an'analar, odatlar, normalar, siyosiy hayotning bir xil tipi va ko'rsatmalarida mavjud bo'ladi.

Siyosiy munosabatlar, siyosiy hayotning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi.

Siyosiy madaniyat ijtimoiy ongning aktiv qismidir. Aslida ijtimoiy ongning 3 turi mavjud:

A) ijtimoiy ongning past saviyasi tipi;

B) siyosiy faoliyatda ishtirok etmaydigan tipi;

V) ijtimoiy tabaqalarni belgilash, siyosiy qarorlar qabul qilishda ishtirok etadi.

Siyosiy madaniyat sinfiy jamiyat tashkil topgandan keyingina shakllana boshlaydi.

Siyosiy madaniyat aslida uzoq o'tmishdan tortib to hozirgi kungacha insoniyat taraqqiyoti natijasida jamlangan olamshumul tarixiy tajribaning mohiyati, mag'zi, javharidir.

«Agar iqtisodiy o'sish jamiyatimiz tanasi bo'lsa, ma'naviyat – ma'rifat va siyosiy ong etukligi uning ruhi, aqli va qonidir», degan edi Prezidentimiz Islom Karimov.

Siyosiy madaniyatning 2 tipi mavjud:

A) An'anaviy siyosiy madaniyat (diniy jihatdan asoslangan) yoki yopiq madaniyat tipi ham deyiladi.

B) YUqori tabaqa siyosiy madaniyati, yoki ochiq madaniyat tipi. Bu o'zgaruvchan – pragmatik bo'ladi.

Hozirgi zamon politologlari siyosiy madaniyatning 3 ta darajasi borligini bayon etganlar. Bular: 1. Tafakkur qilish, anglash darajasi. 2. Fuqarolik darajasi. 3. Siyosiy daraja.

Siyosiy madaniyatning quyidagi modellari mavjud:

1. «Totalitar-avtoritar» modeli.
2. «Liberal-demokratik» modeli.
3. «SHarqona siyosiy madaniyat modeli.

Siyosiy madaniyat turlari, ko'rinish va shakllari:

1. Ibtidoiy: (boshlang'ich) turi – ibtidoiy jamoadan quldorchilik tuzumiga o'tish davrida shakllangan. Hozirgi siyosiy madaniyat uning asosida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Inson tabiat oldida ojizroq edi. SHu sabab ular to'da, guruh, tabaqa, elat, millat, jamiyat birikmalarida uyushib yashadi, bu siyosiy hayot hozir ham bor.

2. Fuqarolik turi – eng keng tarqalgan, har bir ijtimoiy siyosiy tuzum doirasida amal qilinadigan asosiy tur bo'lib, rasmiy siyosiy munosabatlar jarayonlarini qamrab oladi. Fuqarolik siyosiy madaniyati umumjamiyat va umuminsoniy siyosiy madaniyatning tarkibiy qismidir. SHaxs bilan guruh manfaatlari, ezgulik bilan xudbinlik va h.k.

3. Faollik turi. Faol siyosiy madaniyatning tub mohiyati jamiyat istiqbolini oldindan idrok etib, uni ilmiy-metodologik tahlil qila bilishdir. Kelajak siyosiy hayot yo'nalishlarini oqilona hisobga olgan holda, sodir bo'layotgan siyosiy jarayonlar oqimini ob'ektiv va chuqur ilmiy nazariy tahlil qilish asosida rivojlantirish bilan birga istiqbol maqsadlarini aniq ifodalash yuksak darajada amal qiladigan siyosiy madaniyatning asosiy mazmunini tashkil etadi. (Biror siyosiy partiyaga a'zo bo'lishi bilan ham xarakterlanadi, siyosiy mafkurasi, siyosiy ruhiy holati va h.k.).

4. Guruhiy shakli. Guruhiy siyosiy madaniyat bir ijtimoiy guruhning tub maqsad-manfaatlari, talab-ehtiyojlarining aniq ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Siyosiy partiyalar va ijtimoiy-jamoat tashkilotlari siyosiy xatti- harakatlarining mazmuni, ko'lami, darajasi bilan ham belgilanadi.

5. Ommaviy shakli. Siyosiy madaniyatning ommaviy shakli guruhiy siyosiy madaniyatning namoyon bo'lishiga nisbatan kamroq, oldindan rejalashtirilmagan holda jamiyat siyosiy hayotining keskin pallalarida namoyon bo'ladi. Siyosiy faoliyat keskin o'zgargan paytlarda, masalan, narx-navo oshirilishi, siyosiy arboblarning quvg'in qilinishi tufayli omma noroziliklarida ommaviy siyosiy madaniyat amal qilishiga olib kelishi mumkin.

6. Alohida – yakka ko'rinishi. Siyosiy madaniyatning yakka shaklda namoyon bo'lishi u yoki bu jamiyat muayyan siyosiy maqom va mavqega ega bo'lgan ayrim shaxslar faoliyatlarida o'z ifodasini topadi.

Siyosiy mafkura tushunchasi va vazifalari.

Siyosiy mafkura xaqidagi masala – politologiyaning eng muhim va dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bu masala ilgari kishilar o'rtasida extirozli, qizgin, qarama – qarshi fikr – mulohazalar, bahslar va munozaralarga sabab bo'lib kelgan va bugungi kunda shundayligicha qolmoqda. Biz mazkur mavzuda ana shu masalaning mazmun – mohiyati, asosiy ko'rinishlari haqida to'xtalib o'tamiz.

1. Xo'sh, siyosiy mafkura nima? U qanday vazifalarni bajaradi?

Avvalo, ana shu savollarga javob topishimiz lozim. Siyosiy mafkura – siyosiy fanlarning eng murakkab masalalaridan biri xisoblanadi. Bu xaqida adabiyotlarda hilma – xil qarashlar mavjud.

“Mafkura” atamasi yunoncha ideya va logos so'zlarining birikmasidan tashkil topgan bo'lib, g'oyalar xaqidagi ta'limot degan ma'noni anglatadi. Bu atama, ilk bor 1797 yildagi fransuz inqilobi davrida Destut de Tressi tomonidan ilmiy muomilaga kiritilgan. Mana shundan boshlab bu murakkab ruxiy hodisa haqida hilma – xil qarashlar qaror topa boshladi.

Bugungi kunda ham g'arb politalogiyasida mafkuraviy oqimlarning manbalari va maqomi haqidagi munozaralar to'xtagani yo'q. Neoanarxizm tarafdorlari uchun

mafkura – ijtimoiy va siyosiy sharoitlarga bo'lmagan, tarixdan yuqori turuvchi xodisa sifatida ta'riflanadi. Neomakiavillizm (R.Moska, R.Mixel's, V.Paretto) ongning estetik yoki diniy shakllarini ham siyosiy mafkurani o'ziga xos namoyon bo'lish shakllari sifatida talqin etadi. G'arbda mafkurani siyosatda biron – bir muhim mavqei va ahamiyatga ega bo'lmagan "Hokimyatning xizmatkori" sifatida tavsiflovchi qarashlar ham keng tarqalgandir. SHu bilan birga g'arb polityalogiyasida mafkuraga nisbatan bir qator barqaror bo'lgan munosabatlar ham qaror topdi. Jumladan, mafkura bilan fanni bir–biridan murosasiz ayirib qo'yish, mafkuraning bilish vazifalariga shubha bilan qarash, ularni inkor qilishdan iboratdir. XX asr boshlaridayoq M.Veber mafkurani va boshqa g'oyaviy, diniy tuzumlarni ko'r – ko'rona ishonish sohasiga kiritgan edi. SHu soxaning taniqli mutaxassisi K.Mangeym, M.Veberdan keyin xar qanday mafkurani voqelikning neadekvat (noto'g'ri), bir tomonlama aks etishi sifatida, voqealarning xaqiqiy ahvolini ongli ravishda yashiradigan g'oyalar yig'indisi sifatida olib qaraydi. Mafkuraning ijtimoiy – tarixiy manbalarini chetga surib qo'yib, uni jamoani birlashtiruvchi qurol sifatida (O.Lemberg, T.Parsons) xaddan tashqari funksional talqin qilishlar ham keng tarkalgandir.

Mafkurani ayrim guruxlar va individlarning psixologiyasidan (R.Payps, D.Braun) iborat qilib ko'rsatish xollarida ham kam emas. SHu bilan birga ilmiy adabiyotlarda mafkura – xalqning, millatning dunyodagi o'rnini, manfaatlarini, orzu – intilishlarini ifodalaydigan g'oya, o'tmish va kelajakni bog'aydigan ko'rik (I.A.Karimov) sifatida ta'riflashlar ham mavjuddir.

YUqorida qayd etilgan hilma – xil yondashuvlardan kelib chiqib siyosiy mafkuraga quyidagicha ta'rif berish mumkin.

Siyosiy mafkura – u yoki bu ijtimoiy guruhning manfaatlarini ifodalovchi va himoya qiluvchi hamda ko'proq mikdordagi kishilarning individual o'y – fikrlari va xatti – harakatlarini hokimyatdan foydalanishning muayyan maqsadlari va vazifalariga buysindirishni talab qiluvchi g'oyaviy qarashlarning sistemalashgan yigindisidir. Qiskacha kilib aytganda, siyosiy mafkura – bu muayyan ijtimoiy guruhning hokimyatga intilishini yoki undan foydalanishini asoslovchi va siyosiy xarakatning u yoki bu strategiyasini ko'zda tutuvchi g'oyaviy tizimdir.

Mafkura ijtimoiy hayotda muayyan vazifalarni bajaradi. U o'zining vazifalariga ko'ra fandani farq qiladi. Agar fanning vazifasi – xaqiqatni izlash bo'lsa, mafkuraning vazifasi – aholining ommaviy siyosiy ongini egalash, unga jamiyatning bugungi va kelgusidagi taraqqiyotini baholash bo'yicha o'zining mezonlarini joriy qilish, siyosiy makonda kishilar mo'ljal qiladigan maqsad va vazifalarni belgilashdir. Guruhning xarakatiga ega bo'laturib mafkura amalga oshirmoqchi bo'lgan yo'lning oqilona va holisona obrazini yaratishga, uning u yoki bu sinf, millat, davlat manfaatiga mos kelishiga intiladi. Bu borada mafkura u yoki bu ideallar va qadriyatlarni targ'ibot qilish bilan chegaralanib qolmay, balki fuqarolar, partiyalar va boshqa siyosiy tuzilmalarning maqsadga muvofiq faoliyatini rag'barlantirish bilan ham shug'illanadi.

Mafkura o'zining siyosiy vazifalarini bajarishi bilan jamiyatni yo qandaydir ijtimoiy, milliy gurux manfaatlarini asosida, yoki aholining muayyan ijtimoiy – iktisodiy guruxlariga tayyanmaydigan ongli ravishda ishlab chiqilgan maqsadlari negizida jinslashtirish, birlashtirishga intiladi. Aholini real birlashtirish qobiliyati

mafkuraning g'oyasi va qoidalari kishilarning yaxshi turmush tarzi xaqidagi kundalik qarashlari va tasavvurlariga qanchalik mos kelishga bog'likdir.

Xar qanday mafkura oqilona, nazariy asoslangan qoidalaridan tashqari o'zida real voqeylikdan uzoqda bo'lgan, aholiga faqat ishonish uchun taklif qiladigan maqsad va ideallarni ham qamrab oladi. Rasmiy mafkuralar voqeylikni bo'yab ko'rsatishga, muholif kuchlarining mafkuralari esa utopik xom hayollarga moyil bo'ladilar.

Siyosiy mafkuraning amal qilish darajalari bir xil emas. U nazariy – konseptual, dasturiy – direktivalik va xulq – atvorlik darajalarida amal qiladi. Nazariy –konseptual darajada u yoki bu sinf, ijtimoiy qatlam, millat, davlatning manfaatlari va ideallarini ochib beruvchi asosiy koidalar qaror toptiriladi: dasturiy – direktivalik darajada ijtimoiy – falsafiy prinsiplar va ideallar siyosiy elitaning aniq dasturlari, shiorlari va talablariga aylantiriladi va boshqaruv qarorlarini qabul qilish, ommaning siyosiy xulq–atvorini rag'barlantirish uchun g'oyaviy asos bo'lib xizmat qiladi. Mafkura amal qilishning ushbu darajasi “siyosatning yaratuvchi elementi” deb ham talqin etiladi.

Hulk – atvorlik darajada mazkur mafkura maqsadlari va prinsiplari fuqarolar tomonidan o'zlashtiriladi, hamda ularning jamiyat siyosiy hayotida ishtirok etishining u yoki bu shakllarida o'z ifodasini topadi. Bu darajada mafkura kishilarning xatti – harakatiga aylanib ularni jipslashtiradi, birlashtiradi, muayyan yo'lga yo'naltiradi, safarbar etadi!

Siyosiy mafkura zamon va makondan tashqarida bo'lgan mavhum rux, hodisa emas. U muayyan tarixiy sharoit bilan bog'liq – aniq ijtimoiy mazmunga ega bo'lgan ruhiy hodisadir.

Siyosiy mafkurani asosiy ko'rinishlari.

Xar bir tarixiy davr o'ziga xos va o'ziga mos mafkuraviy oqimlarni ilgari suradi. Bundan yangi zamon ham mustasno emas. U ham qo'plab mafkuraviy oqimlarni ilgari surgan. Biz quyida yangi zamonning eng yirik mafkuraviy oqimlarni: liberalizm, konservatizm, sosisolizm va fashizmni ko'rib chikamiz. YAngi zamonning eng ko'p tarqalgan mafkuraviy oqimlaridan biri – liberalizmdir. Bu atama lotincha “liberalis” so'zidan olingan bo'lib erkin degan ma'noni anglatadi.

Liberalizm XVII - XVIII asrlarda ma'rifatparvarlik davri g'oyalari negizida tarix sahnasiga chiqib kelayotgan burjuaziya sinifining mafkurasi sifatida shakllanadi. Bu mafkuraning asosiy qoidalari J.Lokk, T.Gobbs, SH.Monteskbe, A.Smit, T.Jefferson, D.Mill va boshqalarning asarlarida asoslanb beriladi.

Liberalizmning poydevorini shaxs erkinligi, uning barcha jamiyat institutlariga nisbatan eng oliy qadriyat ekanligi, shaxsning ham o'z oldida ham jamiyat oldida ma'sulligi barcha kishilarning o'zini o'zi ruyobga chiqarish xuquqini tan olishligi kabi prinsiplar tashkil etadi.

SHuning uchun bu mafkuraning barcha ko'rinishlarida inson shaxsining individual erkinligi, qadr – qimmati, boshqa, kishilarning qarashlari va e'tiqodlariga sabr – chidamli bo'lishlik talablari doimo himoya qilinib qolinadi. SHaxs erkinligini hurmat qilish bilan bog'lab liberal o'zining g'oyaviy ko'rsatmalarida individualizm va insonparvarlik prinsiplarini uyg'un ravishda mujassamlashtiradi.

Erkinlik prinsipi liberalizm tarafdorlari tomonidan davlat cheklashlaridan erkin bo'lishlik sifatida talqin etiladi. Bu g'oyani angliyalik mutaffakkirlar T.Gobbs va D.Millъ yaxshi ifoda etadilar. T.Gobbs “kishilar erkinligi xususiyati konunlarning jim turishiga bog'liqdir” deb e'tirof etadi. D.Millъ esa bu g'oyani quyidagicha izoxlaydi: “Inson o'ziga nima kerakligini har kanday hukumatdan ko'ra o'zi yaxshi biladi”.

Liberalizm mafkurasi uchun shaxsning erkin rivojlanishi va o'zini o'zi tasdiqlash g'oyasi xarakterli bo'libgina qolmay, balki erkinlikning bozor talqinini xususiy tadbirkorlik erkinligi sifatida talqin qilinadi. Bu mafkura erkinlik va xususiy mulkning o'xshashligiga asoslanadi. Unda xususiy mulk inson erkinligining kafolati va ulchovi sifatida qaraladi. Iqtisodiy erkinlikdan siyosiy va fuqarolik erkinligi keltirib chiqariladi.

Iqtisodiy nazariyada liberalizm tadbirkorlik, bozor va raqobat erkinligini targ'ibot va tashviqot qiladi. SHu bilan birga bu mafkuraning tarafdorlari shaxsni bozor tizimiga amal qilishning salbiy oqibatlaridan saqlashni – hukumatning vazifasi deb biladilar.

Mumtoz liberalizmning g'oyalari avvalo AQSHning siyosiy va iqtisodiy amaliyotida o'zining to'laroq gavdalanishini topdi. AQSHda individualizm jamiyat tuzilishining bosh prinsipi sifatida qaraladi. Mustaqillik va o'zining kuchiga tayanishi, raqobat erkinligi amerika turmush tarzining asosiy g'oyaviy ustunlaridir.

Mafkuraning har qanday ko'rinishi o'zgarmasdan qola olmasligi kabi liberalizm ham o'zgarmasdan qolmadi. U ijtimoiy – iqtisodiy o'zgarishlarning ta'siri ostida XXasrning 30–yillarida neoliberalizmga o'tadi. Bu yangi mafkuraviy oqimning paydo bo'lishining tadqiqotchilari AQSH Prezidenti Franklin Ruzvel'tining “YAngi yili” bilan bog'laydilar. AQSH Prezidenti liberalizm mafkurasiga asoslangan siyosatga qator muhim tuzatishlar kiritadi. Bu tuzilishlar davlatning iqtisodiy va sosial rolini qaytadan ko'rib chiqish bilan bog'likdir. Davlatning iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishi, faol ijtimoiy siyosatni olib borishi zarurligini tan oladilar. Ular ijtimoiy adolatni o'rnatishni, monopoliyalarning hokimyatini cheklashni, moddiy boyliklarni soliq tizimi va davlatning ijtimoiy dasturlari orqali jamiyatning quyi qatlamlari foydasiga qayta taqsimlashni yoqlab chiqadilar. Neoliberallar siyosiy dasturning negizini boshqaruvchi va boshqarayotganlarning o'zaro kelishuvi, siyosiy jarayonda ommaning ishtirok etishi zarurligi, siyosiy qarorlarni qabul qilish amaliyotini demokratiyalashni tashkil etadi.

Liberalizm mafkurasi bayrog'i ostida AQSHda “oqilona davlat”, “YAlpi farovonlik davlati” deb ataladigan modelъ yaratilgan. Bugungi kunda neoliberalizm AQSH Demokratik partiyasi va boshqa demokratik mamlakatlardagi siyosiy partiyalar faoliyatining g'oyaviy - nazariy negizi bo'lib qolmoqda.

YAngi zamonning eng yirik mafkuraviy oqimlaridan yana biri – konservatizmdir. Bu atama lotincha “konservare” so'zidan kelib chiqqan. U saqlash, qo'riqlash degan ma'noni anglatadi. Konservatizm XVIII asrda dunyoviy va cherkov feodallari, kelajak oldida xadiksiragan turli ijtimoiy qatlamlar manfaatlarining ifodasi, liberalizmning qoralovchisi, xudo tomonidan o'rnatilgan tartiblarning buzilmasligi g'oyasining ilgari suruvchisi sifatida paydo bo'ldi. Uning asosiy qoidalari angliyalik mutafakkir va siyosatchi E.Berk, Fransiyaning jamoat arboblari

J.de Mestr va L.de Bondalʼd tomonidan asoslab beriladi. Bu qoidalarining negizida tabiiy ravishda qaror topgan narsalar tartibining buzulmasligi, oila, millat, din, tabaqaviy boʻlinishi bilan bogʻliq boʻlgan anʼanaviy qadriyatlarni saqlab qolish gʻoyasi yotadi. Ana shundan kelib chiqib, konservatorlar ijtimoiy taraqqiyotda yangiliklarga nisbatan vorislikning ustivorligini yoqlab chiqadilar. Ularning fikricha, siyosiy prinsiplarni urf odatlarga, milliy anʼanalarga, qaror topgan ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy institutlarga moslashtirish lozim. Ularda zinapoya tarzidagi ijtimoiy tuzilishning yuqoridan oʻrnatilganligiga xech qanday shubha yoʻq va shuning uchun uni inson tomonidan oʻzboshimchalik bilan oʻzgartirib boʻlmaydi. Bundan kelib chiqadiki, tenglik prinsipi inson tabiatiga zid keladi va uni jamiyat tuzilishining negiziga koʻyib boʻlmaydi. Konservatorlar har doim egalitarizm bilan bogʻliq boʻlgan “xaddan tashqari demokratizm”ga qarshi chiqadilar.

Tarixiy taraqqiyot natijasida konservatizm ham liberalizm singari muhim oʻzgarishlarga yuz tutdi. U burjua munosabatlari qaror topishi bilan yirik kapital manfaatlarini himoya qiluvchi gʻoyaga aylandi. Konservatorlar ham liberallar singari bozor, raqobat erkinligini taʼminlashini, iqtisodiyotga davlatning aralashishini cheklashni talab qiladilar.

XX asrning 70- yillarida konservatizmning tarixida yangi fraza – neokonservatizm (D.Bell, Z.Bjezinskiy, N.Podgores, N.Kristoll) boshlanadi. Bu yangi oqimning paydo boʻlishini tadqiqotchilar AQSHda Ronalʼd Reygan boshchiligida respublikachilar, Buyuk Britaniyada Margaret Tetcher boshchiligida konservatorlar, GFRda Gelʼmut Kolʼ boshchiligida XDS – XSS blokining xokimyatga kelishi bilan bogʻlaydilar.

Neokonservatizmning qaror topishi tasodifiy hol emas. U neoliberalizm va sosializmga qarshi turish maqsadida shakllandi. Neoliberalizm davlatning iqtisodiy faoliyatga aralashishi zarurligini tan oladi va davlat ijtimoiy dasturlarining rivojlanishini qoʻllab quvvatlaydi. Neokonservatizm esa davlatning iqtisodiyotga aralashishini cheklashni talab qiladi.

Antietatizm, davlatning ijtimoiy vazifalarini cheklash neokonservatizm gʻoyaviy – siyosiy koʻrsatmalarining belgilovchi alomatidir. Neokonservatorlar qarashlariga koʻra “eng yaxshi xukumat shuki, u kamroq boshqaradi”.

Neokonservatorlar aholining kam taʼminlangan qatlamlari foydasiga resurslarni qayta taʼminlash maqsadida yirik kapitalga solinayotgan soliqlarga qarshi chiqadilar. Ular teng taqsimlashning ashshadiy dushmani sifatida davlatning ijtimoiy dasturlarini qisqartirishni talab etadilar. Neokonservatorlarning fikricha, hozirgi davlat kishilar uchun natijalar tengligini emas, balki imkoniyatlar tengligini yaratib berishi zarur. Davlatning “sogʻiladigan sigr”ga aylanishi insonni buzadi, ishdan chiqaradi. Har bir kishi oʻz faoliyatida davlatga emas, balki oʻzining kuchiga hamda oʻzining yaqinlari hamda fuqarolariga tayanishi zarur. SHunday qilib, konservatizm mafkurasida oila, din, ahloq ayrim ijtimoiy guruhlarning imtiyozli oʻrni haqidagi eski davrning qadriyatlari yangi, burjua munosabatlari davrining qadriyatlari – individualizm, bozor erkinligi bilan chambarchas bogʻlanib ketadi. Bu mafkura liberalizm bilan qarama-qarshi turib gʻarb mamlakatlarining ommaviy ongiga katta taʼsir oʻtkazadi.

YAngi zamonaviy taʼsirli mafkuraviy oqimlardan biri – sosializmdir. Bu mafkura XIX asrda ishchilar sinifi manfaatlarining ifodachisi sifatida maydonga keldi.

Sozializm tenglik, ijtimoiy adolat, umumiy manfaatlarning shaxsiy manfaatlardan ustunligiga asoslangan jamiyat haqidagi g'oya sifatida dastavval qadimgi dunyoda paydo bo'lgan. Biroq sozializm qadimgi dunyoda g'oyaviy oqim sifatida shakillanmagan edi. U yangi zamonda T.Mor, T.Kampanella, R.Ouen, SH.Furbe, A.Sen-Simon asarlarida nazariy jihatdan ishlab chiqildi.

Sozializm proletariatning mafkurası sifatida nemis mutafakkirlari K.Mars va F.Engels tomonidan asoslab berildi. Bu mafkura marksizm deb nom oldi.

Marksizm mafkurası bo'yicha tenglik va ijtimoiy adolatga kapitalizmıda emas, balki sozializm va kommunizmıda erishildi, unga inqilobiy yo'l bilan, proletariat diktaturasini o'rnatish orqali boriladi. Bu mafkuraga binoan sozializmga dunyoning rivojlangan mamlakatlari birdaniga o'tadi.

XX asrning boshlarida marksizm bir-biriga qarama-qarshi ikki g'oyaviy oqimga. Leninizm va sozial-demokratiyaga ajralib ketdi.

Leninizm Rossiyada V.I. Lenin va uning tarafdorlari tomonidan asoslab berildi. Bu mafkuraga binoan sozializmga dunyoning rivojlangan mamlakatlariıda birdaniga emas, balki kapitalizmning "zaif halqasi" hisoblangan, alohida olingan bir mamlakatda, inqilobiy yo'l bilan – burjua davlat mashinasini sindirib tashlash va proletariat diktaturasini o'rnatish, xususiy mulkni tugatish va uni ijtimoiy (davlat) mulkka aylantirish yo'li bilan o'tiladi.

Leninizm mafkurası asosida SSSR va bir qator G'arbiy Evropa mamlakatlariıda sozializm qurish tajribasi olib borildi. Biroq , bu tajriba samarasiz bo'lib chiqdi va xalq ishonchini yoqlamadi. Natijada leninizm XX asrning 90-yillariga kelib siyosiy mafkura sifatida e'tibordan chetda qoldi va amal qilishdan to'xtadi.

YAngi zamonning yirik mafkuralaridan yana biri – **fashizmdir**. U XX asrning 20-30 yillarida G'arbiy Evropada urishdan keyingi og'ir ijtimoiy-siyosiy vaziyatdan, chuqur iqtisodiy inqirozlardan chiqish yo'llarini ko'rsatuvchi, milliy tiklanish maqsadida, atrofida turli ijtimoiy guruhlarni birlashtiruvchi va jipslashtiruvchi g'oya sifatida maydonga keldi.

Fashizmning asosiy qoidalari Italiya sozialistlari so'l qanotining sobiq etakchisi. B.Mussolini va nemis siyosiy arbobi A.Gitler tomonidan asoslab berilgan. Ular muayyan siniflar va ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifodalovchi liberalizm, konservatizm, sozializmıdan farqli o'laroq irqiy afzallik, millat tiklanish va birlik g'oyasiga tayandilar.

Fashizmning siyosiy mafkura sifatidagi nazariy negizini rasmiy va elitarizm – u yoki bu irqiy, etnik guruhning, xalqning dunyoda boshqalar ustidan afsalligi, uning o'ziga – xos missiyasi haqidagi g'oya tashkil etadi. Xususan, german fashizmi ariylarni (nemislar, anglichanlar, shvedlar, norvegiyaliklar, daniyaliklarni) dunyoda hammadan ustun turuvchi va tartib o'rnatuvchi, "madaniyat yaratuvchi irq" deb tasdiqlaydi. U slavyanlar va SHarq Lotin Amerikasidagi ayrim davlatlarining xalqlarini "madaniyatni qo'llab-quvvatlovchi" irqalar qatoriga qo'yib, ularning yashaydigan makonini qisqartirishni va "madaniyatini emiruvchi" xalqlarni(qora tanlilar, yaxudiylar, lo'lilarni) ayamassan, shavqatsiz qirib tashlashni e'tirof etadi.

Irqning, millatning bir butunligini, yaxlitligini, uning taraqqiyotini t'minlash uchun hokimiyatni barcha imkoniyatlaridan, har qanday vositalardan foydalanishi e'lon qiladi. SHu sababli fashizm irqiy-etnik manfaatlar yo'lida davlatning agressiv harakatini, umuminsoniy axloq me'yorlarini nazar – pisand qilmasdan bosib o'tishini oqlaydi.

SHuningdek fashizm mafkurasida fyurerizm prinsipi muhim o'rini egallaydi. Unda fashist partiyalari va davlatlarning etakchilari ijtimoiy tartibni ta'minlash uchun ilohiy qobiliyatga ega bo'lgan, milliy manfaatlarga haddan tashqari sodiq kishilar sifatida ko'rsatiladi. SHuning uchun ham butun omma, millat o'zining rahbariga so'zsiz itoat etishi talab etiladi.

Hususan, bugungi kunda hech bir jamiyat mafkurasiz ravon rivojlanish yo'lidan borishi mumkin emas.

Adabiyotlar:

- O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. T. O'zbekiston. 2011.
- Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-19 jildlar. T. O'zbekiston. 1996-2011.
- Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – engilmas kuch. T.-Ma'naviyat. 2008.
- Karimov I. A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T. O'zbekiston 2009 yil.
- Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T. - O'zbekiston. 2010.
- Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. – T.: O'zbekiston, 2011.
- Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T. - O'zbekiston. 2011.
- Karimov I.A. Bunyodkorlik, yangilanish, mexr-muruvvat yo'li. Prezident I.A.Karimovning 2012 yil 21 mart Navro'z umumxalq bayramiga bag'ishlab so'zlagan nutqi. T.// Xalq so'zi.2012 yil 22 mart.
- Karimov I.A. Inson xotirasi - boqiy,qadr-qimmati – ulug'. Prezident I.A.Karimovning 2012 yil 9 may- Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlab so'zlagan nutqi. T.// Xalq so'zi.2012 yil 10 may.
- Nosirxo'jaev S., Safarboev M., Sultonov K Siyosatshunoslik fanidan ko'rgazmali metodik qo'llanma. – T., 2007.
- Odilqoriev X.T.Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik.T., 2008.
- Xolbekov A., Jumaev R., Umarova N. va boshqalar “Boshqaruvning ijtimoiy- siyosiy yo'nalishlari” - T.; G'. G'ulom, 2008.
- Artikbaev O.S., Ganiev J.X. Siyosatshunoslik. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. – T., 2009.
- Jumaev R.Z. va boshq. Siyosiy islohotlar strategiyasi. – T.: Akademiya. 2010.
- “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”ni o'rganishga bag'ishlangan Respublika ilmiy–amaliy konferensiya materiallari. (2011 yil 16 mart). Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Milliy universiteti, “Siyosatshunoslik” kafedrası, Respublika “Kamolot” YOshlar ijtimoiy harakati,– T.: Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti. 2011. – 413 b.
- Odilqoriev T., Razzoqov D. Siyosatshunoslik. Darslik. – T: O'qituvchi, 2011.

7- Mavzu: (Seminar mashg'uloti)

Siyosiy modernizasiya (zamonaviylashuv).

Xalqaro siyosat va xalqaro munosabatlar

Reja:

- 1. Siyosiy zamonaviylashuv: tabiati va bosqichlari**
- 2. O'zbekistonda modernizasiya jarayonlarining o'ziga xosligi.**

3. «Xalqaro siyosat», «xalqaro siyosiy tizim», «xalqaro munosabatlar» tushunchalari.

4. O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy yo'nalish va tamoyillari

Siyosiy zamonaviylashuv: tabiati va bosqichlari

Bugungi kunda dunyodagi siyosiy jarayonlarni odatdagi, eskicha yondoshuvlar orqali tushuntirib bo'lmaydi. Bu jarayonlarning mohiyat mazmuni ularni taxlil qilish chegaralarini kengaytirishni, bu jarayonlarga ta'sir etuvchi barcha omillarni xisobga olishni talab etadi. Buning uchun sivilizasion yondoshuv juda mos: u asosiy diqqatni qadriyatlar tizimi, madaniyat, mentalitetga qaratadi.

Jamiyatlar ham oddiydan murakkabga tomon rivojlanadi. Ana shu rivojlanish jarayonida jamiyatlarni an'anaviy va zamonaviyga ajratib o'rganish qabul qilingan. An'anaviy va zamonaviy jamiyatlarning eng muhim farqi - ularning turlicha qadriyatlar tizimiga asoslanishidadir.

An'anaviy jamiyatlar uchun iqtisodda texnologik ortda qolish xos. Ijtimoiy sohada ijtimoiy munosabatlar ko'plab qoidalar, an'analar, udumlar bilan tartibga solinadi. Jamiyatning asosini jamoa tashkil etadi. Bunday jamiyatlarda odamlar mavjud ijtimoiy munosabatlarni saqlab qolishga intiladilar, o'z turmush tarzlaridan farq qiluvchi boshqa qadriyatlar tizimiga salbiy yondashadilar.

Zamonaviy jamiyatlarga sanoati rivojlangan davlatlar kiradi. Bu: jamiyatlarning: ijtimoiy munosabatlar tizimida shaxs eng oliy qadriyat sifatida e'tirof etiladi. Zamonaviy jamiyatlar pragmatizm, rasionalizm, tanlash erkinligi, mulkchilik; madaniyatlar muloqoti kabi umumiy qadriyatlar asosida rivojlanadi. Erkin individlar fuqarolik jamiyatini tashkil etadilar. Hukumat va rasional byurokratiya ularning oldida mas'uldir.

An'anaviy va zamonaviy jamiyatlar oraliq'ida **o'tish davrini** boshidan kechirayotgan jamiyatlar joylashgan. Ular qaysidir sohalarda zamonaviylashgan bo'ladilar. Masalan, ishlab chiqarish sohasida texnologik modernizasiyani amalga oshirib, iqtisodiy qoloqlik va tabaqaviylikni enggan, ammo an'anaviy qadriyatlar, udumlar, diniy me'yorlar ijtimoiy munosabatlarda etakchilik qiluvchi jamiyatlar – shularga misol bo'la oladi. Sobiq MDH mamlakatlari, Xitoydek ulkan qo'shnimiz, Janubiy Amerikadagi qator davlatlarni o'tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlar, deb hisoblash mumkin.

Umuman shuni ta'kidlab o'tish lozimki, ko'rsatilgan jamiyatlarning qaysi biri – yaxshi, qaysi biri – yomon, degan nazariy tahlilning abstrak modellaridan biri, xolos.

Rivojlanish, ya'ni siyosiy tizimning o'zgarib borayotgan ijtimoiy sharoitga moslashish qobiliyatining ortib borishi tarixiy, tabiiy va uzluksiz jarayon. Turli ijtimoiy tizimlarda u turlicha ijtimoiy va madaniy negizlarda, o'ziga xos tarzda kechishi mumkin. Rivojlanish yuqori va zamonaviy texnologiyalarga ʻitishni muqarrar qilgan holda, an'anaviy qadriyatlar tizimi, an'analar, odatlar, hayotiy tamoyillar va turmush tarzini butkul emirilishini anglatmaydi. Buning yorqin misolini Yaponiya tajribasida kuzatish mumkin. Yaxshi ma'lumki, Ushbu jamiyatda bu borada namuna bo'ladigan uyg'unlikka erishilgan. Jahon sivilizasiyalari ichida o'ziga xos va mos o'rinni egallab turgan halqimiz madaniyati ham O'zbekistonning eng taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga o'tishi yo'lida to'g'anoq emas, asosiy, bosh omilni tashkil etadi.

O'zbekistonda modernizasiya jarayonlarining o'ziga xosligi.

An'anaviy jamiyatlardan zamonaviylarga o'tish – ijtimoiy hayotni qayta ishlab chiqarish uslubini o'zgartirishni, ya'ni jamiyatning odatdagi mavjudlik shakllarini qayta — qayta yaratuvchi turidan, individ ehtiyojiga ko'ra ijtimoiy munosabatlar doimo takomillashib boruvchi jamiyatga o'tishini anglatadi. Bu tarzda rivojlanish fanda zamonaviylashuv termini bilan belgilanadi. Zamonaviylashuv — rivojlanishning funksiyasi, deb qarash qabul qilingan.

Zamonaviylashuv - jamiyat tizimi xususiyatlarining o'zgarishi jaryoni sifatida uning eng muhim sohalarining qayta qurilishini va murakkabrok, ammo moslashuvchan turmush tarzining shakllanishini nazarda tutadi.

Iqtisodiy sohada zamonaviylashuv — tovar — pul munosabatlarining keng tarqalishi, texnologik inqilobni, mehnat samaradorligining doimiy o'sish qobiliyatini ta'minlay oluvchi kasbiy ixtisoslashuvning yuqori darajasini nazarda tutadi. Iqtisodiy sohada shaxsiy manfaatdorlik ishlab chiqaruvchining iqtisodiy mustaqilligi, ish kuchining xarakatchanligi, ta'lim va malaka oshirishning uzluksiz tizimi mavjudligi, malakali rahbarlik bilan rag'batlantiriladi, natijada fuqarolarning turmush darajasi va iste'mol darajasi sezilarli ortadi.

Iqtisodiy va texnologik sohadagi rivojlanish jamiyatda mavjud **ijtimoiy munosabatlarning** tubdan o'zgarishiga olib keladi, undagi ijtimoiy bo'linish tamoyillari va tarkibi o'zgaradi. Masalan, g'arbiy Evropa mamlakatlaridagi sanoat inqilobi — jamiyatdagi an'anaviy tabaqalanish tartibini emirib, ijtimoiy qatlamlar mavqeini kelib chiqishi, nasli — nasabi bilan emas, aqli, zakovati, qobiliyati, beradigan samarasi bilan baholovchi munosabatlar tizimini yuzaga keltirdi. Bu tizimda shaxs faoliyatining motivasiyasi ham o'zgaradi: u jamiyat va davlat yordamidan ko'ra ko'rok o'z kuchiga tayana boshlaydi.

Siyosiy sohadagi zamonaviylashuv — yuqori samara bilan ishlaydigan hokimiyat tashkilotlari cho'zilishi, ularning rollari; funksiyalari va vakolatlari aniq chegaralanishi, jamiyatda **oqilona byurokratiya** shakllanishi, fuqarolarning siyosiy jarayonda faol ishtirok etishidan iborat. Bunday o'zgarishlar jamiyat rivojining mantig'idan kelib chiqadi.

Zamonaviylashuv nazariyasi barcha ijtimoiy omillar tengligi, ulardan birining muayyan vaziyatda ustunligi - mavjud shart — sharoitlarga bog'liqligidan kelib chiqadi.

Zamonaviylashuv nazariyasi XX asrning 50 — yillarida vujudga keldi. O'tgan davrda zamonaviylashuv modellari xaqidagi baxslarni umumlashtirib, uning bir necha modelini ko'rsatib o'tish mumkin:

1. Zamonaviylashuvning mumtoz, organik yoki evolyusion modeli; uni keltirib chiqaruvchi omillarning uyg'un etilishi va biri — ikkinchisiga o'tishi bilan kechadi. Bu model asosida G'arbiy Evropa va SHimoliy Amerika demokratiyalari rivojlangan. Ularda zamonaviylashuv davri bir necha asrlar davom etgan.

2. Zamonaviylashuvning "quvlovchi" yoki "aks ettiruvchi" modelida ba'zi omillar hali mavjud bo'lmagan hollarda (masalan, shakllangan bozor munosabatlari, fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat) kechadi. Bunga Janubiy Amerika davlatlari misol bo'la oladi. Qit'ada XIX asr oxirlarida milliy — ozodlik xarakatining g'alabasi va mustamlakachilik emirilishi bilan bog'liq holda boshlangan zamonaviylashuv jaryoni hali ham davom etyapti.

Bu modelda iqtisodiy omillarning etuk emasligi siyosiy omillarning kuchli, avtoritar ta'siri bilan muvozanatga solinadi. Natijada rivojlanishning xarakatlantiruvchi kuchi

— davlat, xarizmatik turdagi etakchilar bo'lib qoladi. O'z navbatida, an'anaviy jamiyatlar uchun xos bo'lgan quyi fuqarolik siyosiy ishtiroki v.b. omillar byurokratlashuv, islohotlarning izchil emasligi, ma'lum bosqichlardan sakrab o'tish, hatto, ortga qaytish hollarini keltirib chiqaradi.

3. Tezkor zamonaviylashuv modeli Janubiy — SHarqiy Osiyo mamlakatlarida (Janubiy Koreya, Singapur, Tayvanda) avtoritar boshqaruv tizimlari tomonidan qissa (30 — 35 yil) muddatlarda o'tkazilgan. Bu erda islohotlar avval qishloq xo'jaligida, so'ng sanoatda o'tkazilgan. Iqtisod asosan eksportga yo'naltirilib rivojlangan.

Zamonaviylashuvning barcha modellari o'ziga xos ijobiy va salbiy tomonlarga ega. Ularni o'rganish va mamlakatimizdagi jarayonlarga qiyoslashda albatta har bir mamlakatning o'ziga xosligini hisobga olish zarur.

Zamonaviylashuvni G'arblashuvdan farqlash lozim. G'arblashuv — taraqqiyot yo'lini g'arb andazalaridan to'g'ridan — to'g'ri ko'chirish, muayyan jamiyat, davlat, xalqning o'ziga xosligi hisobga olmaslikni anglatadi.

«Xalqaro siyosat», «xalqaro siyosiy tizim», «xalqaro munosabatlar» tushunchalari.

Bugun dunyoda xalqaro siyosat va xalqaro munosabatlarda murakkab va zidiyatli jarayonlar kechmoqda. SHu munosabat bilan xalqaro siyosatning asosiy prinsiplari, yo'nalishlari, xalqaro siyosiy iqtisodiy tashkilotlarning dunyo hamjamiyatidagi o'rnini, O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy konsepsiyasini va xalqaro munosabatlardagi murakkab muammolar echimini topishga qaratilgan turli yondashuvlarni siyosatshunoslik nuqtai nazaridan tahlil etish muhimdir.

Xalqaro siyosat va munosabatlar ikki yoki undan ortiq mamlakatlar, turli xil siyosiy va nodavlat tashkilotlar bilan bog'liq bo'lgan aloqalarni ifoda etadi. Uning faoliyati xalqlarning talab va ehtiyojlari, davlat manfaatlarini xalqaro normalar va qadriyatlar bilan bog'liq bo'ladi. Xalqaro munosabatlar raqobat yoki o'zaro hamkorlik asosida qurilishi mumkin. Bugun xalqaro munosabatlarda umuminsoniy qadriyatlar bu munosabatlarni belgilab beruvchi asosiy mezonga aylanib borayotganligini ko'zga tashlanmoqda. CHunki siyosat tarixi va uning o'ziga xos oqibatlari davlatlararo munosabatlarni tartibga solish, bunda ularning manfaatlariga mos tushuvchi tamoyillariga asoslanish zarurligini taqozo etmoqda. SHuningdek, yadroviy qurollarning mavjudligi, ularni ishlab chiqarishga qaratilgan harakatlarning davom etayotganligi hamda xalqaro munosabatlarda ayrim davlat rahbarlari, siyosiy partiyalar va shaxslarning bir tomonlama qarashlarining hamon saqlanib qolayotganligi, xalqaro siyosatda davlatlarga nisbatan munosabatda «zo'ravonlik», «kuchga tayanish», tazyiq ko'rsatishning turli usullaridan foydalanish, «xalqaro terrorizm» va boshqa holatlar xalqaro siyosatda o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishni, ixtiloflar paydo bo'lgan taqdirda esa ularni ma'rifiy yo'llar bilan echish zarurligini kun tartibiga quymoqda.

Dunyoda yuz berayotgan muhim o'zgarish va jarayonlar hayotga ob'ektiv ravishda bir tomondan beqarorlik baxsh etsa, ikkinchi tomondan ma'lum bir tuzilma, tartibga moyillik tizimi shakllanadi. Unga nisbatan befarq va mas'uliyatsizlik bilan qarash insonga katta zarar etkazadi. Bu o'z navbatida xalqaro siyosatga, xalqaro hamjamiyatga xos narsa emas. SHu boisdan insoniyat, barcha siyosiy-intelektual doiralar batamom boshqacha yondashuvga moyillikni yuzaga keltiradi. SHakllanayotgan qarashlar tizimi rang-barang. SHu sabab bu masalaga davlatlar va

guruhlar o'rtasidagi turli xil munosabatlardan iborat tizim sifatida yondashish bilan bog'liq.

Xalqaro tizim siyosat sub'ektiga qarashlarda turli xil tendensiyalar kuchaymoqda. **SHulardan biri**, xalqaro tizim sub'ektiga nomaqbul qarashlar bo'lib, politolog, siyosiy arboblar Zbignev Bjezinskiy hamda Genri Kissinjerlarga mansub bo'lgan «realistlar maktabi» vakillari qarashlaridir. Unga ko'ra, xalqaro siyosat maydoni, ya'ni xalqaro hayot ulkan shaxmat taxtasi bo'lib, u erdagi figuralar, ya'ni ishtirokchilar qandaydir kuchli o'yinchilar izmi va xohish irodasiga bog'liq bo'lishadi. **Ikkinchi qarashga** ko'ra, xalqaro hayotga mohiyatdan bir-biriga dushman bo'lgan davlatlar faoliyati makondir, deyilib, xalqaro siyosat esa yaxlit tizim bo'lmasdan bir-biriga azaliy muxolif bo'lgan kuchlarning o'zaro munosabatidan shakllanadi. Bulardan tashqari xalqaro tizim sub'ektida **unchalik muhim yoki muhim bo'lmagan** boshqa ko'plab qarashlar ham borki, ular shartli ravishda **pragmatiklar va idealistlar, fragmentarchilar va monialistlar, birqutbchilar va ko'pqutbchilar** hisoblanadi. Xullas, turli-tuman maktablarga mansub bo'lsada, lekin u yoki bu ma'noda ularning barchasi yuqorida nomi zikr etilgan 2 an'anaviy qarashga mansubdir.

Xalqaro tizim va uning tuzilmalarida munosabatlar, ularning huquqiy mezon va me'yorlarining noyobligi hokimiyat muammosigi ham qandaydir o'ziga xoslik, xususiylik bag'ishlaydi. Jumladan, xalqaro tizimda hokimiyat tashuvchi kuch ishlatish emas, balki ma'rifiy-siyosiy ta'sir o'tkazishga tayanib faoliyat ko'rsatishi mumkin.

Hokimiyatni qo'lga kiritish jarayoni adolat tarozisi, davlatlarning bu yo'lda xulq-atvori, xatti-harakatining ma'rifiyligiga asoslanishi kerak. SHu jihatdan davlatlarning xulq-atvorini xalqaro tizim mohiyatining ma'lum ma'noda voqelikda aks etishi yoki funksiyasi deb qarash to'g'ri bo'ladi.

Davlatlarning milliy manfaatlari ularning tashqi siyosati orqali moddiy kuchga aylanib xalqaro maydonda ularning u yoki bu darajada faoliyat ko'rsatishini belgilab beradi. Tashqi siyosat zarurligining milliy manfaatlari orqali ifodalanishi barcha davlatlarga xos bo'lgan umumiy hodisa hisoblanadi.

Davlatlar uchun tashqi siyosatning zarurligi bir davlatning boshqasi bilan o'zaro munosabatda bo'lishi va o'zaro hamkorlikni turli xil shakllarda olib borishi bilan belgilanadi. Davlatlar tashqi siyosatining zarurligini xalqaro siyosiy munosabatlarning rivojlanish ehtiyojlari ham taqozo etadi. Xalqaro munosabatlarda ro'y beradigan har qanday muammoni hal qilish birinchi navbatda davlatlar tashqi siyosiy faoliyatiga bog'liq bo'ladi.

Davlatlarning tashqi siyosati va uning amal qilinishiga ichki va tashqi omillar ta'sir etib turadi. Ichki omillar ob'ektiv va sub'ektiv omillardan tashkil topadi. Ob'ektiv omillarga mamlakatlarning ijtimoiy rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan omillar, sub'ektiv omillarga esa, mamlakatning siyosiy hayotida faoliyat ko'rsatuvchi siyosatning turli xildagi sub'ektlari kiradi. Bu omillar tashqi siyosatga ta'sir etishi bilan birga uning zarurligini ham taqozo etadi.

Umumbashariy muammolarni siyosiy jihatdan hal etish ehtiyojlari ham davlatlar tashqi siyosatiga ko'p jihatdan bog'liq. Garchi davlatlarning umumbashariy muammolarni hal etishga munosabati ularning ichki siyosati orqali ishlab chiqilsada, uning amalga oshirilishi tashqi siyosatga bog'liq bo'ladi. CHunki davlatlar o'zlarining tashqi siyosati orqali umumbashariy muammolarni hal etishda o'z

hissalarini boshqa davlatlar bilan hamjihatlikda aniqlab oladilar. Tashqi siyosat har bir davlatning boshqa davlatlar bilan tinch va ahil yashash ehtiyojlaridan ham kelib chiqadi.

Xalqaro xavfsizlikni ta'minlash va dunyoda barqaror tinchlikka erishish ehtiyojlari ham davlatlar tashqi siyosatining zarurligini ifoda etadi. Tashqi siyosat rivojining butun tarixi davlatlarning tashqi siyosatida tinchlik va xavfsizlik uchun kurash hamisha etakchi o'rinni egallab kelganligini ko'rsatadi. Jahon taraqqiyotining hozirgi bosqichida ham bu masala o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Tashqi siyosat ham ichki siyosat singari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Davlatlarning tashqi siyosatiga mos bo'lgan asosiy va muhim xususiyatlaridan biri tashqi siyosatning ob'ektiv mohiyatga ega ekanligi bilan belgilanadi.

Tashqi siyosatga xos bo'lgan ob'ektivlik xususiyati davlatlarning xalqaro maydonda ro'y berayotgan o'zgarishlarga munosabat bildirishida ham namoyon bo'ladi. Bu munosabat, bir tomondan, har bir davlatning xohish-istagiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, u jahon siyosatidan chetda qolib ketmasligi zarurligidan kelib chiqadi. Tashqi siyosat o'zgaruvchanlik xususiyatiga egadir. Ma'lumki, mamlakat ichida va xalqaro maydonda ro'y beradigan yangidan-yangi siyosiy voqea-hodisalarga bildiriladigan munosabat hamisha bir xilda bo'lib qolmaydi. Garchi bu munosabat davlatlar tashqi siyosatining butunlay o'zgarib ketishiga olib kelmasa-da, ayni paytda bu siyosatga ma'lum darajada ta'sir etib, uning yangi vaziyat talablariga mos ravishda o'zgarib turishiga sabab bo'ladi.

Tashqi siyosat ham ichki siyosat singari barqarorlik xususiyatiga ega bo'ladi. Barqarorlik, bir tomondan, tashqi siyosiy vaziyatga, ikkinchi tomondan esa, siyosiy hokimiyatlarning faoliyatiga bog'liq bo'ladi.

Tashqi siyosatga turli davlatlarning maqsad va manfaatlaridagi umumiylik hodisasi ham xosdir. Bir davlatning tashqi siyosati boshqa davlatlarning tashqi siyosatiga ko'p jihatdan mos keladi. Buni har bir davlatning jahon maydonida ro'y berayotgan o'zgarishlarga bir xil munosabat bildirishda u yoki bu muammoni hal etishda, birgalikda harakat qilishida aniq ko'rish mumkin. Masalan, hozirgi kunda tinchlik va xavfsizlik uchun kurash, harbiy mojarolarni siyosiy yo'l bilan hal qilish, davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, terrorizm (2001 yillari Afg'onistondagi terrorist Usama bin Ladinga), ommaviy qirg'in qurollarini ishlab chiqarish (2003 yil martida Iroq prezidenti Saddam Husayin)ga qarshi birgalikda kurash va boshqa shular singari siyosiy munosabatlarda ko'pchilik davlatlar olib borayotgan tashqi siyosatda umumiylik hodisasi ustun o'rinni egallaydi.

Davlatlarning tashqi siyosatiga mamlakat ichidagi va xalqaro maydondagi turli siyosiy kuchlar ta'sir qilib tursa-da, biroq ular biron bir davlatning tashqi siyosatini batamom o'zgartirib yubora olmaydi. Tashqi siyosatga qilinadigan ta'sir ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Har qanday davlatning tashqi siyosatiga ko'rsatiladigan ijobiy ta'sir uning mamlakat ichida va xalqaro maydondagi mavqeini mustahkamlashga, uning obro'-e'tiborining oshishiga yordam beradi. Bunday sharoitda davlat mazkur siyosiy kuchlar bilan hamjihat bo'lishiga, ular faoliyati va harakatlarini qo'llab-quvvatlashga harakat qiladi.

Tashqi siyosatni amalga oshirish vositalaridan biri diplomatiyadir.

Diplomatiya - (fransuzcha) - davlatning tashqi siyosatini amalga oshirish usullaridan biri. Diplomatik davlat rahbarlari, hukumatlar, davlat tashqi ishlar organlari va bevosita diplomatlarning tashqi siyosat maqsad va vazifalarini amalga oshirishga

hamda o'z davlatining va xorijdagi ayrim fuqarolarning manfaatlarini himoya qilishga yordam beruvchi rasmiy faoliyati shaklida olib boriladi. Demak, diplomatiya tashqi siyosatda davlat hokimiyati faoliyatining maqsad-yo'nalishi bo'lib, diplomatiyani tashqi siyosat orqali amalga oshirish vosita sidir.

Tashqi siyosat munosabatlari 2 ko'rinishda bo'ladi:

Davlatlar ichki ko'rinishida (Tashqi ishlar vazirligi amalga oshiradi).

Tashqi ko'rinishda (Tashqi siyosatni amalga oshirish vositasi diplomatiyadir).

Diplomatiyada diplomatik vakolatxonalarning 2 shakli bo'lib, ular:

doimiy diplomatik vakolatxonalar (elchilar, maxsus vakolatxonalar – missiya ko'rinishida bo'ladi);

muvaqqat vakolatxonalardir.

O'zbekistonning mustaqil rivojlanishidagi o'tgan o'n ikki yili davomida diplomatiya sohasida ham anchagina ishlar amalga oshirildi. Dunyodagi 120 dan ko'proq mamlakat bilan rasmiy diplomatik munosabatlar o'rnatildi. Toshkentda 43 mamlakat o'z elchixonasini ochdi. Endilikda O'zbekiston eng obro'li va nufuzli xalqaro tashkilotlarning teng huquqli a'zosi. SHuning bilan birga barcha qit'alardagi o'nlab mamlakatlar bilan do'stona aloqalarni rivojlantirmoqda. Eng yirik bank va moliya organlari, nodavlat va nohukumat tashkilotlari bilan yaqindan hamkorlik qilmoqda. Respublikada 88 ta chet davlat vakolatxonalari ro'yxatdan o'tgan, 24 ta hukumatlararo tashkilot va 13 ta nohukumat tashkiloti ishlab turibdi. Dunyodagi 30 dan ortiq davlatda O'zbekistonning elchixonalari va konsullari ishlab turibdi[6]. O'zbekiston 30 ta nufuzli xalqaro iqtisodiy va moliya tashkilotlarining teng huquqli a'zosi. Jahonning 140 mamlakati bilan savdo-iqtisodiy munosabatlar o'rnatilgan. O'tgan yillar ichida O'zbekiston ko'plab juda muhim xalqaro konvensiyalarga qo'shildi.

Elchi - davlatlarning o'zaro diplomatik aloqalarida faoliyat ko'rsatuvchi diplomatik vakolatxonalar boshlig'i. Odatda elchixona boshqa davlat hududida joylashtirilgan davlat muassasasi - idorasi bo'lib, u o'z hokimiyatining rasmiy qaror-farmoyishlari va ko'rsatmalari asosida ish olib boradi. qadimdan elchi ham podshohlar xizmatida bo'lgan. Nizomul-mulk fikricha, elchi so'zlashda jasur, jahon ko'rgan, donishmand, o'tkir xotirali, andishali va chiroyli bo'lsin. Agar elchi yoshi ulug' va olim bo'lsa yaxshidir, ishonch uyg'otadi. Elchi ulug'vor bo'lsa kamgap, dono elchi yaxshiroqdir. Elchining siyrati va fikri podshohning siyrati va fikridan dalil. (Nizomul-mulk. XI asr. «Siyosatnoma» asari, 103-bet).

Barcha davrlarda bo'lgani singari hozirgi bosqichda ham davlatlarning tashqi siyosati mamlakat hayoti va xalqaro maydonda ro'y berayotgan o'zgarishlarga muvofiq holda ishlab chiqilmoqda va amalga oshirilmoqda. Har bir davr davlatlarning tashqi siyosatiga o'z xususiyatlarini kiritgani singari hozirgi bosqichning o'zgarishlari ham bu siyosatda o'z ifodasini topmoqda. Hozirgi xalqaro munosabatlar va ularning rivojlanishini davlatlarning tashqi siyosatisiz tasavvur qilish mumkin emas. Buning sababi shundaki, xalqaro munosabatlar qanday bo'lishidan qat'iy nazar, davlatlarning tashqi siyosati orqali ta'sir ko'rsatiladi. Bu ta'sir davlatlarning tashqi siyosiy faoliyatida amaliy kuchga aylanadi va turli xildagi natijalarga olib keladi.

Davlatlarning tashqi siyosati xalqaro munosabatlarda ijobiy yoki salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Buning sababi juda xilma-xil bo'lib, ularni quyidagi holatlar bilan izohlash mumkin.

Birinchidan, ayrim hollarda davlatlar o'z tashqi siyosatini, ishlab chiqish va amalga oshirishda xalqaro munosabatlarda ro'y berayotgan o'zgarishlarni hisobga olmagan holda bu munosabatlarda ishtirok etishga va unga ta'sir ko'rsatishga harakat qiladi. Bunda gap u yoki bu davlat tomonidan xalqaro munosabatlarda ro'y berayotgan o'zgarishlarning mohiyatini tushunib etmaslik ustida emas, balki ularga ongli munosabat bildirish haqida bormoqda. SHunday davlatlar borki, ular ayrim hollarda xalqaro munosabatlarda bo'ladigan o'zgarishlar va ularning oqibatlari bilan hisoblashmay harakat qiladi. Natijada bunday urinish boshqa davlatlarning manfaat va maqsadlariga zid kelib qoladi va oqibat xalqaro munosabatlarda tanglik holatlari kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Ikkinchidan, xalqaro munosabatlarni tartibga solib turishda davlatlarning tashqi siyosati muhim ahamiyatga egadir. Tashqi siyosat yordamida davlatlar xalqaro maydonda ro'y berayotgan vaziyatga o'z munosabatlarini bildiradilar va undan kelib chiqadigan muammolarni hal qilishga u yoki bu darajada hissa qo'shadilar. Masalan, XX asr 90-yillari birinchi va ikkinchi yarmida Bosniya, Gersegovina, Serbiya, Xorvatiya mamlakatlari o'rtasida kelib chiqqan urush harakatlari, CHEcheniston voqealari, Afg'oniston va Tojikistondagi mojarolar, ayniqsa 2001 yil 11 sentyabrdagi AQSH ga qilingan terroristik xurujga, 2003 yil boshlarida Iroqning ommaviy qirg'in qurollarini ishlab chiqarish va yo'qotishga dunyodagi ko'pchilik davlatlar o'z munosabatlarini bildirib, bu mamlakatlarda tinchlikka erishish bilan bog'liq masalalar ular tashqi siyosatining muhim vazifalaridan biriga aylandi. O'zbekiston ham ko'pchigina boshqa davlatlar singari o'z tashqi siyosatida harbiy harakatlar va mojarolarni tinch yo'l bilan bartaraf qilish yo'lini izchillik bilan davom ettirib kelmoqda.

Uchinchidan, xalqaro munosabatlarda ro'y berayotgan ayrim noxush holatlar, ziddiyatli vaziyatlar va qarama-qarshiliklar ham davlatlar tashqi siyosatiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Ayrim hollarda xalqaro munosabatlarda kelib chiqadigan u yoki bu muammoni hal qilishda davlatlar manfaatlari bir-biriga zid kelishi mumkin. Bunday sharoitda mavjud muammolarni hal qilishda davlatlarning tashqi siyosatiga xos bo'lgan sub'ektiv yondoshishlar ustunlik qilib qoladi. Buning oqibatida xalqaro munosabatlarda salbiy holatlar kelib chiqishi mumkin.

Har bir davlat xalqaro munosabatlarda kelib chiqadigan ana shu salbiy holatlarni bartaraf qilishda o'z tashqi siyosatini xalqaro huquq normalariga asoslangan holda amalga oshirishi, ko'pchilik davlatlar tomonidan e'tirof etilgan tashqi siyosat prinsiplari talablariga rioya qilishi zarur. Xalqaro munosabatlar tarixidan ma'lumki, bunday holatlarda kelib chiqadigan muammolarni hal etishda bir tomonlama yondoshish hech qachon ijobiy natijaga olib kelmagan, xalqaro munosabatlarning rivojlanishi biron-bir davlatga ustunlik bermaydi.

Har bir davlat o'z tashqi siyosatini amalga oshiradigan maxsus organ Tashqi ishlar vazirligiga ega. Bu vazirlik o'zining ko'p sonli mutaxassis va tashkilotchi kadrlari orqali davlat tashqi siyosatida faoliyat yuritadi. Bu vazirlik vazifalari xilma-xil bo'lib, ularni samarali hal qilib borish har bir davlatning xalqaro maydondagi nufuz va obro'-e'tiborining oshib borishiga sabab bo'ladi.

Davlatlararo xalqaro munosabatlardagi dolzarb muammolarni echish xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan siyosiy hujjatlar ishlab chiqilishi, qabul qilinishi albatta davlatlararo tashqi siyosat orqali amalga oshiriladi. Ayrim davlatlar tomonidan ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama imzolananadigan hujjatlar: shartnomalar, deklarasiyalar, memorandumlar, bayonotlar va boshqa turdagi siyosiy hujjatlar hamda ularda belgilangan siyosiy-huquqiy normalarga amal qilish davlatlar tashqi siyosatining asosiy jihatidir.

Hozirgi bosqichda davlatlar tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri tinchlik va xavfsizlik hamda terrorizmga qarshi kurashdan iborat.

Har bir davlat o'z milliy xavfsizligini ta'minlashga intilishi, avvalo uning ichki siyosati orqali namoyon bo'ladi va u tashqi siyosatda aks etadi. Bu o'z navbatida, tinchlik uchun kurash xavfsizlik uchun kurash bilan bir ekanligini ifoda qiladi va shu asosda davlatlar siyosatiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Avvalo ichki siyosat kuchlar faoliyatiga bog'liq. Ichki siyosatning samaradorligi siyosiy hokimiyatning qanday kuchlar tomonidan amalga oshirilishi bilan belgilanadi.

Ichki siyosat – muayyan sharoitda sinflar, ijtimoiy guruhlar va millatlar o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Davlatlar tomonidan ishlab chiqiladigan ichki va tashqi siyosat dialektik qonuniyat asosida shakllanadi va rivojlanadi. Ularning **umumiy aloqadorligi** quyidagilardan iborat:

Siyosatning qanday kuchlar tomonidan ishlab chiqilishi barcha davlatlarga xos xususiyatdir. Ichki va tashqi siyosat ma'lum bir maqsadga qaratilgan bo'ladi. Umumiy qoidalarga asoslanadi. Davlatlarning ichki va tashqi siyosatiga xos bo'lgan **alohidalik**ning mohiyati quyidagi holatlar bilan belgilanadi:

Ichki va tashqi siyosat mamlakatda tarixiy, milliy xususiyatlarni aks ettiradi. Mamlakatlarda faoliyat ko'rsatuvchi siyosiy kuchlar har xil sinflar, ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini aks ettiradi. Ichki va tashqi siyosat shu mamlakat manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bo'ladi.

Tinchlik va xavfsizlik masalasi siyosiy masala bo'lganligi uchun ham u davlatlar tashqi siyosati orqali moddiylashadi. Binobarin, har bir davlat o'z tashqi siyosati orqali tinchlik uchun amaliy faoliyat olib boradi va boshqa davlatlarni unga da'vat etadi.

Tinchlik va xavfsizlik uchun kurash hozirgi eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Dunyoning ayrim mintaqalarida tinch vaziyatning buzilib turishi, harbiy harakatlarning ro'y berishi, harbiy qurol-yarog'lar ishlab chiqarish va harbiy xarajatlarni ko'paytirishga intilish singari holatlar tinchlik va xavfsizlikka doimiy ravishda xavf solib turadi. SHuning uchun ham tinchlik va xavfsizlik uchun kurashdan manfaatdor bo'lgan har bir davlat bu yo'lni o'z tashqi siyosatining asosiy yo'nalishi qilib belgilab olmoqda. Hozirgi davrning muhim talablaridan biri tinchlik va xavfsizlik uchun kurashda yagona davlat siyosati bo'lishidan iborat.

Davlatlar tashqi siyosatining asosiy va muhim yo'nalishlaridan yana biri umumbashariy muammolarni birgalikda hal etishda davlat siyosatining zarurligi shundaki, bu siyosat orqali davlatlar o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ularni hal qilishda faol ishtirok etishi mumkin.

Umumbashariy muammolar qaysi mamlakat hududida kelib chiqqan bo'lishiga qaramay, ularning zararli oqibatlari barcha davlatlar siyosatida chuqur anglab etilmog'i lozim. Davlat siyosatida sansalorlikka yo'l qo'yib bo'lmagani singari umumbashariy muammolarni hal etishda ham tashqaridan tomoshabin bo'lib qolish

mumkin emas. Bu umumbashariy muammolarni hal qilishning ob'ektiv ehtiyojlariga to'g'ri kelmaydi. SHuning uchun ham davlatlar o'z tashqi siyosatida bu muammolarning salbiy oqibatlarini chuqur anglab etishi va ularni hal qilishda amaliy harakat qilishi lozim.

Xalqaro vaziyatni sog'lomlashtirish uchun kurash ham davlatlar tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biridir. Davlatlar o'z tashqi siyosati orqali xalqaro vaziyatning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi. Bunday ta'sir ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Agar ijobiy ta'sir xalqaro vaziyatning barqaror bo'lishiga olib kelsa, salbiy ta'sir natijasida esa, xalqaro vaziyatda keskinlik holatlari kuchayadi, davlatlar o'rtasida ishonchsizlik kelib chiqadi.

Davlatlar tashqi siyosatining muhim yo'nalishlaridan yana biri davlatlararo munosabatlarni chuqurlashtirish va uni yanada takomillashtirib borishdan iborat. Davlatlararo munosabatlar iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy, harbiy hamkorlik shakllaridan iborat bo'lib, bunday hamkorlikni yo'lga qo'yish va amalga oshirish tashqi siyosatga bog'liq bo'ladi. Xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarni tashkil etish va rivojlantirish ham tashqi siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib u davlatlarning jahon hamjamiyatidagi o'rni va roli bilan belgilanadi.

Davlatlar tomonidan olib boriladigan tashqi siyosatning samarali bo'lishi ko'p jihatdan davlatlar tashqi siyosati sohasida amal qiladigan tamoyillarda, har bir davlatning boshqa davlatlar oldida burchi va mas'uliyatida aks etadi.

Tashqi siyosat sohasida amal qiladigan tamoyillar ham jamiyat hayotining boshqa sohalarida amal qiladigan tamoyillar singari biron-bir davlat tomonidan ishlab chiqilmagan. Ular davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning tashkil topish jarayonida bu munosabatlarni samarali rivojlantirish ehtiyojlaridan kelib chiqqan. SHuning uchun ham davlatlar tashqi siyosatida amal qiladigan tamoyillar majburiy xarakterga ega emas. Ularga amal qilmaslik esa, davlatlarning xalqaro maydonda yakkalanib qolishiga sabab bo'ladi.

Jahon urushlari natijasida vujudga kelgan xalqaro holat, vaziyat muammolari oldin Versalp shartnomasida (1919 yil 28 iyunp), keyinchalik oldin kelishib olinganiga ko'ra, 1919 yilda tashkil etilgan va 1939 yilgacha amal qilgan Millatlar Ittifoqi doirasida ko'rib chiqilib, xalqaro huquq aqidalar va qoidalar shakllantirilgan, ikkinchi jahon urushigacha amal qilib kelgan edi.

Xalqaro siyosiy munosabatlarda hozirgi kunda amal qilayotgan xalqaro huquqning asosiy qoidalari 1945 yil 24 oktyabrda tashkil etilgan BMT Nizomida o'z ifodasini topgan. Unda davlat mustaqilligini hurmat qilish, tinch-totuv yashashga rioya qilish, o'ziga yuklatilgan burch va vazifalarni og'ishmay bajarish, nizo-mojarolarni tinch, siyosiy muzokara yo'li bilan hal qilish, bir-biriga nisbatan kuch ishlatmaslik, ichki ishlariga aralashmaslik kabi qoidalar belgilab berilgan.

BMT tomonidan qabul qilingan inson huquqlariga oid quyidagi asosiy hujjatlarni davlatlar o'z qonunlari ruhiga singdirishgan:

«Inson huquqlari Umumjahon Jeklorasiyasi» (1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan)^{7[7]}.

«Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida Xalqaro Pakt» (1996 yil 19 dekabrda qabul qilingan).

^{7[7]} Инсон ҳуқуқлари. Тошкент: «Ўзбекистон», 1997, 183 – 233-бетлар.

«Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro Pakt» (1966 yil 19 dekabrda qabul qilingan).

«Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro Paktga fakulptativ Protokol» va h.k.

Davlatlarning tashqi siyosatida ko'pgina umumiy tomonlar borki, bu ularning jahon siyosatining dolzarb muammolarni hal qilishda o'z faoliyat-larini muvofiqlashtirishlarini talab etadi. Bu ob'ektiv zaruriyat davlat-larning tashqi siyosati sohasida amal qiladigan tamoyillarning talablaridan kelib chiqadi. Teng huquqli asoslarda hamkorlik qilish, bir davlatning boshqasiga o'z hukmini o'tkazmasligi, ichki ishlariga aralashmaslik, g'oyaviy muxoliflikdan xoli bo'lish, xalqaro munosabatlarga doir muammolarni hal qilish ishlarida faollik ko'rsatish, tashqi siyosat sohasida o'zaro ishonchni mustahkamlashga harakat qilish va boshqa shular singari ko'plab tamoyillar hozirgi bosqichda davlatlar tashqi siyosatini belgilab bermoqda. Bu tamoyillarga og'ishmay amal qilish davlatlar tashqi siyosatining ishonchli va samarali bo'lishiga yordam beradi.

Davlatlar tashqi siyosatining ishonchli bo'lishida g'oyaviy muxolifatlikdan voz kechish tamoyiliga amal qilish ham muhim ahamiyatga egadir. Foyaviy muxo-liflik davlatlarni bir-biriga yaqinlashtirish emas, balki ularni uzoqlash-tirishga, ular o'rtasida dushmanlik kayfiyatining avj olishiga sabab bo'ladi.

O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy yo'nalish va tamoyillari

O'zbekiston davlatlararo munosabatlarda iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy, ilmiy-texnik sohalarda ikki va ko'p tomonlama aloqalarni keng yo'lga qo'ygan. Bu borada:

MDH doirasidagi mamlakatlar bilan.

Rivojlangan g'arb va SHarq davlatlari bilan.

Osiyo, Afrika, Lotin Amerika va Karib havzasidagi rivojlanayotgan davlatlar bilan diplomatik aloqalar, yo'nalishlarda o'z faoliyatini olib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi 4-bob 17-moddasida O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlardagi tashqi siyosatining **huquqiy prinsiplari** ishlab chiqildi va asoslab berildi:

- 1) suvereniteti, tengligi;
- 2) kuch ishlatmaslik yoki tahdid qilmaslik;
- 3) chegaralarning daxlsizligi;
- 4) nizolarni tinch yo'l bilan hal etish;
- 5) boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik⁸[8].

Prezident Islom Karimov «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» asarida O'zbekistonning tashqi siyosatni amalga oshirishdagi 6 ta prinsipini ishlab chiqdi va asosladi. Ana shu tashqi siyosatning **amaliy prinsiplari** quyidagilardan iborat:

1) Milliy davlat manfaatlari ustun bo'lgan holda o'zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olish.

2) Umumbashariy qadriyatlar ustunligi, xalqaro maydonda tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash, mojarolarni tinch yo'l bilan hal etish. (O'zbekistonni yadrosiz

⁸[8] Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Т.: «Ўзбекистон», 2008, 8–9-бетлар.

mintaqaga aylantirish, harbiy blok, uyushmalarga kirmaslik. Nizolarni hal etishda kuch ishlatmaslik, tahdid qilishdan voz kechish, xalqaro hujjatlarni tan olish, ularga rioya qilish).

3) Teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, boshqa mamlakatlar ichki ishlarga aralashmaslik. Tenglar orasida teng bo'lish.

4) Mafkuraviy qarashlardan qat'iy nazar ochiq-oydinlik, barcha davlatlar bilan keng tashqi aloqani o'rnatish.

5) Ichki milliy qonunlardan xalqaro huquq normalarining ustuvorligini tan olish.

6) Ham ikki tomonlama ham ko'p tomonlama tashqi aloqalarni o'rnatish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish².

YUrtboshimiz bu amaliy prinsiplarni o'zining «O'zbekiston XXI asr bo'sag'sida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida ham izohlab berdi³.

1995 yil 30 avgustda «O'zbekiston Respublikasining harbiy doktrinasiga to'g'risida» Oliy Majlis qarori qabul qilindi.

1996 yil 26 dekabrda «O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi.

Adabiyotlar:

O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. T. O'zbekiston. 2011.

Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-19 jildlar. T. O'zbekiston. 1996-2011.

Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – engilmas kuch. T.-Ma'naviyat. 2008.

Karimov I. A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T. O'zbekiston 2009 yil.

Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T. - O'zbekiston. 2010.

Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. – T.: O'zbekiston, 2011.

Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T. - O'zbekiston. 2011.

Karimov I.A. Bunyodkorlik, yangilanish, mexr-muruvvat yo'li. Prezident I.A.Karimovning 2012 yil 21 mart Navro'z umumxalq bayramiga bag'ishlab so'zlagan nutqi. T.// Xalq so'zi. 2012 yil 22 mart.

Karimov I.A. Inson xotirasi - boqiy, qadr-qimmati – ulug'. Prezident I.A.Karimovning 2012 yil 9 may- Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlab so'zlagan nutqi. T.// Xalq so'zi. 2012 yil 10 may.

Nosirxo'jaev S., Safarboev M., Sultonov K Siyosatshunoslik fanidan ko'rgazmali metodik qo'llanma. – T., 2007.

Odilqoriev X.T.Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik. T., 2008.

Xolbekov A., Jumaev R., Umarova N. va boshqalar “Boshqaruvning ijtimoiy- siyosiy yo'nalishlari” - T.; G'. G'ulom, 2008.

Artikbaev O.S., Ganiev J.X. Siyosatshunoslik. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. – T., 2009.

Jumaev R.Z. va boshq. Siyosiy islohotlar strategiyasi. – T.: Akademiya. 2010.

2 Каримов И. А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т. 1 –Т.: «Ўзбекистон», 1996, 50-52-бетлар.

3 Каримов И. А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т. 6 –Т.: «Ўзбекистон», 1998, 239-240-бетлар.

“Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”ni o’rganishga bag’ishlangan Respublika ilmiy–amaliy konferensiya materiallari. (2011 yil 16 mart). Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi, O’zbekiston Milliy universiteti, “Siyosatshunoslik” kafedrası, Respublika “Kamolot” YOshlar ijtimoiy harakati,— T.: Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy universiteti. 2011. – 413 b.

Odilqoriev T., Razzoqov D. Siyosatshunoslik. Darslik. – T: O’qituvchi, 2011.

8-mavzu. O’zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanining predmeti, ob’ekti maqsad va vazifalari.

Demokratik jamiyat to’g’risidagi dastlabki qarashlar va uning rivojlanish bosqichlari.

Reja:

- 1. “O’zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining predmeti, ob’ekti, uslubi hamda uning manbalari.**
- 2. Ushbu fanning asosiy tushunchalari, qonuniyatlari va uning boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar orasida tutgan o’rni.**
- 3. Mazkur fanni o’rganishning nazariy va amaliy ahamiyati**
- 4. Vatanimiz hududida davlatchilik to’g’risidagi qarashlarning paydo bo’lishi va rivojlanishi. IX-XII O’rta Osiyoda vujudga kelgan ilmiy, falsafiy-diniy qarashlar.**
- 5. Amir Temur va Temuriylar davri milliy davlatchilik to’g’risidagi qarashlarida demokratik tamoyillar.**
- 6. XX asrda vujudga kelgan ma’rifiy-demokratik qarashlar tizimi. Jadidlar. O’zbekistonda demokratik jamiyat qurilishining rivojlanish bosqichlari.**

«O’zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fanining predmeti, ob’ekti, uslubi hamda uning manbalari.

Fanni o’rganishning zarurligi, maqsadi va vazifasi. Aytish mumkinki, O’zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanini o’rganish, mamlakat hayotida keng ko’lamli islohotlarni amalga oshirish bilan bog’liq qonuniyatlarni bilish va o’rganishda, demokratik taraqqiyot yo’lida «O’zbek modeli»ni tatbiq etishda muhim ahamiyatga ega. Bu demokratiyaning milliy va umumbashariy tamoyillarini aniq tasavvur etish, ijtimoiy hayotni u bilan bog’lab olib borishga o’rgatadi. Mamlakatimizda demokratiyaning qaror topib borishi, O’zbekistonning dunyo hamjamiyatida o’zining nufuzli o’ringa ega bo’lishiga, yoshlarda demokratik ong va tafakkurni shakllantirish, milliy-ma’naviy merosni qadrlash, vatanparvarlik tuyg’ularini mustahkamlashga ko’maklashadi. Mamlakatda erkin, demokratik, fuqarolik jamiyati asoslari va uning nazariyasi hamda amaliyoti bilan chuqurroq tanishtiradi. SHu maqsadni amalga oshirishda xizmat qiladi. O’zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanini o’rganishning o’ziga xos zarurat va sabablari mavjud.

Birinchidan, bugun dunyoda demokratiya, demokratik jamiyat to'g'risida muayyan mo'tadillashgan ilmiy konsepsiyalar ishlab chiqilgan. Ularda demokratik jamiyatning qiyofasi, asoslari, yashash va rivojlanishining umume'tirof etilgan qonuniyatlari hamda uning har bir davlat, xalqning milliy-ma'naviy xususiyatlari bilan bog'liq jihatlari tobora keng miqyosda o'z ifodasini topmoqda.

Bugungi kunga kelib dunyoning 160 dan ortiq davlatlarida demokratik tuzumlar umumbashariy va milliy qadriyat sifatida barpo qilinganligi e'tirof etilmoqda. Aynan hozirgi davrga kelib, demokratiya insoniyat hayot tarzining eng maqbul rivojlanish yo'li ekanini deyarli barcha e'tirof etayotganligi va uning jahoniy ko'lam kasb qilayotganligi demokratiyani fan sifatida o'rganishni taqozo etayotgan sabablardan biridir.

Ikkinchidan, O'zbekistonda barpo etilayotgan demokratik jamiyat, uning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, o'rganish zarurati ham shu qonuniyat bilan bog'liqdir. Ijtimoiy-gumanitar va ijtimoiy-siyosiy fanlar qatorida uning maxsus fan sifatida o'qitilishi dunyodagi demokratik o'zgarishlar bilan bog'liq umumiy qonuniy asoslarga ham ega. Va uni hisobga olishga bo'lgan ehtiyojning mavjudligi bilan xarakterlanadi. Har bir mustaqil mamlakat, o'zining taraqqiyot yo'lini va qurayotgan jamiyatini bilishga, uning qonuniyatlarini aniqlab olishga ehtiyoj sezadi. SHu nuqtai nazardan, hozirgi paytgacha ijtimoiy-siyosiy fanlar tizimida huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishga bevosita taalluqli bo'lgan masalalarni ilmiy jihatdan aniq bir voqelik sifatida, yaxlitligicha o'rganuvchi fan vujudga kelmagan. Fikrimizcha, «O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fani doirasidagi o'ziga xos jihatlar aynan shu jarayonni to'liq qamrab olish imkoniyatiga ega. Negaki, bu fan eng avvalo – jahon sivilizasiyasining tarixiy tajribalariga asoslangan holda mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, adolatli demokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyatini barpo etishning nafaqat nazariy masalalarini, balki uning amaliy jihatlarini yaxlit tarzda o'rganadi. Bu fanni yana shuning uchun ham o'rganish zarur-ki, SHarq va Farb sivilizasiyalari tutashgan makonda tarixda birinchi bor umume'tirof etilgan demokratiya tamoyillari milliy qadriyatlar bilan to'ldirilmoqda. Jamiyatimizdagi bu jarayonni atrofimizda ro'y berayotgan ijtimoiy hodisalar, voqealar va ular o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlarni aniq voqeligimiz bilan chambarchas o'rganish, tahlil etish zarurdir. Bu zarurat mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimovning: **«Pirovard maqsadimiz – ijtimoiy yo'naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotiga, ochiq tashqi siyosatga ega bo'lgan kuchli demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iboratdir»**9[9] deb ta'kidlagan umumstrategik vazifani amalga oshirish bilan bog'liqdir. Bu fikrni 2005 yili 28 yanvarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma yig'ilishida yana bir bor ta'kidlagan edi. **«Bizning asosiy uzoq muddatli va strategik vazifamiz avvalgicha qoladi – bu demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish jarayonlari va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash yo'lidan og'ishmay, izchil va qat'iyat bilan borishdir»**10[10]. Bu vazifa O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanini

9[9] Каримов И.А. Ўзбекистон ХХI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997, 3-бет.

10[10] И.А.Каримов. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. - Т.13. – Т.: “Ўзбекистон”, 2005. – 177-б.

o'rganishni zarur qilib qo'ygan **uchinchi asosiy sabablardan biridir**, deyish mumkin. Ma'lumki, o'tgan XX asrning so'nggi o'n yilligi dunyo xaritasida yangi mustaqil davlatlarning paydo bo'lganligi bilan xarakterlanadi. "Ular hozirgi til bilan aytganda, socialistik o'tmishga ega bo'lgan, o'z siyosiy mustaqilligini tinch yo'l bilan qo'lga kiritgan davlatlardir. Bu davlatlar mustaqil rivojlanish va ijtimoiy munosabatlarni yangilash yo'liga qadam qo'ydi"^{11[11]} (Karimov I.A. Asarlar. T.6, 31-b.). Ana shunday mustaqil taraqqiyot yo'liga qadam qo'ygan davlatlar turli mintaqalarda joylashgan bo'lib, ular Markaziy Evropaning (5 ta), Boltiq bo'yi davlatlarining (3 ta), Bolgariya va Ruminiya, Farbiy - SHarqiy Evropa mamlakatlarining (5 ta), mustaqil hamjamiyatdagi davlatlarning Farbiy qismidan (4 ta), Kavkaz orti davlatlaridan (3 ta) va Markaziy Osiyo davlatlaridan (5 ta)tasini o'z ichiga oladi.^{12[12]} Ana shu mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlagan va dunyodagi boshqa mamlakatlar orasida o'z mavqeini mustahkamlashga intilayotgan, tenglar orasida teng bo'lishga, jahon maydonida o'ziga xos nufuzli o'ringa ega bo'lishga harakat qilayotgan davlatlardan biri, O'zbekiston Respublikasidir.

Mustaqillik O'zbekiston xalqi hayotida yangi tarixiy davrni boshlab berdi. Bu davrning ma'no va mohiyati O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning "O'zbek modeli" bilan uzviy bog'liqligidir. Ayni paytda yangi mustaqil davlatlar qatorida O'zbekiston Respublikasi oldida turgan umumiy vazifani quyidagilarda ko'rish mumkin: uning mazmun-mohiyati va asosiy tamoyillari O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 1-moddasidayoq «O'zbekiston - suveren demokratik respublika, davlatning «O'zbekiston Respublikasi» va «O'zbekiston» degan nomlari bir ma'noni anglatadi»^{13[13]} degan qoidada o'z ifodasini topgan bo'lsa, Prezident I.A.Karimov asarlarida biz qurayotgan demokratik jamiyatning boshqa jamiyatlardan o'zining an'anaviy andozalaridan tubdan farqlari, uning o'ziga xosligi va betakrorligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan. Bu - davlatlar oldida muvaffaqiyatsiz, chippakka chiqqan tarixiy tajribaning fojeali oqibatlarini qisqa davr ichida bartaraf etish kabi umumiy vazifa turganligi bilan bog'liq. Bu uni atroflicha o'rganishni taqozo etadi. Natijada, mamlakatlar oldida turgan maqsad va vazifalarning umumiy jihatlarini ochishga, o'tmishdan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotda qolgan asoratlardan xolos bo'lish yo'llarini ko'rishga yordam beradi.

SHuningdek, zamonaviy bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan, odamlarga munosib turmush kechirishini ta'minlay oladigan, insonning huquq va erkinliklarini himoya qila oladigan chinakam demokratik jamiyat qurishdek murakkab vazifani hal etish bilan bog'liq umumiy zaruratning mavjudligidir. O'zbekiston ham ana shunday davlatlar jumlasiga kirganligi bois mamlakatimizda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti masalalarini o'rganishga alohida e'tibor berila boshlandi. Demokratik taraqqiyot yo'lidan sobit qadam bilan rivojlanishda nimalar hisobiga erishish mumkinligini bilish uchun ham uni fan sifatida o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

"Sosialistik" degan umumiy nomga ega bo'lgan totalitar tuzum emirilgandan keyin, dunyoning qutblarga bo'linishi barham topdi. Lekin dunyodagi ijtimoiy evrilishlar jarayonlarini o'rganish, demokratik asoslarni qaror toptirmasdan va mustahkamlamasdan yangi mustaqil davlatlarning xavfsizligi va barqaror rivojlanishiga bevosita bog'liq ekanligini ko'rsatib turibdi.

^{11[11]} Ўша ерда.

^{12[12]} ЮНИСЕФ, ижтимоий мониторинг. 2003 йил, 2-бет.

^{13[13]} Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. -Т.: Ўзбекистон, 2003, 4-б.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish dunyoda e'tirof etilgan demokratik tamoyillar va qadriyatlarga tayanish bilan birga, uning o'ziga xos xususiyatlarini milliy-madaniy merosi, qadriyatlari va milliy davlatchilik an'alariga tayangan holda yangi jamiyat qurish vazifalarini amalga oshirish bilan bog'liq.

Mustaqillik qo'lga kiritilmaganida, O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lini o'zi tanlay olmas edi. Mustaqillikning qo'lga kiritilishi O'zbekiston oldida mas'uliyatli vazifani qo'ydi. SHunda O'zbekiston qanday davlat quradi? - degan savolga dunyo jamoatchiligi ham alohida e'tibor bilan qaradi. O'zbekistonning istiqloli va insonlarning taqdiri ham, ularning qanday hayot tarziga ega bo'lishi, milliy-ma'naviy merosga munosabat, umumbashariy demokratik tamoyillarning uyg'unligini ta'minlash kabi jihatlar davlatchilik qurilishining qanday asosda amalga oshirilishi bilan bevosita bog'liqdir.

«Mustaqillik, O'zbekiston xalqi hayotida yangi tarixiy davrni boshlab berdi. O'z mustaqilligini, erkini qo'lga kiritgan har bir xalq o'z taraqqiyot yo'lini izlaydi, yangi jamiyat bunyod etishda o'z andozasini ishlab chiqishga harakat qiladi»^{14[14]}.

O'zbekiston ham o'zining milliy davlatchilik negizlariga xos bo'lgan siyosiy, ijtimoiy iqtisodiy, ma'naviy kamolot va taraqqiyot yo'lini belgilab oldi. Mamlakatning oldida turgan maqsadni ta'kidlar ekan, I.A.Karimov shunday deydi: «Biz quradigan jamiyat O'zbekiston xalqining munosib turmushini, huquqlari va erkinliklarini kafolatlashi, milliy qadriyatlarimiz va madaniyatimiz qayta tiklanishini; insonning ma'naviy axloqiy barkamolligini ta'minlashi kerak»^{15[15]}. Bu erda gap u yoki bu mamlakatga xos bo'lgan demokratiya ko'rinishidan andoza olish, «umuman demokratik jamiyat qurilishi to'g'risida ketmayotganligini aniq hisobga olish muhim. Asosiy maqsad O'zbekistonda o'ziga xos va mos bo'lgan demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyotini o'rganishdan iborat. SHuning uchun ham O'zbekiston qurayotgan demokratik jamiyatning boshqa demokratik taraqqiyot yo'lida rivojlanayotgan jamiyatlardan farqli jihatlarini hamda umumiy tomonlarini ham aniqlash muhim.

«O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fani mustaqillik tufayli vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy fanlar tizimidan keng o'rin olayotganligining asosiy sabablaridan biri ham shundadir. Bu zarurat mustaqil davlatimiz misolida demokratik jamiyat qurish jarayonida qo'lga kiritilgan yutuqlar, ayrim hayotiy saboqlarning ilmiy tahlil qilinishini taqozo qilmoqda. Mamlakatimizda demokratik jarayonlarning mohiyatini bilish, unga ijodiy yondashish uchun yosh avlod demokratiyaning milliy va umuminsoniy qadriyat sifatida shakllanish bosqichlarini chuqur o'rganishi zarur. Bu strategik vazifani faqatgina ushbu fan bajaradi.

«O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fani ham o'z oldida bir necha vazifalarni qo'ygan. Bular ko'proq mamlakatda demokratik fuqarolik jamiyati qurishning o'ziga xos va umume'tirof etilgan qonunlarini bilish, nazariy xulosalar va umumlashmalar chiqarishdan iboratdir. Xususan, fuqarolarda demokratik jamiyat talablariga javob beradigan dunyoqarash, fikrlar xilma-xilligi, erkinlikni qadrlash, inson qadr-qimmatini, sha'ni va or-nomusini hurmat qilish bilan bog'liq qadriyatlarni shakllantirish asosiy vazifalardandir. Bu vazifalar fuqarolarimizni mamlakatda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish, demokratik qadriyatlarni hurmat qilish orqali ularni bunyodkorlik ishlariga safarbar etishda yaqqol namoyon bo'ladi. U fan sifatida ana shunday ulug' va bunyodkorlik

^{14[14]} Каримов И.А. Ўзбекистон келажиги буюк давлат –Т.: Ўзбекистон, 1992., 35-бет.

^{15[15]} Ўша жойда.

ishlariga xizmat qiladi. Buning uchun u turli xil uslublardan foydalanadi. Bular dunyo fanlari foydalanib kelayotgan, tajriba, qiyosiy tahlil, empirik-sosiologik va ilmfanning boshqa zamonaviy uslublaridir.

Demak, jamiyatimizda ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlarni ilmiy tafakkur orqali tahlil etish ularni mantiqiy asoslash, mazkur fanni yoshlar ongiga dunyoviy davlat tamoyillarini singdirish kabi jarayonlar etarli darajadagi malakali mutaxassislar tomonidan o'qitish vazifasini ham taqozo etmoqda.

Fanning predmeti va ob'ekti. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanining predmeti mamlakatda demokratik jamiyatning shakllanishi, fuqarolik jamiyati qurilishi, qaror topishi va amal qilishining dunyoda e'tirof etilgan umumbashariy va milliy tamoyillariga asoslanadi. Ayni paytda uning o'ziga xos va mos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda erkin, demokratik, adolatli fuqarolik jamiyatini qurish yo'llari va qonuniyatlarini o'rganish, bu fanning predmeti va ob'ektini tashkil etadi.

SHuningdek, O'zbekiston ijtimoiy hayotining barcha sohalari fanning ob'ektidir. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishi nazariyasi va amaliyoti bir tomondan, demokratik jamiyat to'g'risidagi mavjud qarashlarga, nazariyalarga hamda mamlakatimizning davlatchiligi tarixiy merosi bilan bog'liq mutafakkirlarning g'oyalarini hisobga olsa, ikkinchidan, mustaqillik yillarida demokratik jamiyat to'g'risidagi muhim konseptual g'oyalar va qarashlarni, unda O'zbekistonning o'ziga xos yo'li, hamda xususiyatlariga tayanadi. Uchinchidan, bu sohada mustaqillik yillarida erishilayotgan yutuqlarni, demokratik jamiyat qurish tajribasi, yutuqlariga tayanib, uni o'rganadi. O'zbekistonning dunyo hamjamiyatida tutgan o'rni, o'zaro manfaatli hamkorlik asoslarini ishlab chiqish va rivojlantirish qonuniyatlarini bilish ham muhim o'rin tutadi. Mamlakatimizda demokratik jamiyat qurilishi ijtimoiy hayotimizning biron-bir sohasi bilan chegaralanib qolmaydi, balki uning barcha jabhalaridagi o'zgarishlarning negizlarini o'z ichiga oladi va o'rganadi. Bunda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayoti demokratiyalashuvining va siyosiy hayotining erkinlashtirilishi, davlat suvereniteti, xalq hokimiyatchiligi, uning manbai, fuqaro-jamiyat va davlat munosabatlari asosiy negiz hisoblanadi.

«Demokratiya» yunoncha so'z bo'lib, tarjimada xalq hokimiyati – (demos-xalq, krotos-hokimiyat) ma'noni bildiradi. **Demokratik jamiyat deb oliy hokimiyat bevosita xalqqa tegishli bo'lgan va xalqning xohish-irodasi bilan amalga oshadigan davlat va jamiyatga aytiladi.** Albatta, demokratiya atamasining qanday sharhlanishi emas, balki uning qanchalik realligi, haqiqiyligi, yashashga qobilligi muhimdir. «Binobarin, - deb ta'kidlaydi I.A.Karimov - biz o'z istagimizdagi demokratiyaga qanday mazmun baxsh etmaylik, agar u hayotimizning har bir soniyasiga singib ketmasa, turmushimizning ajralmas qismiga aylanmasa, hamma shiorlar va ta'riflar yo mazmunsiz baqir-chaqir yoki hech narsani anglatmaydigan so'z o'yini bo'lib qolaveradi»^{16[16]}. **Demokratiyaning vazifasi** - fuqarolarning huquqlari tan olinadigan va himoya qilinadigan, ularning burchlariga rioya etiladigan va bajariladigan jamiyatni qurishdan iborat. Lekin hozirgacha hech qaysi davlat bunga mukammal erishmagan, faqat unga harakat qilib kelmoqda. Demokratik boshqaruv jarayonida siyosiy hayotda ishtirok etish nafaqat fuqarolarning muhim

^{16[16]} Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хафсизликка тахдид, баркарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т.6. –Т.: «Ўзбекистон», 1998, 180-бет.

belgisi bo'libgina qolmasdan, bu ularning huquqlari, balki burchlari ekanligini ham anglash muhim ahamiyat kasb etadi. SHu jihatlarni ham hisobga olish muhimdir.

Demak, **birinchidan, demokratik jamiyat** - har bir mamlakat va xalqning demokratiyada umume'tirof etilgan qadriyatlari va tamoyillari hisobga olinadigan davlatchilik sohasidagi milliy-madaniy merosi xususiyatlariga tayaniladigan, fuqarolarning huquqlari tan olinadigan va himoya qilinadigan, ularning burchlariga rioya etiladigan va bajariladigan, boshqaruvda fuqarolar faol ishtirok etadigan jamiyatdir.

Ikkinchidan, umumiy tarzda demokratiya deganda hammaning manfaatlari yo'lida ko'pchilikning hokimiyati va ozchilikning irodasini hurmat qilish tushuniladi.

Uchinchidan, uni batafsil tahlil qilganda esa demokratiya xalqning o'z erkinligi va mustaqilligiga qarashlari ham, har bir shaxsning manfaatlari va huquqlarini o'zboshimchalik bilan cheklashlar va shu yo'sindagi harakatlardan himoya qilish ham, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish shakli ham ekanligi ayon bo'ladi^{17[17]}.

Bu fanning o'rganish uslubi: metodi falsafa fanining uslubi-metodi. CHunki falsafa fanining metodi va kategoriyalari mazkur fan uchun ham asosiy metod hisoblanadi, masalan, dialektik, nazariy metod, taqqoslash, qiyoslash metodi, mantiqiy metod va hokazo. Metodologiyasi: 1) falsafiy ong, tahlil, 2) nazariy tahlil, 3) ijtimoiy borliqni o'rganadi.

Fanni o'rganishning manbalari:

1. **Falsafiy manbalarga:** demokratik jamiyat haqidagi G'arb, SHarq va hozirgi zamon falsafasiga asoslanadi.
2. **Tarixiy manbalar:** davlatlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi, davlatlararo munosabatlar.
3. **Dunyoviy ildizlarga ega:** ilmiy-ma'rifiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy munosabatlar.
4. **Diniy manbalar:** Avesto (Zardushtlarning muqaddas kitobi), Qur'on (musulmonlarning)i Karim, Tavrot (YAhudiylarning diniy ta'limoti haqidagi qonun), Injil (nosroniylarning) muqaddas kitobi va h.k.
5. **Siyosiy manbalar:** mustaqillik haqidagi qonunlar, Konstitusiya (Asosiy qonun).
6. **Iqtisodiy manbalar:** bozor iqtisodiyotiga asoslangan mulkchilikning xilma-xil shakllari.
7. **Ma'naviy-ma'rifiy manbalar:** umumbashariy va milliy, diniy, axloqiy qadriyatlar va h.k.
8. **Prezident farmoni**, qarorlari, asarlari, Oliy Majlis qonunlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari.

Ushbu fanning asosiy tushunchalari, qonuniyatlari va uning boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar orasida tutgan o'rni

Fanning asosiy tushunchalari va uning o'ziga xosligi. «O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» haqidagi fan bilan bog'liq tushunchalar mavjud. Uning shakllanishi ko'p asrlik tarixga ega.

Ijtimoiy hayotni tashkil etishning demokratik me'yorlari qadimgi dunyoga borib taqaladi. Bugungi kunda jahonning eng rivojlangan mamlakatlarida demokratiyaning asosiy va etakchi tamoyilga aylanguncha uning umuminsoniy qadriyat sifatida o'z taraqqiyotining turli bosqichlarida murakkab, ziddiyatli, ba'zan esa fojiali o'zgarishlarga uchradi. SHu nuqtai nazardan, insoniyatning yillar mobaynida ishlab chiqqan demokratik qadriyatlarning asosiy **tushunchalarini** to'la-to'kis o'zlashtirib olish jamiyatda islohotlarni chuqurlashtirishning muhim shartidir. Bu borada O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishida qo'llaniladigan tushunchalarni bilish muhim o'rinni egallaydi. Ularni o'rganishda quyidagi uchta jihatni alohida hisobga olish lozim:

1. Ijtimoiy gumanitar fanlarga tegishli bo'lgan umumiy tushunchalar: Masalan: jamiyat, sivilizasiya, erkinlik, huquq, qonun, madaniyat, taraqqiyot, demokratiya.

2. Ijtimoiy-siyosiy fanlar bilan yaqin bo'lgan tushunchalar: huquqiy davlat, xususiy mulk, fuqarolik jamiyati, siyosat, siyosiy hokimiyat, siyosiy tashkilotlar, siyosiy tizim, siyosiy rejim, siyosiy plyuralizm, siyosiy ong, siyosiy madaniyat v.b..

3. Ko'proq O'zbekiston bilan bog'liq holda ishlatiladigan, ya'ni, O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishi nazariyasi va amaliyoti fani o'rganadigan tayanch tushunchalar: «O'zbekistonning o'ziga xos va mos taraqqiyot yo'li», erkinlik, mustaqillik, demokratiya, qonun ustuvorligi, «demokratik davlatchilik», «demokratik jamiyat», «demokratiya», «demokratik jamiyat to'g'risidagi qarashlar», «demokratik jamiyatning milliy-ma'naviy negizlari», «milliy-ma'naviy qadriyatlar». O'zbekiston iqtisodiy hayotining erkin demokratiyalashuvi, ijtimoiy hayot va demokratiya, siyosiy hayotning demokratik tamoyillari, «demokratik qadriyatlar», «O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurilishi», «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot», «O'zbekiston va jahon hamjamiyati», «Milliy davlatchilik va demokratiya v.b.».

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyotini o'rganish jarayonida **yana quyidagi tushunchalar:** “liberal demokratiya”, “demokratiya va bozor iqtisodiyoti”, “demokratiya sharoitida inson erkinligi va huquqlari”, “demokratiya va millatlararo munosabatlar”, “davlatni demokratik boshqarish”, “demokratiyaning asosiy unsurlari” ko'proq ishlatilishi tabiiy. Bu tushunchalarning har birining o'ziga xos ma'nosi va mazmuni bor.

Fan amal qiladigan qonuniyatlar: O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishi nazariyasi va amaliyoti fani amal qiladigan qonuniyatlarni bilishda quyidagi jihatlarni alohida hisobga olish kerak. **Birinchidan**, «O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fani dunyoda e'tirof etilgan **umumiy qonuniyatlarni** hisobga oladi.

Ikkinchidan, O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq xususiy, alohida qonuniyatlariga tayanadi. Masalan: “O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishining o'ziga xos va mos rivojlanish qonuni” yoki «Demokratik jamiyat qurilishida milliy mentalitet xususiyatlarining hisobga olish qonuni», «Demokratik jamiyat qurilishining milliy-ma'naviy qadriyatlar bilan bog'liqligi qonuni», «O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishining o'ziga xos xususiyatlarining O'zbekiston davlatchiligi tarixi, milliy-madaniy merosi, iqtisodi, ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan aloqadorligi qonuni» v.b.

Ma'lumki, **bu qonuniyatlar** nihoyat darajada ko'pqirraliligi, murakkabligi va nozikligi bilan alohida e'tiborni talab qiladi. SHu o'rinda, birgina **demokratik qarashlar bilan milliy qadriyatlar o'rtasidagi** munosabat masalasiga doir

qonuniyatlarni quyidagicha izohlash mumkin. Demokratiyaning yashovchanligi uning turli sharoitlarga moslashib ketishi va milliy xususiyatlarni inkor etmasligi, milliylik bilan uyg'unlasha olishi bilan belgilanadi. Aslida bag'rikenglikni qadrlaydigan demokratiya milliy xususiyatlarga nisbatan ham o'z bag'rikengligini namoyish etadi. SHu bois, biz yangi demokratik taraqqiyot yo'lini tanlaganimizda ham o'zbekonalikdan voz kechish evaziga demokratik qarashlarni o'zlashtirishni aslo maqsad qilmaganmiz. **Boshqacha qilib aytganda**, mingyillik ildizlarga ega davlatchilik negizlarini qo'porib tashlash evaziga mavhum qadriyatlarga e'tiqod qo'yish bizning a'molimiz emas. Zero, bizning yo'qotadigan narsamiz – mustahkam ma'naviy tomirlarimiz, ne-ne suronli asrlar to'fonlaridan bizni millat sifatida eson-omon olib o'tgan o'lmas qadriyatlarimiz bor. Demokratiyani esa biz mana shu ko'hna tarixga ega ma'naviyatimiz daraxtiga payvand qilish imkoniyati borligi uchun ham tanlaganmiz. SHu bois, demokratiya darajasini milliy xususiyatlardan chekinish bilan o'lchayotgan ayrim kishilarning fikriga qo'shilib bo'lmaydi. Demak, **O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishining muhim shartlari**: O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda ikki muhim jihatga alohida e'tibor bilan yondashilmoqda. Uning **birinchisi**, demokratiyaning dunyoda e'tirof etilgan tamoyillarini e'tirof etish;

Ikkinchisi, demokratiyaning milliy-madaniy meros bilan bog'liq milliy xususiyatlariga tayanishdan iborat. Bu ikki yo'nalish bir-biri bilan uzviy bog'liq va haqiqiy demokratik jamiyat qurishni bir-biridan ajralgan holda tasavvur etib bo'lmaydi ham. Amaliy hayotda bu muhim qonununiyatning buzilish hollari turli xalqlar turmush tarzi va ularning milliy manfaatlariga zid bo'lgan, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy oqibatlarni keltirib chiqargan. E'tirof etilgan tamoyillarga tayanmaslik, bu mamlakatni dunyoviy, demokratik jamiyat qurishdan yiroqlashtirgan bo'lsa, milliy-ma'naviy xususiyatlarini hisobga olmasdan demokratik jamiyat qurish yo'li esa, haqiqiy demokratiya talablariga zid holatdir. Bunday o'ziga xos va mos rivojlanish yo'li demokratik jamiyat qurish qonuniyatiga to'g'ri kelmaydi.

O'zlarini diniy aqidaparastlik va terrorizmga qarshi kurashayotgan, dunyoviy demokratik tuzum tarafdorlari deb ko'rsatayotgan ba'zi xalqaro tashkilotlar va jamg'armalar, xorijiy tashkilotlarning ba'zi vakillariga xalqning milliy qadriyatlari, urf-odatlar, o'y-fikrlari, odob-axloqi, or-nomusini hisobga olmay, bu qadriyatlarni Farb demokratiyasiga qarshi qo'yib, o'zlarini go'yoki inson huquqlari himoyachisi qilib ko'rsatmoqchi bo'lmoqdalar. Bunday holatni ayrim millatlar va xalqlarning demokratiyaga bo'lgan ishonchini so'ndirishga intilish, deyish mumkin.

O'zini inson huquqlarining xolis himoyachisi deb tanishtiradigan xorijiy tashkilotlardan ayrimlarining "Mahalla davlatning tazyiq ko'rsatuvchi idorasiga aylanyapti" degan fikrlari qanchalik asosli? Emishki, er-xotin o'rtasida tushunmovchilik yuzaga kelib, janjalli masalalar ko'tarilganida, ularning sudga emas, mahallaga murojaat etishlari, inson huquqlarining buzilishi ekan.

"O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fani 1) ijtimoiy-siyosiy, 2) ijtimoiy-gumanitar, 3) aniq-tabiiy fanlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, u mazkur fanlar qarashlarini e'tirof etgan holda, bu fanlarning mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayoti bilan ham nazariy ham amaliy xususiyatlariga e'tibor qaratadi. O'zbekistonda demokratik erkin, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish, iqtisodiy islohotlarni yanada liberallashtirish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.

Mamlakatda Konstitutsiya va qonunning ustunligi, inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari bilan bog'liq umumiy qoidalar va demokratik tamoyillar, jamiyat va shaxs munosabatlari, jamoat birlashmalari, oila, davlat hokimiyatining tashkil etilishi bilan bog'liq sohalar **demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanining o'rganadigan sohalari** hisoblanadi. Bu tushunchalarning ayrim jihatlarini boshqa ijtimoiy-siyosiy fanlar ham o'rganadi. Lekin ijtimoiy-siyosiy fanlarning har biri jamiyatda sodir bo'layotgan hodisa va voqealar jarayonini o'z predmeti, ob'ekti, maqsadi va qonuniyatidan kelib chiqqan holda o'rganadi. Masalan, ong muammosini barcha ijtimoiy fanlar o'rganishi ma'lum. Lekin **falsafa** ongni insonga xos xususiyat sifatida, uning jamiyat rivojida muhim omil sifatida o'rgansa, **sosiologiya** jamiyatdagi muayyan guruh yoki ijtimoiy qatlamning ongi, uning o'ziga xos xususiyatlarining namoyon bo'lishini o'rganadi. **Siyosatshunoslik** esa, uning siyosiy ko'rinishini, ya'ni siyosiy ong shaklini, uning namoyon bo'lishini o'rganadi. **Huquqshunoslik** huquqiy ongni o'rgansa, «O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fani esa ongning demokratik shaklini, ya'ni demokratik ongning o'ziga xos jihatlarini, uning qadriyatlarini, shakllanish asoslari hamda jarayonini umuminsoniy demokratik qonuniyatlarining muhim omili sifatida o'rganadi.

Mazkur fanni o'rganishning nazariy va amaliy ahamiyati

«O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fanini o'rganish muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasining har bir fuqarosini mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik jamiyat qurishning maqsadlari, uning shakllanishi va rivojlanishining milliy-ma'naviy negizlari, demokratik jamiyat to'g'risidagi g'oyalar, qarashlar bilan tanishtiradi. Fuqarolarning ong va tafakkuriga singishida, ishonch va e'tiqodlariga ko'chishida muhim o'rin tutadi. Demokratik jamiyat qurishning qonuniyatlarini bilishda, uning jahonda e'tirof etilgan tamoyillarini har bir mamlakat va xalqning milliy va ma'naviy xususiyatlari bilan bog'liq holda amalga oshirish zarurligini his etish va unga amal qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. haqiqiy demokratiya bilan soxta demokratiyaning farqini ko'rishda, uni baholab, munosabat bildirishda, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

«O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fanini o'rganish orqali erkin, demokratik, fuqarolik jamiyati qurilishi bilan bog'liq uning nazariy asoslarini, dunyoda demokratik jamiyat qurish bilan bog'liq umumiy qonuniyatlarni bilish bilan birga, demokratiyaning o'ziga xos milliy ko'rinishlari, «milliy modellari»ning ma'no-mazmunini to'g'ri tushunib olishga muvaffaq bo'lish mumkin. Ijtimoiy taraqqiyot va bugungi globalashuv jarayonlari dunyo xalqlarining hayotiga, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy negizlariga o'zining ta'sirini o'tkazmoqda. Dunyo xalqlari bir-biri bilan uzviy bog'lanib bormoqda. SHunday sharoitda o'zligini saqlab qolish, o'ziga xos va mos milliy-ma'naviy qadriyatlarini unutmasdan, uni demokratik jamiyat qurish tamoyillari bilan bog'liq holda amalga oshirishga erishish, demokratik jamiyat qurishni maqsad qilib olgan O'zbekiston xalqi uchun ham muhim va dolzarb vazifadir.

Bu har bir fuqarodan mamlakatning milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda milliy qadriyatlarini hurmat qilishga, demokratiyaning milliy va umumbashariy tamoyillarini uzviy bog'lab olib borishga o'rgatadi.

Mazkur fanni o'rganish orqali O'zbekiston jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotida amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlar, uni mamlakatda belgilab olingan ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurishga erishishning uzviy bog'liqligini yurakdan his etishga, uning faol ishtirokchilariga aylanishga yaqindan yordam beradi.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish vazifalarining fuqarolik jamiyati asoslari bilan mushtarakligi, inson huquq va erkinliklarini, ularning qonun oldida tengligini amalda ta'minlashiga qaratilgandir. Unga erishish shart-sharoitlarini, asosiy yo'nalishlarini bilish demokratik jamiyat to'g'risida yaxlit tasavvur beradi. Bu bugungi kunda hayotimizda uchrab turgan demokratiyaga zid bo'lgan ayrim nosog'lom xatti-harakatlar, «demokratiya niqobi bilan» uning milliy-ma'naviy xususiyatlarini, O'zbekiston xalqi turmush tarzi, milliy-ma'naviy qadriyatlari: tarixi, tili, madaniyati, urf-odat va an'analarini hisobga olmasdan, demokratiyaga baho berishdagi bir tomonlama, noxolis urinishlarning ham tub masqadlarini, asl muddaolarining mohiyatini anglashga, farqlay olishga yordam beradi.

Fanni o'rganish orqali fuqarolarda O'zbekiston Respublikasining demokratik jamiyat qurishdan iborat oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarni aniq bilib olish mumkin. O'zbekiston jamiyati hayotining barcha jabhalari to'g'risida: davlati, xalq hokimiyatchiligi, inson va fuqarolarning demokratik jamiyatda ishtiroki, asosiy huquq va erkinliklari, burchlari, demokratik jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy negizlari, unga xos xususiyatlar, jamoat birlashmalari, davlat hokimiyatining tashkil etilishi va fuqarolik jamiyati qurilishining asoslari, uning milliy va umumbashariy negizlari to'g'risida bilimga ega bo'lish muhim siyosiy va ijtimoiy-ma'rifiy ahamiyatga ega. Fuqarolarda vatanparvarlik, millatparvarlik, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini shakllantirishga ham xizmat qiladi. SHu nuqtai nazardan, muhim **tarbiyaviy vazifalarni** ham amalga oshiradi. Milliy istiqlol g'oyasining asosiy tamoyillariga tayanadi va demokratik jamiyat qurilishi bilan bog'liq qadriyatlarni keng jamoatchilikning ishonch va e'tiqodiga aylanishiga xizmat qiladi.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fani siyosatining bosh maqsadi – jamiyatning faqat iqtisodiy yoki ma'naviy-ma'rifiy sohasini rivojlantirish va moddiy, ma'naviy boyliklarni tobora ko'proq ishlab chiqarish emas, balki uning beistisno barcha sohalarini taraqqiy ettirish va mustahkam bir butunligini, xavfsizligini, bar-qarorligini, tinch-totuvligini, osoyishtaligini ta'minlashdan iboratdir. Bu ulkan maqsadni ro'yobga chiqarish uchun xilma-xil **nazariy va amaliy vazifalarni bajaradi**.

1. **Nazariy vazifasi:** ijtimoiy muammolarni bartaraf etish va jamiyatning xavfsizligini, barqarorligini ta'minlash va mustahkamlash yo'llarini ko'rsatib berish, ilmiy asoslangan oqilona dasturlarni, qonunlarni, qarorlarni ishlab chiqishdir. Bunda pala-partishlikka yo'l qo'ymaslik kerak. SHuningdek, siyosat dasturlar, qonunlar, qarorlarni ishlab chiqish bilan birga ularni qabul qilish vazifasini ham bajaradi.

1. **Ushbu fan siyosatining asosiy amaliy vazifasi** – qabul qilingan dasturlar, qonunlar, qarorlarni hayotda izchillik, qat'iyat bilan amalga oshirish, butun jamiyatni turli-tuman illatlardan, xastaliklardan tozalashdir. CHunki bu vazifa ijtimoiy hayotda amalga oshirilmas ekan, unda jamiyatning mustahkam xavfsizligiga, barqarorligiga,

tinch-totuvligiga, baxt-soadatga erishib bo'lmaydi.

Siyosat o'z maqsad va vazifalarini amalga oshirishda quyidagi **uslublardan** foydalanadi: **1) ishontirish; 2) tarbiyalash; 3) kuch ishlatish; 4) majburlash.**

Hozirgi vaqtda «siyosat» tushunchasi ham keng, ham tor ma'noda qo'llaniladi.

“O'zbekistonda demokratik jamiyat qurshi nazariyasi va amaliyoti” fanining predmeti mamlakatda demokratik jamiyatning shakllanishi, fuqarolik jamiyati qurilishi, qaror topishi va amal qilishining dunyoda e'tirof etilgan umumbashariy va milliy tamoyillariga asoslanadi. Uning o'ziga xos tomoni shundaki, erkin, demokratik, adolatli fuqarolik jamiyatini qurish yo'llari va qonuniyatlarini o'rganish, bu fanning predmeti va ob'ektini tashkil qiladi. SHuningdek, **O'zbekiston ijtimoiy hayotining barcha sohalari mazkur fanning ob'ektidir.** O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishi nazariyasi va amaliyoti bir tomondan, demokratik jamiyat qurilishi to'g'risidagi mavjud qarashlarga, nazariyalarga hamda mamlakatimizning davlatchiligi tarixiy merosi bilan bog'liq mutafakkirlarning g'oyalarini hisobga olsa, ikkinchidan, mustaqillik yillarida demokratik jamiyat to'g'risidagi muhim konseptual g'oyalar va qarashlarni, unda O'zbekistonda mustaqillik yillarida erishilayotgan yutuqlarni, demokratik jamiyat qurish tajribasi, yutuqlariga tayanib, uni o'rganadi. O'zbekistonning dunyo hamjamiyatida tutgan o'rni, o'zaro manfaatli hamkorlik asoslarini ishlab chiqish va rivojlantirish qonuniyatlarini bilish ham muhim o'rin tutadi.

Mazkur fanning asosiy tushunchalari yana shundaki, unda demokratik jamiyat, demokratik davlat, fuqarolik jamiyati, Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari, «O'zbek modeli»ning o'ziga xosligi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat, notijorat tashkilotlar va birlashmalar, ayniqsa hokimiyat organlarining bo'linish prinsipi (qonun chiqaruvchi, ijroiya, sud), hokimiyatlarning demokratik jamiyatdagi roli asoslab beriladi va tushuntiriladi. “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsad» ham mazkur fanning asosiy tushunchalaridan biri. Demokratik jamiyatda iqtisod, inson erkinligi kabi bir qator tushunchalar mavjud. Ularning har birini sharhlab berish mumkin. Masalan, **demokratiya** lotincha **demo xalq, kratiyaboshqarish**, ya'ni **demokratik boshqarish, jamiyat** kabi bir qancha tushunchalar bilan izohlash mumkin.

Bu fanning qonuniyatlari avvalo, 1) dunyoviy davlat tamoyillariga asoslanadi, 2) milliy davlatchilik va demokratiya tamoyillariga asoslanadi. Asosan mazkur fanning qonuniyatlari jamiyat iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy sohalarda amal qiladigan qonunlar mavjud. Masalan, iqtisodiy sohadagi qonuniyatlarda iqtisod siyosatdan ustuvorligi va hokazo.

Vatanimiz hududida davlatchilik to'g'risidagi qarashlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi. IX-XII O'rta Osiyoda vujudga kelgan ilmiy, falsafiy-diniy qarashlar.

Har qanday davlat o'z jamiyatining tarixiy, madaniy va ahloqiy merosi negizlari asosida rivojlanadi. Bunday uyg'unlik xalqning rivojlanishini yangi bosqichlarga ko'taradi. Uning istiqbol omillarini kengaytiradi. Ajdodlarimiz tomonidan O'zbekiston hududida yaratilgan “Avesto” ana shunday davlatchiligimizning ilk qarashi sifatida insoniyat tarixini anglashda alohida o'ringa ega. Ma'lumki, O'zbekistonda milliy davlatchiligimiz to'g'risidagi eng qadimgi manba “Avesto”dir.

U eramizdan oldingi 3 minginchi yillarda ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ilk davlatchilik to'g'risidagi ijtimoiy qarash hisoblanadi. Agar "Avesto"da ilgari surilgan g'oyalarga e'tibor beradigan bo'lsak, bugungi adolatparvar-demokratik jamiyat barpo etishga qaratilgan g'oyalarimiz bilan hamohang ekanligini ko'ramiz.

Davlatchilik asoslarini shakillantirish borasida "Avesto" deyarli barcha siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar, davlat tuzumi asoslari, zardushtiylarning falsafasi, dunyo tarixining rivojlanishi haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga qamrab oladi. Manbada avvalo, inson erki, uning ruhiy komilligi masalalari ustuvor qo'yiladi. Masalan, "Men yaxshi fikr, yaxshi so'z yaxshi ishga shon-shavkat baxsh etaman", deyiladi YAsna (14) kitobida. Axuramazda insonlar o'rtasida bo'layotgan munosabatlar o'zaro samimiylilik, hurmat, beg'arazlik, yordam va oqibatli bo'lish zarurligiga, yomon fikrlardan holi bo'lishga chaqiradi. Kattaga hurmat va kichikka izzat, sabr-bardosh, halollik, mehr-oqibat va boshqa bir qator tamoyillar borki, bular milliy g'oyamizning asosiy tamoyillariga uyg'un keladi.

"Avesto"da eng muhim masalalardan biri, bu – huquqiy munosabatlarning nazariy jihatdan shakillanganligidir. Unda inson hayoti va odamlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar huquqqa asoslanganligi haqida ma'lumotlar bor. Haqiqat yaxshi so'z va maqsad, poklik va ezgulikka intilish, suv, er, olov, xonadon va chorvani asrab-avaylash axloqiy burch sanalgan. Inson o'zining ishlari va fikirlari bilan yaxshilik, yorug'lik va baxt keltiruvchi, hayot va haqiqat beruvchi oliy tangri – Axuramazdaga yordamchi bo'lib xizmat qiladi.

Tarixiy hujjatlar asosida aytish mumkinki, "Avesto"ning "YAsna", "Visprat", "YAsht", "Videvdat" kitoblarida ilgari surilgan huquqiy ta'limotlar Rim huquqidan qadimiyroq hisoblanadi. Boz ustiga, ular keyinchalik tashkil topgan davlatlar siyosiy tizimining shakillanish manbasi bo'lib ham xizmat qilgan. SHu tariqa "Avesto" yunon mutafakkirlari va Rim huquqshunoslari ijodga o'zining har tomonlama mukammalligi bilan ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, inson huquqi, jismoniy va huquqiy shaxs erkinligi, inson erkinligi, erkak va ayolning tengligi masalasi, ozchilikning huquqi, voyaga etmaganlar huquqi, vijdon, e'tiqod va din erkinligi, jamoa va guruhlarining huquqi, mol-hol huquqi, oila huquqi, shartnomalarning majburiylik huquqi, qasddan yoki ehtiyotsizlik natijasida sodir etilgan jinoyatning turlari ishlab chiqilgan. SHuningdek, "Avesto"da o'g'irlik yoki bosqinchilik farqlari tasniflangan, himoya huquqi va sud ishlarini yuritish hamda tashkil etish kabi boshqa huquqiy prinsiplar ham o'z ifodasini topgan.

Ma'lumki, demokratik jamiyat asoslarida davlatda siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy prinsiplarning tizimiy yaxlitligi mavjudligida namoyon bo'ladi. Ayni payitda, ular umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'un holda bo'lishiga asoslanadi. "Avesto"da bunday qadriyat va prinsiplar shakllangan.

IX va XII asrlar O'rta Osiyo tarixida shunday murakkab davr bo'lgan. Xalqning o'z mustaqilligi uchun kurash, bunda hurriyat va inson erkinligi bilan bog'liq g'oyalar millatni ma'naviy yuksalishga chaqiradi. Dunyoga mashhur Xorazmiy, Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, YUsuf Xos Hojib, Nizomulmulk kabi faylasuf, siyosatchi, tarixchi olimlar shu davrda yashab ijod etdilar. Bu davr o'z mazmuni, salmog'i jihatidan O'rta Osiyo Uyg'onish davri deb tarixga kiradi. Uyg'onish davri madaniyatining o'ziga xos tomonlari mavjud bo'lib, ular davlatchiligimiz nazariyasining vujudga kelishiga quyidagilarga asoslangan holda talqin etiladi:

1. Dunyoviy ma'rifatga intilish, bu yo'lda o'tmish va qo'shni mamlakatlarning madaniyati yutuqlaridan keng foydalanish, ayniqsa tabiiy-falsafiy, diniy, tarixiy hamda ijtimoiy ilmlarni rivojlantirish.

2. Tabiatga qiziqish, tabiatshunoslik ilmlarining rivoji, rasionalizm, aql kuchiga ishonish, asosiy e'tiborni haqiqatni topishga qaratilgan fanlarga berish, haqiqatni inson tasavvuri, ilimining asosi deb hisoblash.

3. Insonni ulug'lash, uning aqliy, tibiiy, ruhiy, badiy, ma'naviy fazilatlarini asoslash, insonparvarlik, yuqori axloqiy qonun va qoidalarni namoyon etish, komil insonni tarbiyalash.

4. Universallik – qomusiylik, barcha tabiat xodisalari bilan qiziqish va uning mohiyatiga intilish.

5. Davlat qurilishi va boshqaruvining nazariy negizlarini adolat, axloq prinsiplari asosida shakillantirish, ularning huquqiy hamda amaliy asoslari rivojlantirilishi.

Davlat rahbari va xizmatchilarining faoliyat darajalari tasniflari, ma'suliyati mezonlari tizimi nazariy negizlarining yaratilishi.

Vatanimiz tarixida o'z qarashlari va asarlari bilan davlatchilik faniga hissa qo'shgan ajdodlarimizning merosi talaygina va ularning ayrimlari xususida muxtasar shaklda so'z yuritishga qaoro qildik.

Muso Al-Xorazmiy (783-850). Buyuk matematik, astranom va geograf. U algebra faning asoschisi. "Algebra" so'zi uning "Al-kitob al-muxtasar hisob al-jabr va al-muqobala" asaridan olingan. Bizgacha etib kelgan "Hind hisobi haqida kitob", "Qo'shish va ayirish haqida kitob", "Kitob surat-ul-arz", "Zij", "Asturbol bilan ishlash haqida kitob" kabi o'nga yaqin asari mashhurdir.

Abu Nasr Farobiy (873-950). "SHarq Arastysi" yoki "Muallimi Soniy" – Ikkinchi Muallim ("Birinch Muallim" deb Aristotel e'tirofetiladi) nomini olgan qomusiy olim. 160 dan ortiq asar yaratgan. "Mantiqqa kirish kitobi", "Isbot kitobi", "Falsafaga izohlar", "Musiq haqida katta kitob", "Inson a'zolari haqida kitob", "Lug'atlar haqida kitob", "SHaharni boshqarish", "Fazilatli xulqlar" kabi asarlari jahon madaniyatiga qo'shilgan katta hissasidir.

O'z davrining yirik namoyondalaridan biri Abu Nasr Farobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida bugungi bizning tasavvurimizdagi demokratik davlat shakllari va unda boshqaruvning siyosiy va falsafiy mohiyatini yaratishga erishadi. Masalan, fozillar shaharining (davlat nazarda tutilgan) tarkib topishi va unda qanday axloqiy sifatdag shaxsning rahbar bo'lishi tasniflari bugungi demokratik jamiyat qurishning bevosita nazariy talablari bilan uyg'un keladi. Bu borada Abu Nasr Farobiy "Ularning o'zlaridan saylangan rahbar yoki boshliqlar hokimi mutloq bo'lmaydi. Ular odamlar ichidan ko'tarilgan, sinalgan eng oliy janob, rahbarlikka loyiq kishilar bo'ladilar, deb ta'kidlagan.

Davlat va uning boshqaruviga daxldor masalalar YUsof Xos Hojib ijodida ham katta o'rin tutgan. U "Qutadg'u bilig" dostonida davlatni boshqarish amallari, qoidalari va siyosiy-axloqiy munosabatlarini jamiyatda qaror topishiga qaratilgan qarashlari bilan e'tiborlidir.

Abu Ali Ibn Sino (980-1037). O'rta Osiyo xalqlari madaniyatini butun dunyoga tanitgan mashhur tabib-hakim, qator tabiiy fanlar bilimdoni, Ovro'pada Avicenna nomi bilan tanilgan buyuk qomusiy olim. U yozgan 450 dan ortiq asarlardan "Tib qonunlari", "Donishnoma", "Najot kitobi", "Turar joyining tuzilishi", "Insof kitobi", "Tibbiy ko'rsatmalar haqida" kabi 160 ga yaqin bizgacha etib kelgan.

Qomusiy olim Ibn Sino O'rta Osiyo tibbiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy fikrlarning buyuk namoyandasi, tibbiyot, falsafa, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy ta'limot tarixiga ulkan hissa qo'shgan mutafakkirdir.

Adolatli dalat boshqaruvi, uning mukammal nazariy asoslarini yaratish borasida ulkan ilmiy meros qoldirgan o'rta asrlar mutafakkiri, davlat arbobi **Nizomulmulk**ning "Siyosatnoma" asari muhim manba hisoblanadi. U amaldorlarni axloqiy fazilatlariga qarab tanlash, adolat va insofni unutgan kishilarni davlat ishlariga aralashmaslik, davlatni boshqarishda kengash bilan ish olib borish, faoliyatlarini muntazam nazorat qilish, itoat, ijro va sifatleri to'g'risidagi qarashlari bilan ahamiyatlidir.

Ma'lumki, islom dinini ijtimoiy dunyoqarash shakli sifatida keng tarqala borishi bilan uning nazariy, falsafiy, huquqiy tomonlarini ishlab chiqishga e'tibor ham tobora ortib borgan. SHu tariqa IX-XII asrlarda Movarounnahrda ilm-fan, madaniyat, islom falsafasining nazariy jihatidan yuksak darajada rivojlangan davri bo'ldi. Imom Al-Buxoriy, Imom At-Termiziy, Al-Motrudiy, Muhammad Imom G'azzoliy, Muhammad az-Zamahshariy, Burhonuddin Al-Marg'iloniy, Ahmad YAssaviy, Najmiddin Kubro, Abdulxoliq G'ijduvoni, Baxovuddin Naqshband, Jalolidin Rumi kabi buyuk allomalar o'zlarining ilmiy tadqiqotlari bilan jahon madaniyatiga ulkan hissa qo'shdilar. Diniy-ilmiy tadqiqotlarda borliq, ilohiy qudrat, inson komilligi, adolat, insof, diyonat, vijdon kabi g'oyalar inson ruhiyatini poklash orqali erkin jamiyatga chorlanadi. J.Rumiyning qarashlarida insonning farqi uning komilligiga asoslanadi. U dunyoga irqi, dini, tabaqasidan, qat'iy nazar, bar insonlarga barobar murojat qiladi. Ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot rivojining ma'naviy asoslarini o'rganishda O'rta Osiyoda vujudga kelgan tasavvufchilik oqimining ahamiyati ham alohida muhim o'rin tutadi. Tasavvuf ta'limoti asosida adolat, haqiqat, to'g'rilik, mehr-shavqat, insof, imon, e'tiqod, ilm, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi umuminsoniy g'oyalarni targ'ibot qiluvchi futuvvatga siyosiy oqimlardir. Ular jamiyatning axloqsiz unsurlariga g'oyaviy kuch sifatida qarshi qo'yiladi.

YAssaviyning hikmatlarida jamiyatda etakchi shaxslarning sifatleri to'g'risidagi talqinlar, ayni payitda, achchiq tanqidiy munosabatlari ijodining asosini tashkil etadi. Amir Qulolning **Amir Umarni**ng qarashlari (1406 y. vafot etgan) siyosatning nazariy va amaliy mohiyatini ochishda e'tiborlidir. U siyosatga shunday nisbat beradi: "Bilgilkim, siyosat – tutib turish va tartibga solishdir..., yomon kishilarni qo'rqinch va titroqda turmoq, yaxshilarni taqdirlamoq kerak. Agar siyosat bo'lmasa, davlatning muhim ishlari amalga oshmaydi; agar tartibot, jazo qonunlari bo'lmasa, davlat ishlari ham o'nglanmaydi, chunki hukumdorning, jamoatning ko'rki, davlat va dinning rivoji siyosatdir". YA'ni, din orqali siyosatda umuminsoniy qadriyatlar ifoda etilishi va bunday siyosat bevosita davlat qonunlari orqali amalda o'z tasdig'ini topishiga erishmoq lozim, deb qaraydi.

Amir Temur va Temuriylar davri milliy davlatchilik to'g'risidagi qarashlarida demokratik tamoyillar.

Amir Temurning (1370 yil) siyosiy sahnaga kelishi hamda mustaqil davlat barpo etishi O'rta Osiyo xalqlarining mo'g'ul istilosidan, ichki o'zaro nizolardan qutilishga olib keladi. Bu davrda milliy davlatchilik to'g'risidagi qarashlarning rivojlanishida Amir Temurning xizmatlari katta bo'ladi. Uning tuzuklarida davlat tizimi, uni idora qilish uslublari va vositalari, undagi turli lavozim-vazifalar darajasi, tabaqalarning toifalanishi, harbiy qo'shinlarning tashkil etilishi, jang olib borish mahoratlari, davlat

xizmatchilari rag'batini tashkil etish omillari, adolatli soliq turlarining joriy etilishi, mamlakatni obodonlashtirish tadbirlari milliy davlatchilikning yuksak madaniy va huquqiy darajada shakillantirishga erishganligidan dalolat beradi. Bunday siyosatning asos-mohiyati adolatli davlat, insonparvar jamiyat negizlarini qaror toptirishga qaratiladi.

Amir Temur davlat boshqaruvining demokratik asoslarini yaratishda mamlakat ishlarini doimo kengash, mashvart, maslahat, hushyorligu mulohazakorlik, ehtiyotkorlik, bilan amalga oshirishga qaratadi. Saltanat ishlarini Kengash asosida olib borish – aslida a'yonlarning rizoligi va ixtiyori demak. Bundan chiqdi bu taxlit yondashuv bevosita davlat boshqaruvi taqsimotining ilk ko'rinishlari to'g'risidagi qarashlarning rivojlanishiga zamin yaratadi.

Mirzo Ulug'bek (1394-1449). Buyuk munajjim, davlat arbobi, ilm-fan va madaniyat homiysi, o'z davrida Samarqandda rasadxona qurdirib, astronomik maktab yaratgan olim. Ilmiy merosning gultoji – “Ziji jadidi Qo'ragoniy” asari bo'lib, “Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola”, “To'rt usul tarixi” asarlari ham uning qalamiga mansub.

Alisher Navoiy (1441-1501). O'z davrining yirik klassik namoyondalaridan biri Alisher Navoiydir. U nazariyotchi va amaliyotchi sifatida davlat siyosatining adolatli asoslari va uning ma'naviy mezonlarini rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. Uning faoliyati va asarlarida adolatsizlik va zulm davlatini tanazzulga, jamiyatini jaholatga olib kelishi to'g'risidagi qarashlari o'z ifodasini topadi. U o'zbek tili va mumtoz adabiyotining asoschisi, mutafakkiri, davlat arbobi. U “Xamsa”si “Badoiy ul-bidoya”, “Navodir ul-nihoya”, “Zubdat ut-tavorix”, “CHor kitob”, “Majolis un-nafois”, “Mahbub ul-qulub” kabi asarlarni bizga meros qilib qoldirgan.

U adolat to'g'risidagi qarashlarida inson ruhiyati bilan bog'liq ijtimoiy illatlarining mohiyatini izlaydi. Jamiyatda yovuzlikning kelib chiqish sabablarini taxlit etadi. Adolatli jamiyatga erishishda nafaqat podshohning odilligi, balki fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarning adolatli, ma'nan sog'lom bo'lishi lozimligiga e'tiborni qaratadi. U “Mahbub ul-qulb” asarida har xil odamlarning fe'l-atvori va ahvoli, yaxshi fe'l hosiyati va yomon hislati haqidagi qarashlari asosida jamiyat ijtimoiy munosabatlari ning yaxlit nazariy tizimi, fuqaro – jamiyat – davlat o'rtasidagi axloqiy majburiyatlarni umumlashtirishga erishadi.

Zahriddin Bobur (1483-1530). SHarq madaniyati, adabiyoti va she'riyatida o'ziga xos o'rin egallagan adib, shoir, olim, yirik davlat arbobi va sarkarda. Uning jahon ommasiga mashhur bo'lgan shoh asari “Boburnoma”dan tashqari “Mubayyin”, “Xatti Boburiy”, “Harb ishi” kabi asarlari va go'zal she'riyati mashhurdir. A.Navoiy zamondoshlarning ilmiy merosini qunt bilan o'rgangan, o'zi ham shu yo'nalishda katta meros qoldirgan ijodkorlar **Zahriddin Muhammad Bobur, Husayn Voiz Koshifiy** va **Jaloliddin Davoniylar**dir. Ular davlatshunoslik, axloqshunoslik, adabiyot, ta'lim-tarbiya, nasr va nazm sohalarida ijod qilgan yirik olimlardir. Davlat boshqaruvi va uning siyosati bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-axloqiy masalalar Boburning “Boburnoma” Koshifiyning “Ahloqi Muhsiniy” Davoniyning “Ahloqi Jaloliy” asarida atroflicha bayon qiladi. Ularda jamiyatni boshqarish asoslari, ijtimoiy tabaqalarning o'zaro munosabatlari, adolatli va adolatsiz podshoh fazilatlari, fuqarolarga odil munosabati, ahloq va ta'lim-tarbiya masalalarini tahlil etgan. SHu tariqa davlat boshqaruviga oid ijtimoiy qarashlarni o'z navbatida o'tmish davlatchilik

madaniy merosimiz bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlarimizni yanada boyitishga xizmat qilgan.

XVI-XIX asrlar O'rta Osiyo hayotida murakkab va keskin burilish davri bo'ladi. Uning murakkabligi avvalo, Amir Temur saltanatining parchalanishi hamda vorislar o'rtasidagi nizolar bilan bog'liqdir. Doimiy ixtiloflar maydoniga aylanib qolgan Movarounnahr SHayboniyxon lashkarlari tomonidan bosib olinadi. Din bevosita davlat siyosatining asosiga, hokimiyat uning rahnomalari manfaatlarini niqoblovchi mafkuraga aylanadi. Natijada jamiyatda diniy tazyiq kuchayadi. Har qanday ijodiy hur fikr ta'qibga olinadi. SHunga qaramay, O'rta Osiyoda ijtimoiy fikr, falsafa, adabiyot, tarix, musiqa fanlari, memorchilik, tasviriy san't rivojlandi, qator madrasa va majlislar qurildi. Jumladan, Ibn Muhammad YUusuf Al-Qorabog'iy, Muhammad SHarif, Mashrab va So'fi Olloyor, Nodira, Uvaysiy, Dilshod, Komil Xorazmiy, Avaz O'tar, Bedil, Fuzuliy, Ahmad Donish, Muqumiy, Ogahiy, Furqat, Mulla Olim Mahdum Hoji ijodiyotida ilg'or ijtimoiy g'oyalar yaratiladi.

XX asrda vujudga kelgan ma'rifiy-demokratik qarashlar tizimi. Jadidlar. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishining rivojlanish bosqichlari.

Milliy davlat mustaqilligi uchun kurashda ozodlik harakatlarining o'ziga xos hususiyatlari shart-sharoitlarini siyosiy jihatdan tahlil qilishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Xususan, jadidlarning mustaqillik uchun kurash g'oyalarining vujudga kelishi nazarda tutiladi. Millat ozod bo'lib, o'zining mustaqil davlatini o'rnatmaguncha, ijtimoiy adolatni tiklab bo'lmasligi Behbudiy kelgan birinchi hulosalardan edi. Ayni payitda, bunday g'oya milliy istiqlochlilik harakatining asosini tashkil etgan.

Jadidlar asosiy e'tiborni jamiyatda ma'naviyatni rivojlantirishga qaratadilar. Ular yangi usuldagi maktablarni tashkil etish, gazetalar chiqarish, darslik va o'quv qo'llanmalarini nashr ettirish, G'arbning yangi madaniyat va texnologiya uslublarini joriy etish zaruriyatini hamda uni Turkistonda targ'ib etish orqali milliy-dunyoviy ta'limni yuzaga keltirish, ma'naviy hayotni yangilab va boyitib milliy o'zlikni anglashni yuksaltirishga zamin yaratishga intilganlar. Bunday siyosiy yondashuv bevosita jamiyatda adolatli davlat qurilishining asoslari rivojlanishiga xizmat qiladigan nazariy omillar ekanligini e'tirof etmasdan bo'lmaydi. Albatta, ular demokratiyaning tom ma'nodagi ko'rinishlaridan uzoqda bo'lganlar.

Turkistonda mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurash va uning ijtimoiy-siyosiy asoslarini yorituvchi manbalar Munavarqori Abdurashidxon o'g'li, Behbudiy, Fitrat, Avloniy, Huvaydo va boshqalarning asarlarida o'z ifodasini topgan.

O'z davrida jadidlar milliy-madaniy muxtoriyat qurilishi tamoyillarini rivojlantirishga, Turkistonda davlatchilik shakli va uni boshqarish qonunlarini joriy etish, sud organlarini tashkil qilish, davlat tuzilmalarini yaratish kabi masalalarga katta e'tibor berishgan. Ammo shu davr siyosiy sharoiti hamda erli xalqning tushunchasida Turkistonda mustaqil demokratik jamiyat qurish to'g'risidagi qarashlar birmuncha cheklanganligini ko'ramiz. Behbudiyning "Turkiston madaniy muxtoriyati loyihasi" dasturida emas, davlatning avtonomiya shakli nazarda tutiladi. 1917 yildagi Umumturkiston musulmonlarining qurultoyida ham davlatchilik qurilishi to'g'risidagi qarashlarda demokratik yoki federativ shakllari to'g'risidagi qarashlari ham aslida konstitusion monarxiya tuzimidan tashqariga chiqib ketolmaydi.

Aynan shu davr voqea-hodisalari bayoni, tafsilotlari hamda muvaffaqiyatsizlikning sabablariga M.Cho'qay "Istiqlol jallodlari" asarlarida quyidagicha ta'rif beradi:

“Birinchidan, ob’ektiv omillar: ... Biz kurashga o’zimiz tanlangan fursatda emas, Rusiya inqilobi jarayoni keltirib chiqargan vaziyat ijoboti bilan kirishdik. Ikkinchidan, sub’ektiv, ya’ni o’zimizdan bo’lgan omillar: Milliy manfaatlar yo’lida kurashish lozimligin bilganlari holda turkistonliklar o’zaro kuchli birlik qura olmadilar va bunga ulgurmadilar”. Turkiston Muxtoriyatining tashkil topishi, uning siyosiy faoliyati, so’ngra inqirozi masalalari mamlakatimizning bir qator olimlari asarlarida o’z ifodasini topgan. Milliy ozodlik harakatining mag’lubiyati yoxud ko’plab ziyoli namoyandalarning qatag’on qilinishi, shahid bo’lishi bilan millatning hurriyatga bo’lgan intilishi bir soniya ham to’xtagan emas. O’zbek ziyolilarning mustaqillik uchun olib borgan kurashi 30-40 yillarda so’ngra 50-60 yillarda ham turli siyosiy ko’rinishlarda davom etib boradi.

XX asrning 80-yillariga kelib, kommunistik mafkura zug’umi ostida qatag’onlik siyosati yangi pallaga kiradi. Markaz xodimlari tomonidan uyushtirilgan “o’zbeklar ishi”, “paxta ishi” bilan 11mingdan ortiq o’zbekistonlik rahbarlar va oddiy fuqarolar ta’qib ostiga olindi, jazolandi.

Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning ziddiyatlashuvi va hodisalarning keskinlashuvi “qayta qurish” yillarida ham o’z ta’sir ko’lamini kengaytirib keldi. Natijada respublikada jamiyat yaxlitligini parchalaydigan egasizlik holati fuqarolar o’rtasida parokandalik muhitini yuzaga keltirdi, millatlararo ziddiyatlar, ba’zan to’qnashuvlar, ayniqsa, davlat boshqaruvida qonunsizlik, boshbosh doqliqlik holatlari vujudga keladi. Mana shunday qaltis vaziyatda, 1989 yil 23 iyunda Islom Abdug’anievich Karimov O’zbekistonning birinchi rahbari sifatida o’z faoliyatini boshladi. U qisqa vaqt ichida O’zbekistonda vujudga kelgan ijtimoiy tanglik sharoitini barqarorlashtirishga qaratilgan tubdan yangi milliy siyosatini shakillantirishga erishdi. Natijada, siyosiy barqarorlik, fuqarolar va millatlararo nizolarning oldini oldi. Davlat boshqaruvida bosqichma-bosqich demokratik tamoyillar mustahkamlanadi – O’zbekistonda mustaqil davlat tashkil etishning barcha siyosiy va huquqiy zaminlari yaratildi. Bugungi kunda u “O’zbek modeli” sifatida tan olinmoqda.

1991 yil 31avgust kuni O’zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi e’lon qilindi. Ammo mustamlakachilik siyosatidan so’ng qolgan siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy meros bilan mustaqilliknimustahkamlash va uning istiqbol yo’lini aniqlash, aslida undan-da murakkab vazifa edi. Bunday vazifa mamlakatda demokratik huquqiy davlat qurish, ijtimoiy yo’naltirilgan bozor iqtisodiyotini vujudga keltirish, uning jahon hamjamiyatiga qo’shilishini ta’minlash bo’yicha qat’iy va izchil siyosat yurgizishdan iborat bo’ladi.

Prezidentimiz I.A. Karimov “Biz yangi ozod jamiyat, huquqiy davlat qurishni o’z oldimizga maqsad qilib qo’ygan ekanmiz, adolat tamoyilini ustuvor prinsip sifatida e’tirof etamiz”, deb O’zbekiston adolatparvar demokratik jamiyat qurishning nazariyasini milliy davlatchiligimizning uch ming yillik tarixiy hamda madaniy merosi bilan bog’lashga qaratadi.

O’zbekistonda bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyat qurishning nazariy negizlari quyidagi yo’nalishlarda tashkil etadi:

- Mustaqillikning huquqiy-me’yoriy asoslarini O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi negizida tashkil etish;
- demokratik siyosiy tizimni barpo etish;
- inson haq-huquqlari va erkinliklarini ta’minlash;
- hokimiyatlar bo’linishi tamoyillarga amal qilish;

- millatlararo totuvlikni ta'minlash;
 - milliy havfsizlik konsepsiyasini ishlab chiqish;
 - iqtisodiy islohatlarning "O'zbek modeli"ni yaratish;
 - O'zbekistonda ma'naviy-ruhiy poklanish, milliy qadriyatlarni tiklash, vorislik an'analariga sadoqatli avlodni tarbiyalash va amaliyotga joriy etish konsepsiyasini ishlab chiqish;
 - milliy istiqlol mohiyatini va mustaqillik g'oyalarini anglatish;
- mustaqil O'zbekistonni jahon hamjamiyatining teng huquqli va faol sub'ektiga aylantirish hamda tashqi siyosat tamoyillarini ishlab chiqish.

9-Mavzu: Mustaqillik va demokratik jamiyat qurilishining "O'zbek modeli". O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda o'tish davri va taraqqiyot bosqichlari.

Reja:

- 1. "O'zbek modeli" va uning mohiyati.**
- 2. O'tish davrining "model" lari ularning o'ziga xos xususiyatlari.**
- 3. O'zbekistonda demokratik jamiyatga o'tishning o'ziga xos xususiyatlari.**

"O'zbek modeli" va uning mohiyati.

Demokratik jamiyat qurishning turli milliy modellari mavjuddir. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning o'ziga hos xususiyatlaridan kelib chiqib o'ziga hos "O'zbek modeli" yaratildi. Uning mohiyati, o'zaro mushtarakligi va ahamiyati bugungi kunda juda muhimdir. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish jarayonlarida inson erkinligi, huquqlari va manfaatlarining ustuvorligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Islom Karimov boshchiligidagi O'zbekistonning "evolyusion tadrijiylik" asosida rivojlanishiga doir konseptual metodologiya ishlab chiqildi.

O'tish davri tushunchasi haqida har-bir inson o'z fikri bo'lishi kerak. O'tish jarayoni haqida juda ko'plab ilmiy asarlar yaratilgan. Ammo "o'tish davri" mustaqil mavzu sifatida ilmiy adabiyotlarda juda kam o'rganilgan. Buning asosiy sababi, uning aniq "mezoni" va boshlanishi bilan "poyoni" (oxirgi muxlati) masalasini aniq belgilash murakkabligicha qolmoqda. Bundan tashqari ba'zi olimlar, fuqaroviy jamiyat taraqqiyoti uzluksiz jarayon, - deb hisoblasalar yana bir hil olimlar "o'tish davr"ning muhlati va mohiyatidan ko'ra, undagi jarayonlarni o'rganish muhimroq-ekanligini ta'kidlaydilar. Xullas, uni o'rganish o'sib kelayotgan talab darajasidan orqada qolmoqda. Chunki, uning boshlanishi va oxirining mezonlarini aniqlamasdan turib, u sodir bo'ladigan yohud sodir bo'lishi mumkin bo'lgan jarayonlar haqida aniq konseptual g'oyalarni ishlab chiqish ham qiyin. Bu jarayonlar nega turli mamlakatlarda turlicha sodir bo'ladi va ularning muhlati nega har xil davom etadi – degan savollarga javobni, faqat ana shu o'tish davrining o'zini mustaqil mavzu sifatida o'rganish orqaligina javob berish mumkin.

Mazkur masalani o'rganish bugun o'z boshida murakkab "o'tish davri"ni kechirayotgan O'zbekiston uchun ham nazariy va amaliy ahamiyatga egadir. Uni

o'rganish biz ko'rayotgan jamiyatning jarayonlar to'g'risida aniq tasavvurlar berish imkonini beradi.

O'tish davri barcha davlatlar taraqqiyoti jarayonida sodir bo'ladigan oraliq hisoblanadi. U har qanday davlat uchun umumiy qonuniyatdir. CHunki, davlatlar vujudga kelishi bilanoq yuksak taraqqiyot darajasiga birdan ko'tarila olmaydi, balki ular avvalo shakllanadi va ma'lum taraqqiyot bosqichlarini o'z boshlaridan o'tkazadilar.

Har bir davlatning vujudga kelish, rivojlanish va yuksak darajaga ko'tarilish jarayonlari olimlar tomonidan o'rganilgan va bugungi kunda ham o'rganish davom etmoqda.

Ammo, o'tish davri o'zi nima, nima uchun o'tish davri deb aytiladi? – degan savollarga javob ilmiy adabiyotlarimizda juda kam o'rganilgan. Ammo, uni mukammal tarzda o'rganmasdan turib mamlakatlar rivojlanish hususiyatlarni aniq tasavvur qilib bo'lmaydi. Zero, bugun yuksak rivojlangan yoki kam taraqqiy qilgan yohud endigina rivojlanish tomon qadam tashlayotgan mamlakatlarning bir iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy tuzumdan ikkinchisiga o'tish jarayoni aynan ikkinchisida takrorlanmaydi. To'g'ri, o'tish davri mavjud. Ammo, ularni amalga oshirish, davlatlar va unda yashayotgan xalqning mintaliteti bilan chambarchas bog'liq. Xo'sh, nega shunday? O'tish jarayonida tayyor andozalardan “model” dan foydalanib pirovard maqsadni amalga oshirishga kirishilsa bo'lmaydimi?

Xuddi ana shu savolga javob berish uchun ham o'tish davri haqidagi qarashlarni o'zida uyg'unlashtirgan konsepsiyani ishlab chiqishga ehtiyoj oshib bormoqda.

Ayniqsa, bu ehtiyoj mamlakatlar taraqqiyotida sodir bo'layotgan turli-tumanlik, muammolarning yuzaga kelishi va ularni hal qilish omillarini ishlab chiqish jarayonida yana ham kuchayib bormoqda.

Aslida o'tish davri nazariyasi deganda nimani tushunmoq kerak?

O'tish davri nazariyasi deganda mamlakatlarning ma'lum bir ijtimoiy taraqqiyotdan ikkinchisiga o'tish uchun zarur oraliq bosqich, uni o'rganish, tadqiq qilish natijasida shakllangan, ilmiy asoslangan qarashlar tizimi tushuniladi.

Albatta, berilayotgan bu ta'rif oxirgi haqiqat sifatida qabul qilinmasligi mumkin. CHunki, o'tish davriga bo'lgan qarashlar rivojlanib borgan sari, boshqa olimlar tomonidan to'lg'azilib boriladi. Biz tomonimizdan berilayotgan ta'rif ana shu yo'nalishdagi urinishlarimizning natijasi sifatida shakllanadi. CHunki, o'tish davri davlatchilik paydo bo'lib uning taraqqiyotining quldorlikning, feodalizm va kapitalizm kabi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga o'tishi uchun ham zarur bo'ladi.

To'g'ri, yuqorida keltirilgan taraqqiyotning bosqichlari keyingisi oldingisi ichidan o'sib chiqqan. Ammo, ana shu “o'sib chiqish” juda murakkab kechgach, u turli davlatlarda turli ko'rinishlarda bo'lgan va o'sib kelayotgan ehtiyojni qondirishga qaratilgan. SHuning bilan birga o'tish davrining muhlati (davomiyligi) ham turli mamlakatlarda o'ziga mos ravishda sodir bo'lgan. SHu ma'noda ham o'tish davrining muhlatini oldindan belgilab bo'lmaydi.

O'tish davri mamlakatlar taraqqiyotining bir ijtimoiy-iqtisodiy bosqichdan ikkinchiga o'tishi umumiy qonuniyat bo'lishi bilan birga ana shu bosqichlarga o'tish jarayoni ham turlicha namoyon bo'ladi. Ulardagi asosiy umumiylik eskining taraqqiyot ehtiyojlariga javob bera olmaganligi oqibatida

yangi bosqichga o'tish zaruriyatini keltirib chiqarishi bilan bog'liq. SHu ma'noda o'tish davridagi bosh yo'nalish "orqaga qaytish" emas, balki "oldinga" yurish, pastdan yuqoriga ko'tarilish yoki oldingi darajaga qaraganda taraqqiy qilish tomon ko'tarilish hisoblanadi.

Eski tuzumni saqlab qolish yo'lidagi turli urinishlar, qon to'kishlar, xalq boshiga tushadigan turli fojealarga qaramasdan ularning qaysi darajadan sodir bo'lishidan qat'i nazar baribir o'tish davrining bosh yo'nalishi o'zgarmas bo'lib qolaveradi. SHu ma'noda germaniyalik olim Leonid Levitining quyidagi fikriga qo'shilish mumkin. "Postkommunistik o'tish davri – o'tish davrining ko'rinishlaridan biridir, xolos. Insoniyat tarixida bunday davrlar ozmuncha yuz yil bilan farq qilmasin, biroq asosiy ma'nolari bitta – jamiyatni, uning iqtisodini, siyosatini, uning madaniyatini zamonaviylashtirish" – deb yozadi.

Ammo, ana shu "Zamonaviylashtirish" ni qaysi o'lchov mezonidan kelib chiqmog'i kerak, - degan savolga javob topish zarur bo'ladi. Zero, "zamon" o'zgaruvchan, shiddat bilan oldinga intiluvchi jarayon. Agar ana shu nuqtai nazardan qaraladigan bo'lsa, o'tish davri qachon tamom bo'ladi, uning tamom bo'lish mezonlari mavjudmi yoki "zamon" kabi to'xtovsiz jarayon hisoblanadimi? – degan savollar yuzaga kelaveradi.

Aslida, yuqorida bizning unga bergan ta'rifimizda uni davlat taraqqiyotining bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzumdan ikkinchisiga o'tish uchun zarur bo'ladigan alohida bosqich bo'lib, albatta u ma'lum muhlatdan keyin o'z payoniga etadi va jamiyat ilgariga qaraganda yuqori taraqqiyot bosqichida yashay boshlaydi.

Biz ana shunday jarayonining aniq tasavvur qilishimiz va tushunishimiz zarur bo'ladi. Aks holda insoniyat o'z boshidan o'tish davrini o'tkazish bilan yashaydi va bu oxiri yo'q bo'lgan jarayon – degan noto'g'ri xulosa kelib chiqadi.

Fikrimizcha bir ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tuzumdan ikkinchisiga o'tish uchun zarur bo'ladigan "o'tish davri" yoki aniqrog'i "oraliq" bosqichining muhlati ana shu yangi yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tuzum o'z imkoniyatlarini to'la yuzaga chiqarib barqaror taraqqiy qilish jarayoni yuzaga kelishi bilan tugaydi.

Bu erdagi konseptual g'oya shundagi, insoniyat faqat "o'tish davri" bilan yashamaydi, balki uning boshlanishi bo'lganidek payoni ham mavjuddir. Xuddi ana shu "payoni" taraqqiyot darajalarini yoki tuzumlarning birini ikkinchisi bilan farqlash imkonini beradi. "Payoni" yoki o'tish davrining oxiri yangituzumning normal ishlash ta'minlanganligi sharoiti yuzaga kelishi bilan tugaydi.

Bunday sharoitda zamonning ehtiyoji va rivojlanish darajalarida yangi vujudga kelgan ijtimoiy - iqtisodiy, siyosiy tuzumning turli sohalarda mavjud bo'ladigan "mexanizmlarning" barqaror "ishlash"i amalga oshadi. Yana ham aniqrog'i, zamon nuqtai nazaridan davlat hayotida barqaror taraqqiy qilish jarayoni sodir bo'ladi.

SHu nuqtai nazardan ham Leonid Levitning o'tish davri "zamonaviylashtirish" mezoni sifatida qaraganligi haqidagi fikriga qo'shilish mumkin. Unin "Bunday zamonaviylashtirish muayyan yakun topguncha, ya'ni mamlakat barqaror iqtisodiy rivojlanish, siyosiy barqarorlik darajalariga erushguncha bo'lgan davr "o'tish davri" deb ataladi" – degan ta'rifga faqat zamon nuqtai nazardan qaralsagina to'g'ri bo'ladi. O'tish davri" ga faqat ana shunday qaralsagina insoniyat va jamiyatlar rivojlanish jarayonlariga to'g'ri baho berish mumkin bo'ladi.

Demokratik jamiyatga o'tish deganda mamlakatlarning turli tuzumlardan demokratik tamoyillar asosida rivojlanishi uchun vujudga keltiriladigan imkoniyatga ketadigan oraliq vaqt tushuniladi. Huddi ana shu vaqt ichida demokratik jamiyat uchun zarur bo'ladigan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy imkoniyatlar yaratiladi. "Oraliq" vaqtning boshlanishi va uning o'z payoniga etishi o'tish davri masalalari qatoridagi eng muhim ahamiyatga molikdir. Chunki, bugun bu masala ilmiy adabiyotlardan o'zining ilmiy echimini topganicha yo'q. Unga aniqlik kiritmaslik esa "o'tish davrining" boshi va oxiri qaerdaligini bilib olish imkonini bermaydi.

To'g'ri, o'tish davri eng avvalo siyosiy xokimiyatda pirovardada demokratik jamiyatga olib boruvchi tub o'zgarishlarning sodir bo'lishi va uning bazasida iqtisodiy hamda ma'naviy-ma'rifiy sohalarda olib boriladigan islohatlarning boshlanishi bilan xarakterlanadi. O'tish davrining tugashi esa demokratik tamoyillarning to'laligicha hayotiy realikka aylanishi bilan bog'liq bo'ladi.

O'tish davrining "Model" lari ularning o'ziga xos xususiyatlari.

Demokratik tamoyillar asosida rivojlanayotgan mamlakatlarning unga o'tish davri tajribalariga asosanib, o'tishning uchta asosiy yo'li yoki "model"i shakllanganligini ta'kidlash mumkin.

Uning birinchisi **klassik** yo'l hisoblanadi. Bu yo'lning asosiy xususiyati shundaki, u uzoq tarixiy bosqichda amalga oshadi va o'tish davrida siyosiy sohada qancha burhonlar sodir bo'lishiga qaramasdan asosiy o'tishning islohotlari iqtisodiy sohada amalga oshirila boshlanadi. Bu sohadagi muhim tadbir hususiy mulkchilikni qaror toptirish hisoblanadi. Huddi ana shu tadbirning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, mamlakat hayotining boshqa sohalarini, hususan ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-madaniy soxalarda ham islohotlarning amalga oshirilishi imkonini beradi.

O'tish davrining klassik yo'lidagi bunday jarayoning xarakterli tomoni shundaki, iqtisodiy sohada hususiy mulkchilikning rivojlanishidan aholining aksariyat ko'pchilik qismi rozi bo'lmaydi. Chunki, asosiy moddiy boylik bir qism odamlar qo'lida to'planadi, boshqalar esa unga qaram bo'lib qoladilar oqibatda mamlakat ichki hayotida katta bo'ronlar, xatto fuqarolar urushlari sodir bo'lishi mumkin. Bu jarayon mulk egalariining aholi farovonligini ta'minlash tomon qiladigan xarakatlari o'zining samarasini beraboshlaganicha davom etadi.

Buning samarasi dastlabki paytda aynan shu maqsadga yo'naltirilmasdan, balki mulk egalari o'zlarining moddiy boyligini rivojlantirish yo'lida, ishlab chiqarishni rivojlantirish, yangi korxonalarni qurish, ularni zamonaviy texnika bilan qurollantirish, yangi joylarini vujudga keltirish kabi katta ishlarni amalga oshiradilar. Undan katta foyda ko'rgan mulk egalariining izchillik bilan rivojlantirib boradilar, uning oqibatida aholining ish bilan ta'minlash amalga oshadi, ularning farovonligi yaxshilanadi va nihoyat mamlakatning iqtisodiy yuksalishi ham sodir bo'ladi.

O'tish davri klassik yo'lining boshlanishi kapitalistik munosabatlarning yuqori bosqichi, uning iqtisodiyotda islohatlar o'tkazmasdan taraqqiy qilishga imkoniyat etmay qolish oqibatida yuzaga keladi. Bu yo'lning klassik (an'anaviy) yo'l deyilishiga sabab shuki, mamlakatlarning demokratik jamiyatga o'tishi dastlab xuddi ana shu ko'rinishda namoyon bo'ladi va bugun yuksak taraqqiyotga erishgan mamlakatlarning aksariyati ana shu yo'ldan bordilar. Klassik yo'l muammolarning ko'pligi, ularni hal qilishning murakkabligi, aholining bu jarayonga "ko'nikib"

borishi kabi masalalar bilan bog'liq bo'lganligi uchun ham evropa mamlakatlarida 2-2,5 asrgacha davom etdi. Ana shu muxlat ichida mamlakatlarda iqtisodiy sohadagi yutuqlarning zaminida demokratik qadriyatlar ham shakllanadi va ularda bugun fuqarolik jamiyatini takomillashtirish jarayonlari davom etmoqda.

O'tish davrining ikkini bosqichi **inqilobiy** yo'l bo'lib, o'zining qisqa muddatda, juda tez o'zgarishlarni amalga oshirilishi bilan ajralib turadi. Turg'unlik davrni boshidan kechirayotgan ba'zi davlatlar bunday vaziyatdan tez chiqib ketish uchun o'ziga hos "shok terapiya"si deb nom olgan davrni boshidan kechirishadi. Bunda davlatning boshqaruv funksiyalari deyarli sezilmaydi. Iqtisodiyot o'z holicha rivojlanib boradi. Bunga misol qilib, shaxsiy evropa davlatlarini va Rossiyani misol qilib olish mumkin. Narx-navoni birdaniga erkin qilib qo'yib yuborish, pulning keskin qadrsizlanishi aholining deyarli ijtimoiy himoyasiz qolishi kabi xarakterli tomonlari bilan ajralib turadi va o'tish davridan iloji boricha qisqa muddatda chiqib ketishga harakat qilinadi.

Uchinchi yo'l evolyusion model bo'lib, bugun dunyo mamlakatlarning rivojlanishiga va mintaqalarda barqarorlikning yuzaga kelishiga va umumiytaraqqiyot uchun samara bera oladigan yo'l sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston demokratik jamiyatga o'tishning o'ziga xos hususiyatlari
O'tish davrining umumiy qonuniyatlari O'zbekiston uchun ham umumiylikka egadir. Ular o'tish davrining boshlanishi uchun xos bo'lgan, amaldagi siyosiy xokimiyatning tugatilishi, uning zaminida iqtisodiy sohadagi islohotlarning amalga oshirilishi uchun zamin tayyorlash va mavjud ma'naviy-mafkuraviy zo'ravonligidan qutilish kabilardir. Ular qaysi darajada bo'lishidan qat'iy nazar demokratik tamoyillar asosida rivojlanish yo'lini tanlagan barcha mamlakatlar uchun umumiy zaruriyat hisoblanadi.

O'zbekistonda uning o'ziga xos va o'ziga mos bo'lgan evolyusion tadrijiy yo'li ishlab chiqildi. Bu yo'lning O'zbekiston uchun eng maqbul yo'l ekanligi prezident Islom Karimov tomonidan ilmiy asoslanadi va uning konseptual g'oyalarini fundamental tarzda bosqichma-bosqich amalga oshirishga kirishildi. Bu yo'l Prezident tomonidan ishlab chiqilgan besh tamoyilda o'z ifodasini topdi. Xuddi ana shu tamoyillarni ishlab chiqarishga qarab, Prezident takidlagan edi: "shuni alohida takidlash zarurki, sohta inqilobiy sakrashlarsiz,fojeali oqibatlarsiz va kuchli ijtimoiy larzalarsiz, evolyusion yo'l bilan normal, madaniyatli taraqqiyotga o'tish – tanlab olingan yo'lning asosiy mazmuni va mohiyatidir".

Bu bosh g'oyani Prezident Islom Karimov jahon mamlakatlarning tajribalarini chuqur tahlil qilish asosida ilgari surdi va O'zbekistonga xos o'tish davri "model"ini ishlab chiqishda uning dunyodagi bironta ham davlatlardagi "model"larga aynan o'xshamasligiga asosiy e'tiborni qaratdi.

Mazkur mintaqaning qadimiy tarixi va madaniyati, bunda yashab o'tgan SHarq mutafakkirlari va faylasuflarning jahon madaniyatini rivojlantirishga qo'shgan g'oyat katta hissalar ham bu erda yashayotgan odamlar turmushining barcha tomonlariga sezilarli ta'sir o'tkazmoqda. O'tmishdagi allomalarning bebaho merosi qanchadan-qancha avlodlarning ma'naviy-ruhiy ongini va turmush tarzini shakllantirgan edi va u hamon ta'sir ko'rsatmoqda.

1. mafkuradan xoli etish.
2. Davlat bosh isloxatchi.
3. Iqtisodiyotni Qonun ustivorligi.
4. Kuchli ijtimoiy siyosat.
5. Bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish.

Respublikadagi o'ziga xos demografik vaziyat-g'oyat muhim xususiyatlaridan biridir. Respublikada aholi va mehnat resurslari har yili yuksak sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Aholining yarmidan ko'prog'i qishloq joylarda yashaydi va asosan dehqonchilik bilan shug'ullanadi. Aholi tarkibida 60 foizdan ko'prog'i bolalar, o'smirlar, 25 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlardir.

Respublikaning yana bir xususiyati – milliy tarkibining o'ziga xosligidir. Etnik tarkibda tub aholi ustun mavqeni egallaydi. SHu bilan bir vaqtda respublika hududida o'z madaniyati va an'anasiga ega bo'lgan yuzdan ziyod millat vakillari yashab turibdi. O'zbekistonning milliy-madaniy jihatdan g'oyat rang-barangligi milliy o'zligini anglash va ma'naviy qayta tiklanishning kuchayib borishi bilan uzviy birlikda jamiyatni yangilash, uni "ochiq jamiyatga aylantirish uchun qudratli omil bo'lib xizmat qiladi va respublikaning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi uchun qulay sharoitlarni vujudga keltiradi.

Respublika qulay geostrategik mavqega ega. Tarixan hozirgi O'zbekistonning hududi shunday joy bo'lganki, bu erda juda ko'hna savdo yo'llari (mashhur Buyuk Ipak yo'li) tutashgan, jo'shqin tashqi aloqalar va turli madaniyatlarning bir-birini o'zaro boyitishi jarayoni kechgan.

O'zbekiston mustaqil O'rta Osiyo Respublikalari orasida g'oyat katta eksport imkoniyatiga ega bo'lgan juda muhim strategik xom ashyo – paxta va undan tayyorlangan mahsulotni etishturuvchi hamda etkazib beruvchi mamlakatdir. O'zbekiston respublikasining siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini himoya qilish imkonini beradigan etarli potensialga ega. Er bag'rining g'oyat qimmatli mineral xom ashyolarga boyligi chuqur tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirish, respublikaning jahon bozoriga chiqishini ta'minlaydigan tarmoqlarni rivojlantirish imkonini bermoqda. SHu jihatdan xalq xo'jaligining asosan xom ashyo etishtirishga yo'naltirilganligi bartaraf etish va shu sababli iqtisodiyot tuzilmalari haddan tashqari bir tomonlama rivojlanganligiga, sobiq markaz o'tkazib kelgan yakkahokimlik siyosatining natijasi bo'lmish qaramlikka, ya'ni texnologiya va resurs jihatdan boshqa respublikalarga qaram bo'lib qolishga barham berish hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Keyingi o'n yillar mobaynida ma'lum qadriyatlarga ega bo'lgan kishilarning muayyan ijtimoiy ongi shakllanganligini ham e'tiborga olmaslik mumkin emas. Bir tomondan, bu ijtimoiy tenglikka, kafolatlangan mehnat qilish huquqiga, yalpi bepul ta'lim va tibbiy xizmatga qat'iy tarafdorlikka intilishida namoyon bo'lmoqda. Ikkinchi tomondan esa, yakkahokimlikdan iborat ma'muriy-buyruqbozlik tizimi keltirib chiqargan insonni mulkka egalikdan va xo'jayinlik tuyg'usidan begonalashtirilganligi, tayyorga ayyorlik ruhiyati yuzaga keltirilganligida ko'rinmoqda.

O'zbekiston mustaqillik yillarida demokratik jamiyatga o'tishning uchta bosqichini bosib o'tdi. Ularning har biri Prezident Islom Karimov tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi – birinchi chaqiriq VI sessiyasida (1996 yil 29 avgust) "Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning

muxim vazifalari”; Birinchi chaqiriq o’n to’rtinchi sessiyada “O’zbekistonda XXI asrga intilmoqda” (1999 yil, 14 aprel) va nihoyat, ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning to’qqizinchi sessiyada “O’zbekistonda demokratik o’zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo’nalishlari” (2003 yil) qilgan ma’ruzalarida ko’rsatib berildi.

Albatta, ana shu bosqichlar biri ikkinchisidan keskin farq qilmasa-da, ulardagi asosiy g’oya demokratik jaryonlarning olg’a tomon rivojlanishini va ma’lum bir vaqtga kelganda bu jarayonga yangi kuch, qudrat hamda faollik baxsh etishdir. CHunki, jarayonlar izchillik bilan tahlil etilmas, undagi asosiy muammo aniqlanmasa va istiqboldagi vazifalar belgilanmasa rivojlanish ham bo’lmaydi. SHu ma’noda ham Prezident demokratik jamiyat qurish borasidagi vazifalarni “chuqurlashtirish” (1996 yil) “erkinlashtirish” (1999 yil) va “chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyat asoslarini shakllantirish” (2003 yil) kabi konseptual g’oyalarida belgilab bergan.

Bugungi kunda dunyoda ana shu “payon”ning mezonlari quyidagilar amal qilishning reallikka aylanishi bilan belgilanishi e’tirof etilgan:

- 1. Fuqarolarning davlat va jamiyat hayotiga dahldor qonunlar qabul qilinishidan qanchalik xabardorligi;**
- 2. Ana shu qonunlarni qabul qilishda bevosita yoki bilvosita ishtirok qilishning real amalga oshganligi;**
- 3. Fuqarolarning qabul qilingan qonunlarning ijrosi ustidan nazoratining to’la o’rnatilganligining amal qilinishi bilan;**
- 4. Oddiy fuqarolarning davlat hayotiga daxldor bo’lgan va o’zini qiziqtirgan ma’lumotlarni (informasiyalarni) bemalol, hech qanday to’siqlarsiz olish imkoniyatlarning reallikka aylanishlari bilan demokratik jamiyatning fuqaroviy jamiyat darajasiga ko’tarilishi belgilanadi va o’tish davri o’z payoniga etib, fuqaroviy jamiyatni takomillashtirish vazifalarini amalga oshirilish jarayoni boshlanadi.**

Bundan ko’rinib turibdiki, fuqaroviy jamiyat demokratik jarayonlarning rivojlanishi, uning yuksak darajaga ko’tarilishining mahsuli hisoblanadi.

Bugun O’zbekiston demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishning vazifalarini izchillik bilan amalga oshirishdan iborat bo’lgan o’tish davrini o’z boshidan kechirmoqda.

Adabiyotlar:

O’zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. T. O’zbekiston. 2011.

Karimov I.A. Asarlar to’plami. 1-19 jildlar. T. O’zbekiston. 1996-2011.

Karimov I.A. YUksak ma’naviyat – engilmas kuch. T.-Ma’naviyat. 2008.

Karimov I. A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari. T. O’zbekiston 2009 yil.

Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T. - O’zbekiston. 2010.

Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. – T.: O’zbekiston, 2011.

Karimov I.A. O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T. - O’zbekiston. 2011.

Karimov I.A. Bunyodkorlik, yangilanish, mexr-muruvvat yo’li. Prezident I.A.Karimovning 2012 yil 21 mart Navro’z umumxalq bayramiga bag’ishlab so’zlagan nutqi. T.// Xalq so’zi.2012 yil 22 mart.

Karimov I.A. Inson xotirasi - boqiy, qadr-qimmati – ulug'. Prezident I.A.Karimovning 2012 yil 9 may- Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlab so'zlagan nutqi. T.// Xalq so'zi. 2012 yil 10 may.

Nosirxo'jaev S., Safarboev M., Sultonov K Siyosatshunoslik fanidan ko'rgazmali metodik qo'llanma. – T., 2007.

Odilqoriev X.T.Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik.T., 2008.

Xolbekov A., Jumaev R., Umarova N. va boshqalar “Boshqaruvning ijtimoiy- siyosiy yo'nalishlari” - T.; G'. G'ulom, 2008.

Artikbaev O.S., Ganiev J.X. Siyosatshunoslik. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. – T., 2009.

Jumaev R.Z. va boshq. Siyosiy islohotlar strategiyasi. – T.: Akademiya. 2010.

“Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”ni o'rganishga bag'ishlangan Respublika ilmiy–amaliy konferensiya materiallari. (2011 yil 16 mart). Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Milliy universiteti, “Siyosatshunoslik” kafedrası, Respublika “Kamolot” YOshlar ijtimoiy harakati,– T.: Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti. 2011. – 413 b.

Odilqoriev T., Razzoqov D. Siyosatshunoslik. Darslik. – T: O'qituvchi, 2011.

10–mavzu: O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning milliy, umuminsoniy demokratik tamoyillari.

Reja:

1. Umuminsoniy va milliy qadriyatlarning uyg'unlashuvi hamda demokratik jamiyat qurishda tutgan o'rni.

2. Mustaqillik davrida kechayotgan demokratik islohotlar sharoitida milliy qadriyatlar va ma'naviyat masalasi.

3. Milliy ma'naviyatning demokratik jamiyat qurishda ahamiyati.

Umuminsoniy va milliy qadriyatlarning uyg'unlashuvi hamda demokratik jamiyat qurishda tutgan o'rni.

O'zbekiston demokratik jamiyat qurishning metodologik asoslari, ilmiy va amaliy jihatlari Prezident I.A.Karimov asarlarida, nutqlarida keng va chuqur yoritilgan. Biz mazkur ma'ruza matnida O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning milliy va umumbashariy tamoyillarga to'xtalib o'tamiz.

Ilmiy adabiyotlarda qadriyat tushinchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: “qadriyat (falsafa sosiologiyada) –voqelikdagi muayyan hodisalarning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'rifiy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha. Qadriyatlarning mazmuni va harakteriga ko'ra progressiv va reaksion tiplarga ajratish mumkin” deyilgan. Fikrimizcha bunday ta'riflar mazkur kategoriyani asli mohiyatini aniqlashda bir qator ilmiy chalkashliklarni keltirib chiqarmoqda. SHunga ko'ra qadriyatlar bilan bog'liq muammolar xozirgi davrga kelib faylasuflar va tatqiqotchilarning diqqatini jalb etayotgan asosiy mavzulardan biriga aylanayotganligining sababi uning demokratiya tamoyillari bilan uyg'unlikda bo'lishidir.

Ijtimoiy-falsafa nuqtai nazaridan o'zining ilmiyligi bilan boshqa ta'riflardan ajralib turadi va asosga ega degan fikrdamiz. “Umuminsoniy qadriyatlar tushunchasi butun jamiyat ahamiyatiga ega bo'lgan, insoniyatning mavjudligi, o'tmishi, buguni va

kelajagini, yashashning asosiy yo'nalishlari, qonun - qoidalari, talab va tartiblarini, odamlarning eng azaliy orzu umidlari va ideallarini o'zida aks ettiradigan qadriyatlarning umumiy shakllarini ifodalaydi. Agarda qadimgi dunyo ijtimoiy-falsafiy ta'limotlarida umuminsoniy qadriyatlar inson aqliy taraqqiyotining maxsuli deb qaralgan bo'lsa, Turondagi ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixida "Avesto"dagi uchinchi davr deb atalgan insoniyat kelajak istiqboli, adolatli jamiyat haqidagi fikrlar uning tarixiy ildizlarini tashkil etadi.

Qadriyatlarining eng muhim turlaridan biri – milliy qadriyatlardir.

Umuminsoniy va milliy qadriyatlar tushunchalarining demokratik uyg'unligi dialektikasining qiyosiy tahlili jarayonida Amir Temur siyosiy-huquqiy qarashlarini o'rganish zarur. Saltanatni boshqarishida uchragan har qanday voqe'a hamda ishni to'ra va tuzuk asosida boshqardim degan fikrlari umuminsoniy va milliy qadriyatlar tushunchasining ijtimoiy-falsafiy, ilmiy nazariy va metodologik ildizlarini tashkil etadi. Binobarin, har bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustaxkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi.

Xalqlarning madaniy qadriyatlari, ma'naviy meroslari ming yillar mobaynida ular uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qildi. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov bu borada fikr yuritib shunday deb ta'kidlagan: "Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy taz'yiqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi". Binobarin, har bir qadriyatning mohiyati va ahamiyati tabiat, jamiyat va ruhiy olam hodisalarini bilish, ilmiy umumlashtirish, ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotga ta'sir etish imkoniyatlari asosida belgilanadi.

Demokratik jamiyatni umuminsoniy va milliy qadriyatlarsiz barpo etib bo'lmaydi. qadriyatlar haqida fikr yuritganda uning ikkita tarkibiy qismini nazarda tutmoq kerak. Bunda, eng avvalo, insonning ob'ektiv olamga nisbatan bo'lgan aktiv faoliyatini alohida tahlil qilish zarur. Umuminsoniy qadriyatlar tushunchasiga moddiy va ma'naviy muhit, yashash shart-sharoitlarining rivojlanishi va vorislik sodir bo'lib, yangi-yangi qadriyatlarning shakllanishiga o'tmishdan meros bo'lib qolganlari esa davr ruhi, yangi ijtimoiy ehtiyoj va taraqqiyot uchun asos bo'lgan qadriyatlarga kiradi. Umuminsoniy qadriyatlarning asosiy vazifasi olamni bilish va uni amaliy o'zgartirishning muhim omilidir.

Umuminsoniy va milliy qadriyatlar tamoyillar uyg'unligi qiyosiy tahlili uning inson ma'naviy kamolotning muhim omili ekanligidan kelib chiqish zarur. Bunga, demokratiya va ma'naviyat tushunchilari bog'liqligi va ular o'rtasidagi munosabat juda murakkab ekanligini alohida ta'kidlash kerak. Ba'zi bir tadqiqotchilar "ma'naviyat, demokratiya yo'q paytda ham rivojlanishi mumkin. Masalan, demokratiyaning beshiklaridan biri hisoblangan qadimgi Rimda ham Neron, Kaligula singari zolimlar davrida demokratiya bo'g'ildi, boshqaruvdagi demokratik tamoyillarga barham berildi, lekin o'sha zolim hukmdorlar davrida ham demokratiya tugatilganligi bilan ma'naviyat tugamadi. Bu fikr ancha bahsli va shuning uchun munozaraga sabab bo'ladi. Fikrimizcha, muallifning fikrlarini o'z holicha qabul qilinadigan bo'lsa, unda yurtboshimizni Markaziy Osiyodagi qo'shnilarimiz, madaniy xalqaro hamjamiyat qo'llab - quvvatladi. Bu hol tasodifiy emas – sahibqiron Amir Temur shaxsi uning avlodlari bo'lmish faqat bizning emas, balki mintaqamizdagi barcha xalqlarning, butun ma'rifiy insoniyatning boyligidir".

Har bir millat rivojlanishidagi tarixiy voqealar, unga ijobiy hissa qo'shgan shaxslar ham milliy qadriyatlar jumlasiga kiradi. SHu nuqtai nazardan Amir Temur shaxsi buning yorqin isbotidir. Binobarin, Amir Temur qanchalik taqvador, asl musulmon bo'lmasin, qonunchilik turli tizimlari – diniy va dunyoviy tomonlari borligini, ularni hisobga olish kerakligini juda to'g'ri anglagan. Amir Temur qonunchilik deganda faqat shariat qonunchiligini emas, balki boshqa xalqlar qadriyatlari, urf-odatlarini ham tushungan. “Milliy qadriyatlar – millat uchun muhim va jiddiy ahamiyatga ega bo'lgan jihat va xususiyatlardir. O'z milliy qadriyati bo'lmagan millat va elat yo'q. Millatning tanazzuli – milliy qadriyatlarning tanazzulidir. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, kelajagi, uni tashkil etgan avlodlar, ijtimoiy qatlamlar, milliy ong, til hamda ma'naviyat bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi”. Negaki, milliy qadriyatlar nafaqat mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlaydigan ma'naviy asoslardan biri, balki demokratik, adolatli, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishning asosiy manbai hamdir. Markaziy Osiyo xalqlarining asrlardan-asrlarga meros bo'lib kelayotgan milliy qadriyatlari uzoq tarixiy jarayonda shakllangan va ko'plab og'ir sinovlarni boshdan kechirgan. Darhaqiqat, mintaqamiz xalqlari 3000 yildan ortiq davrni o'zida mujassamlashtirgan Markaziy Osiyo sivilizasiyasini yaratadi.

Umumbashariy va milliy qadriyatlarning uyg'unlashuvi hamda demokratik jamiyat qurishda tutgan o'rni.

Markaziy Osiyo xalqlarining milliy qadriyatlardagi xos jihatlari quyidagilarni kiritish mumkin: a) tug'ilgan makon va ona yurtga ehtirom; b) avlodlar xotirasiga sadoqat; s) kattalarga hurmat, yoshlarga izzat; d) insoniy muomalada mulozamat; e) hayo, andisha, vazminlik, sabr-toqat kabilarning ustuvorligi bilan ham harakterlanadi. Ma'lumki, demokratik qadriyatlar muayyan sharoitlarda shakllanadi. SHu sababli ular: mahalliy, milliy, mintaqaviy, umuminsoniy mazmunida namoyon bo'ladi.

Milliy muhit demokratik qadriyatlarni yaratish va saralashning asosiy manbasidir. Aynan milliy muhit mahalliy qadriyatlarning ustuvorlarini o'z darajasiga ko'taradi va ularni voyaga etkazib, umuminsoniy qadriyatlar darajasiga olib chiqadi va aksincha, umuminsoniy qadriyatlarni har bir kishining boyligiga aylantiradi.

“SHu bilan birga o'tmish qadriyatlariga, an'analarga va turmush tarziga betartib ravishda orqa-ketini o'ylamay qaytish boshqa bir keskinlikka – hozirgi davrni qabul qilmaslikka, jamiyatni yangilash zaruriyatini inkor etishga olib kelishi mumkin” deb ta'kidlaydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov. Biz bugungi kunda haqiqiy qadriyatlarimizni: -tadrijiylik, andishalilik, sabr-toqat, maromiylilik va vazminlik asosida -mulozamatda sertakalluflik, keksalarga munosabatda hurmat-izzat ijtimoiy-siyosiy hayotda bosiqlik, sipolik va boshqa asoslarda asrab-avaylab rivojlantirmoqdamiz.

Milliy qadriyatlar ham qandaydir o'zgarimas hodisalar emas. Millat taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotning takomillashib borish, yashash va mehnat qilish sharoitlari o'zgarishi bilan milliy qadriyatlar ham rivojlanib borishiga imkon yaratiladi. Har bir qadriyat ma'lum konkret davr, sharoit va ehtiyojlarning mahsuligina emas, balki uning ko'zgusi hamdir. SHu nuntai nazardan qadriyatlarga baho berishdan oldin ulardan foydalanishda ikki omilga alohida e'tibor berish kerak:

Ularning birinchisi - qaysi bir qadriyatlarning yuzaga kelgan aniq tarixiy sharoitlar, ikkinchisi o'sha davrlarga xos bo'lgan imkoniyat va ehtiyojlarni ham bilish

kerak, shuningdek, umumbashariy demokratik qadriyatlarmi, mintaqaviy qadriyatlarmi, milliy qadriyatlarmi uning qaysi zamin ehtiyoji asosida vujudga kelganligini, ular o'rtasida qanday uyg'unlik mavjud bo'lganligi, vorisiylik masalalarini ham o'rganish zarur.

Milliy qadriyatlar shaxs qadriyatlarini umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lovchi zanjirning muhim va asosiy bo'g'ini hisoblanadi. SHunga ko'ra, millat har qanday milliy qadriyatning ob'ekti, uni yaratuvchisi va milliy qadriyatlar tizimida asosiy tayanadigan ijtimoiy tayanch hamdir. Millat bir tomondan, o'zining qadriyatlarini mutassil vujudga keltirib turganligi bilan ham u yashovchanlik xususiyatiga ega bo'ladi. Demak, milliy qadriyatlar o'tmishdan kelajakka rivojlanish jarayonida ularni doimiy takomillashtirib yangi-yangi qirralarini vujudga keltiradi. Aynan shu jarayon adolatli va demokratik jamiyatning shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Demak, milliy qadriyatlarsiz demokratiya tamoyillarini hayotga joriy etish, uni har bir shaxsning turmush tarziga aylantirish mumkin emas. Demokratiya nafaqat shaxs faoliyati, balki u millatning ruhiyati hamdir. Ikkinchi tomondan esa, demokratik jarayonlar davomida mavjud qadriyatlar tizimining o'zi ham rivojlanib va o'zgarib boradi. Demak, millat milliy qadriyatning xaqiqiy egasi ekan, uning makon va zamondagi harakati ham o'tmishdan kelajakka tomon yashashi ham avloddan avlodga etkazib beruvchisi ham, uning asosiy ob'ekti ham millatdir. SHu ma'noda millatning tanazzuli milliy qadriyatlarning tanazzuli emas, balki milliy qadriyatlarning takomillashmaganligi uning yo'q bo'lib ketishga va oxir oqibatda egasiz bo'lib qolishiga olib kelishi millat tanazzulining boshlanishidir. Sobiq sho'rolar davrida millatga bo'lgan hujum eng avvalo uning qadriyatlariga bo'lgan hujumdan boshlanganligini tasodifiy hol deb qarash maqsadga muvofiq emas. Buning bir qator misollarini ko'hna tarixdan ham keltirish mumkin. Milliy qadriyatlarning saqlanib qolishi bu faqat ularning o'zini-o'zi asrab qolishining asosiy masalasidir. Demak, har qanday milliy qadriyatlarning saqlanib qolishi uchun har bir millatning o'zi javobgardir. Ana shu javobgarlik, masu'llik darajasi milliy rivojlanish jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi.

Milliy qadriyatlarning adolatli demokratik jamiyatni barpo etishdagi o'rnini tahlil etish jarayonida eng avvalo millatning o'zini ijtimoiy qadriyat sifatida qarash zarur. Negaki, millatning o'zi milliy qadriyatlarning ham ob'ekti va ham sub'ektidir.

Umuminsoniy qadriyatlar qandaydir o'zgarmas, aqidaviy tushunchalar emas. Davrlar o'tishi, sharoit, talab va ehtiyojlarning o'zgarishi bilan ularning mazmuni, baholash mezonlari ham o'zgarib boradi. Lekin bu o'zgarishlardan qat'iy nazar, umuminsoniy qadriyatlar odamlarni jipslashtiruvchi, ma'lum maqsadlar, ijtimoiy, ma'naviy kamolotining muayyan yo'llari uchun birgalashib kurashishga, harakat qilishga chorlovchi ijtimoiy hodisalardir. Umuminsoniy qadriyatlar turli davlatlar, xalqlar o'rtasidagi ko'prik vositasini o'tab, odamlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi, hamjihatlik va hamkorlikka chorlovchi kuch vositasini o'taydi. Ma'naviyat borasida ham umuminsoniy qadriyatlar xalqlarning barcha madaniyatni yaqinlashtiradi va ularni tezroq kamol topishga imkon yaratib beradi.

Umuminsoniy qadriyatlar inson ma'naviy, ijtimoiy kamolotning qandaydir alohida, boshqalardan ajralgan tomoni emas. Umuminsoniy qadriyatlar milliy va mintaqaviy qadriyatlarning umumlashgan ifodasidir. Umuminsoniy qadriyatlar butun insoniyatga xos qadriyatlar asosida tashkil topadi va rivojlanadi, ular ayni vaqtda

barcha milliy qadriyatlarning bir-biriga yaqinlashishi va rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Insonparvarlik g'oyalariga sadoqat, demokratiya, ijtimoiy adolat hamma erda barqaror bo'lishiga intilish, inson huquqlari poymol etilishiga yo'l qo'ymaslik, hamma xalqlarning milliy mustaqillik uchun bo'lgan kurashlarini himoya qilish, kishilarni do'stlik, hamkorlik va hamdardlikka chorlash, hamma erda tinchlik, osoyishtalik qaror topishiga harakat qilish, atrof-muhitni toza saqlash umuminsoniy qadriyatlarning hozirgi kunda katta ahamiyat kasb etayotgan jihatlaridir.

Mintaqaviy qadriyatlar ham umuminsoniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'langan.

Qadriyatlarning bu turkumi bir-biriga yaqin bo'lgan sharoitlarda yashagan va mehnat qilgan, tarixi tutash bo'lgan mamlakatlar va xalqlar uchraydi. Bu qadriyatlar hozirgi kunda ham katta ahamiyat kasb etmoqda.

Markaziy Osiyo xalqlari ming yillar davomida bir-biri bilan yaqindan iqtisodiy va siyosiy aloqalar o'rnatganlar. Ularning turmush sharoitlari, tili, madaniyati, dini, urf-odatlarini bir-biriga yaqin bo'lishi ko'plab umummintaqaviy qadriyatlar shakllanishiga olib kelgan. Bu qadriyatlar turli joylarda bir-biridan biroz farq qilsada, mohiyat jihatidan yaqindir.

Mehmondo'stlik, bolajonlik, yaqin qo'ni-qo'shnichilik, kattalarni hurmat qilish, kichiklarni izzat qilish, qarindosh-urug'lar, do'stlar bilan yaqin aloqada bo'lish, sahiylik, halol bilan haromni farqlash O'rta Osiyo xalqlarining hammasiga xos bo'lgan ma'naviy fazilatlaridir. Garchand mehmondo'stlik bilan bog'liq udumlar mintaqamizning hamma erida keng tarqalgan yaxshi an'ana bo'lsa ham ular turli joylarda bir-biridan farq qiladi.

Keksalarni, ota-onalarni hurmat qilish ham Markaziy Osiyo xalqlarining o'ziga xos yuksak ma'naviy boyligidir.

Keksalar ko'pni ko'rgan, aql va idrok bilan har ishda maslahat bera oladigan, yoshlarga katta tarbiyaviy ta'sir ko'rsata oladigan kishilardir. Keksalarni hurmat qilish, ulardan saboq olish, hayot tajribasini o'rganish ma'naviy kamolot uchun yangi imkoniyatlar izlashga harakat qilishdir. Ota-onani hurmat qilish, ularning gapiga, pand-nasihatiga quloq solish ham katta ma'naviy qadriyatdir. Ota-onaga bo'lgan hurmat dunyodagi barcha xalqlarda uchraydi. Lekin bizning mintaqamizda bu qadriyatni e'zozlash boshqa hamma joylarga nisbatan ustunroq turadi. Hashar yo'li bilan uy-joy qurishda, uy-joylarni ta'mirlashda bir-biriga yordam ko'rsatish, etim-esirlarning, beva-bechoralarning peshonasini silash, ularni qarindosh-urug'lar o'z himoyasiga olib, xoru zor bo'lib qolishiga yo'l qo'ymasligi ham mintaqamiz xalqlarining barchasiga xos qadriyatdir.

Katta ijtimoiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan mintaqaviy qadriyatlardan yana biri-jamoatchilik fikridir. Jamoatchilik fikri odamlar o'rtasidagi bir-biriga yaqinlik, o'zaro hurmatning ifodasi bo'lib, keng foydalanish mumkin bo'lgan qadriyatdir.

qachonki milliy qadriyatlar umuminsoniy demokratik qadriyatlar bilan uyg'unlashtirilsa, shundagina jamiyat taraqqiyotining rivojlanishida uning o'zni alohida ahamiyatga ega bo'ladi.

Ammo sho'rolar davrida qadriyatlar bir tomonlama yoritilar edi, ya'ni bu borada ko'p tadqiqotlar olib borilgan edi. Bunday "tadqiqot"lardan maqsad har bir millatning o'z muayyan tarixiy tajribasi asosda o'z qadriyatlari tizimi shakllanganicha kishilarning

e'tiborini tortmaslik, umumjahon, umumbashariy qadriyatlar esa sinfiy asosda belgilangan qadriyatlarga e'tibor berilardi, bu sinfiy asosda tanlab olingan umumjahon qadriyatlari ichida eng nufuzli joyni ulug' millatning qadriyatlari egallab turardi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan sana – 1991 yil 1 sentyabr – xalqimiz tarixidagi tub burilish nuqtasi bo'ldi. Mustaqillik davrida ijtimoiy hayotning siyosiy, iqtisodiy, sosial, madaniy, ma'naviy, bir so'z bilan aytganda, barcha jabhalarida ana shu tarixiy burilish bilan bog'liq qator muammolar, bajarilishi kerak bo'lgan ulkan vazifalar paydo bo'ldi. YUrt va xalq taqdiri hal bo'layotgan o'sha kunlarda mamlakat kelajagi tashqi va ichki xatarlarni bartaraf etish, totalitar tuzum asoratlardan xalos bo'lish mustaqil milliy siyosat, jahon hamjamiyatidagi yurt mavqeini tiklash va yuksaklarga ko'tarish, mamlakatda barqarorlik va ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlash, demokratik huquqiy davlat tizimini shakllantirish, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish va boshqa ishlarni amalga oshirish bilan chambarchas bog'liq edi.

Siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy islohotlarni izchillik bilan amalga oshirish uchun, avvalo, insonlar ongida tub o'zgarishlar yuz berishi zarur. Zero, kishilar tafakkurini band etgan eski andozalardan, tor qoliplardan, o'z umrini yashab bo'lgan aqidalardan xalos etmay turib, yangi davr, tarixiy taraqqiyot bilan tabiiy ravishda qo'l ushlashib keladigan yangidan-yangi muammolarni hal etib bo'lmaydi.

Milliy ma'naviyatning demokratik jamiyat qurishda ahamiyati.

Prezident I.Karimov “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarida: “Biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy quvvatidan, milliy hissiyotidan, o'zligidan ayirishga ancha-muncha ulgurdi. Sovetlar davridan qolgan bunday og'ir “meros” haqida keyinchalik Prezident I.A.Karimov shunday fikr bildiradi: “Bu tuzum o'z xalqining tarixini, uning ruhi va urf odatlarini, o'z avlod-ajdodini bilmaydigan manqurtlarga tayanar edi”.

Afsuski, sobiq ittifoq hududida bu kasallikdan xalos bo'lmagan kimsalar hamon uchramoqda. Buni I.Karimov Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning to'qqizinchi sessiyasidagi ma'ruzasida yana bir bor alohida ta'kidlab, shunday deydi: “...o'z umrini yashab bo'lgan, siyosiy jihatdan kasodga uchragan, kommunistik mafkuraga asoslangan tizimni sog'inib-qumsab gapirayotgan ayrim siyosat va davlat arboblari – eski tuzum tarafdorlari yana qaytadan bosh ko'tarayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz” ... Bir so'z bilan aytganda, SSSRning soyasi sobiq ittifoq mintaqasidan hali beri butunlay ko'tarilgan emas va buni biz doimo inobatga olishimiz, hamisha sergak va hushyor bo'lib yashashimiz zarur”.

SHukurlarkim, xalqimiz ongi, qalbiga chuqur singigan minglab yillik ma'naviy qadriyatlarimiz, milliy an'analarimiz uni zo'rlik bilan kiritishga harakat qilingan kommunistik mafkuraning domiga to'liq tushib qolishdan asradi. Ammo Abdulla Qahhor ta'biri bilan aytganda: “erning sho'rini yuvish oson ekan-u, odamning ongidagi sho'rini yuvish qiyin” ekaniki, “manqurtlik kasali”ning asoratlari ba'zi kishilarimiz ongi va ruhiyatida hanuzgacha saqlanib qolmoqda.

Tarixning achchiq saboqlaridan biri shuki, ma'naviyat, axloq-odob inson hatti-harakatlarining, faoliyatining, ehtiyojlarining mezoniga aylanmay turib, jamiyat bironta muammolarni samarali hal etishi va ijtimoiy tarraqqiyotga erishishi mumkin emas. Birgina misol – Turkiston o'lkasining XIX asr 70 yillarda Rossiya

imperiyasining mustamlakasiga aylanishi tarixidagi bu qayg'uli hodisaning ko'plab sababini keltirish mumkin. Ammo eng asosiysi, jamiyatning ruhiy evrilishga uchragani, elga bosh bo'lishi lozim bo'lgan hukmdorlardan tortib, boy va ulamolargacha o'z shaxsiy manfaat doirasida o'ralashib qolganligi, istiqlool uchun kurashgan ziyolilarning sa'y-harakatlariga qaramay, jamiyat kishilari birlasha olmagan ekanligi, desak xato qilmaymiz. Zero, XX asr boshlarida taraqqiyparvar ziyolilardan biri aytganidek: "Insonni dunyoda yashamog'i uchun molu jong'a ehtiyoji bo'lsa-da, dunyoni izzati va oxiratni saodati uchun vosila bo'lungan ilmu adabg'a ziyodaroq ehtiyoji bordur. Molu jonni ilmu adab birla maqrun bo'lmaganlari holda dunyoda sababi ta'nu la'ni mardumon va oxiratta baloyi jon bo'lulvarig'a shubha yo'qdur".

Ma'naviyatsiz kelajak yo'q. Zero, "Biron bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi". SHuning uchun mamlakat kelajagi unda yashayotgan kishilarning ongi, ma'naviyati darajasi bilan bog'liq. Inson ruhiyati sog'lom bo'lsa, o'zligini anglasa shaxsga aylanadi. Kishi shaxs darajasiga ko'tarilsagina, ya'ni o'z mustaqil fikriga, dunyoqarashiga, chinakam insoniy fazilatlarga ega bo'lgandagina, "demokratiya ne'matlarining oddiy iste'molchi emas, balki ularning faol yaratuvchisi va himoyachisiga aylanadi. Va demokratiya, fuqarolik jamiyati asoslarini amalda barpo etish, inson haq-huquqlari va erkinliklarini ta'minlash mumkin bo'ladi".

Tarixiy taraqqiyot yo'lida insoniyat to'plagan tajriba va saboqlar ma'naviy mezon va qarashlar tizimi sifatida avlodlardan avlodga meros bo'lib o'tadi.

I.A.Karimovning tarixchi olimlar bilan suhbatda: "Tarix xalq ma'naviyatining asosidir", - deb aytgan so'zlarning mazmun-mohiyati ana shunda.

Tarix saboqlari insonni xatolardan asraydi, hushyorlikka o'rgatadi, ruhiy evrilishdan asraydi. Biroq ta'kidlash joizki, ma'naviyat faqat meros bo'lib avlodlardan avlodga o'tadigan tarixiy qadriyat bo'lmay, doimiy harakatdagi hodisadir. SHuning uchun ham mamlakatimiz Prezident I.Karimov ta'kidlaganidek: "Bizning an'anaviy qadriyatlarimizni hozirgi demokratik jamiyatning qadriyatlari bilan uyg'unlashtirish kelajakda yanada ravnaq topishimizning, jamiyatimiz jahon hamjamiyatiga qo'shilishning garovidir". SHuning uchun ham mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning to'rt asosiy ma'naviy negizlari ichida "umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik" belgilandi. Bugungi kunda mamlakatimiz ravnaqini hozirgi sivilizasiya o'zida ifoda etadigan, demokratiya inson huquqlariga rioya etish, tadbirkorlik erkinligi, erkin bozor munosabatlari, so'z erkinligi kabi umuminsoniy qadriyatlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini barpo etishni maqsad qilib belgilangan bir paytda demokratik tamoyillarni egallash, fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, shaxs erkinligini amalda joriy etish, siyosiy jarayonlarni erkinlashtirish, demokratik ie'yorlar asosida ko'p partiyaviylik tizimni takomillashtirish, davlat boshqaruvi organlarining ayrim vakolatlarini bosqichma-bosqich jamoat va o'z-o'zini boshqarish tashkilotlariga o'tkazish kabi vazifalar umuminsoniy qadriyatlarni o'zida ifoda etgan holda ma'naviyat bilan tutashadi.

Ma'lumki, jamiyat hayotini tartibga solish ehtiyoji ma'lum hududda yashaydigan kishilardan jamiyatni boshqarish, odamlar o'rtasida munosabatlarni tartibga solish bilan bog'liq huquqlarni boshqaruvchilarga vakolat tarzida topshirishni talab etdi va

shu asnoda davlatchilik yuzaga keldi. Lekin boshqarish huquqi berilgan kishi o'z vakolatlari doirasini o'zboshimchalik bilan kengaytirsam, demokratik jamiyat qurish imkoniyatlari tobora torayadi. Bashariyat tarixi ko'p bora tasdiqlangan bu haqiqatni bundan qariyb 2000 yil avval Rimlik mashhur notiq va davlat arbobi Siseron e'tirof etgan edi. Uning fikricha davlatning (Rimning) tayanchi ko'hna udumlar (ma'naviy meros) va haqiqiy erlardir. Demak davlatning gullab yashnashi uchun, avvalo, ma'naviy-axloqiy islohotlarni amalga oshirish kerak. Bu vazifani esa, Siseron aytganidek, fuqarolik va axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan rahbargina ado etishi mumkin.

Bu hayotiy haqiqat biz hamisha amal qiladigan tamoyilga, jamiyat rivojining asosi va shartiga aylanmog'i hamda o'zida yaxlit bir tizimni mujassam etmog'i lozim. Bu tizim markazida ma'naviyat, axloq-odob, ma'rifat kabi o'lmas qadriyatlar turmog'i kerak".

2000 yil 6 aprely kuni Oqsaroy qarorgohida ziyolilar bilan suhbat asnosida Prezident I. Karimov bu haqda mukammal fikrni quyidagicha ifoda etdi: "Milliy mafkuramiz xalqimizning azaliy an'alariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga, bir so'z bilan aytganda, o'z milliy qadriyatlarimiz, shu bilan birga, zamonaviy, umumbashariy, umuminsoniy yutuqlardan oziqlangan, ularni o'ziga qamrab olgan holda, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq manfaati, uning farovonligi yo'lida xizmat qilmog'i darkor".

Hulosa qilib aytganda, bugungi kunda har qanday milliy tiklanish va milliy rivojlanishning asosi bo'lgan ma'naviy meros, urf-odatlar, an'alar, yuksak qadriyatlar, tarixiy xotira xalqimizga qaytarildi. Milliy o'zligini, huquqlarini tobora teranroq anglab borayotgan xalqimiz uchun buyuk kelajakni barpo etish yo'lida bu boy imkoniyatlardan foydalanish, barcha moddiy va ma'naviy boyliklarni milliy rivojlanishga, O'zbekiston demokratik-huquqiy jamiyat qurish ishiga yo'naltirishga safarbar etishdek ulkan imkoniyatlar yaraltildi.

Adabiyotlar:

O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. T. O'zbekiston. 2011.

Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-19 jildlar. T. O'zbekiston. 1996-2011.

Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – engilmas kuch. T.-Ma'naviyat. 2008.

Karimov I. A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T. O'zbekiston 2009 yil.

Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T. - O'zbekiston. 2010.

Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. – T.: O'zbekiston, 2011.

Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T. - O'zbekiston. 2011.

Karimov I.A. Bunyodkorlik, yangilanish, mexr-muruvvat yo'li. Prezident I.A.Karimovning 2012 yil 21 mart Navro'z umumxalq bayramiga bag'ishlab so'zlagan nutqi. T.// Xalq so'zi.2012 yil 22 mart.

Karimov I.A. Inson xotirasi - boqiy,qadr-qimmati – ulug'. Prezident I.A.Karimovning 2012 yil 9 may- Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlab so'zlagan nutqi. T.// Xalq so'zi.2012 yil 10 may.

Nosirxo'jaev S., Safarboev M., Sultonov K Siyosatshunoslik fanidan ko'rgazmali metodik qo'llanma. – T., 2007.

Odilqoriev X.T.Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik.T., 2008.

Xolbekov A., Jumaev R., Umarova N. va boshqalar “Boshqaruvning ijtimoiy- siyosiy yo’nalishlari” - T.; G’. G’ulom, 2008.

Artikbaev O.S., Ganiev J.X. Siyosatshunoslik. O’zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. – T., 2009.

Jumaev R.Z. va boshq. Siyosiy islohotlar strategiyasi. – T.: Akademiya. 2010.

“Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”ni o’rganishga bag’ishlangan Respublika ilmiy–amaliy konferensiya materiallari. (2011 yil 16 mart). Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi, O’zbekiston Milliy universiteti, “Siyosatshunoslik” kafedrası, Respublika “Kamolot” YOshlar ijtimoiy harakati,– T.: Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy universiteti. 2011. – 413 b.

Odilqoriev T., Razzoqov D. Siyosatshunoslik. Darslik. – T: O’qituvchi, 2011.

11-mavzu. Qonun ustuvorligi huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishning asosi.

Reja.

1. Qonun ustuvorligi tushunchasi va mohiyati.

2. Normativ-huquqiy xujjatlarning Konstitutsiya va qonunlarga mos bo’lishining talab etilishi.

3. Qonun ustuvorligining demokratik jamiyat qurishda amalga oshirilishi kafolatlari.

Qonun ustuvorligi tushunchasi va mohiyati.

Ma’lumki, O’zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin o’ziga xos bo’lgan taraqqiyot yo’lini, ya’ni bozor iqtisodi tamoyillariga asoslangan erkin ochiq demokratik davlat qurish yo’lini belgilab oldi. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 1995 yil 23 fevralda O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning birinchi sessiyasidagi ma’ruzasida ta’kidlab o’tganidek, “Biz shunchaki demokratik jamiyat emas, demokratik odil jamiyat qurmoqchimiz...” Adolat va haqiqat g’oyasi ijtimoiy hayotimizning barcha soxalarini qamrab olmog’i darkor. Adolat va haqiqat g’oyasi qonunchilik faoliyatimizning zamini, bosh yo’nalishi lozim.

Darhaqiqat, adolat tushunchasi bilan qonun ustuvorligi tushunchasi chambarchas bog’liqdir. I. Karimov ta’kidlaganidek, qabul qilinayotgan qonunlarimizning zahirida adolat yotishi lozim. Adolatga asoslangan qonunlarning hayotgan tadbiq etilishi adolatni tantana qilishga olib keladi.

Demokratik jamiyat qurish uchun mamlakatda qabul qiliniyotgan qonunlar adolatli bo’lishi, o’zida xalq manfaatlarini ifoda etishi shart. Bunday qonunlarga og’ishmay itoat etilsagina jamiyatda demokratiya qaror topadi va mustahkam bo’ladi. CHunki barcha demokratik institutlar inson huquq va erkinliklari qonun vositasida joriy etiladi.

Demokratik jamiyatning eng muhim belgilaridan biri-jamiyat a’zolarining qonun oldida tengligini, Konstitutsiya va qonunlarining ustunligini ta’minlanganligidir. SHu bilan birga Konstitutsiya va qonunlarning pirovard maqsadi inson, uning huquq va erkinliklarini ta’minlashdan iborat bo’lmog’i lozim.

“Qonun ustuvorligini ta’minlash, shaxs, oila, jamiyat va davlatning huquq va manfaatlarini kuchaytirish, aholining huquqiy ongini oshirish, fuqarolarini qonunga

bo'ysunish va hurmat ruhida tarbiyalash, rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan chinakam demokratik, huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurishning nafaqat maqsadi, balki uning vositasi, eng muhim sharti hisoblanadi" (Islom Karimov. Adolat qonun ustuvorligida. Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning oltinchi sessiyasidagi ma'ruza. 2001 yil 29 avgust. "Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak" kitobida, 10 jild, Toshkent, "O'zbekiston", 2002, 28 bet).

Qonun ustuvorligining mohiyati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qator moddalarida belgilab berilgan. Konstitutsiyasining III bobi ikkita–15 va 16 modallardan iborat bo'lib, Konstitutsiya va qonun ustuvorligiga bag'ishlangan.

Konstitutsiyaning 15-moddasiga muvofiq "O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi.

Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi so'zsiz tan olinadi".

O'z faoliyatini Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq amalga oshirish sanab o'tilgan sub'ektlarning konstitutsiyaviy burchi bo'lib hisoblanadi. Agarda davlat organlari, nodavlat tashkilotlar, mansabdor shaxslar yoki fuqarolar o'zlarining bu burchlarning bajarmasalar ularga nisbatan tegishli javobgarlik choralari qo'llanishi mumkin.

Konstitutsiya va qonunlarga rioya etmagan shaxslarning javobgarligi Konstitutsiyaning o'zida yoki tegishli qonun hujjatlarida mustaxkamlab qo'yilgan bo'ladi. Masalan, Konstitutsiya 93-moddasining 15-bandiga muvofiq Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan viloyat, tuman va shaxar hokimlarini Respublika Prezidenti o'z qarori bilan lavozimidan ozod etishga xaqli.

Bu borada shuni ham aytish lozimki, Konstitutsiyaning normasi boshqa qonunlarning normalariga nisbatan ustunlik xarakteriga ega. Chunki Konstitutsiya barcha boshqa qonunlar uchun poydevordir.

Shuning uchun ham Konstitutsiya 16-moddasida mustahkamlangan qoidaga binoan "Birorta ham qonun yoki boshqa normativ huquqiy xujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas". Agarda birorta normativ-huquqiy xujjat Konstitutsiyaga zid keladigan bo'lsa, u bekor qilinishi lozim.

O'zbekiston Respublikasida normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga mosligini ta'minlash mexanizmi ishlab chiqilgan va amalda qo'llaniladi.

Xo'sh, Konstitutsiyaning bu moddasiga binoan qonun yoki boshqa normativ-huquqiy xujjatning Konstitutsiyaga mosligini qaysi organ nazorat qiladi, degan savolning tug'ilishi tabiiydir.

Normativ-huquqiy xujjatlarning Konstitutsiya va qonunlarga mos bo'lishining talab etilishi.

Normativ-huquqiy xujjatlarning Konstitutsiyaga mosligini nazorat qilishni uni qaysi bosqichda amalga oshirilishiga qarab quyidagi ikki turga bo'lish mumkin:

1. Dastlabki nazorat. Bu nazorat normativ-huquqiy hujjatlar loyiha vaqtida ularni huquqiy ekspertizadan o'tkazish orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy xujjatlar to'g'risida" gi 2000 yil 14 dekabrda qabul qilingan qonuning 18-moddasiga muvofiq "Huquqiy ekspertiza normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlangan organning yoki normativ-huquqiy hujjatni qabul qilinadigan organning yuridik hizmati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan amalga oshirilishi mumkin".

2. Keyingi nazorat. Bu nazorat normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinganidan keyin amalga oshiriladi. Keyingi nazoratning o'zini ham ikki turga bo'lishi mumkin.

a) normativ-huquqiy xujjat qabul qilinganidan keyin, ammo u xali kuchga kirishdan avval amalga oshiriladigan nazorat. Bu nazorat ham Adliya vazirligi tomonidan vazirliklar, davlat qumitalar va idoralar qabul qilgan umummajburiy xarakterga ega bo'lgan normativ-huquqiy xujjatlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishdan avval amalga oshiriladi. Bu normativ-huquqiy xujjatlar davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyingina kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasida vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning umummajburiy xarakterdagi normativ-huquqiy xujjatlarni Konstitutsiya va qonunlarga mosligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1993 yil 17 iyunda "Vazirliklar, davlat qumitalari va idoralarning umumiy-majburiy tusdagi normativ hujjatlarning huquqiy ekspertizasi va ularni davlat ro'yxatiga olish to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida" va 1997 yil 9 oktyabrda "Vazirliklar, davlat qumitalari va idoralar me'yoriy xujjatlarning qonuniyligini ta'minlash chora tadbirlari to'g'risida" qarorlar qabul qildi.

Bu qarorlarning mohiyati shundaki, ular umummajburiy xarakterdagi idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkazilishning majburiyligini ta'minlab berdi. 1997 yil 9 oktyabrdagi qarorda belgilanishicha, agar shunday hujjatlar davlat ro'yhatidan o'tkazilmasa, ular yuridik kuchga ega bo'lmaydi. Konstitutsiya yoki qonunga zid bo'lganlari esa davlat ro'yxatiga olinishi mumkin emas. Ana shunday yo'l bilan idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga va qonunlarga mosligi ta'minlanmoqda.

b) kuchga kirgan normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga mosligi yuzasidan nazorat. Bunday nazoratni davlat organlari amalga oshiriladilar.

Umuman olganda, qonunlarning ijro etilishi va normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga va qonunlarga mos bo'lishini nazorat qilish qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatining amalga oshiruvchi davlat organlari tomonidan olib boriladi.

Qabul qilingan qonunlarning ijro etilishni nazorat qilib borish Oliy Majlis faoliyatida o'ziga xos o'rin tutadi. Oliy Majlis tomonidan qonunlarga rioya qilinishi nazorat qilish, ularning ta'sirchanligini o'rganish, qonun hujjatlaridagi kamchiliklarni, ijtimoiy munosabatlarini tartibga solishdagi nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf etish maqsadini ko'zlaydi. Oliy Majlis qo'mitalari va komissiyalari har yili qariyb 50 ta qonunning ijrosini o'rganadilar. Qonun xujjatlari talablari qanday bajarilayotganini deyarli barcha vazirliklar va idoralarda, viloyatlarda tekshiriladi.

Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarni ta'minlash yuzasidan parlament nazoratini amalga oshirishida Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) instituti muhim rol o'ynaydi. (E.H. Xalilov. O'zbekiston Respublikasining Parlamenti: birinchi chaqiriq Oliy Majlisning faoliyati. Toshkent, "O'zbekiston", 1999, 11-17 betlar).

O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida" gi qonuning 26 moddasining birinchi qismiga muvofiq "Xalq deputatlari viloyat, tuman, shaxar Kengashining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga zid keladigan qarori O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan bekor qilinadi".

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 93 moddasining 1- bandiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, Konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishning kafilidir".

Bu normaga ko'ra Prezident birinchidan, qabul qilinayotgan qonunlar va boshqa normativ huquqiy xujjatlarda fuqarolarning huquq va erkinliklariga rioya etilayotganligini, ikkinchidan esa, ularning Konstitutsiyaga mosligini nazorat qilib boradi.

Konstitutsiyaga ko'ra qonunlar Respublika Prezidenti tomonidan imzolanadi, boshqacha qilib aytganda o'zining rasmiy tasdig'ini topadi. Agar Prezident qabul qilgan qonunda fuqarolarning huquq va erkinliklariga rioya etilmagan yoki u Konstitutsiyaga zid deb xisoblasa, Konstitutsiya 93-moddasining 14-bandiga muvofiq qonunga o'z e'tirozlarini ilova etib, uni takroran muxokama qilish va ovozga qo'yish uchun Oliy Majlisga qaytarishga xaqli. Agarda boshqa normativ-xuquqiy xujjat, masalan, Vazirlar Maxkamasining qarori, vazirning buyrug'i, hokimning qarori Konstitutsiyaga yoki qonunlarga zid bo'lsa Respublika Prezidenti shu moddasining 13-bandiga muvofiq uni to'xtatishga yoki bekor qilishga xaqli.

"Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida" gi qonunning 26-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq "Xokimlarning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasining Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, xukumat hujjatlariga, shuningdek O'zbekiston Respublikasining davlat manfaatlariga zid keladigan hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentini tomonidan va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan to'xtatiladi hamda bekor qilinadi".

SHuni ham alohida ta'kidlash joizki, qonun ustuvorligini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga qonunchilik tashabbusi asosida inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunlar loyixalarning kiritilishi ham katta ahamiyatga ega.

Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan insonparvarlik, adolatparvarlik g'oyalariga asoslangan, jinoyat-prosessual qonun xujjatlarini takomillashtirishga, jinoiy jazolarini liberallashtirishga qaratilgan bir qator qonun loyixalari Oliy Majlisga kiritildi. Ularning qabul qilinishi mamlakatimiz xayotida o'zining samarasini o'zining samarasini bermoqda.

Masalan, Respublikamiz Prezidenti tomonidan loyihasi kiritilib, 2001 yil 29 avgustda Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan "Jinoiy jazolarning liberallashtirishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-prosessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish xaqida"gi qonun bilan jinoyatlarni tasniflash engillashtirish ma'nosida takomillashtirildi, yarashuv instituti joriy etildi, Jinoyat kodeksidagi mol-mulkni musodara qilish jinoiy jazo sifatida bekor qilindi va shu kabi inson huquqini himoya qilishga qaratilgan qator chora-tadbirlar qo'llanildi.

O'zbekiston Respublikasining " Prokuratura to'g'risidagi" 2001 yil 29 avgustda yangi taxrirda qabul qilingan qonuning 20-moddasiga muvofiq "Vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning harbiy qismlari, harbiy tuzilmalari, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi, shuningdek, ular tomonidan qabul qilinayotgan xujjatlarning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarga muvofiqligi nazorat predmeti hisoblanadi".

Sudlar tomonidan davlat organlari huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga va qonunlarga mosligini nazorat qilinishi sud organlarining vakolatlaridan biri bo'lib xisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 12-moddasi "Davlat organing yoki fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organining hujjatini haqiqiy emas deb topish" deb nomlangan bo'lib, uning birinchiga qismiga muvofiq "Davlat organlarning yoki fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organining qonun hujjatlariga muvofiq bo'lmagan hamda fuqarolarning yoki yuridik shaxslarning fuqarolik huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzadigan xujjati sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin".

Sud xuquqiy hujjatini haqiqiy emas deb qaror chiqargan taqdirda bu qaror hamma davlat organlari va boshqalar uchun ham majburiydir. Chunki, Konstitutsiyaning 114-moddasida "Sud xokimiyati chiqargan xujjatlar barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir" deb mustaxkamlab qo'yilgan.

Sud qaroriga ko'ra haqiqiy emas deb e'lon qilingan huquqiy xujjat yuridik kuchga ega emas.

Agarda biron-bir xujjatning qonuniyligi to'g'risida sud qarori mavjud bo'lsa o'sha xujjat yuzasidan fuqarolar yoki tashkilotlar sudga yana shikoyat qilishlari mumkin emas.

Qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyati tomonidan chiqarilgan normativ-xuquqiy xujjatlarning konstitutsiyaviyligini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudiga yuklatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi qonunlarning va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qabul qilingan boshqa xujjatlarning, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlarning, Hukumat qarorlarning, davlat hokimiyati mahalliy organlari qarorlarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga mosligini aniqlaydi.

Konstitutsiyaning ushbu moddasida ko'rsatilagan normativ-xuquqiy xujjatlarning Konstitutsiyaga yoki qonunlarga mosligini umumiy yurisdiksiya yoki xo'jalik sudlari nazorat qilishga haqli emaslar. Ularning Konstitutsiyaga mosligini aniqlash Konstitutsiyaviy sudning mutlaq vakolatiga kiradi.

SHu erda yana bir savol tug'iladi. Konstitutsiyaviy sud faqatgina normativ-xuquqiy xujjatlarning Konstitutsiyaga mosligini nazorat qiladimi yoki normativ bo'lmagan individual huquqiy xujjatlarning ham Konstitutsiyaga mosligini nazorat qiladimi? Bu to'g'rida Konstitutsiyada ham, boshqa hujjatlarda ham aniq ko'rsatilmagan. Ammo, O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi qonuning 13-moddasining oxirgi qismiga muvofiq "O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroning buyruqlari va boshqa xujjatlari (individual xususiyatga ega bo'lgan xujjatlar bundan mustasno) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga zid bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudining qarori asosida bekor qilinadi" degan norma mustaxkamlangan.

Agar shu norma asos qilib olinadigan bo'lsa, fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi respublika Prezidentining individual xarakterga ega bo'lgan farmonlarning yoki Vazirlar Maxkamasining individual xarakterga ega bo'lgan qarorlarning Konstitutsiyaga mosligini ham nazorat qilmasligi lozim.

Prokuror qabul qilgan qarorlar ustidan, shuningdek, respublika Bosh prokurori qabul qilgan individual xarakterga ega bo'lgan buyruqlar va boshqa hujjatlar ustidan amaldagi qonun hujjatlarga ko'ra sudga shikoyat qilish mumkin emas. Chunki, "Prokuratura to'g'risida"gi qonuning 7-moddasida prokuror qabul qilgan "qaror ustidan yuqori turuvchi prokurorga shikoyat qilinishi mumkin" degan qoida mustaxkamlab qo'yilgan.

Fikrimizcha, bu norma ning o'zi Konstitutsiyaga mos emas. Konstitutsiyaning 44-moddasida "Har bir shaxsga o'z xuquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayri-qonuniy xatti-xarakatlari ustidan sudga shikoyat qilish xuquqi kafolatlanadi" deb ko'rsatilgan.

Agarda umumiy yurisdiksiya sudlarida yoki xo'jalik sudlarida yoki xo'jalik sudlarida Konstitutsiyaning 109-moddasida sanab o'tilgan normativ-xuquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga mosligiga shubha bo'lsa yoki bu masalada fuqarolarning shikoyatlari bo'lsa Oliy sudning raisi, Oliy xo'jalik sudining raisi ushbu normativ-xuquqiy hujjatning Konstitutsiyaga mosligini aniqlab berishni so'rab Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilishi mumkin.

Bunday holda ular Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilishlari shartmi yoki bu ularning huquqlarimi, degan o'rinli savol tug'iladi.

"O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi qonuning 19-moddasiga muvofiq bu ularning huquqlaridir. Demak, ular hohlasalar Konstitutsiyaviy sudga ko'rib chiqish uchun masala kiritadilar, hohlamasalar masala kiritmaydilar.

Qonun ustuvorligining demokratik jamiyat qurishda amalga oshirilishi kafolatlari.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda huquqiy madaniyatni yuksaltirish davlat siyosati darajisiga ko'tarilgan. Zotan, demokratlashtirish jarayonida faol ishtirok etish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish har bir yurtdoshimizdan etuk huquqiy madaniyat sohibi bo'lishni taqozo etadi. Binobarin, o'z haq-huquqini puxta bilgan insongina, avvalo, oilasi, farzandlari, yurtdoshlari huquqini, qolaversa, Vatan mustaqilligini himoya qilishga qodir bo'ladi.

O'zbekistonda inson huquq va erkinliklarini, qonuniy manfaatlarini himoya qilishning huquqiy va konstitutsiyaviy asoslari mustaqilligimizning ilk bosqichidayoq shakllantirila boshlandi. MDH davlatlari orasida birinchilardan bo'lib yurtimizda Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida qonun qabul qilindi. Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz tashkil topdi. Ko'ppartiyaviylik tizimi singari, o'zida mamlakat aholisining barcha qatlamlari manfaatlarini ifodalagan demokratik institutlar, nodavlat notijorat tashkilotlar, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari keng faoliyat yuritayotir. Ommaviy axborot vositalarining erkin rivojlanishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Biznes va tadbirkorlik, fermerlik, xalq hunarmandchiligi rivojiga keng yo'l ochilgan.

Hulosa qilib aytadigan bo'lsak, qonun ustuvorligi quyidagi uchchala holat bo'lganidagina o'zining to'liq ifodasini topadi.

Birinchidan, qabul qilinayotgan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar adolatga, inson huquqi va manfaatlariga asoslangan bo'lishi, ikkinchidan, Konstitutsiya, qonunlar va boshqa normativ-xuquqiy hujjatlarning barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolar tomonidan aniq bajarilishi va uchinchidan, barcha normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiya va

qonunlariga mos bo'lishi lozim. Fikrimizcha qonunlar ustidan qanchalik ko'p boshqa qonunlar qabul qilinmasin va ularni xayotga ta'dbiq e'tish mexanizmlari ishlab chiqilmasin ular real xayot bilan bog'liq bo'lmasa hamda aholi zaruratidan kelib chiqmasa, bunday normativ aktlar faqat qog'ozda qolaveradi.

Adabiyotlar:

- O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. T. O'zbekiston. 2011.
- Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-19 jildlar. T. O'zbekiston. 1996-2011.
- Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – engilmas kuch. T.-Ma'naviyat. 2008.
- Karimov I. A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T. O'zbekiston 2009 yil.
- Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T. - O'zbekiston. 2010.
- Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. – T.: O'zbekiston, 2011.
- Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T. - O'zbekiston. 2011.
- Karimov I.A. Bunyodkorlik, yangilanish, mexr-muruvvat yo'li. Prezident I.A.Karimovning 2012 yil 21 mart Navro'z umumxalq bayramiga bag'ishlab so'zlagan nutqi. T.// Xalq so'zi.2012 yil 22 mart.
- Karimov I.A. Inson xotirasi - boqiy,qadr-qimmat – ulug'. Prezident I.A.Karimovning 2012 yil 9 may- Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlab so'zlagan nutqi. T.// Xalq so'zi.2012 yil 10 may.
- Nosirxo'jaev S., Safarboev M., Sultonov K Siyosatshunoslik fanidan ko'rgazmali metodik qo'llanma. – T., 2007.
- Odilqoriev X.T.Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik.T., 2008.
- Xolbekov A., Jumaev R., Umarova N. va boshqalar “Boshqaruvning ijtimoiy- siyosiy yo'nalishlari” - T.; G'. G'ulom, 2008.
- Artikbaev O.S., Ganiev J.X. Siyosatshunoslik. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. – T., 2009.
- Jumaev R.Z. va boshq. Siyosiy islohotlar strategiyasi. – T.: Akademiya. 2010.
- “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”ni o'rganishga bag'ishlangan Respublika ilmiy–amaliy konferensiya materiallari. (2011 yil 16 mart). Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Milliy universiteti, “Siyosatshunoslik” kafedrası, Respublika “Kamolot” YOshlar ijtimoiy harakati,— T.: Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti. 2011. – 413 b.
- Odilqoriev T., Razzoqov D. Siyosatshunoslik. Darslik. – T: O'qituvchi, 2011.

12-mavzu. Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish, fuqaro erkinligi huquq va manfaatlari ustuvorligini ta'minlash

Reja:

- 1. Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish tushunchasi, ma'no mazmuni**
- 2. Fuqaro erkinligi va faolligi tushunchasi, uning mohiyati va mazmuni.**
- 3. Prezident I.A.Karimov demokratik jamiyat qurishda inson va shaxs erkinligi faolligini yuksaltirish konsepsiyasi.**
- 4. Demokratiya - fuqarolar ijtimoiy faolligini oshirish, erkin va farovon hayotni barpo etishning zaruriy sharti.**

Yo'lboshchimiz I.A.Karimov **"O'zbekiston XXI asrga intilmoqda"** dasturiy asarida konseptual nazariy-amaliy aksini topgan ana shu istiqbol rejolari, aniqrog'i, *"XXI asr arafasi va uning dastlabki yillarida mamlakatimizning rivojlanish strategiyasi, islohotlarni chuqurlashtirish va jamiyatni yangilash borasidagi faoliyatimizning mazmun-mohiyati nimalardan iborat bo'lishi kerak"*ligi quyidagi olti ustuvor yo'nalish misolida aniq belgilab berildi.

Xo'sh, mashhur besh tamoyildan kelib chiqqan, uning yangicha sharoitdagi bevosita uzviy-mantiqiy davomi bo'lgan olti ustuvor yo'nalish qanday taqdirilomon muammolar va ular echimlarining qanday mexanizmlaridan iborat? Demokratik islohotlarning bu yangi bosqichi nazariyasi va amaliyoti qanday umumqadriyatga asoslangan?

Demokratik yangi umumqadriyat bu - **jamiyat hayotining barcha sohalarini erkinlashtirish, liberallashtirish siyosatidir.**

Ma'lumki, liberallashtirish (erkinlashtirish) demokratik rejimning nisbatan zamonaviy, jamiyatni siyosiy tashkil etishning samarali shakli bo'lib, hozirgi kunda juda ko'plab davlatlarning jozibador siyosiy rejimi hisoblanadi.

Liberal - demokratik rejim aslida hokimiyatni amalga oshirish rejimi emas, balki liberallashtirish sivilizasiyasi rivojining muayyan bosqichida shu sivilizasiyaning mavjudligi shartidir. Siyosiy, jumladan, liberal - demokratik rejim evolyusiyasi - tadriji sharoitida sivilizasiya rivojining yangi tendensiyalari demokratik va insonparvarlik tamoyillari tizimlariga asoslangan hokimiyatni amalga oshirishning yangicha siyosiy usul hamda vositalarini qonuniy ravishda yuzaga keltiradi. Bu tamoyillar, avvalo, shaxs bilan davlat munosabatlarining huquqiy sohasini xarakterlab beradi. Liberal davlat barcha fuqarolarning amaldagi tengligini, so'z, fikr erkinligini, shaxs huquqlari va erkinliklarini konstitusiyaviy aniq belgilagani holda, jamiyatda huquqiy madaniyatning yuksak darajasi bilan ajralib turadi. SHu sabab ham liberallashtirish faqat va faqat demokratik asoslardagina mavjud bo'ladi, aniqrog'i, g'irt demokratik rejimdan "unib" chiqadi.

Liberallashtirish, liberalizm demokratik sivilizasiyaning hozirgi umumdunyoviy holati global muammolar, ziddiyatlar, ehtimoli bo'lgan inqirozlar insoniyat oldida qo'yishi muqarrar yangi-yangi muammolar echimiga nisbatan mos keluvchi umumqadriyat hisoblanadi.

Ijtimoiy taraqqiyot shakli bo'lmish erkinlashtirish qator muhim komponentlarga ega. Mamlakatimizda mavjud aniq shart-sharoitlardan kelib chiqilgani holda, ushbu komponentlar quyidagicha belgilandi:

Birinchidan, aholining siyosiy faolligini kuchaytirish, jamiyatda manfaatlar va qarama-qarshi kuchlar o'rtasida muvozanatni ta'minlaydigan kuchli mexanizmlarni shakllantirish zaruratiga asoslangan siyosiy sohani erkinlashtirish.

Siyosiy hayot erkinligi, avvalo, demokratiya, deganidir. Demak, ushbu ustuvor yo'nalish bevosita demokratiyaning umumtan olingan tamoyillariga, jumladan, fuqarolarning saylov huquqi, o'z xohish-irodasini erkin ifodalash, manfaatlarini ro'yobga chiqarish va himoya qilish huquqini ta'minlash uchun haqiqiy shart-sharoit, qonuniy huquqiy zamin yaratishga asoslanadi. SHunday zamin yaratildi.

Ikkinchidan, eng avvalo, davlatning boshqaruv rolini chegaralashga xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy erkinliklarini hamda iqtisodiyotning barcha sohalarida xususiy mulk miqyoslarini kengaytirishi, mulkdorlarning mavqei hamda huquqlarini mustahkamlashga qaratilgan iqtisodiyot sohasini yanada erkinlashtirish.

Uchinchidan, hokimiyat barcha tarmoqlarining bir-biridan mustaqil holda ish yuritish tamoyillarini mustahkamlash, hokimiyat vakolatlarini nodavlat va jamoat tashkilotlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza borish, ularning haq-huquqlari hamda erkinliklarini muhofaza etishni kuchaytirishdan iborat davlat qurilishi va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlarini erkinlashtirish.

Demokratik taraqqiyot yo'lini tanlagan, ushbu sivilizasiya sari yuz tutgan har qanday zamonaviy dunyoviy davlat ushbu umumqadriyatsiz, u o'rta qo'yayotgan muammolarsiz, eng muhimi, mazkur muammolar echimlariga topilishi muqarrar aniq javoblarsiz yashay olmaydi. Umumjarayon talabidan O'zbekiston ham demokratik huquqiy davlat sifatida chetda tura olmaydi. Talabga javob sifatida O'zbekiston o'z Yo'l boshchisi siyosiy falsafasining navbatdagi kashfiyoti bo'lgan erkinlashtirish (liberallashtirish) yo'lini tanladi va uning nazariy-amaliy yaxlit konsepsiyasini ishlab chiqdi.

Konsepsiya Islom Karimovning "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" asarida quyidagi olti ustuvor yo'nalish maqomida nazariy-amaliy ifodasini topdi:

Dastlabki ustuvor yo'nalish mamlakat siyosiy va iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirishga qaratildi.

Siyosiy sohani erkinlashtirish borasida avvalambor, aholining siyosiy faolligini kuchaytirish, jamiyatda manfaatlar va qarama-qarshi kuchlar o'rtasida muvozanatni ta'minlaydigan kuchli mexanizmlarni shakllantirish zarur.

Demokratiyaning eng muhim tamoyili - odamlarning saylov huquqini, o'z xohish-irodasini erkin ifodalash, o'z manfaatlarini ro'yobga chiqarish va himoya qilish huquqini ta'minlash uchun haqiqiy shart-sharoit, qonuniy-huquqiy zamin yaratib berish lozim.

SHu ma'noda hokimiyat tuzilmalariga bo'ladigan navbatdagi saylovlar jamiyatni erkinlashtirish va demokratik islohotlar yo'lida siyosiy tizimimiz uchun katta sinov bo'ladi.

Saylovlarni Konstitusiyamiz va qonunchiligimiz talablariga qat'iy tayangan holda, umume'tirof etilgan xalqaro amaliyot me'yorlari doirasida o'tkazish muhim ahamiyatga egadir.

Davlat qurilishi va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlarini erkinlashtirish masalasi ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi asosiy vazifalar hokimiyat barcha tarmoqlarining bir-biridan mustaqil holda ish yuritish tamoyillarini mustahkamlash, hokimiyat vakolatlarini nodavlat va jamoat tashkilotlariga, fuqarolarni o'z o'zini boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza borish, ularning haq-huquqlari va erkinliklarini muhofaza etishni kuchaytirishdan iborat.

Iqtisodiyot sohasini yanada erkinlashtirish maqsadi - birinchi navbatda davlatning boshqaruv rolini chegaralash, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy erkinliklarini hamda iqtisodiyotning barcha sohalarida xususiy mulk miqyoslarini kengaytirish, mulkdorlarning mavqei va huquqlarini mustahkamlash demakdir.

Ikkinchi ustuvor yo'nalish - jamiyat ma'naviyatini yanada yuksaltirishdan iborat. Ma'naviyat haqida gap ketar ekan, men avvalo, insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymon-irodasini, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan qudratli botiniy kuchni tasavvur qilaman.

Erkin fuqaro ma'naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifadir. Boshqacha aytganda, biz o'z haq-huquqlarini taniydigan, o'z kuch va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak.

Barchamiz yaxshi anglab olishimiz kerakki, hayotimizning boshqa sohalaridagi ahvol, amalga oshirilayotgan islohotlarimizning samaradorligi avvalo xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o'rganilishi, an'analarimizning saqlanishi madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji bilan uzviy bog'liqdir.

Uchinchi ustuvor yo'nalish - kadrlar masalasi. Biz oldimizga qanday vazifa qo'ymaylik, qanday muammoni echish zarurati tug'ilmasin, gap oxir-oqibat, baribir kadrlarga va yana kadrlarga borib taqalaveradi. Mubolag'asiz aytish mumkinki, bizning kelajagimiz, mamlakatimizning kelajagi o'rnimizga kim kelishiga yoki boshqacharoq aytganda, qanday kadrlar tayyorlashimizga bog'liq.

Oliy Majlis IX sessiyasida qabul qilingan Kadrlar tayyorlash bo'yicha Milliy dasturni amalga oshirish, hayotga tadbiiq etish, hech bir mubolag'asiz, strategik maqsadlarimiz - farovon, qudratli, demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati barpo etishimizning asosi bo'lmog'i zarur.

To'rtinchi ustuvor yo'nalish - xalq turmush darajasining izchil va barqaror o'sishi aholini yanada kuchli ijtimoiy himoya qilishni ifoda etadi.

Aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlash islohotlarning barcha bosqichida asosiy yo'nalish bo'lib xizmat qiladi. Bu islohotlarimizga asos qilib olingan besh tamoyildan biridir. Biz bundan keyin ham shu tamoyilga tayangan holda ish olib borishimiz kerak.

Beshinchi ustuvor yo'nalish - bu iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlashdir. Mazkur o'zgarishlar korxonalarni yangilash va texnik qayta jihozlashga, mamlakatning boy tabiiy va mineral-xom ashyo salohiyatidan to'la va samarali foydalanishga, eksportga moslashgan va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqaradigan quvvatlarni barpo etishga qaratilmog'i dardkor.

Oltinchi ustuvor yo'nalish - jamiyatdagi barqarorlik, tinchlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikni, sarhadlarimiz daxlsizligini, mamlakatimiz hududiy yaxlitligini ta'minlashdan iborat.

SHu munosabat bilan men O'zbekiston boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, dunyo mamlakatlari bilan teng huquqlilik asosida sherikchilik qilish, barcha mojaro va muammolarni faqat tinch siyosiy va huquqiy vositalar bilan hal etish tarafdori ekanini yana bir bor ma'lum qilmoqchiman.

Ammo mintaqadagi ahvol, dunyoning boshqa hududlarida vaziyatning keskinlashuvi O'zbekistonning suverenitetiga, izchil va barqaror rivojiga xavf solishi mumkin bo'lgan kuchlarga munosib javob qaytaradigan xavfsizlik tizimlarini yaratishni taqozo etmoqda. Mazkur vazifalarni bajargan taqdirdagina biz farovon turmushga, adolatli hayotga erishamiz, jahon hamjamiyatida o'zimizga munosib o'rnimiz va nufuzimiz bo'ladi".

Jamiyat hayotining barcha sohalarini erkinlashtirishning qayd etilgan ustuvor yo'nalishlari yaxlit mushtaraklikda O'zbekiston qanday strategik maqsad va vazifalar

bilan XXI asrni boshlashi, nimalardan voz kechish, qanday yo'llar bilan hayotni yaxshilash, yangi asr boshida muqarrar muammolarning echimi bilan bog'liq qanday taqdirilomon masalalarni birinchi galda hal qilish lozim, degan savollarga konseptual javob bo'ldi.

Bosh xulosa shundaki, jamiyat hayotini yalpi erkinlashtirish tub mohiyat - e'tibori bilan O'zbekistonda amalga oshirilayotgan barcha demokratik o'zgarishlarning asosiy bog'lovchi bo'g'iniga aylandi.

“SHu bilan birga, tabiiyki, biz... erkinlashtirish jarayonlariga, jamiyatimizni demokratiyalashtirish natijalariga bu yo'lda erishilgan dastlabki bosqich sifatida qaraymiz. SHundan kelib chiqqan holda, erkinlashtirish tamoyilini kengaytirish sohasidagi asosiy yo'nalishlarni belgilar ekanmiz, diqqat-e'tiborimizni” to'liq holda ularning amaliy ijrosiga qaratmog'imiz shart.

Xo'sh, amaliy ijro qanday?

Savolga ustuvor yo'nalishlar mushtarakligi bilan bevosita bog'liq ikki masalaning muxtasar tahliliga to'xtash orqali javob beramiz.

Birinchisi. Siyosiy hayotni, davlat va jamiyat qurilishi jarayonlarini erkinlashtirishning amaliy ko'rinishi 2001 yil 27 yanvardagi umumxalq Referendumi yakunlari, Prezidentlik vakolatining besh yildan etti yilga uzaytirilgani, Oliy Majlisning 2004 yilgi saylovdan so'ng ikki palatali professional parlament maqomida faoliyat ko'rsatishi haqiqatida va bu o'zgarishlarning yangi konstitusiyaviy-huquqiy asoslari yaratib berilgani bilan bog'liq. Ayniqsa, amaldagi Konstitusiyaga kiritilgan o'zgartishlar va qo'shimchalar, ularda huquqiy rasman muhrlangan o'zgarishlar mamlakat siyosiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishi jarayonlarini yanada demokratlashtirish asosida erkinlashtirish amaliyotiga zamin bo'ldi va h. k.

Ikkinchisi. Ustuvor yo'nalishlar tizimida, shubhasiz iqtisodiyot sohasini erkinlashtirish alohida maqom ega. Gap shundaki, shaxsning moddiy manfaatlari manbai bo'lgan mehnat faoliyati inson hayotida taqdirilomon ahamiyatga ega. SHu bois fuqarolarning ta'minlanishi, albatta, shart bo'lgan huquqlari, erkinliklari va mas'uliyat-majburiyatlari jamiyatda mavjud imtiyozlardan foydalanish imkonini beruvchi ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq.

Islom Karimov o'z siyosiy-iqtisodiy ta'limotida iqtisodiyotni erkinlashtirish bilan bog'liq birinchi galdagi asosiy vazifani mulkdorlar sinfini shakllantirish masalasini tubdan hal etish, xususiyl mulkchilik etakchi o'rinda turadigan ko'p ukladli iqtisodiyotni barpo etish, deb belgiladi.

«**Demokratiya**» yunoncha so'z bo'lib, tarjimada xalq hokimiyati – (demos-xalq, krotos-hokimiyat) ma'noni bildiradi. **Demokratik jamiyat deb oliy hokimiyat bevosita xalqqa tegishli bo'lgan va xalqning xohish-irodasi bilan amalga oshadigan davlat va jamiyatga aytiladi.** Albatta, demokratiya atamasining qanday sharhlanishi emas, balki uning qanchalik realligi, haqiqiyiligi, yashashga qobilligi muhimdir. «Binobarin, - deb ta'kidlaydi I.A.Karimov - biz o'z istagimizdagi demokratiyaga qanday mazmun baxsh etmaylik, agar u hayotimizning har bir soniyasiga singib ketmasa, turmushimizning ajralmas qismiga aylanmasa, hamma shiorlar va ta'riflar yo mazmunsiz baqir-chaqir yoki hech narsani anglatmaydigan so'z o'yini bo'lib qolaveradi»^{18[18]}. **Demokratiyaning vazifasi** - fuqarolarning

^{18[18]} Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хафсизликка тахдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари. Т.6. –Т.: «Ўзбекистон», 1998, 180-бет.

huquqlari tan olinadigan va himoya qilinadigan, ularning burchlariga rioya etiladigan va bajariladigan jamiyatni qurishdan iborat. Lekin hozirgacha hech qaysi davlat bunga mukammal erishmagan, faqat unga harakat qilib kelmoqda. Demokratik boshqaruv jarayonida siyosiy hayotda ishtirok etish nafaqat fuqarolarning muhim belgisi bo'libgina qolmasdan, bu ularning huquqlari, balki burchlari ekanligini ham anglash muhim ahamiyat kasb etadi. SHu jihatlarni ham hisobga olish muhimdir.

Demak, **birinchidan, demokratik jamiyat** - har bir mamlakat va xalqning demokratiyada umume'tirof etilgan qadriyatlari va tamoyillari hisobga olinadigan davlatchilik sohasidagi milliy-madaniy merosi xususiyatlariga tayaniladigan, fuqarolarning huquqlari tan olinadigan va himoya qilinadigan, ularning burchlariga rioya etiladigan va bajariladigan, boshqaruvda fuqarolar faol ishtirok etadigan jamiyatdir.

Ikkinchidan, umumiy tarzda demokratiya deganda hammaning manfaatlari yo'lida ko'pchilikning hokimiyati va ozchilikning irodasini hurmat qilish tushuniladi.

Uchinchidan, uni batafsil tahlil qilganda esa demokratiya xalqning o'z erkinligi va mustaqilligiga qarashlari ham, har bir shaxsning manfaatlari va huquqlarini o'zboshimchalik bilan cheklashlar va shu yo'sindagi harakatlardan himoya qilish ham, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish shakli ham ekanligi ayon bo'ladi^{19[19]}.

13-Mavzu. (Seminar mashg'uloti)

Demokratik bozor islohotlari va iqtisodiyotni liberallashtirish. Demokratik jamiyat qurishda kuchli ijtimoiy himoya va adolat tamoyillari **Reja.**

- 1. Iqtisodiyot va demokratik jamiyatning o'zaro bog'liqligi.**
- 2. Mulkchilikning hilma – hil shakllarining rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratib berish zarurligi.**
- 3. Iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish.**

Iqtisodiyot va demokratik jamiyatning o'zaro bog'liqligi.

Iqtisodiy hayot ijtimoiy hayotning muhim sohalaridan biri bo'lib, uning asosi rivojlanish manbaini tashkil qiladi. Unda insonlar o'zlarining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida tirikchilik nematlari, vositalarini ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshdash va iste'mol qilishga qaratilgan faoliyatni ko'rsatadilar xamda o'zaro iqtisodiy munosabatlarga kirishadilar.

Iqtisodiy hayot kishilarning ijtimoiy, madaniy, siyosat xayot sohalarining moddiy asosini tashkil etadi va ularning rivojlanishiga ta'sir qiladi. SHuningdek jamiyatning ijtimoiy – siyosiy va madaniy tizimi ham o'z o'rnida iqtisodiyotga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Sovet totalitar, ma'muriy-buyruqbozlik tizimi sharoitida iqtisodiy hayot sohta siyosat, mafkuraviy maqsadlarga buysundirilgan edi. Siyosat va mafkura iqtisodiyotdan ustun bo'lib, uning rivojlanish yo'nalishlarini belgilab berar edi. Bu tuzumning iqtisodiy negizini davlat va kolxoz - kooperativ mulki deb atalmish, egasiz mulk tashkil etardi. Davlat ishlab chiqarish fondlarining 90 foiziga ega bo'lib, iqtisodiyotda yakka xokimlikni o'rnatgan edi. Buning oqibatida iqtisodiy xayotni bir markazdan ma'muriy-buyruqbozlik asosida boshqarib, nimani, ya'ni qanday

mahsulot hizmatlarni qancha miqdorda, qanday texnologiyalardan foydalanib, kimlar uchun ishlab chiqarishni rejalashtirib, belgilab berar edi.

Jamiyat a'zolari ijtimoiy mulkka egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqidan, mulkdorlik hissidan mahrum edilar. Tadbirkorlik, biznes bilan shug'ullanish huquqidan ham hech kim foydalana olmas edi. Bunday faoliyat bilan shug'ullanganlar chayqovchi, yot unsur sifatida jinoiy javobgarlikka tortilar edilar.

Kishilarning mulkdan, uning natijalarini tasarruf etishdan begonalashganliklari tufayli, mehnat motivatsiyasi va ijtimoiy adolat tamoillari buzilib, natijada sovet ittifoqi tanazzulga uchrab tarqab ketdi.

Mustaqillikka erishgach O'zbekiston xalq turmush farovonligini, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik erkinliklarini, eng muhimi mulkdor bo'lish imkoniyatlarini ta'minlaydigan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan insonparvar demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etish maqsadida tub islohotlarni amalga oshirmoqda. O'zbekistonda shakllanayotgan hususiy mulk ikki turdan iborat bo'ladi: Birinchi, yakka tartibda faoliyat yurituvchi tadbirkorlarning, dehqon va fermerlarning hususiy mulki. Ikkinchisi, ularning shirkat xo'jaliklaridagi paylari, aksiyadorlik jamiyatlaridagi aksiyalari, uyushmalaridagi ulushlaridan iborat kooperativ hususiy mulk.

Erkin ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining eng muhim belgisi iqtisodiy plyuralizm bo'lib, demokratiyaning tamoili ham hisoblanadi. Iqtisodiy plyuralizm tushunchasi mulk shakllari va xo'jalik yuritish usullarining hilma-hil bo'lishida o'z ifodasini topadi. Bunda turli mulk shakllarining teng huquqligi, muvozanatda bo'lishi ta'minlanib, ulardan ayrimlarining yakka xukmronligiga yo'l qo'yilmaydi. SHuning uchun ham O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida "...bozor munosabatlarini rivojlantirishga karatilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini hilma-hil shakldagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnatqilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqligini va huquqiy jihatdan bab-baravar himoya etilishini kafolatlaydi"²⁰[20] deb belgilab qo'yilgan. Demokratik jamiyatga monand iqtisodiyotning erkinligi uning quyidagi tub belgilarida o'z ifodasini topadi:

1. Xususiy mulk; 2. tadbirkorlik va tanlov erkinligi; 3. shaxsiy manfaatning inson xati - xarakatining bosh motivi ekanligi; 4. rakobat; 5. erkin narx tizimi; 6. hukumat, davlatning iqtisodiyotga aralashuvining cheklanganligi.

Tadbirkorlik erkinligi ayrim shaxslar va ularning uyushmalari, guruhlarining foyda, daromad olish maqsadida ma'lum sohada ho'jalik, iqtisodiy faoliyat yuritish erkinligini bildiradi. Bu shuningdek, u yoki bu tarmoqqa tadbirkorlarning o'z xoxishlariga ko'ra kirishini va undan chiqishini ham anglatadi.

Tanlash erkinligi istemolchilar hukuklari va manfaatlarining ustunligi, ularning o'z hohishi, istaklari, didi, daromadiga mos tovar va hizmatlarni tanlash erkinligiga ega ekanligini ifodalaydi. Buning uchun birinchidan, tovar xizmatlar hamda resurs bozorlari ham qimmat ham arzon, bir-birlarining o'rinlarini bosuvchi va to'ldiruvchi tovarlar bilan to'lgan bo'lishi, ikkinchidan, davlat istemolchilar ularning hayoti va salomatligiga ziyon etkazuvchi tovarlardan himoya qiladi. SHu maqsadlarda O'zbekiston Respublikasining "Istemolchilarning huquqlarini himoya qilish

to'g'risida"gi qonun amalga oshirilmoqda. SHuningdek Vazirlar Mahkamasining 2002 yilda qabul qilingan muhim qarorlariga muvofiq respublikaga istemol tovarlarini noqonuniy olib kirilishi va sotilishini oldini olish chora-tadbirlari ko'rilmoqda.

Kishilar naf, foyda daromad olish uchun intilib, o'zlarida bor bo'lgan qobiliyatlari va imkoniyatlarini ishga soladilar. Raqobat iqtisodiyot sub'ektlari shahsiy manfaatlarini ro'yobga chiqarishning chegarasini belgilaydi. Hech kimning iqtisodiy yakxoximlik qilishiga yo'l qo'yilmaydi. SHunigdek, raqobat ishlab chiqaruvchi va sotuvchilarning istemolchi, xaridorlar manfaati, didi hohishini inobatga olishga bir-biridan arzonroq va sifatliroq tovar ishlab chiqarish maqadida YAngi texnologiyalardan foydalanishga undaydi.

Erkin tadbirkorlik, raqobat va narh tizimiga asoslangan bozor iqtisodiyotida xukumat va davlatning roli cheklangan bo'ladi. Davlat faqat bozor mexanizmining amal qilishiga ko'maklashadi. Buning uchun davlat iqtisodiyot sub'ektlari faoliyatining qonuniy bazasini yaratib, faoliyat qoidalarini belgilaydi. Aholining turmush darajasini barqaror o'sib borishini, kam ta'minlangan aholi qatlamlarini ijtimoiy himoyalash, boy va kambag'allar o'rtasidagi farqlarning keskinlashib ketishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida aholi daromadini soliqlar, transfert to'lovlari yordamida qayta taqsimlaydi. Bundan tashqari davlat, makroiqtisodiy barqarorlikni iqtisodiy o'sishni ta'minlash maksadida soliq byudjet va pul-kredit vositalari orqali iqtisodiyotni tartibga solib turadi.

Davlat bozor mexanizmi to'la – to'kis bajara olmagan ishlarni o'z zimmasiga olib, raqobat muhitini saqlaydi, iqtisodiyot sub'ektlarining erkin faoliyatini ta'minlaydi. Hamma jamiyat uchun kerakli bo'lgan maxsulotlarni ishlab chiqarishni o'z zimmasiga oladi.

Demak, O'zbekiston iqtisodiy xayotini erkinlashtirish tushunchasi xususiy mulkning miqyoslarini kengaytirish va uning daxlsizligini ta'minlash, ta'dbirkorlik faoliyati va tanlash erkinligiga, rakobatga asoslangan bozor munosabatlarini rivojlantirish hamda davlatning iqtisodiy funksiyalari va faoliyat doiralarini cheklash bilan chambarchas bog'liqdir.

Mulkchilikning hilma – hil shakllarining rivojanishiga keng imkoniyatlar yaratib berish zarurligi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar iqtisodiyotni davlat tasarrufidan chiqarish unda demokratiya tamoillari bo'lgan erkin faoliyat, tadbirkorlik va iqtisodiyot tamoillarini joriy etish orqali jamiyat xayotini rivojlantirishga qaratilgan.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va hususiyashtirish bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrining dastlabki bosqichlarida davlat tadbirkorligi (korxonalari), tadbirkorlikning boshqa turlariga nisbatan vaqtincha ustun bo'ladi. O'tish davrida mulkchilik munosabatlarini juda tezlik bilan qayta qurib bo'lmaydi, bu jarayon uzoq davom etadigan tajribiy jarayon bo'lmog'ligi darkor.

Davlat korxonalari byudjet korxonalari, davlat ishlab chiqarish korxonalari va aralash kompaniyalar tarzida faoliyat ko'rsatadilar. Davlat korxonalarning barcha daromad va xarajatlari davlat byudjeti orqali o'tadi, ular aniq vazirlik yoki idoraga hamda mahalliy boshqaruv organlariga bo'ysunadi. Davlat ishlab chiqarish korxonalari esa o'zlarida tijorat korxonalari va davlat organlari xususiyatlarini mujassam etadi.

Aralash kompaniyalar esa hissadorlik jamiyatlari va majburiyatlari cheklangan jamiyatlar shaklida tashkil etilib, ular chiqargan aksiyalar davlatga va xususiy omonatchilarga taalluqli bo'ladi.

Firma (korxona)-bozor munosabatlariga o'tish sharoitida tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishining asosiy shakli va bevosita ishlab chiqarish jarayonini amalga oshiruvchi milliy iqtisodiyotning asosiy b'g'ini sifatida namoyon b'yladi.

Dunyo miqyosida ijtimoiy-siyosiy vaziyat keskin o'zgarib borishi sharoitida mamlakatimiz iqtisodiyotida ham hususiy firmalarning ahamiyati keskin oshib bormoqda. Hususiy firmalar - ayrim shaxslarga va oilalarga qarashli bo'lib, individual hususiy mulk hisoblanadi. Bunday korxonalar kichik, o'rta biznesda va qishloq xo'jaligi sohaslarida faoliyat yuritadilar.

Mas'uliyati cheklanmagangan firmalar-mol-mulki sherikchilik asosida egalik qilinadigan va olingan daromad qo'shgan hissasiga qarab taqsimlanadi firmalardir. Bunday firmada ko'rilgan zarar sheriklar tomonidan teng qoplanadi.

Mas'uliyati cheklangan firmalar-jamoa korxonasi bo'lib, uning mulki ta'sis etuvchilarning pay (hissa) mablag'i sosida tashkil etiladi. Bunda olingan daromad yoki ko'rilgan zarar qo'shgan hissasiga qarab tahsimlanadi yoki qoplanadi.

Davlat korxonalari-davlat mulki bo'lgan va uning nazorati ostida bo'lgan korxonalar. Mazkur korxonalar davlat va mahalliy hokimiyat organlariga qarashli bo'ladi va birgalikda davlat sektorini tashkil etadi.

Aralash korxona-turli mulk shakllariga taalluqli firmalar bo'lib, xususiy, davlat va jamoa mulkining aralash mablag'lari asosida tashkil etiladi. Ular sirasiga qo'shma korxonalarni ham kiritish mumkin. qo'shma korxonalar xorijiy va milliy kapitalning aralashuvida vujudga keladi.

Konsorsium-korxonalarning vahtincha tashkil etilgan birlashmalari. Ular odatda moliyaviy ishlar yuzasidan tashkil etilib, unga davlat, banklar, moliya investisiya kompaniyalari, yirik firmalar, har xil pul fondi tashkilotlari uyushadi.

Konsern-ishlab chiqarish, investisiya, moliya, texnika va tashqi iqtisodiy aloqalar sohasida birgalikda ish yuritishni ko'zlaydigan korxonalarining majmuasi hisoblandi. Firmalar shaxobchasi (filiali)- yirik firmalarning tarkibiy qismi bo'lib, mustaqillikka ega bo'lmaydi.

Firmalar ish ko'lamiga qarab kichik, o'rta va yirik biznesga ajratiladi.

O'zbekiston Respublikasida mavjud qonunchilik hujjatlariga muvofiq kichik va o'rta biznes (tadbirkorlik) korxonalari faoliyat ko'rsatadi. Ular xususiy tadbirkorlikda farqli, yuridik shaxs sifatida faoliyat ko'rsatishadi. qonunlarda belgilab qo'yilgandek, kichik va o'rta biznes korxonalarini toifalariga ajratish mezoniga ko'ra u yoki bu toifaga qarashlilik xodimlarining o'rtacha soni va faoliyat sohasiga qarab belgilanadi. Xususan o'rta korxonalarda xodimlarning maksimal soni 100 kishini, kichik korxonalarda –40 kishini, mikrofirmalarda esa-10 kishini tashkil qiladi.

Iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning birinchi boskichi (1991-1994 yy.) ma'muriy buyrukbozlik tizimining og'ir oqibatlarini yangisi, tanglika barxam beri shva iqtisodiyotni barqarorlashtirish hamda respublikamizning o'ziga hos sharoiti va hususiyatlarini hisobga olgan bozor munosabatlarining negizlarini shakllantirish vazifalarini hal qilishga kirishildi. Buning uchun quyidagilar amalga oshirildi.

1. Islohotlarning qonuniy-huquqiy bazasini yaratish, va rivojlantirish. Bu davrda ko'plab davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirish, tadbirkorlik haqida qonunlar ishlab chiqildi.
2. Kichik hususiylashtirishni amalga oshirish hisobiga ko'p ukladli iqtisodiyot negizlarini yaratish.

Bu davrda asosan savdo, aholiga maishiy hizmat qo'rsatish, mahalliy sanoat korxonalarini, uy-joylarni davlat tasarrufidan chikarish va hususiylashtirish amalga oshirildi. Natijada 69 mingdan ziyod davlat ob'ektlari davlat tasarrufidan chiqarildi, ulardan 18.4 mingtasi hususiy mulkka o'tdi. 3569 ta aksiyadorlik jamiyatlari tuzildi. Kichik va o'rta tadbirkorlik sub'ektlarining soni 80 mingga etdi.

Iqtisodiy islohotlarning ikkinchi bosqichida(1995-1997 yy.) davlat mulkining daslabki, kichik hususiylashtirishni tugatish, mulkni haqiqiy egalariga topshirish tadbirkorlik faoliyati uchun keng imkoniyatlar yaratish vazifalari belgilandi. Bu bosqichda ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlari paydo bo'la boshladi, ularning aksiyalari erkin sotuvga chikarildi hamda keng ko'lamdagi ko'chmas mulk va qiymatli qog'ozlar bozori vujudga keldi. Uchinchi boskichda (1998-2002), asosiy maksad kilib "Xususiy korxonalarining sonini ikki barobarga kupaytirish, yalpi milliy maxsulotda ularni baribir kupaytirib, yalpri milliy maxsulotda ularni ulushini oshirish, kamida 25 % etkazishga erishishimiz lozim" edi. Monopol korxonalar xisobidan kuplab mayda korxornalar vujudga keldi. Agar 1997yilda investorlar 450 ming nafar bulsa, 1999 yil urtalarida ular 750 ming kishidan oshib ketdi. (I.Karimov XXI asr bqsag'asida: Xafvsizlikka taxdid, barkarorlik shartlari va tarakkiyot kafolatlari. – T.: Uzbekistan, 1996. – b.33.)

Valyuta tizimi va bozorning davlat tomonidan qattiq nazorat qilinishi esa korxonalar va tadbirkorlarning tashqi bozorlarga erkin chiqish imoniyatini kamaytirardi. Bozor va ishlab chiqarish infratuzilmasining yaxshi ishlab chiqilmaganligi tufayli tadbirorlar moddiy texnika resurslari, moliyaviy mablag'lar, kreditlar olishda qiyinchiliklarga uchrar edi.

Ushbu noxush xolatlar iqtisodiy xayotni yanada erkinlashtirish, tadbirkorlik va iqtisodiy faoliyat erkinliklarini kengaytirish, hususiy mulkdorlar mavqeni yanada ko'tarishni taqozo etib qoldi.

Iqtisodiy xayotni yanada erkinlashtirish esa demokratik jamiyat qurishning asosi sifatida uning iqtisodiy negizlarini mustahamlashni ta'minlaydi. Uning natijasida jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni kafolotlovchi, iqtisodiy rivojlanishni ta'minlovchi amalda o'rta mukdorlar sinfi shakllanadi.

Ushbu vazifalarni xal etish uchun O'zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirishni yanada chuqurlashtirish tadbirlari olib borildi. 2000-2002 yillarda 3117 ta tarmoq tarkibini belgilab beruvchi yirik korxonalar, ijtimoiy-madaniy ob'ektlar davlat tassarufidan chiqarildi. SHu davrga kelib, aksiyadorlik jamiyatlar soni 6000 dan oshib ketdi.

Mulk shaklini o'zgartirgan davlat korxonalari orasida "Elektrokimyosanoat", "Navoiyazot", "Ammofos" kabi yirik korxonalar davlat nazoratidan xoli tarzda ish yurita boshlashdi.

Adabiyotlar:

O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. T. O'zbekiston. 2011.
Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-19 jildlar. T. O'zbekiston. 1996-2011.
Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – engilmas kuch. T.-Ma'naviyat. 2008.
Karimov I. A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T. O'zbekiston 2009 yil.
Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T. - O'zbekiston. 2010.
“Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”ni o'rganishga bag'ishlangan Respublika ilmiy–amaliy konferensiya materiallari. (2011 yil 16 mart). Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Milliy universiteti, “Siyosatshunoslik” kafedrası, Respublika “Kamolot” YOshlar ijtimoiy harakati,– T.: Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti. 2011. – 413 b.
Odilqoriev T., Razzoqov D. Siyosatshunoslik. Darslik. – T: O'qituvchi, 2011.

14 mavzu : Mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish institutlarini demokratiyalashuvi

Reja:

- 1. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda mahalliy hokimiyat va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining o'rni.**
- 2. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda demokratik tamoyillar asosidagi o'zini o'zi boshqarish tizimining tiklanishi va rivojlanishi.**
- 3. Prezident I.A.Karimov O'zbekistonda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ularni isloh qilishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida.**

Islom Karimov Oliy Majlisning to'qqizinchi sessiyasidagi «O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari»ga bag'ishlangan ma'ruzasida mamlakatimizda istiqlol yillarida Konstitusiyamizga muvofiq holda siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va ma'naviy sohalarni erkinlashtirish bilan bog'liq islohotlarni chuqur tahlil etdi.

Konstitusiyasining asosi hisoblanadi. Islom Karimov sobiqqironning «Kuch – adolatda» degan hikmatini yanada rivojlantirib, «Adolat – qonun ustuvorligida», deb ta'kidlar ekan, xuddi shu hayotiy tamoyilga qat'iy amal qilib yashashimiz zarurligi, biz uchun bundan boshqa yo'l yo'qligini alohida uqtiradi. Davlatimiz rahbari O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining o'n yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi «Hayotimizning, taraqqiyotimizning huquqiy asosi» nutqida qonun ustuvorligi – fuqarolik jamiyati kafolati haqidagi mazmunli fikr va mulohazalar bildirib, «... jamiyatimiz hayotida qonun ustuvorligiga erishish uchun hokimiyatning uch tarmog'i – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud xokimiyatining haqiqiy mustaqilligini ta'minlash zarur. SHundagina hokimiyat tarmoqlari orasida tom ma'nodagi muvozanat qaror topadi, sodda qilib aytganda, adolat tarozisi buzilmaydi. Avvalo, sud hokimiyati, sud organlari mustaqil bo'lib hammaga ham bir ko'z bilan qarashi – bu oddiy fuqaromi yoki mansabdor va amaldormi – har qanday holatda ham qonun ustuvorligining ta'minlanishiga erishishimiz darkor», – deb uqtiradi. Tabiiyki, kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish jarayoni Konstitusiya va boshqa qonunlarimiz asosida, qonun ustuvorligiga muvofiq ravishda kechmog'i darkor. SHu ma'noda, o'tgan yillarda qabul

qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, jamoat birlashmalari, kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, ommaviy axborot vositalari, nodavlat, notijorat tashkilotlari, vijdon erkinligi, saylovlar to'g'risidagi va boshqa bir qator qonunlar, Fuqarolik va Soliq, Oila va Bojxona Kodekslari kabi qonun hujjatlari mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muayyan konstitusiyaviy-huquqiy asoslari yaratilganidan va qonun ustuvorligini ta'minlashga kafolat bo'layotganligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar:

O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. T. O'zbekiston. 2011.

Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-19 jildlar. T. O'zbekiston. 1996-2011.

Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – engilmas kuch. T.-Ma'naviyat. 2008.

Karimov I. A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T. O'zbekiston 2009 yil.

Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T. - O'zbekiston. 2010.

Artikbaev O.S., Ganiev J.X. Siyosatshunoslik. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. – T., 2009.

Jumaev R.Z. va boshq. Siyosiy islohotlar strategiyasi. – T.: Akademiya. 2010.

“Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”ni o'rganishga bag'ishlangan Respublika ilmiy–amaliy konferensiya materiallari. (2011 yil 16 mart). Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Milliy universiteti, “Siyosatshunoslik” kafedrası, Respublika “Kamolot” YOshlar ijtimoiy harakati,– T.: Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti. 2011. – 413 b.

Odilqoriev T., Razzoqov D. Siyosatshunoslik. Darslik. – T: O'qituvchi, 2011.

15-mavzu.Fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish

Reja:

1.Fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish zaruriyati.

2.Nodavlat jamoat organlarining mustaqil O'zbekistondagi faoliyatlari va ularning huquqiy asoslari.

3.Siyosiy partiyalarning jamiyat hayotini demokratiyalashdagi o'rni.

Demokratik huquqiy davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish masalasi davrimizning o'ta muhim va dolzarb ilmiy-nazariy hamda siyosiy-amaliy ahamiyatga molik muammolaridan bo'lib, uning bunyod etilishi va faoliyat ko'rsatishi jamiyatimiz oldida turgan tarixiy vazifadir.

SHu boisdan ham O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining muqaddimasida «Insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etish ...» muhim vazifa etib qo'yilgan. Bu oliy maqsad mustaqil o'zbekistonda davlatchilik va huquqni rivojlantirish siyosatidan kelib chiqib, qator prinsiplar, omillar va shart-sharoitlar bilan belgilanadi. Ularning aksariyati demokratik huquqiy davlatni barpo etish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish jarayoniga ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ega. Agar prinsiplar o'zgarishsiz qoladigan bo'lsa, u holda omillarga birmuncha tuzatish kiritish taqozo etiladi. Siyosiy-huquqiy tabiatga ega

bo'lgan omil undan boshqaruv mexanizmi sifatida foydalanishga yo'l qo'yadi (agar qonun takomillashmagan bo'lsa, u bekor qilinadi yoki yangi tahrirda yoziladi). Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish prinsiplari davlat qurilishi prinsiplariga o'xshash bo'ladi. Davlat qurilishi prinsiplarining demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati prinsiplariga muvofiq kelishi omillari Prezidentimiz I.A.Karimovning besh tamoyilida o'z aksini topdi. Jumladan, «Iqtisod siyosatdan ustun bo'lishi kerak», degan tamoyilda teran mahno bor. Ushbu tamoyilga amal qilish iqtisodiyot va siyosat nisbatining aynan o'xshash tizimini shakllantiribgina qolmasdan, balki demokratik huquqiy davlat tushunchasidan ajratib bo'lmaydigan fuqarolik jamiyati asosini qaror toptiradi. Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi tamoyil fuqarolik jamiyatiga xos bo'lgan munosabatlar ustunligini shakllantirib, demokratik huquqiy jamiyatning institusional shart-sharoitlari va rivojlanish omillarini mustahkamlaydi. Boz ustiga xususiy mulkchilik institutlarini va tadbirkorlikning turli shakllarini rivojlantirish orqali bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish davri vazifalari bilan bog'liq usullarning huquqiy vositalarini hisobga olishni taqozo etadi. Demak, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning iqtisodiy omili demokratik huquqiy davlatni barpo etishda eng tahsirchan omillardan biridir. Bunda shartnoma shartlari yoki qonun asosiy mezon hisoblangan huquqiy o'zaro munosabatlar prinsiplariga aniq rioya qilish zarurligini hisobga olish lozim. Bunday munosabatlar qonun doirasidan tashqariga chiqsa, nizoli yoki boshqa huquqiy ahamiyatli munosabatlarni tartibga solish jarayonlariga hokimiyat va boshqaruv organlarining vakillari, uyushgan jinoyat unsurlaridan iborat kuchlar aralashsa qonunning ustuvorligi pasayadi. Bu holda tadbirkor demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati subhekti bo'lishi mumkin emas.

Xususiy mulkchilik shakllanayotgan jamiyatda qonun ustuvorligi demokratik huquqiy davlat qaror topishi va rivojlanishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Huquqiy tizimning rivojlanishi, uning demokratik huquqiy davlatga muqobilligi jamiyatda qonun ustuvorligi tamoyiliga qanchalik amal qilishiga bog'liq bo'ladi. Binobarin, aholining huquqiy madaniyati, insonlar huquq va erkinliklarining himoyalash darajasi, davlat mexanizmi ijro etuvchi tizimining barcha doiralarida, shu jumladan, davlatga bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lgan tashkilotlar va muassasalarda rahbarlik va boshqaruvning shakllangan uslubi, qarorlar qabul qilinishida va davlat amaldorlarining faoliyat ustidan nazorat qilishda fuqarolarning ishtiroki davlat funksiyalarining mazmuni, qonunchilikning, umuman olganda vakillik hokimiyati tizimining samaradorligi va demokratik xarakterdagi, ommaviy axborot vositalarining erkinligi va samarali ishlashi, huquqni himoya qilish organlari va boshqa tashkilotlar hamda birlashmalarining davlatga bog'liq emasligi, ma'naviy sohaning rivojlanganligi va boshqalar huquqiy davlat rivojlanishining muhim omillari hisoblanadi.

Huquqiy madaniyat ham demokratik huquqiy davlat rivojlanishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shubhasiz, bu omil demokratik huquqiy davlat rivojida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Ijtimoiy munosabatlar tizimida davlatning ishtiroki toraytirilishi

demokratik huquqiy davlatchilik rivojlanishi yo'lidagi salmoqli omillardan biri hisoblanadi. Bunda fuqarolik jamiyati shakllanishi va rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratuvchi davlat xolisona demokratik huquqiy boshqaruv apparatiga aylanadi. Tegishli mafkuraning shakllanishi ham demokratik huquqiy davlat rivojlanishining katta ahamiyatga ega bo'lgan omili hisoblanadi. Pirovard natijada, demokratik huquqiy davlat mafkurasini fuqarolar ongida muqobil huquqiy madaniyatni shakllantiradi, huquqiy davlat nazariyasini rivojlantiradigan kishilar ruhiyatida tegishli prinsiplar qaror topishi uchun intellektual muhit yaratadi. SHunday qilib, demokratik huquqiy davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning yuqorida ko'rsatib o'tilgan tashkiliy huquqiy prinsiplari va omillari bevosita Konstitutsiya va qonunlar ustunligiga asoslanishini alohida tahkidlash joiz. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati prinsiplarining amalga oshirilishi Konstitutsiya orqali ta'minlanadi. Konstitutsiya huquqiy layoqatni, huquqiy maqomni va majburiyatlarning huquqiy munosabatlar orqali amalga oshirishini belgilaydi. SHu o'rinda o'zida tegishli huquqning normalari, tizimini ifodalaydigan konstitusion huquqiy institutlar haqida ham so'z yuritish lozim. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining

15 va 16-moddalarida qonun ustuvorligi so'zsiz e'tirof etiladi. Jumladan, 15-moddada «O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlariga muvofiq ish ko'radilar», deyilsa, 16-moddada «Mazkur Konstitutsiyaning birorta qoidasi O'zbekiston Respublikasi huquq va manfaatlariga zarar etkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emas. Birorta ham qonun yoki boshqa normativ huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas», deb ko'rsatiladi. Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati prinsiplarining konstitusion mustahkamlanishini xalq hokimiyatining konstitusion huquqiy institutlarisiz tasavvur qilish qiyin. Binobarin, Konstitutsiyaning 7-moddasida «Xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbaidir» deb aniq bayon etilgan. Davlat hokimiyati xalq manfaatlari yo'lida va Konstitutsiya asosida qabul qilingan qonunlar bilan vakolat berilgan organlar tomonidan amalga oshiriladi. Konstitutsiyaning ushbu moddasi davlat qurilishi yo'nalishini tavsiflovchi siyosiy-huquqiy mazmunga ega. Gap shundaki, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati ijtimoiy qadriyat bo'libgina qolmay, shaxsning erkinligi, sha'ni, or-nomusini ta'minlash hamda himoya qilishning amaliy instituti — xalq hokimiyati mavjud bo'lishi shaklidir. Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatida xalq suvereniteti, yahni manbai bo'lgan xalq davlat hokimiyatining ustunligi, mustaqilligi, to'liqligi, yalpiligi va mutlaqligiga tayangan xolda amalga oshiriladi. o'z navbatida, davlat hokimiyati haqiqat, vijdon, to'g'rilik, erkinlik, adolat va hokozolarni aks ettiruvchi huquqiy normalar bilan bog'langan bo'lishi kerak. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 9-moddasida xalq institutining yuridik mustahkamlanganligi katta ahamiyatga egadir: «Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovozga (referendumga) qo'yiladi. Referendum o'tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi». Binobarin, 2001 yilning 6 dekabrda ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning ettinchi sessiyasi O'zbekiston Respublikasining referendumini o'tkazish to'g'risida tarixiy qaror qabul qildi. 2002 yilning 27 yanvarida

o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy vakolat muddatini besh yildan etti yilga o'zgartirish masalalari milliy davlatchilik institutlarini isloh qilishning konstitutsiyaviy taraqqiyot bosqichini boshlab berdi. Referendumda qabul qilingan qaror ijtimoiy hayotimizda ro'y berayotgan demokratik o'zgarishlarning yangi bosqichi bo'lib qoldi. Ushbu siyosiy voqea fuqarolarning mamlakatimiz mustaqilligiga bo'lgan munosabatini, bugungi ishonchlarni yorqin ifodalab berdi. Zero, bu bosqich Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan ilgari surilgan mustaqil O'zbekiston rivojlanishining tarkibiy qismi bo'lib qoladi. Yangi zamon talablariga muvofiq hokimiyat organlarining faoliyatini qonun bilan aniq tartibga solmay turib islohotlarni yanada chuqurlashtirish, jamiyatimiz hayotining barcha sohalarini erkinlashtirish bo'yicha oldimizda turgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal etib bo'lmaydi. Xalq tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan kuchli va adolatli hokimiyat, ijtimoiy yo'naltirilgan, rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy fuqarolik jamiyati, kelajagi buyuk davlatni barpo etishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Har qanday siyosiy voqea, agar mamlakat fuqarolarining ishonch va orzu-umidlarini aks ettirgan bo'ladi, natijada harakatlantiruvchi kuchga, taraqqiyot omiliga aylanadi. 2002 yilning 27 yanvarida bo'lib o'tgan referendum ayni ana shu jihatlari bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni referendum paytida xalq o'z xohishi-irodasini erkin ifoda etishga qodir ekanligini, ro'y berayotgan voqealarga munosabatini ochiq-oshkora namoyon etishini ko'rsatdi. Umumxalq referendumi orqali fuqarolar tafakkuri o'zgarayotgani, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ishtiroki faollashayotgani ayon bo'ldi. Fuqarolik jamiyati shakllanayotganligining yaxlit qiyofasi ko'z o'ngimizda yorqinroq namoyon bo'layotgan voqelikka aylandi. Birinchidan, bu galgi referendum butunlay yangi tarixiy tamoyillar mustahkamlanib borayotgan bir alfozda yaqin o'tmishga xos ortiqcha tashviqot va targ'ibot, da'vat – u, chaqiriqlarsiz o'tdi. Yaqin o'tmishdagi barcha saylovlarning xo'ja ko'rsin qabilidagi to'la yakdillik yoki bo'lmasa 99,9 foiz "qo'llab-quvvatlanganligi" shaklida emas, aksincha har bir fuqaro o'z mustaqil fikriga ega ekanligi, o'z xohish-irodasini ochiq namoyon qilishi mumkinligini, so'z erkinligi, xohish-irodani erkin izhor etish real voqelikka aylanayotganligini ko'rsatadi. Ikkinchidan, bu galgi referendum zo'rma-zo'raki, targ'ibot-tashviqotdan, boshqacha qilib aytganda fuqarolarning ovoz berishini tashkil etishdanko'ra ko'proq siyosiy-mahrifiy tushuntirish orqali odamlar ongi va tafakkurida o'zgarishlar yasash, ularning erkin jamiyatning ozod fuqarosi sifatida o'z o'rni, o'z so'ziga, o'z fikriga ega ekanligini ko'rsatish mavridi bo'ldi. Ilk bor mamlakat jamoatchiligi vakillaridan referendumga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishga ko'maklashuvchi tashabbuskor guruhlar tuzildi. Ular umumxalq ovozigacha qo'yilgan masalalar mohiyatini tushuntirish ishlarini olib bordilar. Uchinchidan, bu galgi referendum fuqarolarga o'z taqdirlarini jamiyat va davlat kelajagi timsolida ko'rish imkonini berdi. Ular ertangi kun uchun o'z mustaqil Vatanlarining kelajagi uchun ovoz berdilar. Ayni ana shu imkoniyat fuqarolarning aniq maqsad yo'lida hamkorlikda faoliyat ko'rsatib, o'z taqdiri jamiyat va davlat taqdiri bilan bevosita bog'liq ekanligini, umumiy maqsadlarni ifoda etgan muammolarga aniq-ravshan munosabat bildirish zarurligini ongli ravishda tushunganligini ko'rsatdi. To'rtinchidan, referendum o'tkazish shakli va usuli ham o'zgardi. Biz umumxalq ovoz berishining sinovlardan o'tgan eski shakllar va qoliplardan voz

kechdik. Referendum xalqimizning milliy xususiyatlari, ko'p asrlik an'analari, madaniyati, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini hisobga olgan holda tashkil qilindi. O'zbekiston ovoz berishning erkin, ozod, har qanday rasmiyatchilikdan xoli, sharqona vazminlik, oqillik, mulohazakorlik tamoyiliga asoslangan yo'lini tanladi. Masalalarni hal etish huquqi bevosita xalqning o'z ixtiyoriga berib qo'yildi. Ovoz berish natijalari esa mamlakatimiz fuqarolari umumxalq ovozigacha qo'yilgan masalalar bo'yicha o'z nuqtai nazariga ega ekanini, o'z mamlakatining taqdiriga befarq, loqayd emasligini ko'rsatdi. Beshinchidan, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 7-moddasida ta'kidlanganidek, xalq davlat hokimiyatlarining birdan-bir manbaidir. Bo'lib o'tgan referendum esa ana shu tamoyil nechog'lik hayotiy ekanligini yana bir bor tasdiqlab berdi. Ijtimoiy turmushning barcha sohalarini xalqning o'zi idora etayotganligiga har bir fuqaro yana bir bor ishonch hosil qildi. Bu esa referendumning eng katta yutug'idir. Oltinchidan, referendum sharqona demokratiyaning yangi ko'rinishi bo'ldi. U mamlakat aholisining jamiyat hayoti bilan chambarchas bog'liqligi ko'rsatkichi, fuqarolar dunyoqarashi va tafakkuri yangilanayotganligi, millat va mamlakat taqdiriga dahldorlik ko'rigi bo'ldi. Ayni paytda shunchaki ovoz berishdan iborat o'tmish illatlari yo'qolib borayotganligini, mustaqil O'zbekiston fuqarosi masalalarga yuzaki yondoshmasligini, ovoz berish mas'uliyatini chuqur tushunganligini ko'rsatdi. Ovoz berganlarning 8 foizidan ortig'i referendumga olib chiqilgan masalalarga qarshi ovoz berdilar. Lekin bu mamlakatimiz fuqarolari orasida kimdir mustaqillik g'oyasi va amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoniga qarshi degan gap emas. Masalaga mutlaqo boshqacha tarzda, kengroq va adolatliroq yondashish bilangina uning mazmunini to'g'ri va aniq anglash mumkin. Qarshi ovoz berganlar ham aslida mustaqillik tarafdori, bosh islohotchi sifatida davlat yurgizayotgan siyosatni to'la qo'llab-quvvatladilar. Faqat ular davlat boshqaruvining hozirgi mavjud tizimi asosida ish olib borilishini ma'qul ko'rishdi, xolos. Bu chinakamiga demokratiyaning o'ziga xos ko'rinishi, jamiyat hayotida yuz berayotgan siyosiy, ma'naviy, ijtimoiy yangilanishlarning samarali natijasidir. Demokratik sharoitda aholi davlat hokimiyatining shakllanishi va faoliyat ko'rsatishda bevosita ishtirok etadi. Adolatli demokratik davlatni barpo etishning har tomonlama asosli, huquqiy poydevori yaratildi. Demokratiya nafaqat siyosiy yoki huquqiy hodisa, ayni paytda u yuksak ma'naviy-axloqiy holat hamdir. U avvalo yuksak ma'naviyat, axloqiylik, madaniyat, shaxs kamoloti, har bir fuqaroning maxnaviy-axloqiy qadriyatlari bilan belgilanadi. Demokratiya, shaxs erkinligi va jamiyatni biz yaxlit bir organizm shaklida tasavvur etmog'imiz kerak. Demokratiyani chuqurlashtirish omillaridan biri —ko'ppartiyaviylikdir. Siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlari turli ijtimoiy guruhlar manfaatini himoya qila olsagina, o'z a'zolarini ham himoya qila oladilar. Biroq, undan ham ulug'roq manfaatlar — xalq, jamiyat, davlat manfaati singari oliy ehtiyojlar ham borki, bu barcha siyosiy partiyalarning g'oyalari va mafkuralari umumiy yig'indisidan, turli qarashlarning uyg'unligidan kelib chiqadi. Referendum natijalari buni yaqqol ko'rsatdi. Jamoatchilik fikrining qay darajadaligini bilish, uni shakllantirish va takomillashtirish shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Aynan ijtimoiy fikr jamiyatning siyosiy va ma'naviy qiyofasini belgilaydi, davlat siyosatining qanchalik hayotiy

va adolatli ekanligini, xalq manfaatlari va ehtiyojlariga qanchalik uyg'un ekanligini ko'rsatdi. Fuqarolarning jamiyat hayotidagi faol ishtiroki demokratik jarayonlar chuqurlashayotganligidan dalolat beradi. Faqat o'zaro ishonch, bir-birini tushunish, umummilliy masalalarni hamkorlikda hal etish va qo'llab-quvvatlash asosidagina zo'ravonlik, to'rachilik va totalitarizm usullaridan voz kechish mumkin. Siyosiy madaniyat, siyosiy ong tushunchalari darajasi jamiyat hayotida inson ishtirokining qandayligini belgilaydi. Zotan, siyosiy madaniyat va siyosiy ong yuksak bo'lgan joyda odamlar hokimiyat ishida faol ishtirok etishadi. qarorlar va qonunlarning qanday qabul qilinishi, uning ijrosi qanday nazorat qilinayotganligini kuzatib borishadi, munosabat bildirishadi. O'z hayotlariga dahldor ma'muriy organlar belgilayotgan tadbirlarga, ko'rsatilayotgan choralarga befarq qarashmaydi. Aksincha, ularni tayyorlashda ishtirok etishadi. Natijada qarorlar va qonunlar ijrosiga o'zlari manfaatdor sifatida mas'uliyatni his qilishadi. Aholining siyosiy faolligini kuchaytirish jamiyatdagi turli ijtimoiy kuchlar manfaatlari o'rtasida muvozanatni ta'minlaydigan kuchli mexanizmlarni shakllantirish imkonini beradi. Bu mexanizm eng avvalo, jamiyatni erkinlashtirish orqali odamlarning umumxalq fikri asosida qabul qilinadigan qarorlarga munosabatini o'zgartirishni, yaqin o'tmishga xos dunyoqarashimizda o'rnashib qolgan soxta ovoz berishlar kabi siyosiy o'yinlardan voz kechishni taqozo etadi. Odamlar o'z manfaat va maqsadlarini amalga oshirish, haq-huquqlarini himoya qilish uchun davlatni boshqaruvda ovoz berish orqali ishtirok etish zarurligini chuqur anglaydilar. Jamiyat taraqqiyotiga dahldorligini belgilovchi omil – ovoz berish huquqi orqali har bir fuqaro siyosiy faol sifatida o'zini ko'rsatadi, siyosiy hayotga, jamiyat taraqqiyotiga dahldor ekanligini namoyon etadi. SHu ma'noda yaqinda bo'lib o'tgan referendum jamiyatimizni jiddiy siyosiy, ma'naviy, ijtimoiy rivojlantirish natijasi bo'ldi. Inson haq-huquqlarini himoya qilish, uning ehtiyojlarini qondirishda davlat qurilishi, boshqaruv tizimi va jamiyatni erkinlashtirish alohida ahamiyatga ega. Bu borada Prezidentimiz Islom Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridayoq strategik maqsadlarimiz aniq-ravshan ifodalab, davlat o'z vakolatlarini asta-sekin, bosqichma-bosqich jamoat tashkilotlari zimmasiga o'tkaza borishi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini oshirish orqali demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish zarurligini aytgan edilar. Ana shu tamoyilning o'zi fuqarolarning bir jihatdan erkinligi va ozodligini ta'min etsa, ikkinchi tomondan ularda hayotni izga solishga, demakki, davlatni idora etishga ishtiyoqni kuchaytiradi. Asta-sekinlik bilan har bir fuqaro jamiyat hayotining barcha sohalarga dahldor, uning oldida burchli va mas'uliyatli ekanligini anglab boradi. Bu mamlakatda amalga oshirilayotgan siyosiy, huquqiy, iqtisodiy islohotlar singari inson ongi va dunyoqarashini isloh qilish, yangi jamiyat fuqarosini shakllantirish imkonini beradi. O'zbekistonni rivojlantirishning davlatimiz rahbari ilgari surgan asosiy tamoyillaridan yana biri — qonun ustuvorligini ta'minlashdir. Bu ayni insonparvar demokratik huquqiy davlatning va fuqarolik jamiyatining bosh prinsipidir. Zotan, inson manfaatlari himoya qilingan, fuqarolar huquq va erkinliklari kafolatlangan jamiyatni qonunlar boshqaradi. Qonun ustuvorligi esa tom ma'nodagi demokratiyadir. Ana shu prinsiplardan kelib chiqsak, referendum natijalari asosida qator qonunlarni qaytadan ko'rib chiqish hayotiy zarurat ekanligi ayon bo'ladi. Ana shu o'rinda tabiiy savol tug'iladi: nega biz amaldagi qonunlarga qo'shimchalar

va o'zgartirishlar kiritamiz? Buning uchun quyidagi real zaruratdan kelib chiqadigan hayotiy, ijtimoiy, huquqiy asoslar bor. Birinchidan, o'tish davrida hamma vaqt islohotlar jarayoni va yangilanishlar ko'lami fuqarolar tasavvuridan oldinroq yuradi. O'zgarayotgan jamiyat, yangilanayotgan hayot ehtiyojlari bir necha yil oldin qabul qilingan qonunlarga o'zgartirish kiritishni taqozo etadi. Demak, ijtimoiy – siyosiy jarayonlar shiddati ong va tafakkurimizdagi o'zgarishlardan ko'ra oldinroq yuradi. Qonunda esa bu yangilanishlar va islohotlar o'z o'rnini, huquqiy asosini topishi kerak. Ikkinchidan, jamiyat o'zgarishi bilan ijtimoiy hayot, odamlarning dunyoqarashi tubdan yangilanadi. Qonunchilik tizimining o'zi ham vaqt o'tgan sari o'z-o'zini yangilab borishi tabiiy hol. Bu kelajakka qat'iy ishonch bilan qarash, yutuqlarni mustahkamlab, kamchilik – nuqsonlarni bartaraf etishga, taraqqiyot omillarini kengaytirishga qarab harakat qilish natijasidir.

X bobning 44-moddasida esa quyidagi konstitutsiyaviy qoida aks ettirilgan: «Har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor, jamoat birlashmalarining g'ayri-qonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi

kafolatlanadi». Bunda sud va sud himoyasi, shuningdek, inson huquqlari bo'yicha vakil (Ombudsman)ning suddan tashqari himoyasi instituti ham institusional kafolatlar sirasiga kirishini qayd etish zarur. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 116-moddasiga muvofiq advokatning malakali yordamidan foydalanish mumkinligi huquq va erkinliklarining muhim kafolati hisoblanadi. Sudning mustaqilligi konstitutsiyaviy prinsipi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Oliy Majlisga Konstitutsiyaviy, Oliy sud va Oliy xo'jalik sudi raislari nomzodlarini tavsiya etishi va ularning keyinchalik Oliy Majlis tomonidan saylanishi tartibi bilan ta'minlanadi. Bundan tashqari, Konstitutsiyaning 93-moddasiga muvofiq Prezidentning viloyat, tuman, shahar va xo'jalik sudlari sudb'ylarini tayinlash va lavozimlaridan ozod qilish vakolati sudb'yalarga hokimiyat va boshqaruv mahalliy organi vakillari tomonidan tazyiq o'tkazilishi uchun shart-sharoitlarni istisno qilish imkonini beradi. Konstitutsiyaning 106-moddasida sudb'yalarning mustaqilligi prinsipi aks ettirilgan: «O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi

va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi». Bundan tashqari, Konstitutsiyaviy sud a'zolari hokimiyatning vakillik organlarida qatnashishi, siyosiy partiyalar va harakatlar faoliyatida ishtirok etishi, boshqa haq to'lanadigan lavozimni egallashi ta'qiqlanadi (18-modda, 3-4-xat boshilar). «Konstitutsiyaviy sud sudb'yalari dahlsizlik huquqidan foydalanadilar. Konstitutsiyaviy sud sudb'yalari o'z faoliyatlarida mustaqildirlar va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga bo'ysunadilar» (108-modda 5-6-xat boshilar). Konstitutsiyaviy sudning qarorlari qat'iy va ular ustidan shikoyat qilish mumkin emas (109-modda 5-xat boshi). Nihoyat 112-modda quyidagilarni belgilaydi: «Sudb'ylar mustaqildirlar, faqat qonunga bo'ysunadilar. Sudb'yalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi». Bu moddaga muvofiq Oliy sud va oliy xo'jalik sudi raislari va a'zolari Oliy Majlisning deputatlari bo'la olmaydilar, sudb'ylar, shu jumladan tuman sudb'yalari siyosiy partiyalar va

harakatlarning a'zosi bo'lishlari va boshqa haq to'lanadigan lavozimni egallashlari mumkin emas. YUqoridagilardan ko'rinadiki, Konstitusiyaviy sud va sud hokimiyatining butun tizimi demokratik va huquqiy hisoblanadi. Konstitusiyaviy sud nazorat muassasasi hisoblangan holda mazmunan Konstitusiyaviy odil sudlov hisoblanadi va qonun chiqaruvchi hamda ijroiya hokimiyat hujjatlarining qonunlariga muvofiqligi va Konstitusiyaviyligi ustidan nazorat olib borib, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati prinsiplarini ta'minlashni o'z zimmasiga oladi. SHuningdek, demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatining Konstitusion institutiga prokuratura ham kiritilgan va qonuning ustuvorligini ta'minlashi lozim.

Adabiyotlar:

O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. T. O'zbekiston. 2011.

Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-19 jildlar. T. O'zbekiston. 1996-2011.

Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – engilmas kuch. T.-Ma'naviyat. 2008.

Karimov I. A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T. O'zbekiston 2009 yil.

Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T. - O'zbekiston. 2010.

Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. – T.: O'zbekiston, 2011.

Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T. - O'zbekiston. 2011.

Artikbaev O.S., Ganiev J.X. Siyosatshunoslik. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. – T., 2009.

Jumaev R.Z. va boshq. Siyosiy islohotlar strategiyasi. – T.: Akademiya. 2010.

“Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”ni o'rganishga bag'ishlangan Respublika ilmiy–amaliy konferensiya materiallari. (2011 yil 16 mart). Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Milliy universiteti, “Siyosatshunoslik” kafedrası, Respublika “Kamolot” YOshlar ijtimoiy harakati,– T.: Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti. 2011. – 413 b.

Odilqoriev T., Razzoqov D. Siyosatshunoslik. Darslik. – T: O'qituvchi, 2011.

16-mavzu. Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash.

Reja:

1.Axborot erkinligini ta'minlash tushunchasi, mazmuni

2.Axborot resurslaridan foydalanish mexanizmlarini rivojlantirish.

3. Ommaviy axborot vositalarining fuqarolik jamiyati institutlari tizimidagi o'rni va roli.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2010 yil 12 noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida bayon etgan **“Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”** nomli ma'ruzasida ushbu mavzu batafsil yoritib berilgan bo'lib unda bir qator qonunlarni kiritish taklif qilingan.

«Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqqligi to'g'risida» qonunni qabul qilish - Qonun fuqarolarning axborot sohasidagi konstitusiyaviy huquqini yanada kengroq amalga oshirish imkoniyatini yaratib berish bilan birga, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining qabul qilinayotgan qarorlar sifatini oshirish borasidagi mas'uliyatini ham ko'p jihatdan kuchaytiradi.

Ushbu qonun davlat hokimiyati organlari faoliyati haqida jamoatchilikni xabardor qilib borish tartiblarini aniq belgilab berishi, aholining, jamoat birlashmalarining davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar, avvalambor fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlar bilan bog'liq qarorlar haqidagi axborotlardan keng xabardor bo'lib borishini ta'minlashi lozim.

Mazkur qonunning joriy etilishi ijro hokimiyati organlari faoliyatining, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning, davlatning ichki hamda tashqi siyosatining ochiqqligi va oshkoraligini, mamlakatimiz va xorijda kechayotgan voqea-hodisalar xususida fikrlar xilma-xilligi va siyosiy plyuralizmni hisobga olgan holda, ta'minlashi zarur.

«Teleradioeshittirishlar to'g'risida» qonunni qabul qilish Ma'lumki, hozirgi vaqtda ushbu sohadagi faoliyat ommaviy axborot vositalari, radiochastota spektri, telekommunikasiyalar, axborotlashtirish to'g'risidagi qonunlarning muayyan moddalar bilan tartibga solib kelinmoqda.

SHu bilan birga, teleradioeshittirishlar sohasini mustaqil qudratli industriya sifatida qayta tashkil etish, teleradioeshittirishlarning yangi shakl va turlarining paydo bo'lishi teleradiodasturlarni tayyorlash va uzatish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlarni tizimli va keng ko'lamli ravishda tartibga soladigan yaxlit qonunni kuchga kiritish zaruratini tug'dirmoqda.

Ushbu qonunning qabul qilinishi teleradiodasturlarni tayyorlash va tarqatish sohasida raqobatni yanada kuchaytirish, teleradiodasturlarni uzatish borasida mobil va raqamli televidenie kabi ilg'or zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, teleindustriyaning istiqbolli yangi tarmoqlarini tashkil qilish uchun zarur sharoitlarni yaratish imkonini beradi.

Bu qonun milliy teleradioeshittirishlar tizimi faoliyatini huquqiy tartibga solish mexanizmlarini va moliyalashtirish manbalarining erkinligi va mustaqilligi kabi prinsiplarini belgilab berishga, radiochastotalarni olish uchun o'tkaziladigan tanlovlarning demokratik va oshkoraligini ta'minlash, teng raqobat va elektron media-bozor tarmoqlarining monopollashuviga yo'l qo'ymaslik uchun sharoit yaratish va boshqa bir qator muammolarni echishni nazarda tutadi.

«Ommaviy axborot vositalari faoliyatining iqtisodiy asoslari to'g'risida», «Ommaviy axborot vositalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash kafolatlari to'g'risida»gi qonunlarni qabul qilish.

Bu qonunlar axborot bozori ishtirokchilari faoliyati samaradorligini kuchaytirish va ularning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish, qo'shimcha iqtisodiy preferensiyalar yaratish va milliy axborot makonini izchil rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan boshqa tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

«Ommaviy axborot vositalari to'g'risida», «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida»gi va boshqa bir qator qonun hujjatlariga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritish Bunda, xususan, davlat va jamoat birlashmalari axborot xizmatlari, media-tuzilmalar ishini faollashtirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlarni ko'zda tutish lozim. Ommaviy axborot vositalarining axborot olish yuzasidan murojaatlarini ko'rib chiqish muddatlarini qisqartirish, axborot olish sohasidagi qonunchilik talablarini buzganlik uchun yuridik va mansabdor shaxslarning ma'muriy javobgarligini kuchaytirish va boshqa chora-tadbirlarni ta'minlashga qaratilgan huquqiy mexanizmlar ustida ish olib borish zarur.

SHu bilan birga, siyosiy modernizasiya jarayonlarida tobora muhim ahamiyat kasb etib borayotgan zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan davlat va jamiyat qurilishi tizimida keng foydalanish lozim.

Ommaviy axborot vositalari (OAV) hozirgi zamon kishisiga siyosiy muhitdagi o'z o'rnini chinakamiga to'liq anglab etish imkonini beruvchi vositalardan biri bo'lib hisoblanadi. Odamlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati va xulq-atvori OAV tomonidan yaratilgan axborot maydoniga ham bog'liqdir. SHu o'rinda E.Dennisning «OAV tafakkurimizni shakllantiradi, fikrlarimiz va qarashlarimizga ta'sir ko'rsatadi, ma'lum xulq-atvor turlariga, masalan, ma'lum nomzod uchun ovoz berishimizga turtki beradi»²¹[21], degan fikrni keltirish o'rinli bo'ladi.

Fuqarolik jamiyati sharoitida ommaviy axborot vositalari demokratik institut sifatida jamiyatning o'zini o'zi boshqarishining asosiy kafolatlaridan biridir. U axborot etkazish va axborot bilan ta'minlash vositasi funksiyasini bajarishdan tashqari jamiyatdagi mavjud muammolarni bartaraf etishda xam muhim ahamiyat kasb etadi. SHuningdek, ular mustaqil siyosiy kuch sifatida hokimiyat tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning jamiyat manfaatlariga uyg'un bo'lishiga ta'sir ko'rsatadi. OAVning ana shu funksiyalarni bajarishi uning fuqarolik jamiyatining muxim instituti ekanligini ifodalaydi.

Demokratik qadriyatlar asosidagi OAV faoliyatining huquqiy asoslari "Inson huquqlari umujahon Deklarasiyasi", "Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga fakultativ protokol" da boshqa xalqaro huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan.

Ommaviy axborot vositalari maxsus texnika vositalari yordamida axborotlarni oshkora va ochiq tarzda kuzatish maqsadida tashkil etilgan muassasalar tizimidir. OAV televidenie, radio, matbuot, kino, ovoz yozish, tasvirga olish, ommaviy ma'lumotnomalardan iboratdir. SHuningdek, OAV – fuqarolar manfaatlarini vakillik tizimi unsuri hamdir. CHunki, u aholi, manfaatlarini va ehtiyojlarini ifoda etishning betakror mexanizmi sifatida siyosiy qatlamlar va rasmiy institutlarning doimiy diqqat markazida turadi. Bir vaqtning o'zida OAV jamiyatni boshqarish tuzilmasi unsuri va jamiyatning ma'rifiyligini ta'minlash tizimining tarkibiy qismidir.

O'zbekistonda Milliy mustaqillik yillarida qabul qilingan qonunlar va huquqiy me'yoriy hujjatlarda xalqaro huquqiy aktlar talablariga xar tomonlama javob bera oladigan demokratik prinsiplar asos qilib olindi. SHuning uchun ham mamlakatdagi OAV faoliyati qisqa davr ichida demokratik qadriyatlar asosida butunlay yangidan qurildi. Mustaqillik arafasidayoq, ya'ni 1991 yilning 14 iyunida "Ommaviy axborot vositalari" to'g'risida"gi qonun qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning IX sessiyasidagi ma'ruzasida ommaviy axborot vositalarini erkinlashtirish fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishdagi eng muhim ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilanishi va bu jarayonning uzviy tarkibiy qismiga aylanishi lozimligining alohida ta'kidlanishi OAVni O'zbekistonda xam "to'rtinchi xokimiyat" sifatida e'tirof etilishini anglatadi.

OAV fuqarolik jamiyati hayotida mustaqil institut sifatida faoliyat yuritir ekan, bu jarayonda ular hokimiyatni tashkil etishda ishtirok etadigan siyosiy sub'ektlar – davlat, uning qonun chiqaruvchi, ijro va sud xokimiyatlari, siyosiy partiyalar va

boshqa ijtimoiy – siyosiy tashkilotlar bilan bevosita munosabatlarda bo'ladi. OAVning jamiyat hayotida tutgan o'rni, davlat va jamiyatga nisbatan ta'sir doirasi ana shu munosabatlar zahirida shakllanadi.

O'zbekistonda OAVni jamiyat manfaatlari bilan davlat manfaatlari uyg'unlashtirish instituti sifatidagi maqomini oshirishga katta e'tibor berilmoqda. Milliy matbuot markazining tashkil etilishi va mintaqalarda uning filiallarini ochilishidan ko'zlangan eng asosiy maqsad ham jamiyatda ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga molik voqea va hodisalarni OAV vakillari ishtirokida tahlil etish, siyosiy institutlar – vazirliklar, yirik uyushma va kompaniyalar hayotidagi yangiliklarni keng jamoatchilik e'tiboriga havola etishdan iboratdir.

Adabiyotlar:

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T. O'zbekiston. 2011.

Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-19 jildlar. T. O'zbekiston. 1996-2011.

Karimov I.A. Bunyodkorlik, yangilanish, mexr-muruvvat yo'li. Prezident I.A.Karimovning 2012 yil 21 mart Navro'z umumxalq bayramiga bag'ishlab so'zlagan nutqi. T.// Xalq so'zi. 2012 yil 22 mart.

Karimov I.A. Inson xotirasi - boqiy, qadr-qimmati – ulug'. Prezident I.A.Karimovning 2012 yil 9 may- Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlab so'zlagan nutqi. T.// Xalq so'zi. 2012 yil 10 may.

Nosirxo'jaev S., Safarboev M., Sultonov K. Siyosatshunoslik fanidan ko'rgazmali metodik qo'llanma. – T., 2007.

Odilqoriev X.T. Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik. T., 2008.

Xolbekov A., Jumaev R., Umarova N. va boshqalar "Boshqaruvning ijtimoiy- siyosiy yo'nalishlari" - T.; G'. G'ulom, 2008.

Artikbaev O.S., Ganiev J.X. Siyosatshunoslik. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. – T., 2009.

Jumaev R.Z. va boshq. Siyosiy islohotlar strategiyasi. – T.: Akademiya. 2010.

"Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"ni o'rganishga bag'ishlangan Respublika ilmiy–amaliy konferensiya materiallari. (2011 yil 16 mart). Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Milliy universiteti, "Siyosatshunoslik" kafedrası, Respublika "Kamolot" YOshlar ijtimoiy harakati,– T.: Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti. 2011. – 413 b.

Odilqoriev T., Razzoqov D. Siyosatshunoslik. Darslik. – T: O'qituvchi, 2011.

17-mavzu. (Seminar mashg'uloti)

O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligida demokratik tamoyillarga asoslanishi.

Reja.

1.O'zbekiston va jahon hamjamiyati. Umuminosoniy qadriyatlar tizimida tashqi siyosatning o'rni.

2.Markaziy Osiyodagi demokratik jarayonlar va davlatlararo hamkorlik takomillashtirishda O'zbekistonni roli.

3.O'zbekistonning demokratik qadriyatlariga sodiqligi jahon hamjamiyatidagi obro'sini kafolatidir.

O'zbekiston va jahon hamjamiyati. Umuminosoniy qadriyatlar tizimida tashqi siyosatning o'rni.

Umuminosoniy qadriyatlar tizimida tashqi siyosatning o'rni XX asrning ohirlariga kelib sovuq urush davri tugagandan so'ng jahonda uchta tamoyil ustunlik qila boshladi. Birinchisi taraqqiy etgan rivojlanib kelayotgan davlatlarga demokratik institutlarning tartib-qoidalarining tobora rivojlanib borishda AQSH, Evropa davlatlari, Yaponiya kabi mamlakatlar bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari, fuqarolik jamiyati qoidalari asosida demokratiyani joriy etishdi. Mamlakatlarda amalga oshiralayotgan siyosat va isloxotlarni demokratlash, rivojlantirishga, inson huquqlarini ta'minlashga, aholini davlat ishlariga keng jalb qilishga, siyosiy xur fikrlarini ta'minlashga, erkin saylovlarini o'tkazishga, aholini hukumt qabul qilayotgan qarorlardan doimo xabardor qilishga, ya'ni davlat va uning organlari ustidan jamoatchilik nazorti o'rnatishga qaratilgan. Diqqatga sazovorli tomoni shundaki, bunda birinchi navbatda hamma faoliyat ham davlatning ham fuqarolarning qonun oldida tengligi ta'minlangan.

Ikkinchi tamoyil esa, dunyo mamlakatlari orasidagi munosabatlar demokratik qadriyatlar ta'sirida borgan sari umuminosoniy ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakt o'rtsidagi aloqalarda sun'iy ravishda o'rnatilgan tartib-qoidalarini o'zaro hamkorlik, madaniy, siyosiy, iqtisodiy jihatdan yaqinlashishning, tolerantlik siqib chiqarmoqda. Dunyo bo'yicha yagona informasion hududni, yagona demokratik qadriyatlarni shakllantirish jarayonlari jadal kechmoqda. Bularning natijasida jahon bo'yicha globallashuv yuz bormoqda.

Uchinchi tamoyil esa yuqoridagi tamoyillar natijasida davlatlar o'rtasidagi aloqalar borgan sari integrasiyalashib bormoqda. Turli davlatlar turli mintaqalarda o'zlarning tayyorgarlik va imkoniyatlariga mos ravishda iqtisodiy jihatdan (masalan EI, ATR, NATA) harbiy-siyosiy jihatdan (NATO), siyosiy jihatdan (EXIQT, MDX), iqtisodiy jixatdan (EI, MXT, SHOS) integrasiyalari vujudga keldi va rivojlanib bormoqda.

SHunday sharoitda O'zbekiston Respublikasi jaxon xamjamiyatiga mustaqil davlat sifatida kirib keldi va o'z milliy manfaatlari asosida jarayonlarga qo'shilib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 10 martdagi qarori bilan tasdiqlangan tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy sohalaridagi isloxotlarining ustuvor yo'nalishlarini ro'yobga chiqarish bo'yicha konsepsiyaga muvofiq, Tashqi ishlar vazirligi oldiga strategik vazifa-O'zbekistonning bundan keyingi barqaror rivojlaninishi uchun qulay shart-sharoitlarini yaratish va xalqaro maydonda uning mafaatlarini himoya qilish vazifasi qo'yilgan.

Prezident I.A.Karimov joriy yilning boshida Oliy Majlis qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma yig'ilishidagi ma'ruzasida ta'kidlagandek, "davlatimiz tashqi siyosatining asosiy maqsadi, mohiyati va mazmuni - bu O'zbekistonning manfaatlari va yana bir bor O'zbekistonning manfaatlaridir".

Ushbu fundamental ko'rsatmaga asoslangan holda tez o'zgaruvchan vaziyatda, alohida olingan mamlakatlarda va umuman, mintaqada vaziyatni beqarorlashtirilgan xavf-xatar saqlanib qolayotgan bir sharoitda Tashqi ishlar vazirligi asosiy diqqat-e'tiborni milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashga qaratmoqda. SHu vazifa hisobga olingan holda SHanxay Hamkorlik Tashkiloti doirasida birgalikda harakat qilish faollashdi. Bu boradagi aniq natijalar qatorida taqiqlangan terrorchilik, ayirmachilik va ekstremistik tashkilotlar va bu turdagi jinoyatlari uchun

qidirilayotgan shaxslarni ro'yxatlarni tuzish bo'yicha O'zbekiston ilgari surgan tashabbus qo'llab - quvvatlanginini ko'rstib o'tish mumkin. BMT ga a'zo davlatlarning terrorchilik, ayirmachilik va ekstremizmga qarshi kurashdagi hamkorlik Konsepsiyasi tasdiqlanadi. Tashkilot bilan munosabatlarda kompleks yondashuvni ta'minlash maqsadida respublikada BMT masalalari bo'yicha doimiy idoralararo muvofiqlashtiruvchi komissiya tuzish mo'ljallanmoqda.

Taqiqlangan terrorchilik va ekstremistik tashkilotlarning ro'yxati Markaziy Osiyo Hamkorlik Tashkiloti (MOHT) doirasida ma'qulangan, MOHT davlatlari raxbarlarining shu yil oktyabrida bo'ladigan sammitida uning yakuniy tasdiqlanishi rejalashtiril-

moqda. SHu bilan bir paytning o'zida MDHga a'zo mamlakatlar e'tiboriga ham shunday ro'yxatni havola etish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Toshkentda giyoxvandlikka qarshi kurash bo'yicha Markaziy Osiyo mintaqaviy axborotni muvofiqlashtirish Markazini tashkil etish yuzasidan O'zbekiston tashabbusi bilan bog'liq me'yoriy hujjatlarini BMT doirasida kelishib olish ishlari yakuniga etmoqda.

Markaziy Osiyodagi demokratik jarayonlar va davlatlararo hamkorlik takomillashtirishda O'zbekistonni roli.

MDH institutlarini isloh qilish bo'yicha O'zbekiston turli tashabbuslarni izchillik bilan ilgari surilayotir. O'tgan avgust oyida Qozondagi sammitda Hamkorlikni rivojlantirishning modelini belgilash va Konsepsiya ishlab chiqish to'g'risidagi mamlakatimiz taklifi qabul qilindi. SHuningdek, 2005-2007 yillarida terrorizm va ekstremizmning boshqa zo'ravonlik ko'rinishlariga qarshi kurashda MDH mamlakatlari hamkorlikning Dasturi hamda "MDH mamlakatlarining kelishilgan chegara siyosati Konsepsiyasi to'g'risida" gi qo'shma qarori imzolandi. Ikki tomonlama asosda mintaqaviy xavfsizlik sohasidagi xamkorlikni rivojlantirish bo'yicha Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federasiyasi, Hindiston, Pokiston va boshqa mamlakatlar bilan aniq maqsadga yo'naltirilgan qadamlar qo'yildi, xarbiy va huquqni muhofaza qilish organlari o'rtasida axborot almashish bo'yicha hamkorlikni muvofiqlashtirish jarayoni kengaymoqda. Terrorizm, ekstremizm va narkotrafikka qarshi kurash bo'yicha O'zbekiston-Hindiston ishchi guruhi samarali mexanizm bo'lib qolishi kutilmoqda. Mazkur guruxning ikkinchi yig'ilishining joriy yil oxirigacha o'tkazish rejalashtirmoqda. Bu boradagi ishlar Evropa yo'nalishida ham davom etmoqda.

Xavfsizlik tizimini mustaxkamlashning muhim omili ommaviy qirg'in qurollarini tarqatmaslik hisoblanadi. Mintaqaviy ekspert guruhi fevralda Toshkentda bo'lib o'tgan sammitda Markaziy Osiyoni yadro qurolidan holi hudud qilish to'g'risidagi shartnoma matni kelishib olindi.

Xalqaro tashkilotlardagi davlatning doimiy vakillik instituti XX asrning boshlarida paydo bo'lgan. Ilk bor xalqaro tashkilotlardagi davlatning doimiy vakillik instituti Millatlar Ligasi tashkil etilishi bilan kiritilgan. Millatlar Ligasi statusining 7-modda 4-qismida quyidagi holat aks ettirilgan: "Liga a'zolari vakillari va uning agentlari o'zlarining majburiyatlarini bajarayotganda diplomatik imtiyoz va immunitetlardan foydalanadi".

Xalqaro tashkilotlardagi davlat vakillik institutining keyingi rivojlanishi Birlashgan Millatlar Tashkilotining tashkil etilishiga borib taqaladi. BMT Ustavining 105-modda 2-qismida belgilanishicha, “Tashkilot a’zolari vakillari va uning mansabdor shaxslari, shuningdek, Tashkilot faoliyati bilan bog’liq bo’lgan, o’zlarining vazifalarini mustaqil bajarishda muhim bo’lgan imtiyoz va immunitetlardan foydalanadi”.

BMT Ustavi qabul qilinganidan so’ng davlatlarning vakillik instituti rivojlanishining keyingi bosqichi BMTning 1946 va 1947 yillarda qabul qilingan imtiyoz va immunitetlar to’g’risidagi ikkita konvensiyasi bilan bog’liq: ya’ni, 1946 yil 13 oktyabrdagi Birlashgan Millatlarning imtiyoz va immunitetlar to’g’risidagi ikkita konvensiya va 1947 yil 21 noyabrdagi Maxsuslashtirilgan tashkilotlarning imtiyoz va immunitetlar to’g’risidagi konvensiyadir. Keyinchalik, xalqaro tashkilotlardagi davlat vakilligi institutiga 1948 yil 3 dekabrda BMT Bosh Assambleyasining 257 (III) Rezolyusiyasi maxsus yo’naltirilgan.

1957 yil 13 martda Venada universal xarakterdagi davlatlar vakilligi, uning xalqaro tashkilotlar bilan munosabati to’g’risida Konvensiya qabul qilindi. Professor I.I.Lukashukning Ta’kidlashicha: “Konvensiyaning qabul qilinishi xalqaro tashkilotlarning, hamda xalqaro organlardagi davlatlar delegatsiyasi va kuzatuvchilarining o’rni va soni o’sishi bilan bog’liq”. Professor E.A.SHibaeva vakillik institutini normativ ta’minlash to’g’risida ta’kidlashicha, bu sohada xalqaro tashkilotlarda davlatlar vakolatxonasining (va ular xodimlarining) xalqaro-huquqiy maqomini belgilab beruvchi yagona xalqaro hujjat bo’lmagan. 1975 yilgi Vena Konvensiyasi bu bo’shliqni to’ldirib bergan.

SHunday qilib, ta’kidlash mumkinki, bugungi kunda xalqaro tashkilotlardagi davlatlar vakolatxonalari o’zining manba bazasiga ega, ularni 1946 va 1947 yillardagi BMT Konvensiyalari, 1975 yildagi Vena Konvensiyasi, shuningdek, xalqaro tashkilotlarning o’z ta’sis hujjatlari tashkil etadi.

O’zbekistonning demokratik qadriyatlariga sodiqligi jahon hamjamiyatidagi obro’sini kafolatidir.

Bugungi kunda O’zbekistonda demokratik jarayonlarni xar tomonlama rivojlantirishga e’tibor berilmoqda. CHunki, demokratik qadriyatlarning qanchalik rivojlanishi, davlatni, xalqni shunchalik taraqqiyotga olib kelmoqda. Demokratik qadriyatlarni himoyalash esa muhim ahamiyatga ega. SHuning uchun O’zbekiston tashqi siyosatining eng muhim yo’nalishlaridan biri-mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash, xalqlar tinchligiga raxna soluvchi terrorizmning har qanday ko’rinishlariga qa’tiy kurash olib borishdan iborat.

BMT Xavfsizlik Kengashi raisi Bosh assambleyada “Afg’onistondagi vaziyat” masalasi ko’rib chiqilishi munosabati bilan 1999 yil 22 oktyabrda Kengash a’zolari nomidan Bayonot e’lon qildi. Unda afg’on mojarosini tinch yo’l bilan xal etish yo’llari ko’rsatib berilgan Toshkent Deklaratsiyasi qo’llab - quvvatladi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov BMT Bosh Assambleyasining 48 sessiyasida so’zlagan nutqida Markaziy Osiyoning yadrosiz zona, deb e’lon qilish tashabbusini ilgari surdi. Ushbu fikrlar asosida shuni ta’kidlab o’tish kerakki, mamlakatimiz barcha chegaradosh qo’shnilari bilan ikki tomonlama xavfsizlikka asoslangan shartnomalarni imzolagan. Mana shunday nazariy va amaliy qadamlar natijasida bugungi kunda davlatimiz mustaqilligini 170 dan ortiq

mamlakatlar tan oldi. Ularning 120 nafari bilan diplomatik munosabatlar o'rnatilgan. O'zbekistonda 43 davlat va 20 ta yirik xalkaro tashkilot missiyalari akkreditasiya qilingan. O'z navbatida, O'zbekiston 40 dan ortiq tashkilotlar va 500 dan ortiq halqaro huquq sub'ektlari bilan xamkorlik qilmoqda.

SHunday qilib, xozirgi kunda O'zbekiston jahon xamjamiyatida munosib o'rin egalladi va Markaziy Osiyodagi etakchi davlat sifatida e'tirof etilmoqda. Bunday obro'-e'tibor tarixiy davlatchiligimiz, ma'naviyatimiz va oldimizga qo'ygan maqsadlarimizga xamoxangdir. O'zbekiston o'zining tinchiliksevar, barqarorlikka asoslangan tashqi siyosatini davom e'ttiradi. Buning uchun etarli siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy imkoniyatlari mavjud.

XX asrning oxirgi choragida dunyoda sodir bo'lgan siyosiy o'zgarishlar tufayli davlatlarning tashqi siyosati, uning mazmuni va xarakteri to'g'risida qarashlar o'zgardi. Davlatlar tashqi siyosatida ikki ijtimoiy-siyosiy tizim yoki "kapitalizm bilan sosializm" lageri, "o'zaro kuch ishlatish", iqtisodiy, siyosiy, xarbiy hokimlikka erishish, tazyiq ko'rsatish, mamlakat ichidagi nizomlarni qo'llab-quvvatlash, mafkuraviy yo'llar bilan emas, balki davlatning suverenitetini tan olib, xalqaro huquq normallariga tayangan holda, halqlarning erkinligini hurmat qilish asosida tashqi siyosat olib borish amaliyotiga o'tilmoqda.

Adabiyotlar:

O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. T. O'zbekiston. 2011.

Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-19 jildlar. T. O'zbekiston. 1996-2011.

Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – engilmas kuch. T.-Ma'naviyat. 2008.

Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T. - O'zbekiston. 2011.

Karimov I.A. Bunyodkorlik, yangilanish, mexr-muruvvat yo'li. Prezident I.A.Karimovning 2012 yil 21 mart Navro'z umumxalq bayramiga bag'ishlab so'zlagan nutqi. T.// Xalq so'zi. 2012 yil 22 mart.

Karimov I.A. Inson xotirasi - boqiy, qadr-qimmati – ulug'. Prezident I.A.Karimovning 2012 yil 9 may- Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlab so'zlagan nutqi. T.// Xalq so'zi. 2012 yil 10 may.

Nosirxo'jaev S., Safarboev M., Sultonov K Siyosatshunoslik fanidan ko'rgazmali metodik qo'llanma. – T., 2007.

Odilqoriev X.T. Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik. T., 2008.

Xolbekov A., Jumaev R., Umarova N. va boshqalar "Boshqaruvning ijtimoiy- siyosiy yo'nalishlari" - T.; G'. G'ulom, 2008.

Artikbaev O.S., Ganiev J.X. Siyosatshunoslik. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. – T., 2009.

Jumaev R.Z. va boshq. Siyosiy islohotlar strategiyasi. – T.: Akademiya. 2010.

"Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"ni o'rganishga bag'ishlangan Respublika ilmiy–amaliy konferensiya materiallari. (2011 yil 16 mart). Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Milliy universiteti, "Siyosatshunoslik" kafedrası, Respublika "Kamolot" YOshlar ijtimoiy harakati,– T.: Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti. 2011. – 413 b.

Odilqoriev T., Razzoqov D. Siyosatshunoslik. Darslik. – T: O'qituvchi, 2011.

Xulosa

SHuni alohida ta'kidlash lozimki, ushbu ma'ruzalar matni Siyosatshunoslik hamda O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanlarining dolzarb masalalarini o'z ichiga olganligi bilan ahamiyatlidir.

Mazkur fan ijtimoiy qator siyosiy fanlar tizimida asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Uning paydo bo'lishi, shakllanishi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Siyosiy qarashlar va ta'limotlarni vujudga kelishi hamda rivojlanishi har bir davrda o'ziga hos tarzda namoyon bo'lgan va ushbu jarayon bugungi kunda ham davom etmoqda. Turli davrlarda yuzaga kelayotgan har-hil muammolarning siyosiy echimlarining mazmun-mohiyati hususida to'htalib o'tilgan.

Siyosatshunoslik fani, siyosiy xokimiyat, siyosiy tizim, siyosiy hayot va jarayonlarni tahlil etishda, o'tmish, hozirgi zamonning rivojlanish bosqichlarini ko'rsatib berishda muhim o'ringa ega. SHu jumladan, bugungi kunda dolzarb masalalardan biri, ya'ni mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyatini yaratish aholining siyosiy savodhonligini oshirish borasida qilinayotgan qator islohotlarning siyosiy mohiyati to'g'risida ham atroflicha ma'lumotlar keltirilgan.

Siyosiy hayotni o'rganishda aholining siyosiy madaniyati, siyosiy mafkurasi, huquqiy tafakkuri va ongini yuksaltirishda katta ahamiyat kasb etadi. SHu bilan birga halqaro tizimlar va umumbashariy taraqqiyotning siyosiy muammolarini o'rganish hamda O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi, dunyo arenasida o'ziga hos o'rinni egallashi kabi masalar atroflicha yoritilgan.

Politologiya fani o'zining rivojlanish yo'liga ega, mustaqillik esa bunga yangi va yangi imkoniyatlarni ochib bermoqda. Bu fan siyosiy tahlil, yangi siyosiy g'oya, fikr va qarashlarni, siyosiy jarayonlarning yutuqlarini, ayni vaqtda uning murakkablik echimini siyosiy jihatdan ko'ra olish, mamlakatimizda hamda dunyo umumbashariy barqarorligini ta'minlashga, hususan siyosiy fanlar rivojiga, ma'naviyat milliy g'oyani insonlar ongiga singdirishda o'z hissasini qo'shadi.

Qisqacha siyosiy lug'at

Absolyutizm - lat. chegaralanmagan monarxiya

Avtonomiya – grek. o'zini boshqarish

Agressiya - lat. bosqin

Anarxiya – grek. xokimiyatsizlik

Apellyasiya – lat. e'tiroz, shikoyat

Aristokratiya – grek. ozchilik xokimiyati

Burjuaziya – fr. mulkdorlar qatlami

Deklarasiya - lat. ariza, e'lon

Demokratiya - grek. xalq xokimiyati

Demokratizasiya - demokratlashtirish jarayoni

Diversiya - lat. qo'poruvchilik, buzg'unchilik

Diktator - lat. cheklanmagan xokimiyat egasi

Impichment - ingl. javobgarlikka tortishning o'ziga xos tartibi

Integrasiya - lat. ma'lum qismlarning bir butunga birlashishi

Intervensiya - lat. bir davlatning boshqa davlat ishlariga aralashuvi

Interpol – halqaro jinoiy polisiya tashkiloti

Kapitulyasiya - lat. qarshilikni to'xtatish xaqida kelishuv

Konvensiya - lat. asosan halqaro kelishuv

Konversiya - lat. valyutani erkin almashinuvi

Kongress - lat. uchrashuv, yig'in, majlis
Konsensus - lat. kelishuvli qaror
Konservator- lat. an'anaviychilik tarofdori
Konstitutsiya - lat. tizim, qaror
Konfederasiya - lat. kelishilgan birlashuv
Konsepsiya - lat. muayyan masala bo'yicha qarashlar tizimi
Korrupsiya - lat. poraxo'rlik
Kriminal - lat. jinoyat
Legitimasiya - lat. qonunlashtirish
Leyboristlar - ingl. ingliz ishchilar partiyasi
Liberalizm - lat. ozodlik
Magistrat -lat. shaxar boshqaruvi
Makiavellizm – maqsadga erishish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanish
Mandat - lat. vakolat
Manifest - lat. yozma murojat
Manipulyasiya – turli vaziyatlar
Mafiya - it. uyushgan jinoiy tashkilot
Metropoliya - grek. mustamlakachi davlat
Milisiya - lat. qo'shin
Nato – shimoliy atlantika harbiy ittifoqi
Oligarxiya - grek. ozchilik xukumronligi
Parlament – fr. qonun chiqaruvchi organ
Patriotizm - grek. vatanparvar
Politika - grek. siyosat
Prezident - lat. tanlangan boshliq
Radikalizm - lat. murosasizlik
Respublika - lat. umumxalq ishi, xokimiyat turi
Referendum - lat. umumhalq ovozig qo'yish
Reket - ingl. qo'rqitish orqali talab qilish
Senat - lat. yuqori davlat organi, aslzodalar yig'ini
Separatizm - fr.bo'linishga xarakat
Spiker - ingl. quyi palata raisi
Terrorizm – ingl. qo'rqitish
Totalitarizm - lat. to'liq xukumronlik
Fashizm - it. dasta, bog'lam
Federasiya – ittifoq, birlashma
SHovinizm - fr. milliy avfzallikni targ'ib qiluvchi oqim
Elita - fr. saralangan